

ASQAR NIGMATOV

EKOLOGIYANING NAZARIY ASOSLARI



TOSHKENT – 2013

21.53

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Asqar Nigmatov

**EKOLOGIYANING NAZARIY
ASOSLARI**

*Oliy va o'rta maxsus ta'limgazit vazirligi tomonidan
5630100 – «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish»
(tarmoqlar bo'yicha) bakalavr yo'naliishlari hamda
5A630102 – «Ekologiya» (tarmoqlar bo'yicha) magistratura
mutaxassisligidagi talabalar uchun o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti
Toshkent – 2013



Nigmatov A.

N 53 Ekologyaning nazariy asoslari: o'quv qo'llanma / A.Nigmatov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. — 268 b.

UO'K: 574(075)

KBK: 20.1(54)

F—I—121. «Milliy kasbiy ta'lilda uzlucksiz ekologik ta'lif tizimining nazariy asoslarini yaratish» fundamental loyihasini bajarish yuzasidan chop etilayotgan ushbu o'quv qo'llanmada ilk bor Markaziy Osiyoda ekologyaning ilmiy-nazariy asoslari ochib berilgan.

O'quv qo'llanma, umumiy ekologiya yoki ekologiya asoslari yo'nalishida chop etilgan o'quv adabiyotlaridan farqli ravishda, falsafaning fan va fanlar metodologiyasida baracha fanlar uchun qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan tarzda bayon etilgan. Unda hozirgi kunda yuzaga kelayotgan tabiat-jamiyat munosabatlarining ilmiy tahriri, ekologyaning tushunchasi, obyekti, predmeti, metodologiyasi, metodlari, konsepsiyalari va prinsiplari, muammolari va ularni nazariy jihatdan hal etish yo'llari bayon etilgan. Eng asosiyi ekologiya mustaqil fan, ta'lif va amaliyot yo'nalishi ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Qo'llanma takrorlash uchun savollar va topshiriqlar, glossariy hamda jadval-rasmlar bilan boyitilganligi, ya'ni ta'lifning zamонавиyl talablaridan keng ko'lamda qo'llanilganligi bilan ajralib turadi.

Mas'ul muharrir:

A.S. Yuldashev — Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Biologiya-tuproqshunoslik fakulteti Botanika, o'simliklar fiziologiyasi va ekologiya kafedrasi mudiri, b.f.d., professor.

Taqrizchilar:

S.S. Sanginov — O'zbekiston Ekologik harakati Markaziy ijroiya Kengashi raisi, f.f.d., professor.

B.Sh. Ismoilxo'jayev — TIMI Gidromelioratsiya fakulteti Ekologiya va suv resurslarini boshqarish kafedrasi professori, b.f.d.

R.T. Kulmatov — Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU professori, k.f.d.

Tabiiy fanlar sohasida... ilmiy ishlarni tanqidiy ko'z bilan qarab chiqish zarur. Birinchi navbatda fundamental, nazariy tadqiqotlar – izlanishlarni qo'llab-quvvatlash ... kerak.

Islam Karimov

MUQADDIMA

Ko'pgina fanlarda bo'lgani kabi «Ekologiya»ning ham hanuzgacha o'z yechimini topmagan ilmiy-nazariy asoslari mavjud. Aynan, fundamental nazariy asos muayyan fan yoki fanlar tizimining mazmun va mohiyatini, uni boshqa fanlardan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarini, unga oid ta'lif, tarbiya va kadrlar tayyorlash siyosatini aniqlaydi, tarixi, hozirgi holati va rivojlanish bosqichlarini tasniflash kabi fundamental jihatlarini ochib beradi. Nazariya esa qotib qolgan dogma emas, u zamonga mos ravishda o'zgaradi, rivojlanadi va takomillashib boradi.

Hammamizga ma'lumki, barcha fanlarning «ildizi» falsafaga borib taqaladi. Falsafada nazariya – bilimning biror-bir sohasiga oid g'oyalar tizimi yoki voqeilik qonuniyatları va undagi muhim aloqalar haqida bir butun tasavvur beradi-gan bilim shakli. Nazariyaga nisbatan falsafiy qarash ekologiya nazariyasiga oid qarashlarni yoki qarashlar konsepsiyasini shakkantirishda quyidagi elementlarga, to'g'rirog'i, yo'naltiruvchi qoidalalar-prinsiplarga e'tiborimizni qaratishga chaqiradi: tajribadan kelib chiqish; voqe va hodisalarga chuqurroq kirib borish; yangi g'oyalarni avvaldan ko'ra bilish; amaliyot bilan uzviy bog'lanish; gipoteza yaratish; gipotezani hayotda isbotlash; ilmiy bashoratlash. Nazariya amaliyot bilan uzviy bog'landagina u yashovchan bo'ladi, harakat va rivojlanish quroliga aylana oladi. Ekologiya nazariyasida, uning ilmiy asoslarini ochib berishda ham biz aynan yu-qorida sanab o'tilgan prinsipial qoidalarga amal qilishga harakat qilamiz.

Fundamental davlat loyihasi asosida bajarilgan ushbu o'quv qo'llanmada ilk bor «Ekologiya»ning ilmiy-nazariy asoslarini ochib berishga intildik. O'quv qo'llanma, «Umumiy ekologiya» yoki «Ekologiya asoslari» yo'nalishida chop etilgan o'quv adabiyotlaridan farqli ravishda, «Falsafa»ning fan metodologiyasi-dagi yangi fan uchun qo'yiladigan talablaridan kelib chiqqan tarzda bayon etilgan. Unda hozirgi kunda yuzaga kelayotgan tabiat-jamiyat munosabatlарining ilmiy tahriri, ekologiyaning tushunchasi, obyekti, predmeti, metodologiyasi, metodlari, konsepsiyalari va prinsiplari, muammolari va ularning nazariy jihatlari bayon etilgan. Eng asosiysi, o'quv qo'llanmada «Ekologiya» mustaqil fan sohasi, ta'lif yo'nalishi va amaliyot tarmog'i ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Biz tomonidan yaratilgan avvalgi o'quv adabiyotlarda bo'lgani kabi qo'llanmada mavzuga oid sitatalar, turli shakl va ko'rinishdagi jadval hamda rasmlar, takrorlash uchun savollar va topshiriqlar, glossariy, Internet web saytlari bilan bo'yitilganligi, ya'ni ta'lifning zamонавиј талабларидан кенг qo'llanilganligi bilan ajralib turadi.

Ekologiyaning ilmiy-nazariyasiga oid tadqiqotlar juda kam bo'lgani uchun ham ushbu o'quv qo'llanma o'zining optimal holatiga yetgan, deya olmaymiz. Uni takomillashtirish Siz va bizning kelajakdagи dolzarb vazifalarimizdan biridir.

*Har nechuk ilmdan eshitsang bir so'z,
Uni timmay o'rgan kecha-yu kunduz.
Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Shunda bilursan, ilm bepayon.*
Abdulqosim Firdavsiy

1-bob. TABIAT-JAMIYAT MUNOSABATLARI VA ULARNI UYG'UNLASHTIRISH ZARURATI

1.1. Tabiat, inson, jamiyat, davlat va hamjamiyat munosabatlari

Asrlar davomida buyuk allomalar tabiat, inson, jamiyat va hamjamiyat nima, ular o'rtaasida qanday aloqadorlik bor va u qanday bo'lishi kerak, degan savolga javob qidirib kelganlar¹. Inson tirik organizm sifatida boshqa tabiiy obyektlardan tubdan farq qilishi hamda uning buyuk kuch-qudrati, odamzodni alohida bir mavjudod sifatida qarashga olib keldi. Ayniqsa bunday dunyoqarash XX–XXI asrlar, ya'ni ilmiy-texnika inqilobi davriga kelib juda avjiga chiqdi. «Tabiat ustidan g'alaba»ga erishgan inson barcha ilm-u fan tarmoqlarida alohida bir kuch-qudrat sifatida qaraladigan bo'ldi. Lekin u aslida alohida bir «individ» yoki hech kimga bo'ysunmaydigan «hokim» emas, balki tabiatning bir bo'lagi, «tabiat oshxonasining bir anjomidir». Insonni hech qachon tabiatdan va uni o'rab turuvchi atrof-muhitdan ajratib bo'lmasligiga shu kunda barcha progressiv aholining ishonchi hosil bo'ldi.

Falsafada *tabiat – obyektiv borliq, ya'ni bizni o'rab turuvchi olam va uning xilma-xil shakkllari*, deb tushuniladi. Amaliyotda yoki tabiiy fanlarda esa uni va barcha tirik organizmlarning ehtiyojlарини qondirish manbai bo'lgan atrof-muhit deb qaraladi. Falsafa yoki astronomiya nuqtayi nazaridan qaraganda son-sanoqsiz yulduzlar, osmon va uning cheksiz kengliklari, albatta, inson ishtirokisiz kelib chiqqan va tabiiyidir. Lekin organizmlar, jumladan insonlar ham o'zlarining kundalik hayotiy faoliyatlarida ulardan foydalanmaydilar va ulardagi jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydilar. Balki barcha tirik mavjudod o'zlarini o'rab turuvchi havo (to'g'rirog'i, atmosfera havosi), suv, yer, tuproq, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiat ne'matlaridan «oldi-orqasi»ga qaramasdan foydalanadilar va ularga ijobiy, aksariyat holarda salbiy ta'sir etadilar.

¹ Н.Ф. Реймерс. Надежды на выживание человечества: Концептуальная экология. – М.: «Россия молодая». – Экология., 1992. С. 214–282.

Inson Yer kurrasining jonli qobig'i biosferada yashovchi organizmlar turkumiga kiruvchi, lekin murakkab hayotiy faoliyat yurituvchi individir. U ongingin yuqoriligi, nutqining rivojlanganligi, ijodiy faolligi, takomillashgan mehnat qurollarini yaratishi, axloqiy, ma'naviy hamda ruhiy o'z-o'zini anglay olishi bilan boshqa tirik organizmlardan tubdan ajralib turadi. *Insonni boshqa insonlar bilan ma'lum bir hududda tarixan qaror topgan guruhi yoki uyushmasi jamiyatdir.* Xuddi ana shu insonlar jamoasi tabiat bilan o'zaro juda ta'sirchan munosabatda bo'ladi.

Insonning yakka o'zi uncha katta kuch emas, ammo ularning ongli ravishda biron-bir maqsadni ko'zlab, takomillashtirilgan mehnat qurollaridan foydalangan tarzda uyushgan holdagi jamoasining, ya'ni jamiyatning tabiatga bo'lgan munosabati ko'p narsani belgilab beradi. Agarda jamiyat o'z kundalik ehtiyojlarini qondirishni faqatgina tabiatdan izlashni maqsad qilib olsa, atrof tabiatda juda sezilarli darajada salbiy o'zgarishlar sodir bo'lishi hech gap emas. Aksincha, ushbu jamiyat kuchi tabiatni asrashga, undan oqilonha foydalanish va buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklashga qaratilgan bo'lsa, u holda atrof tabiiy muhitda ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelishi ham mumkin.

Insonlarning, to'g'riroq'i fuqarolarning muayyan ma'muriy hududda uyushgan qismi, ya'ni *davlat* orqali salbiy yoki ijobiy jarayonlarga huquq orqali ta'sir etishi tabiatni, xususan atrof tabiiy muhitni keskin o'zgartirib yuborishi muqarrardir. Lekin atrof tabiiy muhitni ma'lum bir mamlakatda, salbiy yoki ijobiy o'zgarishi hozirgi ilmiy-texnik inqilob davrida, albatta, o'zga davlat yoki davlatlarga, ya'ni *hamjamiyatga* bevosita bog'liqligi isbot talab etmaydi. Bunga Chernobil AES falokatinning global miqyosdagi atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini yoki Janubiy Amerikadagi Amazonka daryo havzasidagi tropik o'rmonzorlarning Yer planetasi atmosfera havosiga ijobiy ta'sirlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Xullas, inson, jamiyat, davlat va hamjamiyat o'zaro uzviy bog'langan, biri ikkinchisidan, ikkinchisi uchinchisidan, uchinchisi to'rtinchisidan yoki aksincha kelib chiqadigan kishilik jamiyatining turli shakllaridir. Ular doimo atrof tabiiy muhit bilan uzviy bog'langan.

Yana bir atamaga qo'llanmaning boshidanoq aniqlik kiritib olishimizga to'g'ri keladi. Insonlarni o'rab turuvchi tabiatni turli adabiyyotlarda, ommaviy axborot vositalarida turlicha — «*atrof-muhit*», «*atrof tabiiy muhit*», «*insonlarni o'rab turuvchi muhit*», «*insonlarning yashash muhiti*», deb ataydilar. Xo'sh, qaysi bir ibora ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan to'g'ri? Albatta, yuqorida nomlari keltirilgan iboralarni turlicha ishlatalishi tabiiy hol. Chunki, har bir muallif o'zining ixtisosli-

*Har nechuk ilmdan eshitsang bir so'z,
Uni tinmay o'rgan kecha-yu kunduz.
Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Shunda bilursan, ilm bepayon.*

Abdulqosim Firdavsiy

1-bob. TABIAT-JAMIYAT MUNOSABATLARI VA ULARNI UYG'UNLASHTIRISH ZARURATI

1.1. Tabiat, inson, jamiyat, davlat va hamjamiyat munosabatlari

Asrlar davomida buyuk allomalar tabiat, inson, jamiyat va hamjamiyat nima, ular o'rtaida qanday aloqadorlik bor va u qanday bo'lishi kerak, degan savolga javob qidirib kelganlar¹. Inson tirik organizm sifatida boshqa tabiiy obyektlardan tubdan farq qilishi hamda uning buyuk kuch-qudrati, odamzodni alohida bir mavjudod sifatida qarashga olib keldi. Ayniqsa bunday dunyoqarash XX-XXI asrlar, ya'ni ilmiy-texnika inqilobi davriga kelib juda avjiga chiqdi. «Tabiat ustidan g'alaba»ga erishgan inson barcha ilm-u fan tarmoqlarida alohida bir kuch-qudrat sifatida qaraladigan bo'ldi. Lekin u aslida alohida bir «individ» yoki hech kimga bo'ysunmaydigan «hokim» emas, balki tabiatning bir bo'lagi, «tabiat oshxonasining bir anjomidir». Insonni hech qachon tabiatdan va uni o'rab turuvchi atrof-muhitdan ajratib bo'lmasligiga shu kunda barcha progressiv aholining ishonchi hosil bo'ldi.

Falsafada *tabiat — obyektiv borliq, ya'ni bizni o'rab turuvchi olam va uning xilma-xil shakkllari*, deb tushuniladi. Amaliyotda yoki tabiiy fannlarda esa uni va barcha tirik organizmlarning ehtiyojlarini qondirish manbai bo'lgan atrof-muhit deb qaraladi. Falsafa yoki astronomiya nuqtayi nazaridan qaraganda son-sanoqsiz yulduzlar, osmon va uning cheksiz kengliklari, albatta, inson ishtirokisiz kelib chiqqan va tabiiydir. Lekin organizmlar, jumladan insonlar ham o'zlarining kundalik hayotiy faoliyatlarida ulardan foydalanmaydilar va ulardagi jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydilar. Balki barcha tirik mavjudod o'zlarini o'rab turuvchi havo (to'g'rirog'i, atmosfera havosi), suv, yer, tuproq, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiat ne'matlaridan «oldi-orqasi»ga qaramasdan foydalanadilar va ularga ijobjiy, aksariyat hol-larda salbiy ta'sir etadilar.

¹ Н.Ф. Реймерс. Надежды на выживание человечества: Концептуальная экология. — М.: «Россия молодая». — Экология., 1992. С. 214–282.

Inson Yer kurrasining jonli qobig'i biosferada yashovchi organizmlar turkumiga kiruvchi, lekin murakkab hayotiy faoliyat yurituvchi individdir. U ongingin yuqoriligi, nutqining rivojlanganligi, ijodiy faolligi, takomillashgan mehnat qurollarini yaratishi, axloqiy, ma'naviy hamda ruhiy o'z-o'zini anglay olishi bilan boshqa tirik organizmlardan tubdan ajralib turadi. *Insonni boshqa insonlar bilan ma'lum bir hududda tarixan qaror topgan guruhi yoki uyushmasi jamiyatadir.* Xuddi ana shu insonlar jamoasi tabiat bilan o'zaro juda ta'sirchan munosabatda bo'ladi.

Insonning yakka o'zi uncha katta kuch emas, ammo ularning ongli ravishda biron-bir maqsadni ko'zlab, takomillashtirilgan mehnat qurollaridan foydalangan tarzda uyushgan holdagi jamoasining, ya'ni jamiyatning tabiatga bo'lgan munosabati ko'p narsani belgilab beradi. Agarda jamiyat o'z kundalik ehtiyojlarini qondirishni faqatgina tabiatdan izlashni maqsad qilib olsa, atrof tabiatda juda sezilarli darajada salbiy o'zgarishlar sodir bo'lishi hech gap emas. Aksincha, ushbu jamiyat kuchi tabiatni asrashga, undan oqilonqa foydalanish va buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklashga qaratilgan bo'lsa, u holda atrof tabiiy muhitda ijobji o'zgarishlar yuzaga kelishi ham mumkin.

Insonlarning, to'g'rirog'i fuqarolarning muayyan ma'muriy hududda uyushgan qismi, ya'ni *davlat* orqali salbiy yoki ijobjiy jarayonlarga huquq orqali ta'sir etishi tabiatni, xususan atrof tabiiy muhitni keskin o'zgartirib yuborishi muqarrardir. Lekin atrof tabiiy muhitni ma'lum bir mamlakatda, salbiy yoki ijobjiy o'zgarishi hozirgi ilmiy-texnik inqilob davrida, albatta, o'zga davlat yoki davlatlarga, ya'ni *hamjamiyatga* bevosita bog'liqligi isbot talab etmaydi. Bunga Chernobil AES falokatinning global miqyosdagagi atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini yoki Janubiy Amerikadagi Amazonka daryo havzasidagi tropik o'rmonzorlarning Yer planetasi atmosfera havosiga ijobjiy ta'sirlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Xullas, inson, jamiyat, davlat va hamjamiyat o'zaro uzviy bog'langan, biri ikkinchisidan, ikkinchisi uchinchisidan, uchinchisi to'rtinchisidan yoki aksincha kelib chiqadigan kishilik jamiyatining turli shakllaridir. Ular doimo atrof tabiiy muhit bilan uzviy bog'langan.

Yana bir atamaga qo'llanmaning boshidanoq aniqlik kiritib olishimizga to'g'ri keladi. Insonlarni o'rab turuvchi tabiatni turli ada-biyotlarda, ommaviy axborot vositalarida turlicha — «*atrof-muhit*», «*atrof tabiiy muhit*», «*insonlarni o'rab turuvchi muhit*», «*insonlarning yashash muhit*», deb ataydilar. Xo'sh, qaysi bir ibora ilmiy-amalii nuqtayi nazardan to'g'ri? Albatta, yuqorida nomlari keltirilgan iboralarni turlicha ishlatilishi tabiiy hol. Chunki, har bir muallif o'zining ixtisosli-

gi, yozma asarining kimlarga bag‘ishlanganligi va hattoki uning kasbiy mahorati hamda ilmiy darajasiga qarab mazkur iboralarni turlicha ifoda etishi mumkin. Nima bo‘lganda ham biz ushbu iboralarga ilmiy izoh berishga harakat qilamiz.

Birinchidan, agarda yoritilayotgan masala insonlarning tabiatga nisbatan yo‘naltirilgan munosabat shakllariga qaratilgan bo‘lsa «atrof tabiiy muhit» so‘zlar birikmasini ishlatish maqsadga muvofiq. Chunki insonlarni nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy va shunga o‘xshash turli muhitlar o‘rab turadi. Ushbu muhitlardan tabiyyisini ajratib olish maqsadida biz uni «*atrof tabiiy muhit*» so‘zi orqali ifoda etishni to‘g‘ri deb bilamiz.

Lekin atrof tabiiy muhitni keskin o‘zgarib ketishi ma’lum bir hududlar yoki mintaqalarda siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy muhitlarni ham o‘zgartirib yuborishi mumkin. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Yevropada sanoat gurkirab o‘sdi, ushbu mintaqada aholi haddan ziyod ko‘payib, jamiyat va davlatning iqtisodiy-siyosiy talablari tabiat qonuniyatlarini inkor eta boshladи. Natijada, atrof tabiiy muhit izdan chiqdi, insonlarning yashashi og‘irlashdi, kasalliklar ko‘paya boshladи va shuning uchun ularning aksariyatida tabiiy muhit nisbatan saqlanib qolingga Amerika, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi sivilizatsiyaning «oyog‘i yetmagan» qit‘a va orollarga odamlar ko‘chib keta boshladilar. Buni sezgan jamiyat, davlat va hamjamiyat sardorlari, XX asrga kelib Yevropada ijtimoiy munosabatlarda sanitар-gigiyenik talablarni kuchaytirish, qonunlar va sanoat ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish davlatlararo ziddiyatli munosabatlarni ekologiya fani orqali «til topishga» undadi. Oqibatda «Ekologiya» degan fan yuzaga keldi va u xalqaro miqyosga olib chiqildi. Chunki, inson bilan tabiat o‘rtasidagi «kelishmovchilik» nafaqat atrof tabiiy muhitga, balki ma’lum darajada davlatlarning ichki va tashqi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va hattoki, axloqiy munosabatlariga salbiy ta’sir eta boshladи. Shuning uchun ham «Xalqaro ekologiya huquqi»da xalqaro hamjamiyat tomonidan «*atrof tabiiy muhit*» iborasi «*atrof-muhit*» degan ibora bilan almashтирildi.

Ikkinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘rganish yoki tadqiqot obyekti bo‘lib inson, fuqaro yoki shaxs hamda ularning jamoasi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularda inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatni «*insonlarni o‘rab turuvchi muhit*», «*kishilik jamiyatni yashovchi muhit*» deb ataydilar. Buni «mutlaq to‘g‘ri» yoki «mutlaq noto‘g‘ri» deyish qiyin. Lekin inson yashayotgan va uning ta’siri doirasidagi tabiiy muhit, tabiatshunoslik nuqtayi nazaridan qolgan turdagи organizmlar,

jumladan hayvonot va o'simlik dunyosi, mikro- va nanoorganizmlar-ning ham yashash muhitidir. Faqatgina ular tabiat bilan hamohang-likda, ya'ni ma'lum bir muvozanatni saqlagan yoki «kelishgan» holda yashaydilar hamda rivojlanadilar. Insonlar esa, o'ziga xos «kuchli» organizm – individ sifatida tabiat bilan «kelishmasdan» ham yashashlari mumkin. Shuning uchun insonlarni o'rab turuvchi tabiiy muhit yoki ularning yashash muhiti, so'zsiz, «insonlarni o'rab turuvchi atrof tabiiy muhit» yoki «insonlarning atrof-muhiti» deb aytildi.

Uchinchidan, inson va tabiat Yer planetasida juda uzviy bog'langan va o'zaro kuchli ta'sir doirasida turadi. Aynan o'zaro ta'sir doirasida, chunki insonning tabiatga bo'lgan har qanday ta'siri (xoh u ijobjiy yoki salbiy ko'rinishda namoyon bo'imasin) oxir oqibatda insonning o'ziga aks sado bo'lib qaytadi (yo rahmatini yog'diradi, yo o'chini oladi). Bu-ni anglagan ibtidoi insonlar va ularning jamoasi tabiatning bir bo'lagi sifatida, uning «bag'ri»da yashab kelganlar.

Zardushtiyarning muqaddas Avesto kitobining Vandidod qismida¹ tabiat unsurlari — yer, suv, havo va olovni ajdodlarimiz Xudo deb bilganlari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Yer va olov Xudosi — «Mitra»ga insonlar sig'inishgan. Ularni ilohiy kuch deb bilishgan va ularga yetkazilgan zarar uchun, hattoki, o'lim jazosini qo'llashgan. Suvni iflos qilish oliy Tangriga qilingan xuruj deb qaralgan. Tabiatga nisbatan bunday dunyoqarashlar zardushtiyalar dinining asosini tashkil qilgan va unda zikr etilgan qadimiylar axloq-odob qoidalari shu davrdagi 16 ta davlat hududida amal qilgan.

Aksincha, sobiq Ittifoq davrida Markaziy Osiyo hududini xomashyo va ayniqsa paxta yetishtirish bazasi qilib olinishi «Orol muammosi»ni yuzaga keltirdi. Insonlar esa ushbu ekologik inqirozli hududlardan ko'cha boshladilar. Chunki atrof tabiiy muhitning inqirozli darajada buzilishi aholi o'rtasidagi barcha munosabatlarga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Kishilarning bexavotir va sog'lom yashashlari qiyinlashmoqda. Mintaqaning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishiga jiddiy putur yetkazilmoqda.

Xullas, tabiat, inson, jamiyat, davlat va hamjamiyat munosabatlari o'zaro uzviy aloqadorligi atrof-muhit holati va inson salomatligida aks etadi. Hozirgi zamonda ushbu holat ko'proq tabiatga emas, balki inson, jamiyat, davlat va hamjamiyat faoliyatiga, to'g'riroq¹ ularning birgalik-dagi ezgu maqsadlarining ijrosiga bog'liq. Biz, insonlar, tabiatdan ajralgan tarzda yashay olmas ekanmiz, uning ajralmas bir bo'lagi sifatida o'zimizni

¹ Avesto. Asqar Mahkam tarjimasi. – T.: «Sharq», 2001. 384 b.

his etib hayot kechirishimiz lozim. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivoj-lanishni ta'minlash esa barchamizning muqaddas burchimizdir.

1.2. Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan munosabat tarixi, hozirgi holati va kelajagi

Tabiatni muhofaza qilishda avvalambor shaxs, jamiyat, davlat va hamjamiyatning tabiatga nisbatan qarashlari aniqlaniladi va unga mos ravishda siyosat ishlab chiqiladi va tegishli huquqiy me'yorlar qabul qilinadi. Kishilik jamiyati tarixida tabiatga nisbatan qanday munosabat bo'lganligi, qandayligi va qanday bo'lishi lozimligi ekologiya fanining yuzaga kelishi, rivojlanishi va istiqbollarini belgilab bermoqda. Chunki, Yer sayyorasida sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlarning deyarli 90 foizida inson faoliyatining mahsuli aks etmoqda. Bu jarayonlarni doimo ham ijobiy deb bo'lmaydi. Chunki, organizmlar uchun xavfsiz muhit, jumladan, insonlarning muhim hayotiy manfaatlari va avvalambor toza, sog'lom va qulay tabiiy sharoitga ega bo'lish huquqini to'la qondirishga qodir bo'la oladigan atrof tabiiy va ijtimoiy muhit holati inqiroz va falokat tomon intilib bormoqda¹. Uni oldini olmaslik o'zini o'zi o'limga mahkum etish bilan barobardir².

Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan munosabat shakli – muayyan davrdagi kishilarning atrof tabiiy muhitga uzviy bog'langan hayot tarzi. Agar jamiyatning tabiatga nisbatan munosabatlarini insoniyat tarixi nuqtayi nazaridan qaraganda uni quyidagi shakllarga ajratish mumkin: *oddiy, oddiy-iqtisodiy, iqtisodiy, iqtisodiy-ekologik, ekologik.*

Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan oddiy munosabat shakli – ekologik tizimni buzmaydigan kishilarning soddalashtirilgan hayot tarzi. Garchand ibtidoiy kishilik jamiyati formatsiyasi odamlarning Yer kurrasida paydo bo'lishidan (5–6 mln yil avval) to sinfiy jamiyat yuzaga kelguniga qadar bo'lgan ijtimoiy tarixni o'z ichiga oladi. Ibtidoiy jamoada ishlab chiqarish kuchlari va mehnat qurollarining takomillashmaganligi uchun ham ularning hayot tarzi tabiatning bir qismi sifatida kechgan. Tabiiy muhit holati esa organizmlar, xususan, odamlar uchun nisbatan qulay darajada bo'lgan.

Kishilarning ibtidoiy jamoa bo'lib yashash davrida ham odamlar o'zlarining faoliyatlarini tabiatga qanday ta'sir etayotganligi haqida o'ylab ko'rghanlar va ularning hayotiy zarur ehtiyojlari hisoblangan tabi-

¹ A. Nigmatov. Ekologiya huquqi. – T.: «Noshir», 2012. 14–22-b.

² I. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997. 112-b.

iy obyektlarni saqlab qolishga uringanlar. Mevali o'simliklarni saqlash va hayvonlarni ov qilish me'yorlarini odamlar og'zaki ravishda kelishib olganlar. Bunday og'zaki qoidalarni buzganlar esa jamoa boshlig'i tomonidan hatto o'lim jazosiga ham mahkum etilganlar.

Ekolog-huquqshunos olimlar¹ jamiyatni tabiatga bo'lgan munosabat shakllarini uch ko'rinishda ifoda etadilar — oddiy, iqtisodiy va ekologik. Lekin jamiyatda, ayniqsa, tabiat qonun va qonuniyatlarining vaqt mobaynida o'zgarib borishi inqilobiy tarzda emas, balki evolutsion tarzda kechmoqda². Shuning uchun ham kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan munosabatlari evolutsion tarzda shakllana borgan va u bir shakldan ikkinchi bir shaklga bosqichma-bosqich o'tgan, ya'ni oraliq ko'rinishdagi shakllarda (oddiy-iqtisodiy, iqtisodiy-ekologik) ham bo'lgan, deya e'tirof eta olamiz.

Jamiyatning tabiatga nisbatan oddiy-iqtisodiy munosabat shakli — ekologik tizimlarning kam va kichik hududlarda buzilishiga olib keladigan kishilarning hayot tarzi. Sinfiy jamiyat shakllana borgan sari, kishilar soni va ishlab chiqarish qurollarining mukammallanishi, tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi oddiy-iqtisodiy shaklini yuzaga keltirgan. Natijada, kishilarning hayot tarzi kichik bir tabiiy hudud — geomajmualarda atrof tabiiy muhit holatini keskinlashuviga olib kelgan. Bunday mahalliy (lokal) ko'rinishdagi ekologik o'zgarishlar kishilarning jamoa bo'lib to'plangan yerlariga xos bo'lgan. Lekin ular atrof-muhitning xavfsizlik darajasiga keskin ravishda ta'sir eta olmagan.

O'zbekiston hududida oddiy-iqtisodiy shakl ibtidoi jamoa tuzumining so'nggi va quldarlik tuzumi davriga to'g'ri keladi. Eramizdan avvalgi 12—15 ming yilliklarda (mezolit davrida) mahalliy aholining ishlab chiqarish quroli sifatida nayza, kamon, aylanma yoylarning bo'lishi hayvonot dunyosining kamaya borishiga, metall omoch va belkuraklarning yaratilishi esa yerlarning o'zlashtirilishini va dehqonchilikni yuzaga keltirdi. Oqibatda, ular atrof tabiiy muhit holatiga birmuncha ta'sir eta boshladilar. Sug'orish shoxobchalarining oddiy ko'rinishdagi «to'g'on» usuli obikor (sug'orma) dehqonchilikni yuzaga kelishiga, daryo o'zanlari — «liman» usulining paydo bo'lishi esa daryolarning tabiiy suv rejimi o'zgarishiga olib keldi. Uy hayvonlarining ko'payishi Qashqadaryo, Chirchiq, Zarafshon, Quyi Amudaryo, Sirdaryo vodiylarida o'simlik dunyosining siyraklashishiga olib keldi.

¹ В.В. Петров. Экологическое право России. — М.: «Бек», 1997. С. 8.

² А.В. Яблоков, А.Г. Юсуфов. Эволюционное учение (дарвинизм). М.: Высшая школа, 1997. С. 24—46.

Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan oddiy-iqtisodiy munosabat shakli tabiiy muhitning eng asosiy komponentlari — yer va suvning kichik aylanishiga ta'sir etdi. Lekin ijtimoiy muhitning bunday holati tabiiy tizimlarning buferlik (tashqi ta'sirga qarshi turish qobiliyati) xususiyatini yo'qotib qo'yamadi.


Jamiyatda ishlab chiqaruvchilar va amaldorlar sinfining shakllana borishi hamda ish qurollarining takomillashib, davlatlar o'rtasidagi nizolarning ko'payishi natijasida feodalizm va ilk bor bozor munosabatlari yuzaga kelgan kapitalizm davrida iqtisodiy munosabat shakli yuzaga keldi va rivojlandi.

Jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy munosabat shakli — iqtisodiy madaniylashgan kishilarning o'z moddiy va ma'nnaviy ehtiyojlarini qondirish uchungina, atrof tabiatni iste'molchilik psixologiyasi pozitsiyasidan turib foydalanishi natijasida atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va tabiiy tizimlarning o'zgarishiga olib kelgan hayot tarzi. Kishilarlarning bunday hayot tarzi ekologik tizimlarni katta maydonlarda va keng (global) miqyosda buzdi. Bu davrda, garchand insoniyat tarixida ilk bor yuridik elementlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga qaramasdan, kishilarning ongi, bilimi va madaniyati iste'molchilik psixologiyasida edi.

Katta tarixiy muddatni o'z ichiga olgan, hanuzgacha rivojlanayotgan va bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarda o'z asoratini saqlab kelayotgan ushbu munosabat shakli iqtisodiyotni har qanday atrof-muhit muhofazasidan ustuvor ekanligini namoyon etmoqda. Garchand bunday o'lka va mamlakatlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va uning resurslaridan samarali foydalanish borasidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar yetarli darajada bo'lsa-da, lekin ularning amaliy tatbiq etish mexanizmi ishlab chiqilmagan yoki ommalashtirilmagandir. Aks holda huquqiy demokratiya va adolat mezoning o'chog'i bo'lmish AQSH preriyalarida, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida, son-sanoqsiz bizonlar yoppasiga qirib tashlanganligi, o'rmonlar maydoni ikki barobargacha qisqargani, yemirilgan va yuvilgan yerlar 40 mln getktarga yetgani, qishloq xo'jaligi oborotidan 58 foiz unumdar yerlar chiqib ketganligini qanday tushunish mumkin. Ilmiy texnika yutuqlari u davrda atrof tabiiy muhit xavfsizligini saqlab qolishga emas, balki global miqyosda qurolli to'qnashuvlar va sovuq urushlarda g'olib chiqish, ma'lum bir qatlAMDAGI aholini boyitishga xizmat qilgan. Shuning uchun ham J.B. Lamark 1820–1960-yillarni «inqilobiy sanoat yuksalishi», tabiiy tizimlarni esa inqirozga tomon «sudralish» davri, deb bejiz aymagan.

Shunday qilib, atrof tabiiy muhit inqirozi kishilar faoliyatini unga ta'sirining uch oqibatlar majmui — tabiiy resurslarning kamayishi, atrof tabiiy muhitning ifloslanishi va tabiat tizimlarining buzilishi mahsulidir.

Tabiiy resurslarning kamayib va yo'qolib borishi hamda atrof tabiiy muhitning ifloslanishi tabiiy tizimlarning buzilishiga va inqirozlarning kelib chiqishiga olib keldi. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi inqiroz o'zaro munosabat muvozanatining barqaror buzilishiga, insoniyatni yuzaga kelgan holatdan chiqa olmasligiga hamda buzilgan tabiat tizimlarini tiklash imkoniyatlari yo'qolishiga olib kelmoqda. Chunki, tabiatda modda va energiyaning aylanish zanjirida turgan biron-bir tabiiy obyektning yo'qolishi yoki ifloslanishi natijasida uning kamayib ketishi tabiatni o'z-o'zini asrash, tashqi kuchlarga qarshi turish va qayta tiklash xususiyatlarini yo'qotib qo'yadi.



1.2.1-rasm. *Orol dengizi (ko'li) va okean suvining sho'rланish darajsi.*

Atrof tabiiy muhit inqiroziga misol tariqasida Orol dengizi, to'g'rirog'i ko'lining atrofidagi holatni olish mumkin. Qachonlardir dunyoda eng katta ko'llar toifasiga kirgan Orol dengizi tarixan juda qisqa muddat ichida, ya'ni 40–50 yil ichida eng sho'r (1.2.1-rasm), ifloslangan va xalq xo'jaligi ahamiyatiga deyarli ega bo'limgan o'rtacha ko'llar toifasiga kirib qoldi. Buning asosiy sabablaridan biri — Amudaryo va Sirdaryo suv rejimining keskin o'zgarishi. 1982–1983-yillarga kelib ikki sersuv daryolarning Orolga quyilishining 13–14 barobarga kamayib ketishidadir. Natijada, Orol dengizining suv sathi 18 metrga, suv yuzasi 2,5 barobarga, suv hajmi 6 barobarga kamayib ketdi. Suvdan qurigan yuza 4,3 mln gettarni tashkil qilgani holda deflatsiya (shamol eroziyasi) na-

tijasida tuzlar minglab kilometr doirada atrof-muhitni ifloslantirmoqda. Amudaryo va Sirdaryo suvlarining og'ir metallar, pestitsid, gerbitsid kabi kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va sho'rланishi natijasida ularning suvidan ichimlik suvi sifatida foydalanib bo'lmasligini mu-taxassislar isbot qilib berishdi. Qachonlardir baliqchilik va ov qilish maskani bo'lgan Quyi Amudaryo qurigan qoldiq ko'llar va sho'rlangan tuproqlar maskaniga aylanib qoldi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari ning birgalikdagi sa'y-harakatlari tufayli 1995–1997-yillarga kelib Orol dengiziga suv quyilishi 15–17 km³ gacha ko'paytirildi. Yopiq havzaning suv taqsimoti xalqaro shartnomaga va kelishuvlar orqali tartibga solinishinga harakat qilinmoqda.

Iqtisodiy munosabat shakli davriga xos ekologik qonunlardan bo'lmish Mazovlarning XIII–XIV asrlarda «O'rmon, tur, zubr va tarpanlar muhofazasi», Litva knyazi Sigismund II ning «Volok nizomi»da baliqlarni urchish davrida ov qilish man etilgan. XIV asrda Fransiyada «Suvlar va o'rmonlar» maxsus boshqarmasi tuzilgan bo'lib, o'rmonlarni muhofaza qilish ularning vazifasiga kiritilgan. Qadimgi Vilgelm podshohligi davrida kiyik, yovvoyi cho'chqa va hattoki, quyonlarni o'dirganlari uchun kishilar o'lim jazosiga mubtalo etilgan. Ammo bu qonunlar ko'proq tabiiy muhitni emas, balki feodal mulkni saqlab qolish va muhofaza qilishga qaratilgan edi, xolos.

Jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy-ekologik munosabat shakli – mavjud ekologik tizimlarni saqlab qolish darajasidagi kishilarning hayot tarzi. Bunda kishilarning har qanday shakldagi ekologik harakatlari davlat tomonidan to'laligicha qo'llab-quvvatlanadi. Tabiiy resurslarni kamaytirish va atrof-muhitni ifloslantirish nafaqat fuqarolarga, hattoki davlat idoralari xodimlariga na moddiy va na ma'naviy foyda keltiradi. Masalan, AQSH «Atrof tabiatni muhofaza qilish milliy siyosati» (NEPA) qonuniga binoan, hamma jismoniy, yuridik shaxslar, hattoki, davlat hokimiyyati va boshqaruv organlari ham bir-on-bir tabiiy obyektdan foydalanishlaridan avval turli ko'rinish va shakldagi ekologik test sinovlaridan o'tadilar va tabiatga ta'sir etishi «ariza»sini topshiradilar. Test sinovlari natijasining biron bosqichidanoq 10% «ariza»lar sudlarga kelib tushadi. AQSH Prezidentining ijroiya qo'mitasi qoshidagi Tabiatni muhofaza qilish Kengashiga kelib tushgan arizalar ro'yxati va sudlarning qabul qilgan qarorlari to'g'risida ochiq ma'lumotlar e'lon qilinadi. Undan tashqari, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha har bir shtat o'ziga yarasha qonun qabul

qilish imkoniga ega. Chunki, shtatdagi ekologik holat, avvalambor, mahalliy aholiga ta'sir qiladi-da.

Tabiiy muhitni inqirozga, ijtimoiy muhitni falokatga olib kelmaslik uchun biz yaqin kelajakda bosqichma-bosqich ekologik munosabat shakliga o'tib olishimiz zarur. *Jamiyatning tabiatga nisbatan ekologik munosabat shakli — atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan ogilona foydalanish va ekologik tizimlarni qayta tiklash hamda sog'lomlashtirishga qaratilgan kishilarning hayot tarzi*. Ekologik munosabat shaklida davlat boshqaruv tizimi, avvalambor, ekologik nobop hudud va obyektlarni tiklashga qaratiladi. Bunda ishlab chiqarish texnologiyasi, birinchi navbatda, kam chiqitli yoki yopiq — chiqitsiz siklni talab etadi. Ekologik ong va madaniyat kishilarning jamiyatda tutgan o'rni va ijtimoiy nufuzini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Ekologik qonunlar va normativ hujjatlar nafaqat bevosita, balki bilvosita ham ekologiyalashtirilgan, amaliy tatbig'i esa ekologik-huquqiy mexanizmga to'liq asoslanishni taqozo etadi. Tabiiy resurslardan foydalanishni cheklash va tabiiy obyektlarni qayta tiklash bir mamlakat miqyosida emas, balki ekologik xavfli hududlar bo'yicha amalga oshiriladi va davlatlarning alohida muhofaza qilish obyektiga kiritiladi. Ekologik muammolar davlatlarning yangi barqaror rivojlanish konsepsiysi nuqtayi nazaridan hal etiladi.

Jamiyatning tabiatga nisbatan yuqorida qabul etilgan beshta munosabat shaklini aniqlab olish davlatlarning ekologik siyosatini belgilashda hamda qonunchilik tizimini yo'lga qo'yishda dasturulamal bo'lib qoladi.

1.3. Ekoliya fanining yuzaga kelish sabablari va rivojlanishi

Ekoliya nima o'zi va nima uchun biz XXI asrda uning ham nazariy, ham amaliy yechimini topishga harakat qilayapmiz? Nima uchun ushbu muammo ko'pgina ta'lif bosqichlari, madaniy hordiq chiqarish tadbirlari, xalqaro uchrashuvlar va hattoki, biznes-shoularda ham qizg'in muhrokama mavzusiga aylanib qoldi. Dunyoning barcha mintaqalarda ekologik yo'nalishdagi turli ko'rinish, shakl va hajmga ega bo'lgan kitoblar, jurnallar, risola-yu maqolalar, o'quv adabiyotlari millionlab nusxada chop etilmoqda. Unga oid yangiliklar va ma'lumotlarni aholiga yetkazish uchun barcha turdagи zamonaviy informatsion texnologiyalar qo'llanilmoqda. Bunday ijobjiy harakatlarga qaramay hanuzgacha «ekoliya nima o'zi» degan savolga bir xilda javob topish qiyin. Bu esa ilmda va, ayniqsa, ta'lif-tarbiyada aslo yo'l qo'yib bo'lmaydigan holatdir. Majburiy ta'lif jarayonida, maktablar, akademik litsey va kollejlarda hanuzgacha ekoliya mustaqil majburiy ta'lif o'quv kursi si-

fatida e'tirof etilmagan. Axir hammamiz birdek go'zal tabiat qo'ynida orom olish, hordiq chiqarish va salomatligimizni tiklashni xohlaymiz. Lekin go'zal tabiat go'shalari kundan kunga kamayib, aholi esa aksincha ko'payib bormoqda. Mazkur holat barchamizni endilikda ekologiya mavzusiga nazariy jihatdan yondashishga majbur etmoqda.

Zamonamizda kompyuter, informatika, huquq, qonun, davlat kabi eng ko'p ishlatiladigan so'zlardan biri ekologiyadir. Xo'sh, ekologiya nima o'zi, degan savol tug'ilishi muqarrar. Chunki antik davrda «Falsafa», o'rta asrlarda «Teologiya», ya'ni din haqidagi fan kishilik jamiyatida qanday ommalashgan bo'lsa, shu kunlarda «Ekologiya» ham shunday keng tarqalgandir. Shuning uchun bo'lsa kerak, har bir olim, mutaxassis yoki ijodkor o'zini «ekologman» deb hisoblaydi. Mayli, nima bo'lganda ham ekologianing tarafдорлари ko'payaversin. Lekin fanda va, ayniqsa, ta'limda bitta so'z, atama, termin yoki so'zlar birligining turlicha ifoda etilishi, uning mazmun va mohiyatiga turlicha yondashishga sabab bo'ladi. «Ekologlar»ning esa fan yoki ta'limga bergen yordamlaridan ko'ra zararlari ko'proq bo'lishiga olib kelishi ham mumkin.

An'anaga ko'ra *ekologiya* — *tirik organizmlarning o'zaro va yashash muhit o'rtasidagi munosabati haqidagi fan*, deb yuritiladi. Bu ma'no uning grekcha atamasidan kelib chiqqan tarzda ifoda etilgan. Chunki grekchada «oikos» — uy, yashash joyi, yashash muhiti, «logos» — ta'lilot degan ma'noni anglatadi. Ushbu atamani birinchi bo'lib fanga nemis tabiatshunos olimi Ernst Gekkel 1866-yilda chop etilgan o'zining «Organizmlarning umumiy morfologiyasi» nomli kitobi orqali olib kirdi. Uning ta'rifiga ko'ra,



E.Gekkel

«Ekologiya — tabiatni iqtisodiy jihatdan tadqiq qilish orgali hamma tirik organizmlarning organik va noorganik muhit unsurlari bilan birga, uning ta'sir doirasida turgan antagonistik va noantagonistik aloqadorlikda bo'igan o'simlik va hayvonot dunyosi o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishi»dir.

E. Gekkel buyuk ingliz olimi Charlz Darvinniñ organizmlarning evolutsion rivojlanishi to'g'risidagi ta'lilotini rivojlantirib, har qanday tirik organizm atrof tabiiy muhitga moslashib, o'zining morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarini o'zgartirib borishi, moslashmagani esa tabiiy tanlash asosida qirilib ketishini asoslab berdi.

E. Gekkel «ekologiya» so‘ziga ta’rif berar ekan, inson tomonidan «tabiatni iqtisodiy tadqiq qilish» degan iborasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, tabiatni son jihatdan ifodalanishi inson faoliyati iqtisodiyotiga nechog‘liq bog‘liqligini olim ifoda etmoqchi edi. E. Gekkel birlamchi kapital ko‘pincha «tabiatga salb yurish» orqali jamg‘ariladi, degan edi.

Yuqorida keltirilgan ekologiya tushunchasida E. Gekkel tomonidan qo‘llanilgan so‘zlar yoki iboralarning ayrimlari tushirib qoldirilgan yoki unga qo‘shimchalar kiritilgan. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropa uchun «iqtisodiyot tabiatini anglash» degan ibora o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, hozirga kelib ham u birlamchi ahamiyat kasb etayapti deyish qiyin. Chunki «qadimgi qit‘a» vakillari ekologik talafot va inqiroz nima ekanligini allaqachonlar tushinib yetganlar.

Nima uchun ekologiya fani aynan Yevropada, XIX asrning ikkinchi yarmida biologlar tomonidan kashf etildi, degan o‘rinli savol tug‘iladi. Chunki XIX asr o‘rtalarida Markaziy Yevropada «ilmiy-texnikaviy inqilob» kishilarining tabiatga nisbatan bosimini Germanianing Sileziya va Rur sanoati rivojlangan havzalarida, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatning keskin buzilishi noevolutions¹ tarzdagi buzilgan tabiat tizimlarini yuzaga keltirdi va tegishli iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarni shakllantirdi. Bu, o‘z navbatida, organizmlar yashash muhitiga, u esa o‘z navbatida organizmlar turi, populatsiyasi va jamoasiga keskin ta’sir ko‘rsatdi. O‘sha davrdagi Reyn daryosining holatiga nazar tashlagan transuz jurnalisti «Reyn daryosining suvini XIX asrning ikkinchi yarmidagi tabiat manzarasini aks ettirish bo‘yog‘i o‘rnida ishlatsa bo‘ladi», deb bejiz aytmagan edi. Bunday holat aynan Yevropada ilk bor ekologik dunyoqarashlarni shakllantirishga olib keldi. Ekologiya ushbu davrda biologiya fanlari tizimiga kirgan va tirik organizmlar haqidagi fan tariqasida ilk bor biologlar tomonidan taklif etilgan. Zamonlar o‘tib, XX asrning 70-yillariga kelib (1972-yil «Atrof-muhit muhofazasi»ga bag‘ishlangan Stokholm konferensiyasidan so‘ng), *ekologiya nafaqat mustaqil fan sohasi balki fanlar tizimiga aylanib ketmoqda*. Hozirgi kunدا, biz bilgan 100 dan ziyod ekologik fanlar mavjud bo‘lib, ular deyarli barcha fan tarmoqlariga kirib borgan (1.3.1-rasm).

E. Gekkeldan so‘ng ekologiya atamasi ta’rifiga tatqiqotchilar tomonidan ko‘plab o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan. Lekin, hanuzgacha, uning birlamchi mazmuni va mohiyati umumiy tarzda saqlanib goldi. Turli fikrlarni umumlashtirgan holda biz *ekologiyani – muayyan*

¹ Яблоков А.В., Юсуфов А.Г. Эволюционное учение (дарвинизм). — М.: Высшая школа, 1997.

EKOLOGIK FANLAR TIZIMI

Umumiy ekologiya	Geoekologiya	Bioekologiya	Amaliy ekologiya	Iqtisodiy ekologiya	Huquqiy ekologiya	Ijtimoiy ekologiya
<ul style="list-style-type: none"> • Eksperimental ekologiya • Kimyoviy ekologiya • Informatsion ekologiya • Analitik ekologiya • Funksional ekologiya • Ekologik tizim va jarayonlar-ni modellashtirish va h.k. 	<ul style="list-style-type: none"> • Geografik qobiq ekologiyasi • Landshaftlar ekologiyasi • Global ekologiya • Milliy hududlar ekologiyasi • Regional ekologiya • Mahalliy (lokal) ekologiya • Tabiiy majmualar ekologiyasi • Gidroekologiya • Ekzoekologiya va h.k. 	<ul style="list-style-type: none"> • Zooekologiya • Fitoekologiya • Autekologiya • Pedoekologiya • Sineekologiya • Populatsiyalar ekologiyasi • Evolutsion ekologiya • Biomajmualar ekologiyasi • Mirkoorganizmlar ekologiyasi • Nanoekologiya • Organizmlar guruhlari ekologiyasi va h.k. 	<ul style="list-style-type: none"> • Sanoat ekologiyasi • Agroekologiya • Kommunal ekologiya • Kosmos ekologiyasi • Transport ekologiyasi • Tibbiyot ekologiyasi • Qurilish ekologiyasi • Bioresurslar ekologiyasi • Muhandislik ekologiya va h.k. 	<ul style="list-style-type: none"> • Ekologik menejment • Ekologik marketing • Ekologik audit • Makroiqtisodiy ekologiya • Mikroiqtisodiy ekologiya • Iqtisodiy hududlar ekologiyasi • Mintaqalar ekologiyasi • Erkin iqtisodiy hududlar ekologiyasi va h.k. 	<ul style="list-style-type: none"> • Ekologiya huquqi • Xalqaro ekologiya huquqi • Tabiiy resurslardan foydalanish huquqi • Tabiatni muhofaza qilish huquqi • Milliy ekologik huquq • Ekologik xavfsizlikni ta'minlash huquqi va h.k. 	<ul style="list-style-type: none"> • Inson ekologiyasi • Etnik ekologiya • Oila ekologiyasi • Mahalla ekologiyasi • Sotsial guruhlar ekologiyasi • Iste'mol ekologiyasi • Urboekologiya • Tarixiy ekologiya • Demoekologiya • Rekreatsiyaviy ekologiya • Jamoat ekologiyasi va h.k.

1.3.1-rasm. *Hozirgi zamон ekologik fanlar tizimi.*

tabiat tizimida (ekotizimda) organizmlarning o'zaro va ularni yashash muhiti (makoni, nishasi) o'rtasidagi munosabatlarning turli jihatlarini tadqiq qiluvchi fan tarmog'i, ularga oid bilimlarni beruvchi ta'lif yo'nalishi, ularni optimallashtiruvchi iqtisodiyot sohasi, deyishimiz mumkin.


Ekologiya fan tarmog'i bo'lgani uchun ham u ijtimoiy kategoriya-ga, ya'ni insonlarga xos munosabat shakliga kiradi. Shuning uchun ham uning maqsadida «inson uchun» degan ibora birlamchi ahamiyat kasb etadi. *Ekoliyaning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlar uchun barcha organizmlar yashash muhiti xavfsizligini ta'minlash.* Ekologik xavfsiz yashash muhiti – organizmlar, jumladan, insonlarning muayyan ekotizimlarda normal holatda ko'payishi, o'sishi va rivojlanishi uchun toza, sog'lom va qulay atrof tabiiy muhit holati demakdir. Ushbu maqsadga erishmoq uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi *ekologik tusdagi vazifalarни* bajarish talab etiladi (1.3.2-rasm)

1.4. Ekologiya fanining boshqa fanlar o'rtasida tutgan o'rni

Hamma jumboq shundaki, biz Sizlar bilan ushbu risolada ekologiyani boshqa fanlar o'rtasida tutgan o'rnnini aniqlashtirib olishimiz kerak bo'ladi. Chunki, biz taniqli Amerika ekolog olimi E. Makfedenni fikriga qo'shilgan holda, ekoliyaning boshqa fanlar va ayniqsa biologiya hamda geografiyadan ajratib olishimiz, jumboqning «kalavasi»ni topish bilan tengdir.

Barchamizga ma'lumki, biologik fanlar – zoologiya, botanika, sitologiya, bioximiya, genetika, morfologiya, embriologiya, fiziologiya kabilalar asosan tirik organizmlarga tegishli bo'lgan holat, jarayon va hodisalarни talqin qiladi. Ularda atrof tabiiy muhit faqatgina tashqi omil sifatida qaraladi va bir tomonlama tadqiq qilinadi. Organizmlarning morfologik, morfogenetik, morfometrik ko'rsatkichlari tabiatga bog'langan tarzda ochib berilishi ham mumkin. Lekin biologik fanlarning bevosita tadqiqot predmeti sifatida organizmlar va ularning atrof tabiiy muhiti – «aks sado», ya'ni ikki tomonlama – muhit ↔ organizmlarning o'zaro ta'sirini o'rganmaydi.

Ha, «Ekologiya»ni ilk bor fanga biologlar olib kirdilar. Ha, «Ekologiya» 1866-yildan to XX asrning 70-yillarigacha biologik fanlar tizimida rivojlandi. Lekin, 1970-yili butun Yevropada «Atrof-muhit yili»ning o'tkazilishi, 1972-yilda esa Shvetsiyaning Stokholm shahrida bo'lib o'tgan «Atrof-muhit muhofazasi»ga bag'ishlangan xalqaro konferensiyasida «Ekologiya» mustaqil fan tarmog'i, ta'lif yo'nalishi va amaliyot sohasi sifatida e'tirof etilgan edi. Shvetsiya, DANIYA, Finlandiya, Germaniya, Belgiya kabi Yevropa mamlakatlari o'sha yillardan boshlab



E	Ekologiyaning umume'tirof etilgan ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish.
K	Uning tarixi, hozirgi holati va kelajak istiqbollarini turli miqyoslarda uyg'unlashgan holda aniqlash.
O	Ekologik ma'nnaviyat, ya'ni ekologik ongli va madaniyatli shaxsn tarbiyalash.
L	Yer planetasi tabiyi resurslari va boyliklarini hisobga olish, baholash, kadastrlash, auditlashtirish va ekspertizalashni olib borish.
G	Davlat va jamiyat ekologik boshqaruv talablarini amalga keng joriy qilish.
I	Atrof tabiiy muhit muhofazasi fuqarolik jamiyatni institutlari faoliyatini yo'lga qo'yish, no'davlat tashkilotlar va jamoat uyushmalari nazoratini o'rnatish va ularning tavsiya kuchidagi ma'lumotlaridan ekologik boshqaruvda keng foydalanish mexanizmni ishlab chiqarish.
K	Lokal (mahalliy), milliy, regional (mintaqaqiy), global (kurraviy) miqyosda ekologik xavfsizlik monitoringini olib borish.
V	Davlat, davlatlar va xalqaro hamjamiyat tomonidan ekologik nazoratni tashkil etish va ularning ishslash mexanizmini yaratish.
A	Istiqbolga yo'naltirilgan ekologik reja va dasturlarni mamlakat, mintaqa va global miqyosda ishlab chiqarish, qabul qilish va amalga tatbiq etish.
Z	Mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda ekologik-huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish va ularning ishslash mexanizmini yaratish.
I	Ekologik huquqbazarliklar va ularning javobgarligini belgilovchi regional va global miqyosdagi ixtisoslashgan tergov, prokuratura va sud organlarining tizimini yaratish.
F	Mahalliy, milliy, regional va global miqyosda faoliyat yurituvchi «ekologik tez yordam» tashkilotlari, jamg'armalari, guruhlarini tuzish yoki ular faoliyatini faollashtirish.
L	Ekologik tanglikdagi quruqik hududlari (Orolbo'y, Chernobl, Markaziy Afrika...) va suv akvatoriylarini (Orol dengizi, Balxash va Chad ko'llari ...) insonlarning birgalikdagi harakatlari orqali hal qilish.
A	Ekologik terrorizmni oldini olish yo'llarini ishlab chiqish.
R	Jamiyatning tabiatga nisbatan ekologik yoki ekologik-iqtisodiy munosabat shakllarini o'rnatish va h.k.

1.3.2-rasm. *Hozirgi kunda ekologiyaning asosiy vazifalarini.*

darslik va qo'llanmalar chop etila boshlandi. Barcha ta'lim muassasalari uchun majburiy o'quv predmeti sifatida kiritildi, xalqaro munosabatlarda birlamchi munozara obyekti bo'lib chiqdi. Masalan, «Boltiq dengizi loyihasi» (MUVIN Project), «Shimoliy dengiz», «Toza dar-yolar», «Kislotali yomg'irlar», «Yashil bayroq», «Yashil maktab», «Daryo qirg'oqlarini ekologik o'rganish va kartalashtirish» va h.k. Umuman olganda, har biri qachonlardir, qaysidir fanlar tizimida turgan. Geografiyada geologiya, metofizikada geografiya, falsafada metofizika va h.k. Bundan biologiya ham istisno emas, albatta (1.4.1-rasm).

Biologiya fanining tadqiqot obyekti – organizmlar, tadqiqot predmeti – ularning tuzilishi, funksiyasi, kelib chiqishi, tarqalishi, taraqqiyoti, o‘zaro aloqasi va notirik tabiat bilan aloqasi¹. Ekologiyaning obyekti esa – ekotizimlar, tadqiqot predmeti esa biologiya faniga yaqin – organizmlar o‘zaro aloqasi va atrof tabiiy muhiti o‘rtasidagi munosabat qoidalari, qonuniyatları, holati, funksional bog‘liqligi². Fan va fanlar metodologiyasida³ har bir fan mustaqil ravishda «yoqqoq turishi» uchun yo mustaqil tadqiqot obyekti, yoki mustaqil tadqiqot predmeti bilan boshqa, ayniqlsa, turdosh fanlardan ajralib turishi lozim⁴. Ekologiya esa biologiyadan aynan tadqiqot obyekti bilan ajralib turadi. U nafaqat mustaqil fan, balki fanlar tizimiga aylanib bormoqda (1.3.1-rasmga qarang). Buni esa keng ekolog olimlar tomonidan e’tirof etilgan amerikalik tadqiqotchi-biolog olim Y.P. Odumning «Ekologiya» nomli rus tiliga tarjima qilingan kitobiga akademik V.Y. Sokolov tomonidan berilgan so‘zboshida (6-bet) «Hanuzgacha biz ekologiyani biologik fanlar qatoriga kiritar edik. Odum bo‘yicha esa u fanlararo bilimlar predmeti ekanligini anglab olamiz ham», deb izoh beriladi.

Endi geografiya va ekologiyaga kelsak. Geografiyaning obyekti – geografik tizimlar (geotizim)⁵. Eng yirik geotizim – geografik qobiq (geosfera), eng kichigi – fatsiya. Ekologiyada eng yirigi – ekosfera (bu biosfera qobig‘iga to‘lig‘icha mos tushmaydi, bu haqda quyi boblarda yoziladi), eng kichigi – tomchi suv, organizmlarning tirnog‘i yoki undan ham kichik nanoolam (bu hanuzgacha aniq bir tasniflanishga ega emas). Geografik fanlar tadqiqot predmeti sifatida geotizimlarning hududiylik, majmualilik, tizimlilik va davriyligini tadqiq qiladi⁶.

Geografiya organizmlarning atrof tabiiy muhiti bilan bo‘ladigan qonuniyatları, jumladan ijtimoiy-sotsial munosabatlarni ham o‘rganadi. Mazkur holda ham geografiyaning tadqiqot predmeti ekologiyanikiga yaqin turadi. Lekin aynan o‘zi emas.

¹ Biologiya. Ensiklopedik lug‘at. – T.: O‘SEBR, 1988. 101-b.

² Н.Ф. Реймерс. Надежды на выживание человечества: Концептуальная экология. – М.: «Россия молодая». Экология, 1992. С. 214–282.


³ O.Fayzullayev. Falsafa va fanlar metodologiyasi. – T.: Falsafa va huquq nazariyasi nashriyoti, 2006; N.Shermuhamedova. Falsafa va fan metodologisi. – T.: O‘zMU nashriyoti, 2005; Fanlar. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 9-jild. 182-b.

⁴ Fanlar. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 9-jild. 182-b.

⁵ Общегеографические понятия. Теоретическая география// Вопросы географии, 1971, №88; И.П. Герасимов. Роль географии в познании современного мира / Перспективы географии// Вопросы географии, 1976. №100. С. 11

⁶ A.N. Nigmatov. Tabiiy geografik fanlarning nazariy muammolari // Monografiya. – «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2010. 202-b.

Shunday qilib, ekologiya biologik va geografik fanlardan asosan tadqiqot obyekti bilan farq qiladi. U organizmlar, jumladan insonlarning muayyan ekotizimlar doirasida aloqadorlik holati, qonuniyatları va qonunlarini tirik va notirik tabiat bilan uzviy bog'lagan tarzda tadqiq qiladi. Unda har qanday tadqiqot, xoh u tasniflash, rayonlashtirish, karta-lashtirish, morfologik va mormometrik ko'rsatkichlarini o'rganish bo'lsin, albatta, ularni ajratmagan tarzda tahlil qiladi, taklif beradi va amalga oshiradi. Aks holda ushbu tadqiqotlar yo geografik, yoki biologik xususiyat kasb etadi.



1.4.1-rasm. *Ekologiyani boshqa fanlar bilan uning tizimidagi fanlar orqali bog'lanishi.*

Meditrina, sotsiologiya, ijtimoiy fanlar ham tirik organizmlardan bo'lmish insonlarning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanishi va taraqqiyot bosqichlari, harakat qilish va uyushish qonuniyatlarini atrof tabiiy muhitga bog'liq ravishda bir tomonlama o'rganadi.

Yer haqidagi fanlar (Umumiy yer bilimi, Tuproqshunoslik, Geologiya, Gidrologiya, Klimatologiya kabi) yer osti va yer ostida organizmlarning kelib chiqishi, tarqalishi, rivojlanishi qonuniyatlarini atrof tabiyiy muhit bilan bog'liq holda bir tomonlama tadqiq qiladi.

Iqtisod, informatika va matematikaga oid fanlar tabiat va jamiyat o'rtaсидаги munosabatlarni son va sifat jihatidan baholaydi, modellashiradi. Fizika va kimyo fanlari ushbu jarayonlarning mazmun va mohiyatini o'ziga xos ravishdagi qonuniyatlar asosida ochib beradi.

Umuman olganda, ekologiya fani yuzaga kelguniga qadar yuqorida nomlari tilga olingen fanlar tabiat va inson o'rtaсидаги barcha munosabatlarni ochib bergandek tuyiladi. Shuning uchun ham keng qamrovli fanlar orasida ekologiyaga o'rin bormikan, degan o'rinli savol tug'iladi.

Bizga ma'lumki, zamon taraqqiyoti (ayniqsa, XX va XXI asrlarda) fanlarni tarmoqlashuviga olib kelmoqda. Aynan eng ommaviy tus olayotgan fan sohasi ikki yoki bir necha fanlar «chorrahasida unib chiqmoq»da. Bu tabiiy va obyektiv jarayondir. Fizika, matematika, kimyo, falsafa, geografiya, biologiya kabi «sof fanlar»ga amaliy ehtiyoj kamaya bormoqda. Chunki, bir tomondan, ular o'z imkoniyatlarini kamaytirgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, jamiyatda va, ayniqsa, tabiatda bir-biri bilan bog'lanmagan, biri ikkinchisidan kelib chiqmaydigan hodisa va jarayonlar yo'q. Hamma jarayon va hodisalar uzviy bog'liqlikda va o'zaro aloqadorlidadir. Ekologiya esa inson va tabiatni har tomonlamma, uzviy bog'langan va aks sadoli hodisa va jarayon sifatida o'rganadi hamda ularga oid aniq bir amaliy tavsiyalar bera oladi.

1.5. Ekologik xavfsizlik va uni ta'minlash zarurati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida, «Eng murakkab savollardan biri shuki, bizdag'i barqarorlik va xavfsizlik yo'lida tahdid bo'lib turgan muammolarni anglab yetayapmizmi? Xavfsizlikka tahdid solib turgan muammolarga nimani qarshi qo'ya olamiz?... Biz istiqomat qilayotgan mintaqada jo'g'rofiy-siyosiy muvozanat saqlanishiga nimalar kafolat bo'la oladi? Xavfsizlikni qanday saqlab qolish mumkin?»¹ — degan savollar barcha o'zbek xalqining dolzarb muammolari sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Ekologik xavfsizlik nima? Mintaqadagi jo'g'rofik, aniqrog'i,

¹ И. Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. — Т.: «Ўзбекистон», 1997. 4-6.

geografik muvozanatni qanday tushunmoq lozim va xavfsizlikni qanday qilib ta'minlash kerak bo'ladi?

Xavfsizlik L.Y.Xotunsevning fikricha¹ – alohida shaxs, jamiyat va tabiat obyektlarini kuchli darajadagi xavf-xatardan himoyalanganlik darajasi bo'lib, uning asosiy mezoni kelajakda yoki hozirda sodir bo'luvchi tabiiy yoki ijtimoiy xatardan kelib chiquvchi qo'rquv hissidir.

Bu tushunchaga T.Aroshidze², xavfsizlik keng ma'noda hayot, salomatlik, insoniyatning asosiy huquqlari, hayotiy manfaatlarini ta'minlovchi manbalar, ijtimoiy tartibdagi resurslar bilan bog'liq xavflarga chidamlilik darajasidir, deb ta'rif beradi. V.N.Burkov, A.V.Shevkinlarning fikricha³ xavfsizlik nazariyasi zamонави, o'zaro tartibli fan yo'nalishi bo'lib, insoniyat, jamiyat, davlatni hayotiy zarur manfaatlarini texnogen va tabiiy favqulodda holatlardan himoyalanganlik darajasidir.

Bizning fikrimizcha,⁴ xavfsizlik keng ma'noli tushuncha bo'lib, biringidan, u nafaqat inson (shaxs emas, chunki u yuridik kategoriya tegishlidir), jamiyat va davlat, balki tabiat va uning elementlari nuqtayi nazaridan ham qaralishi mumkin. Chunki, ekologiya nafaqat insonlar, balki barcha tirik organizmlar o'rtasidagi va ularning atrof tabiiy muhiti bilan bo'ladigan munosabatlarini o'rganishini, biz yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Vaholanki, xavfsizlik tushunchasi «bexatar yashash darajasi»ni ifoda etar ekan, u ma'lum ma'noda har qanday organizmlar, ya'ni tabiat unsurlarining ham bexatar yashashi nuqtayi nazaridan qaralishi lozim. Negaki hozirgi kunga kelib muayyan tabiat unsurlarining bexatar yashashi bevosita yoki bilvosita tarzda insoniyatga bog'liq bo'lib qoldi. Tabiat unsurlarining o'zaro aloqasi natijasida yuzaga keluvchi har qanday jarayon yoki hodisa tabiiy jarayon hisoblanib, tabiatdagi muayyan tabiiy tanlanish bosqichida bo'ladi. Ammo, tabiatdagi ayrim jarayonlar, masalan, chigirkalarning son jihatdan ko'payib ketishi va ularning o'simlik dunyosi bilan bo'ladigan munosabatlari, albatta, inson xavfsizligiga ta'sir etadi. Bu ilgari (insoniyatning tabiatga ta'siri kam yoki deyarli bo'limgan vaqtarda) ham uchrab turgan tabiiy jarayon

¹ Л.Ю. Хотунцев. Экология и экологическая безопасность. – М.: АКАДЕМИЯ, 2002. 13-б.

² Т.Т. Арошидзе. Экологическая безопасность и международное сотрудничество. <http://www.undp.kz>.

³ В.Н. Бурков, А.В. Щепкин. Экологическая безопасность. – М.: ИПУ РАН, 2003. 144-б.

⁴ А. Нигматов, П. Саидов, М. Матчанов, М. Исокова. Экологик хавфсизлик ва унинг табиий географик жиҳатлари // Ўзбекистон география жамиятининг ахборотномаси, 25-жилд, 2005. 129–133-б.

hisoblanib, ozuqa maydonining insoniyat tomonidan qisqarishi evaziga tezlashdi. Tabiatning esa insondon xavfliroq unsuri yo‘q. Umumiy ekologik nuqtayi nazardan qaraganda barcha tirik organizmlarning turli xavf-xatardan saqlanganlik darajasini ifoda etish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, xavfsizlik nafaqat texnogen yoki tabiiy favqulodda holatlар va jarayonlardan organizmlarning saqlanganlik darjasи, balkи u ko‘zga ko‘rinmas hamda bilvosita ta’sir etuvchi hodisa va jarayonlar orqali yuzaga kelishi ham mumkin. Masalan, issiqxona samarasi tufayli iqlimning sekin-astalik bilan isib borishi va uning natijasida cho’llanish jarayonining yuzaga kelishi. Oqibatda cho’llangan yerlarda o’simlik va hayvonot dunyosining tur va xil jihatdan kamayishi, ya’ni biologik xilma-xillikni degradatsiyalashuvi hamda insonlar uchun noqulay ekologik sharoitlarning yuzaga kelishi. Albatta, bunday xavfsizlik ekologik xarakterdagi xavfsizlikka kiradi. Lekin u ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniyma’rifiy va shu kabi xarakterlarga ega ham bo‘lishi mumkin. Shuning uchun biz «xavfsizlik» tushunchasini alohida ibora sifatida ma’lum bir fanda ishlatish o‘rinli emas, deb hisoblaymiz. Xavfsizlik xarakteriga qarab uni qo’shimcha, to’ldiruvchi va aniqlovchi so‘z yoki so‘z birikmalari bilan ishlatilishi maqsadga muvofiq.

Ekologik xavfsizlik tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha izohlanadi. Ularning ayimlarida tushuncha mohiyati to‘liq ochib berilsa, ayimlarida munozaraga sabab bo‘lувчи fikrlar ham uchraydi. Masalan, N.F. Reymers¹ ekologik xavfsizlikka ikki xil yondashgan: 1) tabiat obyektlari, alohida inson va insoniyatning bevosita yoki bilvosita hayotiy muhim elementlarining zararlanishlariga (yoki bu zararlanishdan keladigan xavflarga) olib kelmaydigan faoliyat, vaziyat va jarayonlar uyg‘unligi; 2) Yer shari va uning turli mintaqalarida insoniyatning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, texnogen va siyosiy tayyorgarligi (jididiy bo‘lмаган talofatlarga moslashishi) darajasida ekologik muvozanatni ta’minlovchi vaziyat, jarayon va faoliyatlar majmuasi.

O‘zbek huquqshunosi T. Tillayev² esa «Ekologik xavfsizlik shaxs, aholi, sanoat va tabiat obyektlarini tashqi ta’sirdan himoyalanganlik darajasidir», deb izohlaydi. Lekin muallif ekologiyaning obyekti nafaqat inson, balkи barcha tirik organizmlar bo‘lishi mumkinligini inobatga olmagan. U ekologik xavfsizlikning mahalliy, milliy, regional va

1 Н.Ф. Реймерс. Природопользование. Словарь-справочник. — М.: Мысль, 1990. С. 637

2 Т. Тилляев. Охрана природы или экологическая безопасность? <http://armon.freenet.uz/rus/bulleten/4/01.html>.

kurraviy miqyosda, ya’ni hududiylik xususiyatiga ham o’z e’tiborini qaratmagan. Bulardan tashqari, ekologik xavfsizlik turg‘un holatdagi, o’zgarmaydigan daraja emas. U doimo harakatda va o’zgaruvchandir.

Bizning fikrimizcha *ekologik xavfsizlik* – organizmlar va ularning yashash muhitini tabiiy va antropogen omillar ta’siri tufayli turli miqyosda va tezlikda yuzaga keluvchi salbiy holatlardan saqlanganlik darajasi. Mazkur tushunchada ham ekologiyaga (organizmlar va ularning yashash muhiti), ham xavfsizlikka (salbiy holatlardan saqlanganlik darajasi) tegishli bo’lgan iboralar ifoda etilgan.

1.6. Tabiat va kishilik jamiyatি qonunlarini uyg‘unlashtirishning ekologik jihatlari

Biz yuqorida aytib o’tdik-ki, shu kunda tabiat o’z holicha, kishilik jamiyatи o’z holicha yashay olmaydilar. Kishilik jamiyatи tabiatning bir bo’lagi va uning ajralmas qismidir. Tabiat falokati – insonlar hayotining tugashi bilan yakun bo’lishi mumkinligi haqida Qur’oni Karimda ham, Tavrotda ham, Injilda ham, Avestoda ham zikr etilgan.

Qur’oni Karimning yetmish beshinchi «qiyomat» surasida qiyomat kuni bo’ladigan hodisalar, hisob-kitob, jazo va mukofotlar, tabiatni inkor etish oqibatiga doir ma’lumotlar bayon etilgan. Makkada nozil qilingan ushbu suraning 6-oyatida «Qiyomat kuni qachon o’zi?» degan savol qo’yiladi. Bu savolga quyi oyatlarda javob tariqasida «Bas (atrof muhit dahshatlaridan) ko’z qamashganda, oy ham tutilganda, quyosh va oy birlashtirilganda, ana o’sha kunda inson: jazodan qochadigan joy qayerda, deb qolur. 13-oyatda esa: u kunda (qiyomatda) insonga (bu dunyoda) qilib o’tgan va qoldirgan (barcha) narsalarining xabari (Rabbiting tomonidan) berilur» deyilgan.

Hattoki, Misrning Xeopsa piramidasida bitilgan qadimgi fir’avnlar yozib qoldirgan toshlarda ham ushbu haqiqat ifoda etilgan. Unda «insonlar tabiat kuchlaridan foydalana olmasliklari va moddiy dunyoning asl mohiyatini tushunmasliklari sababidan halok bo’ladilar», deb bitilgani bejiz emasdир, axir.

Inson bu moddiy dunyoda yashar ekan, umidsizlik ila hayot kechira olmaydi. Ertangi kuniga ishonchsizlik o’z-o’zini falokatga olib bormoq, degani. Yaponlar «Yaxshi narsalarga harakat qilib yasha, yomoni o’zi keladi», deyishadi. Bu dono fikrda jon bor. Biz kelajagimizga ishonch ko’zi bilan boqib yashashimiz kerak, surriyotlar qoldirib, ularning farovon hayotiga zamin yaratishimiz ham qarz ham farzdir. Biz, albat-ta, fozil ishlarni qilishimiz, xususan tabiatni, uning boy ne’matlarini

asrab-avaylashimiz, bola-chaqalarimizga ham Xudoning in'omlarini bus-butun qoldirishimiz kerak. Buning uchun esa *tabiat va jamiyat qonuniyatlarini uyg'unlashtirishimiz darkor*.

Xo'sh, deb savol berish mumkin har bir yaxshi niyatli inson, tabiat qonun va qonuniyatlari nimalardan iborat? Qanday amallarni qilsak, biz tabiatni asrab qolamiz?

Tabiat qonuniyatları juda ko'p. Inson sivilizatsiyasi davrida ham ularning tagiga yetgan emas. Tabiatdagi har bir qonun va qonuniyatni ochilishi fanda juda katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan va ekologik nuqtayi nazardan keng e'tirof qilingan tabiat qonuni, qoida, aksioma, qonuniyatlarini *makroekologik qonuniyatlar bo'yicha guruhlashtirish* maqsadga muvofiqdir (1.6.1-jadval).

Yuqorida sanab o'tilgan makroekologik qonuniyatlarga ta'rif jamiyatshunoslik va tabiatshunoslikka oid ko'pgina kitoblarda berilgan bo'lib, ularga alohida izohlar berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblamaymiz. Faqatgina shu narsaga alohida urg'u bermoqchimizki, ushbu tabiatdagi hodisa va jarayonlarni kechishiga inson bilvosita va bevosita ta'sir etadi. Ushbu ta'sir esa kishilik jamiyati qonuniyatlarining tabiat qonuniyatları bilan nechog'lik uyg'unlashganiga qarab salbiy yoki ijobjiy xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Kishilik jamiyatining qonun, qoida va qonuniyatları har bir millat, elat, davlat, davlatlar va xalqaro hamjamiyatning tarixan tarkib topgan xulq-atvor normalariga mos tushadi. Lekin ular butun insoniyat uchun umumlashtirilgan yoxud ma'lum bir hudud yoki millatlar uchun xos bo'lishi ham mumkin. Qo'llanmada biz uni lokal, regional va global jihatlarini emas, balki Yer kurrasida yashab-istiqomat qilayotgan, shu zamin boyliklaridan bahramand bo'layotgan butun insoniyatning ekologik-ijtimoiy qonuniyatları, qoidalari va prinsiplariga to'xtalib o'tamiz. Ularga jamiyatning ekologik jihatdan rivojlanishiga asos solishi, ya'ni tabiat va jamiyat qonunlarini uyg'unlashtirishi nuqtayi nazardin qaraladi. Biz faqatgina ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy tomonlariga qarab guruhlashtirilgan tarzda beramiz (1.6.1-rasm).

Yuqorida keltirilgan inson faoliyatini ekologik jihatdan yo'naltiruvchi qonuniyatlar BMTning 1962-yil «Iqtisodiy rivojlanish va tabiat muhofazasi», 1968-yil «Insonlarning ekologik huquqlari», 1972-yil «Xalqaro ekologik hamkorlikning asosiy qoidalari», 1975-yil «Yevropada xavfsizlikni ta'minlashning yakuniy hujjati», 1992-yil «Biologik xilma-xillikni saqlash», 1982-yil «Umumjahon tabiatni muhofaza qilish xaritasi», 1995-


yil «Almati deklaratsiyasi», 1992-yil «O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni, 2008-yil «2008–2012-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitini muhofaza qilish ishlari dasturi», 1998-yil «O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va harakatlar rejasi» kabi xalqaro va milliy huquq manbalarida, dastur va rejalarida o'z aksini topgan.

1.6.1.-jadval

Ekologik fanlar guruhi va ulardag'i asosiy qonun va qonuniyatlar

Guruhi	Qonun va qonuniyatlar
<i>Umumiy ekologiya</i>	Uning nazariy jihatlari matematik, eksperimental ekologiyalariga doir qonuniyatlar: atomlarning biogen ko'chish qonuni; geometriyoviy asos – V.M. Goldshmit qonuni; energiya oqimining bir tomoniga yo'naltiriganligi qonuni; modda va energiyaning saqlanish qonuni; radioaktiv parchalanish qonuni; tirik organizmlarning (moddalarning) fizik va kimyoviy birligi – V.I. Vernadskiy qonuni; ekologik korrelatsiya qonuni va h.k.
<i>Bioekologiya</i>	Organizmlarning sistematik guruhlari, tabiiy biotizim, evolutsion va biosfera ekologiyasiga doir qonuniyatlar: biogenetik qonun; genetik xilma-xillik qonuni; irlsiy o'zgaruvchanlikning gomologik qatori – V.I. Vernadskiy va E.S. Bauer qonuni; evolutsion takrorlanmaslik – L. Dollo qoidasi; xilma-xillik zaruriyat qonuni va h.k.
<i>Geoekologiya</i>	Geografik, geologik, klimatologik, regional, biogeografik soha ekologiyalariga doir qonuniyatlar: tabiiy tarixiylik qonuni; konstantalik – V.I. Vernadskiy qonuni; daryo o'zanining ko'chib yurishi qonuni; tizimlarning tarkibiy to'liqligi qonuni; atrof-muhit hisobiga tabiiy tizimlarning rivojlanishi qonuni; tabiiy omillarning birgalidagi ta'siri – E. Mitcherxil, A. Tineman va B. Baule qonuni; evolutsiyani tezlatish qonuni va h.k.
<i>Amaliy ekologiya</i>	Injenerlik, sanoat, harbiy, agrar, bioresurslar, kommunal, meditsina ekologiyalariga doir qonun va qoidalar: tabiiy resurslarning cheklanganligi aksiomasi; hamma yashash muhitining bir xil qiymatga ega ekanligi qonuni; tayyor mahsulotlarni tabiiy sarfini kamaytirish qonuni va h.k.
<i>Ijtimoiy ekologiya</i>	Shaxs, jamiyat, davlat huquqi, oila, sotsial guruhlari, demografik ekologiyalarga doir qonuniyatlar: rivojlanishning cheksizligi qonuniyat; tizimlarning bir me'yorda rivojlana olmasligi yoki tizimlar tarkibidagi tizimchalarining turli vaqtarda rivojlanish qonuniyatları; ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va tabiiy resurs imkoniyatlarining o'zaro bog'liqligi qonuni va h.k.

Tabiat qonuniyatlarini o'zlashtirib olish va ularni jamiyat qonuniyatlarini bilan uyg'unlashtirish ekologik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy, balki yagona talablaridandir.



1.6.1- rasm. *Kishilik jamiyatida qonuniyatlarning ekologik jihatlari.*

Suveren O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yorqin ifodasi, uning ichki va tashqi munosabatlarini mustaqil tartibga solish huquqining yaratilishidadir. Bunday imkoniyatlarning yuzaga kelishi, bir tomondan, o‘zligimizni anglash va erkin munosabatlar tizimini yaratishga olib kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, xalqimiz hamda dunyo hamjamiyati oldida har bir fuqaro, jamoa va davlatga ulkan mas’uliyatlar yukladi. Chunki sobiq Ittifoq davrida respublikamizda yuzaga kelgan salbiy ekologik oqibatlarning barchasini Markazga yuklagan bo‘lsak, endilikda, har bir harakatlarimiz uchun o‘zimiz javob berishimizga to‘g‘ri keladi.

Biz inson, jamiyat, davlat va hamjamiyat oldidagi burchimizni anglagan holda jamiyat qonunlari, ya’ni huquq me’yorlarini xalqaro andazalarga mos ravishda ishlab chiqmoqdamiz. Unga yaqqol misol qilib mustaqillik davrida qabul qilingan O‘zbekiston Republikasi Konstitutsiyasi, yuzlab milliy qonunlar va minglab normativ hujjatlarni olish mumkin. Milliy qonun hujjatlarining barchasi inson huquqlari, erkinliklari va burchlari kafolatlaydigan umumbashariy standartlarga to‘g‘ri keladi. Lekin, hamma xalqaro huquq standartlari milliy qadriyatlarimizga va, ayniqsa, mahalliy tabiiy sharoitlarga mos kelmaydi. Shuning uchun ham milliy qonunlarni, ya’ni huquqiy xulq-atvor normalarini belgilashda, albatta, o‘zimizning mahalliy sharoit va imkoniyatlarimini inobatga olish darkor.

Tabiat qonunlarini jamiyat qonunlari bilan uyg‘unlashtirish principi birinchi bor 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 4-moddasida aks ettirilgan. Jinoyat kodeksida jazo tayinlash ikki omilga: aybdorning va qilmishning ijtimoiy xavflligiga qarab belgilanadi. Vaholanki, ijtimoiy xavfllik darajasini tabiat qonuniyatlaridan kelib chiqmagan holda tayinlanadi. Jazoning og‘irligini, bizning fikrimizcha, tabaqaqlashgan tarzda, ya’ni mahalliy tabiiy sharoitlarni inobatga olgan holda belgilash kerak. Chunki Orolbo‘yi hududidagi bir daraxtning ekologik funksiyasini tog‘ oldi, tog‘li yoki sug‘oriladigan hududlardagi bir daraxtning funksiyasi bilan aslo tenglashtirib bo‘lmaydi. Xullas, tabiiy obyektlarga nisbatan yuzaga keladigan jamiyatdagisi ijtimoiy munosabatlarni tabiatga mos ravishda uyg‘unlashtirish uchun *quyidagi chora-tadbirlarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish* talab etiladi (1.6.2-jadval).

Jadvaldagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tabiat va jamiyat qonuniyatlarini uyg‘unlashtirish va oxir oqibatda tabiiy tizimlarni saqlab qolish, atrof tabiiy muhit holatini sog‘lomlashtirish, lokal, regional va yalpi ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

*Tabiiy obyektlarga nisbatan yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarga
doir chora-tadbirlar*

Ijtimoiy sohalar	Chora-tadbirlar
<i>Kadrlar tayyorlash</i>	Tabiat va jamiyat qonunlarini uyg'unlashtira oladigan mutaxassislarni tayyorlash va qayta ixtisoslashtirish.
<i>Ta'lim</i>	Ikki bosqichli, ya'ni maxsus tabiiy va yuridik ta'lim tizimini tashkillashtirish.
<i>Ma'rifat</i>	Tabiat va jamiyat qonuniyatlariga oid lug'at va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish.
<i>Qonunchilik</i>	Jamiyat qonunlarini tabiat qonunlariga muvofiq ravishda qayta ko'rib chiqish.
<i>Fan</i>	Huquqbuzarliklar geografiyasi borasida ilmiy izlanishlar olib borish.
<i>Yurisprudensiya</i>	O'zbekiston Respublikasini ekologik-huquqiy jihatdan rayonlashtirish.
<i>Va shu kabi</i>	Tegishli ijtimoiy munosabatlarga yo'naltirgan ravishda.

1.7. O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati

Yer kurrasida yuzaga kelayotgan ekologik nobop muhitning chugurlashuvida ozmi-ko'pmi O'zbekistonning ham ishtiroki bor. Mamlakatimizda yashayotgan 30 milliondan ziyod aholining yarmidan ko'pi ekologik xavfli bo'lgan muhitda istiqomat qilmoqda. Orol dengizi va uning atrofida ro'y berayotgan ekologik inqiroz holati sovet davrining nockologik agrar-iqtisodiy siyosatining natijasidir. Shuning uchun ham davlatimiz, shaxsan Prezidentimiz Islom Karimov ekologik masalalarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlar bilan uyg'unlashtirgan holda olib borishni lozim deb topmoqda¹.

O'zbekistonning ekologik siyosati – davlatning ekotizimlarini muhofaza qilish, ularning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash borasida olib borayotgan ichki va tashqi faoliyat majmui.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma yig'ilishida atrof-muhofaza qilish sohasiga oid qonunchilikni yanada rivojlanтирish, ... insonni va mamlakat aholisini ekologiyaning xavfli va tajo-

¹ *Tabiat. Jamiyat. Ma'naviyat / Prezident Islom Karimov asarlarida ekologiya mafolalarining yoritilishi. To'ldirilgan ikkinchi nashr // Ekologik ta'lim va tarbiya uchun qo'llanna. – T.: O'zbekiston, 2009. 152-b.*

vuzkor o'zgarishlaridan himoya qilish» bugungi kunda respublikamiz uchun eng dolzarb masalalardan biri ekanligi, shuning uchun ham ekologik harakat vakillariga Qonunchilik palatasidan 15 ta joy ajratilganligi haqida ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2008–2012-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi» to'g'risidagi 212-sonli qarori asosida uzlusiz ekologik ta'lif va barqaror rivojlanish uchun ta'lif tizimini rivojlantirish belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif va Xalq ta'lifi vazirliklari tomonidan BMTning Barqaror rivojlanish uchun ta'lif bo'yicha Dekadasi hamda BMT Yevropa iqtisodiyot komissiyasining strategiyasini O'zbekiston Respublikasida bajarilishiga ko'maklashish va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 2010-yil dekabrida qabul qilindi. Ushbu dasturga 2011–2012-o'quv yilida oliy ta'lif muassasalarida tegishli ixtisosliklar bo'yicha ekologiya, tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish sohasiga oid o'quv uslubiy majmualarni takomillashtirish va joriy etish vazifalari kiritilgan.

Mustaqillik sharofati tufayli O'zbekistonda quyidagi taktik va strategik ekologik yo'nalishlar ishlab chiqilgan: «1999–2005-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi», «O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ekologik ta'minlashning milliy harakatlar rejasি», «O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit gigiyenasi bo'yicha milliy harakatlar dasturi», «Biologik rang-baranglikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va harakatlar rejasি». Ushbu ekologik dastur va rejallarda hozirgi kunda va kelajakda mamlakatimizda jamiyatning tabiatga nisbatan munosabat shakli qanday bo'lishi, uning ekologik konsepsiysi, maqsadi va prinsiplari belgilab berilgan. Ekologik maqsad va vazifalarni amalga oshirishning taktik va strategik harakatlar dasturi va yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy maqsadi — fuqarolarning hayotiy zarur ehtiyoji bo'lgan ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash uchun ekotizimlarni muhofaza qilish, ularning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash, ya'ni jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy-ekologik munosabat shaklini qo'llashdir.

Ma'lumki, mustaqillik davrigacha Turkiston, keyinchalik O'zbekiston chor Rossiyasiga va so'ngra, sobiq Ittifoqqa xomashyo yetkazib beruvchi chekka o'inka hisoblangan. Shuning uchun ham ular tabiiy va mineral xomashyo zaxiralardan maksimal holda ekstensiv ravishda foydalan-

ganlar, ya’ni jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy munosabat shaklini qo’llaganlar. Totalitar tuzumdagagi iqtisodiy munosabat shaklidan birdaniga (sakrab) ekologik munosabat shakliga o’tishning na nazariy va na amaliy iloji bor. O’zbekiston Respublikasining tanlagan yo’li – tabiat va jamiyat o’rtasidagi munosabatni iqtisodiy-ekologik shaklidan bosqichma-bosqich ekologik munosabat shakliga o’tkazishdan iborat.

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining «Milliy xavfsizlik konsepsiysi to‘g’risida»gi qonunida mamlakatimizning ekologik dunyoqarashida quyidagilarga e’tibor berilgan:

- shaxsning hayotiy zarur ehtiyoji bo’lgan kishilarning sog’lig’ini muhofaza qilish va insonlarning turmushi uchun optimal holatdagi ekologik sharoitlarni yaratib berish;
- jamiyatning hayotiy zarur ehtiyoji bo’lgan oilani har tomonlama qo’llab-quvvatlash, mo’tadil ekologik vaziyatni tashkil etish, aholining sog’lig’ini ta’minlash, jismoniy baquvvat avlodni shakllantirish;
- davlatning hayotiy zarur ehtiyojlarini bo’lgan barqaror rivojlanishni ta’minlash, mintaqaviy-iqtisodiy holatni mo’tadillashtirish, sog’lom hayot tarzini shakllantirish.

Shunday qilib, O’zbekiston uchun yagona shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy zarur ehtiyojlaridan biri bo’lgan ekologik xavfsiz muhit milliy xavfsizlikning ajralmas bir bo’lagidir. Respublikamiz ekologik siyosatining maqsadini amalga oshrish uchun davlatimiz barqaror rivojlanish bilan bir qatorda, muhofaza qilish va rivojlanish konsepsiyasini amalda qo’llashni ma’qul deb topdi. Bu degan so’z — shaxs, jamiyat va davlatning ekologik talablarini mintaqalar bo'yicha iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanish talablariga moslashtirish kerak. Davlatimizning ekologiya borasidagi maqsad va vazifalarini amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari 1.7.1-jadvalda ko’rsatilgan.

Tabiatni muhofaza qilishning Milliy dasturida ekologik xavfsizlikni ta’minlash va yuqorida aytib o’tilgan tadbirlarni quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirish tavsiya etilgan:

- davlat ekologik islohotlarning yo’lboshlovchisi;
- ekologik xarajatlarni moliyalash va ularning yangi sxemalarini jalb qilish;
- makroiqtisodiy va sohaviy ekologik siyosatni takomillashtirish;
- qishloq xo’jalik ishlab chiqarishini ekologiyalashtirish;
- atrof tabiiy muhit sifatini yaxshilash maqsadini qo'yish va standartlashtirish;
- ishlab chiqarishning ekologik talablarini chuqurlashtirish va h.k.

1.7.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi ekologik siyosatidagi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy chora-tadbirlar

T/r	Chora-tadbirlar
1.	Ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amalga joriy etish.
2.	Iqtisodiyot tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarни qo‘llash ustidan qattiq nazorat o‘rnatish.
3.	Atmosfera havosi va suvlarni insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta’sir etadigan moddalar bilan ifloslantirishni to‘xtatish.
4.	Qishloq xo‘jalik ekinlarini, eng avvalo, g‘o‘zani sug‘orishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish.
5.	Kollektor-zovur suvlarini daryolar va suv omborlariga tashlashni tartibga solish va oqova suvlarini chiqarib yuborishni batamom to‘xtatish.
6.	Sanoat korxonalarida atmosfera havosiga, suv havzalariga va tuproqqa ifloslantiruvchi hamda zararli moddalarни tashlaganlik uchun solinadigan maxsus soliqdan keng foydalanilgan holda mas‘uliyatni oshirish, ularda zamonaviy, samarali tozalash qurilmalar tizimini joriy etish.
7.	Boshlang‘ich xomashyodan tayyor, pirovard mahsulot olgunga qadar kompleks foydalanishga imkon beradigan yangi, zamonaviy, ekologik jihatdan samarali uskunalarini o‘rnatish.
8.	Qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqishning tabiiy ravishda kengayishini ta‘minlaydigan hamda qayta tiklanmaydigan zaxiralarni qat’iy mezon asosida iste’mol qilingan holda hamma turlaridan oqilona foydalanish.
9.	Foydalı qazilmalardan oqilona foydalanish.
10.	Boshlang‘ich xomashyodan to‘liq foydalanishni ta‘minlash va buning uchun es-kirgan uskunalarini almashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ayrim sexlar, uchastkalar va korxonalarini rekonstruksiya qilish asosida foydali qazilmalarni sanoat usulida yanada to‘liq va oqilona qazib olish.
11.	Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun tog‘-kon sanoatining chiqindilarini o‘zlashtirishni yanada kengaytirish hamda buzilgan yerlarni qayta yaroqli holga keltirish (rekultivatsiya qilish).
12.	Keng maydonlardagi tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta‘minlaydigan darajada aniq, maqsadli, ilmiy asoslangan tarzda o‘zgartirish (daryolar oqimini tartibga solish hamda suvlarini bir havzadan ikkin-chisiga tashlash, yerning fizik xususiyatlarini yaxshilash, suv chiqarish va shunga o‘xshash tadbirlarni amalga oshirish).
13.	Jonli tabiatning xilma-xilligini saqlash, tabiiy genofondni madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko‘paytirish hisobiga boshlang‘ich baza sifatida saqlab qolish.
14.	Qurilish va obodonlashtirish rejalarining ilmiy asoslangan, hozirgi zamon urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimni joriy etish yo‘li bilan shaharlarda va aholi punktlarida ekologik xavfsiz muhitni tarkib toptirish.

	Jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish. Orol muammosi bugungi kunda chinakam keng ko'lamli, butun sayyoramizga daxldor muammo bo'lib qolganligini, uning ta'siri hozirning o'zidayoq biologik muvozanatni, bepoyon hududlarda aholining genofondlarga halokatli ta'sir ko'rsatayotganligini nazarda tutish.
16.	Xalqaro tuzilmalarning zaxiralari, imkoniyatlari va investitsiyalarini yuqorida zikr etilgan muammolarni hal qilishga jaib etish.

O'zbekiston Respublikasining yuqorida aytib o'tilgan ekologik siyosatini amalga oshirish tabiat va jamiyat qonunlarini uyg'unlashtirish, ekologik chora-tadbirlar va asosiy tanlangan tamoyillarning hayotga tatbiq qilish mexanizmini ishlab chiqish va amalda qo'llash mammakatimizda jamiyatning tabiatga nisbatan ekologik munosabat shakliga o'tib olish imkonini beradi. Bunday ekologik siyosat shaxs-jamiyat-davlatimizning milliy xavfsizligini ta'minlashda katta xizmat qilishi-ga hech shubha yo'q.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Tabiat, inson, jamiyat, davlat va hamjamiyatga izoh bering.
2. Kishilik jamiyati tarixida qanday munosabat shakllari ajratiladi?
3. O'zbekiston Respublikasi qanday munosabat shaklida turadi va nima uchun?
4. Nima uchun biz jamiyatning tabiatga nisbatan 3 ta munosabat shakli o'rniغا 5 ta shaklini ajratamiz?
5. Ekologik munosabat shaklini yoritib bering.
6. Nima uchun aynan Markaziy Yevropada XIX asrning ikkinchi yarmida biologlar tomonidan «Ekoliya» faniga asos solindi?
7. Ernest Gekkel «Ekoliya» atamasiga qanday izoh bergan?
8. Hozirgi zamonda organizmlar necha qismga ajratiladi?
9. Ekoliya fanini biz nima uchun mustaqil amaliyot sohasi sifatida ko'rib chiqamiz?
10. Ekoliyanı tabiiy fanlardan farqini ajratib bering.
11. Ekologik xavfsizlik tushunchasiga izoh bering.
12. Tabiat va kishilik jamiyati qonunlarini uyg'unlashtirib ko'ring.
13. Tabiat va jamiyat qonuni bilan qonuniyatlarining farqi nimada?
14. O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati qanday milliy qonunchilik manbalarida aks ettirilgan?

Fanda ajratilgan tasnifiy guruh qaytarilmasiligi, oddiy nomlanishi va amaliyotga yaqin bo'lishi lozim.

prof. D.L. Armand

2-bob. EKOTIZIM TUSHUNCHASI, TASNIFLANISHI VA BARQARORLIGI

2.1. Ekotizim – ekologiya fanining obyekti

Biz yuqorida ekologiya – organizmlarning uyi, yashash joyi, makan ni haqidagi ta'lilot ekanligini ayтиб о'tдik. Shunday ekan ularning yashash joyi, makoni qayerda? Ushbu makonni qanday guruhlarga ajratish mumkin? Guruhlar o'rtasidagi bog'liqlik qanday? Ular qanday mazmun va mohiyat kasb etadi, degan savollar o'z-o'zidan yuzaga keladi.

Taniqli geoekolog olim, professor Asom Rafikov¹ ekotizim bilan geotizim o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni ochib berar ekan, u ekotizim monotsentrik, geotizim esa politsentrik kompleks deb ataydi. Eko tizimlarni tasniflashda trofik zanjir (oziq-ovqat) va adaptatsiya hodisasi birlamchi ahamiyat kasb etsa, geotizimlarda – muhit ustuvorligi, deydi. Geotizimlar ekotizimlarga nisbatan murakkab tuzilgan yuqori vertikal tuzilishga ega. Olimning ayrim hududiylilik va kenglik doirasidagi fikrlariga qo'shilish bilan bir qatorda, uning ayrim dunyoqarashlariga qo'shilish qiyin. Chunki, birinchidan, ekotizim va geotizim ham ierar xik pog'onada turuvchi majmualardir. Zero ular qismlarga ajratiladi va ierarxik pog'onaga joylashtiriladi. Geotizimlar nafaqat quruqlik geotizimlардан, balki havo va litolik kengliklar, suv akvatoriyalari, tuproq qatlamlaridagi tizimlardan ham iboratdir. Geotizimlar geografik qobiqdan pastga tomon tasniflansa, ekotizimlar ekosferadan pastga tomon qismlarga ajratiladi. Geotizimlarning eng kichik taksonomik birligi «fatsiya» darajasigacha tushsa, ekotizimlar – bir tomchi suvgacha bo'lgan kichik taksonomik birlikni ham qamrab olishi mumkin. Eko tizimlarga ozuqa zanjiri emas, balki ularning yashash muhiti, makoni nuqtayi nazaridan qarash mantiqan to'g'ridir.

Shunday ekan, ekotizimlar o'z tasniflash birliklarida muayyan geotizimlarni ham qamrab olishi mumkin, zero geoekologiya ekologiyaning bir tarmog'idir. Geoekologiya asosan quruqlik geotizimlарни o'rgansa, ekologiyaning yana bir tarmog'i «Gidroekologiya» – suv ekotizimlарini, «Atmosfera ekologiyasi» – havo kengligidagi ekotizim

¹ A.A. Rafikov. Geoekologiya asoslari // Ma'ruzalar matni. – T.: O'zMU nashriyoti, 2000. 10–11-b.

larni, «Tuproq ekologiyasi» uning qatlamlaridagi ekotizimlarni, «Geologik ekologiya» esa ekopedosferadagi ekotizimlarni tadqiq qiladi.

Bizningcha, ekologik tadqiqotlarning debochasi – ekotizimlarning aniqlashtirib olish, ya’ni uning tadqiqot obyektiga oid izlanishlarini olib borishdir. Chunki falsafaning mustaqil fan va fanlar tizimiga qo’tyadigan talablaridan birlamchisi aynan uning *tadqiqot obyekti hisoblanadi*¹. Ushbu masala yangi fanlarning nazariy asoslari orqali aniqlanadi.

Avvalambor, har bir *fan sohasi yoki fanlar tizimi mustaqil* ravishda e’tirof etilishi yoki amalda saqlanib qolinishi uchun uning o’ziga xos *izlanish yoki tadqiqot obyekti, predmeti, metodologik va metodik asoslari, prinsiplari, olingan natijalarini tatbiq etish joylari, ta’lim berish va tarbiyalashning o’ziga xos xususiyatlarining bo’lishi talab etiladi*. Aks holda ushbu yangi fan sohasi yoki fanlar tizimi hayotda o’z o’rnini topa olmaydi, eskilari esa asta-sekin «e’tibordan chetda» qolib yoki «omixtalashib» ketadi.

Ekologyaning, to‘g’rirog‘i ekologik fanlarning yagona obyekti bormi? Ha bor! U ham bo’lsa ekotizimlar. Ekotizimlar doirasida barba’ra ekologik fanlar o’z tadqiqotlarini olib bo’ndi. Unda kechayotgan hodisa va jarayonlariga oid fikr va mulohazalarini yuritadi hamda o’z nazariy va amaliy xulosalarini bildiradi. Obyekt so’zining o’zi lotinchadagi «objektum» «narsa» so’zidan olingan bo’lib, u subyektga (tadqiqotchiga, izlanuvchiga, o’rganuvchiga) qarama-qarshi bo’lgan hamda insonlarning bilish faoliyatiga qaratilgan obyektiv borliq².

Shunday qilib obyekt kishilarning ongidan mustaqil hosil bo’lgan obyektiv reallik. Ekotizimlar, u qanday ko’rinishda va chegarada ifodalanmasin, baribir, kishilar onginining mahsuli emas. Shuning uchun ham ekologiya obyektni uning predmeti bilan almashtirish, yoki ularni bir ma’noda talqin qilish, yoki unga boshqacha ma’no berish falsafiy usosga mos kelmaydi.



Yudjen Odum

¹ O. Fayzullayev. Falsafa va fanlar metodologiyasi. – T.: Falsafa va huquq nazariysi nashriyoti, 2006. 16-b.; N. Shermuhamedova. Falsafa va fan metodologisi. – T.: O’zMU nashriyoti, 2005. 21–27-b.; Fanlar. O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 9-jild. 182-b.

² Obyekti. O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – T.: «O’zME davlat ilmiy nashriyoti», 2003. 441-b.

Ekologiyada *ekotizim* – muayyan tabiiy muhitda energiya oqimi orqali aniq bir biotik tuzilish, organik va noorganik dunyo orasida moddalarning aylanishi¹. Yudjen Odum (1977) ekologiya organizmlar darajasidan yuqori pog'onalarda turuvchi tizimlarni tadqiq qiladi, deb ta'kidlaydi. Organizmlar populatsiyasi jonsiz muhit bilan birqalikda tadqiq qilinadi va yagona ekotizimlarni hosil qiladi, deya o'z fikrini davom ettiradi².

Buyuk rus ekologi N.F. Reymers³ «alohida bir ekologik komponentlar o'rtaida o'zaro munosabatlar va undagi oqibatlar natijasida kelib chiqadigan funksional bir butunlikni hosil qiluvchi har qanday organizmlar jamoasi va ularning muhiti», deydi.

Ekotizim so'zini ilk bor fanga angliyalik ekolog olim A. Tensli 1935-yili olib kirdi. Bunga qadar organizmlar va muhit o'rtasidagi hududiy bog'liqlikni Karl Myobius (1877) va V.V. Dokuchayev (1993) kabi tadqiqotchilar ham aytib o'tishgan, lekin aniq bir atama bilan ular ekotizimlarni nomlashmagan va uni aynan ekologik fanlarga tegishli qilib ko'rsatishmagan.



XX asrning 50–70-yillari K. Bertensfali (1950, 1960) tizimlar nazariyasini ishlab chiqqandan so'ng ekologlar (Margalef, 1968; Uatt, 1968; Petten, 1966, 1971; Van Dayn, 1966; Odum, 1971) ekotizimlarni son jihatdan baholash ko'rsatkichlariga o'z e'tiborlarini qarata boshladilar. Ular bir ekotizim qay darajada katta ekotizimlar funksiyasi qonunlariga to'g'ri kelishi, ularni boshqarish va undagi organizmlarni saqlay yoki tanlay olishi haqida mulohaza yurita boshladilar. Ushbu yirik ekologiya fani namoyandalari ekologik tadqiqotlarga tizimli yondashuv zarurligi va u ekologiyaning asosiy tadqiqot obyekti ekanligini yoqlab chiqdilar. Ekotizimlardagi har bir komponent va undagi ichki va tashqi jarayonlar tizimli yondashuvga bo'ysunishi 2.1.1-rasmda ifoda etilgan.

Y. Odumning ukasi G. Odum (1967, 1971) ekotizimlar o'rtasidagi o'zaro tashqi aloqalar ham aynan tizimli yondashuvga mos kelishi kerakligini ochib berdi. G'arb tadqiqotchilari ekotizimlarni tizimli o'rganishda ko'proq holat va jarayonlarni matematik modellashtirishga harakat qildilar (2.1.2-rasm). Hammamizga ma'lumki matematik model aynan sxema va grafik ko'rinishdagi blok-sxemalar orqali namoyon etiladi. Lekin ularni olib borish uchun ko'p yillik va qaytarilishlarga ega bo'lgan dala, kamerasi va laboratoriya tadqiqotlarini olib borish talab etiladi.

¹ Ю.О. Одум. Экология. Том I. – М.: «Мир», 1986. 24-б.


² Shu yerda. 44-б.

³ Н.Ф. Реймерс. Природопользование. Словарь-справочник -- М.: «Мысль», 1990. С. 599.



2.1.1-rasm. *Ekotizimlarning ichki (A) va tashqi (B) funksional tizimlashuvi* (Y. Odum, 1986).

Aks holda ekologik jarayonlarni modellashtirish natijasi kutilgan natijani bermasligi va haqqoniylig darajasi (R – o'rtacha ruxsat etiladigan xatolik ko'rsatkichi) past bo'lishi mumkin.



2.1.2-rasm. *Ekologik tizimlarni modellashtirishda inobatga olinishi lozim bo'lgan komponentlar* (Y. Odum, 1986): E – harakatlanuvchi kuch; P – xususiyat; F – oqimlar; I – o'zaro ta'sir.


Keltirilgan sxemalardan ko'rinish turibdiki, ekotizimlarda barcha komponentlar ierarxik pog'onada tizimlashgan tarzda turadi. Eng pastki pog'onani egallagan ekotizim komponentida yuqoridagi komponentlarga nisbatan ushbu «yashash makonini», ya'ni ekotizimni tark etish imkoniyati doimo yuqori bo'ladi. Lekin quyi pog'onadagi komponentlarning ekotizimlarni tark etishi, albatta, yuqori pog'onadagi komponentlarga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Shu tariqa ekotizimlarda salbiy, talafotli va inqirozli holatlar yuzaga keladi. Misol tariqasida «ozuqa zanjirini» olaylik. Ozuqa piramidasining quyi pog'onasidagi o'simliklar dunyosining kamayishi, o'z navbatida o'txo'r hayvonlarning kamayishiغا, o'txo'larning yo'qola borishi esa yirtqich hayvonlarning hayotiy faoliyatiga ta'sir etmay qolmaydi va aksincha.

Ekotizimlarni trofik tuzilishi (oziqlanishi) nuqtayi nazaridan ikki yarusga ajratish mumkin. Yuqori – avtotrof yoki «yashil kamar», quyi geterotrof «jigarrang kamar». Biologik nuqtayi nazaridan ekotizimlarni – *noorganik moddalar* (C, N, CO₂, H₂O va h.k.), *organik birikmalar* (oqsil, uglevodlar, lipidlar, gumin va h.k.), *havo, suv va substratlar*, jumladan iqlim rejimi; produtsentlar (noorganik moddalardan oziqlanuvchilar) va h.k.

Ekotizimlarning tuzilishida qaysi yarus qay darajada faoliyat yurishi 2.1.3-rasmda yaqqol ko'rinish turibdi. Lekin unda litosfera va atmosferadagi organizmlar chetda qolib ketgandek tuyiladi. Shuning uchun ham ekotizimlarni tadqiq qilish doimo dolzarb masala hisoblanadi.

Ekotizimlarni tadqiq qilishda asosan ikki xil yondashuv qo'llaniladi: *xolistik*, ya'ni bir butunlik va *merologik*, ya'ni qismlarga ajratish.

Xolistik yondashuv – ekotizimlarda modda va energiya oqimining barcha komponentlarini son va sifat jihatidan majmuali tadqiq qilish. Masalan, amerikalik ekolog J. Xatchinson (1964) o'zining «*Ko'l mikrokosmoslarini ko'rib chiqishning yangi tajribasi*» nomli kitobida E. Birgening tadqiqotlarida asosiy e'tibor ko'l ekotizimining tarkibini o'rganishga emas, balki unga kelib tushadigan energiya oqimining miqdorini o'lchashga bag'ishlagan.



2.1.3-rasm. *Quruqlik (yaylov) va suv (ko'l yoki dengiz) ekotizimlarining taqqoslanishi* (Y. Odum, 1986).

Merologik yondashuv – ekotizimlarni birlamchi va ikkilamchi qismlarga ajratish va uning asosiy komponentlariga ta'sir etuvchi omillar, hodisa va jarayonlarni o'rganishdan iborat. So'ngra, olingan natijalar asosida butun bir ekotizimlar haqidagi tasavvurlar tahlil etiladi va umumlashtiriladi.

Ekotizimlarda jonli va jonsiz tabiat o‘zaro uzviy bog‘liqlikda turadi. Bu degan so‘z, jonsiz tabiiy omillar – temperatura, namlik, yorug‘lik kabi omillar organizmlarning tuzilishi, tarkibi, harakati va bosh morfologik va morfometrik ko‘rsatkichlariga bir tomonlama ta’sir etmasdan, balki organizmlar ham ularga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Masalan, o‘rmonda daraxtlarning morfologik va morfometrik ko‘rsatkichlari o‘rmon ekotizimlari o‘z tuprog‘i, iqlimi, suvi va unda tarqalgan hayvonot olami, ya’ni asosiy komponentlari bilan uning yonida turgan dasht ekotizimlaridan keskin farq qiladi. O‘rmonlarning kesilishi dasht ekotizimlariga xos iqlim, tuproq, suv va organizmlarning shakllanishiga olib keladi. Ekotizimlarda organizmlarning rang-barangligi, soni va tarkibi notirik tabiatning tarkibiga to‘g‘ri proporsionaldir (2.1.1-jadval). Shuning uchun ham tabiiy ekotizimlarning organik dunyosini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va biologik xilma-xillikni saqlash hamda qayta tiklash amaliy ekologiyaning eng dolzarb mummolaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

2.1.1-jadval

Quyosh tizimidagi ayrim sayyoralarining kimyoviy va fizik ko‘rsatkichlari (Lovelock, 1979)

Ko‘rsatkichlar	Mars	Venera	Hayotsiz yer	Yer
Atmosferadagi gazlar miqdori, %				
uglerod ikki oksidi	95	98	98	0,03
azot	2,7	1,9	1,9	79
kislород	0,13	Izlar	Izlar	21
Yuza harorati, °C	-53	477	290±50	13

Har yili Yer planetasida 100–120 mlrd tonna organik moddalar hosil bo‘ladi. Taxminan shuncha organik modda parchalanib CO_2 va H_2O ga aylanadi. Ushbu muvozanat doimiy konstantaga ega emas. Masalan, uzoq o‘tmishdagi geologik bosqichlarda ushbu muvozanatning buzilishi yerda organik dunyoning son va sifat jihatidan keskin o‘zgarishiga olib kelgan¹.

Ekotizimlar barqarorligi – ekotizimlarning ichki komponentlari o‘rtasidagi muvozanat doimiyligi va uning tashqi omillarga qarshi turish qobiliyati. Ammo ekotizimlar barqarorligi doimiy emas. Ular o‘zgaruvchan va doimiy harakatdadir. Ekotizimlar maydon va makonda turli tezlikda o‘zgarib turadi. Bu yerda uning hajmi va kattaligi juda katta rol o‘ynaydi. Ekotizim qanchalik katta maydon yoki makonni egallasa un-

¹ Т.Н.Долимов, В.И.Троицкий. Эволюцион геология. – Т.: ЎзМУ нашриёти, 2005. 512-6.

da dinamik holat shuncha sekinlik bilan kechadi. Masalan, bir tomchi suv ham millionlab mikro- va nanoorganizmlar uchun makon hisoblanadi. Tomchi suvning qurishi esa bir soniyada ham sodir etilishi mumkin. Lekin okean, dengiz, daryo va ko'llarning qurishi mavsumiy, davriy yoki geologik bosqichlar davomida sodir etiladi. Bunga moslashgan organizmlar suksessiya hodisalarining sekunlashuv qonuniga bo'ysingan tarzda hayot kechiradilar. Agarda bu jarayon davriy bo'lmasdan doimiy ko'rinish tusini olsa unda yangi ekotizimlar paydo bo'ladi.

Ekotizimlarning doimiy ravishda o'zgarishini fanda *suksessiya hodisasi yoki jarayoni* deb ataladi. Biologiyada ushbu hodisani bir turni ikkinchi bir tur bilan almashinuvi deb tushuntiriladi. Vaholanki bu yerda o'simliklar emas, balki ularning yashash makoni o'zgargani uchun ham suksessiya hodisasi ro'y beradi.


Suksessiya ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi – birlamchi va ikkilamchi. Birlamchi suksessiyada organizmlar avvalgi holatini qaytarmagan tarzda sodir etiladi. Yer planetasida turli ekotizimlarning ilk paydo bo'lishi, ularning rivojlanib hozirgi holatda namoyon bo'lishini olish mumkin.

Ikkilamchi suksessiya jarayoni ekotizimlarning tiklanishi yoki biring o'rniga ikkinchi bir ekotizimlarning yuzaga kelishi bilan ifodalanadi (2.1.4-rasmda quruqlikda dinamik ravishda turli ekotizimlarning yuzaga kelishi ko'rsatilgan). Atrof-muhitning doimiy ravishda o'zgarib borishi bir ekotizim o'rnini ikkinchisi bilan almashinuvi natijasidir. Ikkilamchi suksessiyaga o'rmonlarni yong'in natijasida yonib ketishi va uni yana qayta tabiiy yoki sun'iy ravishda tiklanishi, tuproqlarni suv yoki shamol eroziyasi natijasida yuvilib ketishi va qayta tiklanish jarayoni ham kiradi. Albatta, ikkilamchi suksessiya tabiiy yoki sun'iy ravishda kechishi ham mumkin. Sun'iy tiklanish kishilik faoliyatining ijobjiy antropogen jarayonlariga kiritiladi.

Ekotizimlar klimaksasi – suksessiya jarayonining tugashi va ekotizimlarning bir maromda o'z xossa va xususiyatlarini ushlab turishi, ya'ni ekotizimlar dinamik o'zgarishining sekunlashuvi yoki odatiy ko'rinishga ega bo'lishi. Odamlarda ham bu holat kuzatiladi va uniginekologiyada «klimaksa davri» deb ataladi.

Ekotizimlarda modda va energiya almashinuvining buzilishi ekologik talafot yoki ekologik inqirozga olib kelishi mumkin. Unda ekotizimlar komponentlari o'rtasidagi shu ekotizimlarga xos bo'lган muvozanat buziladi. Agarda ushbu ekologik buzilish ikkilamchi suksessiyaga tushsa ekologik talafot deya ataladi va uni tabiiy yoki sun'iy ravishda qayta

tiklash imkoniyati yuzaga keladi. Agarda birlamchi suksessiya natijasida sodir bo'lgan ekotizimni o'z holatiga qaytarish imkoniyati tug'ilmasa uni ekologik inqirozli holat deb yuritiladi.

Boshoqli o'tlarning paydo bo'lishi	Yillar	
	0–1	
Baland boshoqli o'tlarning o'sihi	1–3	
Qarag'aylarning paydo bo'lishi	3–10	
Qarag'ayzorlarninig yuzaga kelishi	10–30	
Qarag'ayzorlarga ingichka bargli daraxtlarning kirib kelishi	30–70	
Klimaksli aralash o'rmon	70+	

2.1.4-rasm. *Ikkilamchi suksessiya.*

Suksessiya evolutsiyasi natijasida yangi ekotizimlarga moslashgan yangi turdag'i organizmlar paydo bo'ladi, eskilari unga moslashadi, moslasha olmagani ko'chadi yo nobud bo'ladi. Buni Charlz Darvinnning evolutsion rivojlanish ta'limotida keng yoritib berilgan.

2.2. Ekotizimlarning tasniflanishi

«Klassifikatsiya» (yoki o'zbekchada «tasniflash») terminining o'zagi lotinchadagi «klass» – bo'g'inlash, razryadlash degan so'zning ma'nosiga to'g'ri kelib, u narsa yoki hodisalarining umumiy ko'rsatkichlariga qa-

rab bo'lish degan ma'noni anglatadi¹. Ekotizimlarni tasniflashga, ya'ni guruh yoki klasslarga ajratishga oid o'nlab taklif va mulohazalar kiritilgan. Ammo, hanuzgacha fanda ekologiyaning obyekti bo'lmish ekotizimlarning yagona, umume'tirof etilgan tasniflash jadvali yoki sxemasi yo'q. Bu o'rinda namuna sifatida kimyo fanidagi D. Mendeleyev davriy tizimidagi kimyoviy moddalarning, geografiyada esa geotizimlarning ierarxik tasniflagichini (Nigmatov, 2010) olish mumkin. Biz Y. Odumning ikki jiddlik «Ekologiya» kitobida, ekotizimlarni tasniflash turli ko'rinishda bo'lgani ham ma'qul, degan fikriga qo'shila olmaymiz. Rossiyalik buyuk «klassifikator olim» D.L.Armandning (1975) fikriga qo'shilgan tarzda biz har bir narsa, hodisa yoki jarayonlarni tasniflashda:

- falsafaning fanlar metodologiyasiga qo'yiladigan talablarga javob bera olishi;
- muayyan bir maqsadga yo'naltirilganligi;
- ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi;
- ajratilgan guruhlarning takrorlanmasligi;
- guruhlarning nomlanishi oddiy va ravon ko'rinishda ifoda etiliishi;
- metodik jihatdan uni tadqiq qilish imkoniyatiga ega bo'lishlik va hokazo kabi talablardan kelib chiqilishi zarur.

Hanuzgacha ekologiyada ekotizimlarning tasniflanish qoidalari va natijalari ishlab chiqilmagan. Shuning uchun bo'lsa kerak turli fan yo'nalishida faoliyat yuritgan ekolog olimlar ekotizimlarni turlicha, ya'ni o'zining ixtisosligiga mos ravishda guruhshtirish va tahsil qilishga urinadilar. Masalan, Y.Odum (1986) ekotizimlarni tasniflashda ularning funksional va tuzilish belgilariiga qarab tasniflaydi. Funksional tizimlashda u «harakat kuchi» energiyaning son va sifat ko'rsatkichlarini inobatga oladi. Ushbu tasniflash va nomlashda Y.Odum energiya bilan bir qatorda quruqlik ekotizimlarini o'simlik dunyosi bilan qoplanganlik darajasini ham inobatga oladi (2.2.1-jadval). Suv ekotizimlarida esa uning geologik va fizik xususiyatlarini ajratadi. Umuman Yer kurrasida 16 ta asosiy global ekotizimlarni ajratadi, xolos. Lekin ekotizimlarni tasniflashda Y.Odum mikroorganizm va nanoorganizmlarning yashash muhitini inobatga olmaydi. Chunki u davrda ekologiya o'simlik va hayvonot dunyosining «yashash muhit» nuqtayi nazaridan qaralgan edi.

¹ Класс. Классификация. Краткий словарь иностранных слов. — М.: Гос.изд иностранных и национальных словарей, 1952. С. 179.

Rossiyalik tadqiqotchilar N.I. Nikolaykin, N.Y. Nikolayenko va O.P. Melexovalar¹ ham Y. Odum singari, yirik ekotizimlarni global miqyosda biomlar darajasidagi geotizimlar doirasida tasniflaganlar. Masalan, quruqlik ekotizimlariiga – sahro (tropik, mo‘tadil, sovuq iqlim mintaqalaridagi), o‘qli ekozimlari (savanna, mo‘tadil poyas, qutb yoki arktik), o‘rmon ekozimlari (nam tropik, bargini tashlovchi mo‘tadil poyas, shimoliy igna bargli). Suv ekozimlariiga – suv biotsenozi ekozimlari, Dunyo okeani ekozimlari, oqmaydigan suv havzalari ekozimlari, evtrofik suv havzalari, oqar suv havzalari ekozimlari. Garchand ushbu tasniflash Y. Odumnikiga nisbatan keng qamrovli bo‘lsada, lekin u falsafaning tasniflash qoidalariga mos tushmaydi. Unda yagona tasniflash prinsiplari va qoidalariga amal qilinmagan.

Angliyalik ekolog olimlar M. Bigon, J. Xarper va K. Taunsendlar² ekozimlarni tasniflashda har bir fizik ko‘rsatkichni alohida-alohida tasniflashni yoqlab chiqqanlar. Lekin, ular ekologiyani majmualilik, ya’ni barcha ekozim komponentlarining yagona bir kompleks bo‘lib harakat qilishini inobatga olmaganlar.

Fransiyalik ekolog olim R. Dajo (1975) o‘zining «Ekologiya asoslari» kitobida ekozimlarni emas, balki ekologik omillarni tasniflash bilan cheklanib qolgan. U iqlim omillaridan temperatura va namlik asosida organizmlarni guruhshtirishni taklif qilgan.

N.F. Reymers (1990) ekozimlarni ularning o‘lcham birligiga qarab mikro-, mezo-, makro- darajasida tasniflashni olg‘a suradi. Bu bizningcha ham mantiqan to‘g‘ridir. Zero, ekozimlar turi aynan organizmlarning katta-kichikligiga qarab ham tasniflanadi. XXI asrning boshiga kelib nanotexnologiyalar rivojlanayotgan bir paytda ekozimlar mikroorganizmlardan tashqari nanoorganizmlar nuqtayi nazardin ham tasniflashni talab etmoqda. Shuning uchun ham biz ekozim egallagan maydon va makonga qarab quyidagicha tasniflashni yoqlab chiqamiz (2.2.1-rasm).

Ekozim o‘lchami – ekologik komponent va uning elementlarining o‘zini boshqarish va qayta tiklash imkoniyatini yaratuvchi yer maydoni, suv akvatoriyasi, havo va yer osti kengligi. Organizmlar yer usti, atmosfera havosi, suv va yer osti kengliklarida yashar ekanlar, ular muay-

¹ Н.И. Николайкин, Н.Е. Николаенко, О.П. Мелехова. Экология. – М.: «Дрофа», 2004. С. 181.

² М. Бигон, Дж. Харпер, К. Таунсенд. Экология: особии, популяции и сообщества. – М.: «Мир», 1989. С. 64–114.

yan muhitni yoki makonni egallaydilar. Tasniflanishda, albatta, shu to'rt organizmlar yashash muhiti nuqtayi nazaridan ham ekotizimlarni tasniflash talab etiladi. Aks holda biosfera yoki ekosferaning yuqori chegarasini stratosferaning o'rta qismigacha, quiyi chegarasini esa yer po'stining yuqori qismigacha tushirish mantiqan to'g'ri bo'lmaydi.

2.2.1-jadval

Biosfera biomlari va tabiiy ekotizimlarning asosiy tiplari (Y. Odum, 1986)

Biomlar va tabiiy ekotizimlar	Asosiy tiplar
Quruqlikdagi biomlar	<ul style="list-style-type: none"> • Tundra: arktik va alp. • Boreal igna bargli o'rmonlar. • Mo'tadil zonadagi bargli o'rmonlar. • Mo'tadil zona dashtlari. • Tropik graslend va savannalar. • Chaparal – yozi quruq va qishi seryog'in rayonlar. • Cho'l: o'tli va butali. • Yarim doimiy yashil tropik o'rmonlar: nam va quruq faslli. • Doimiy yashil tropik yomg'irli o'rmonlar.
Chuchuk suv ekotizimlari	<ul style="list-style-type: none"> • Lentik (muallaq suvlar): ko'l, hovuz va boshqalar. • Lotik (oquvchi suvlar): daryo, soy, irmoq va boshqalar. • Botqoqli yerlar: botqoq va botqoqli o'rmonlar.
Dengiz ekotizimlari	<ul style="list-style-type: none"> • Ochiq okean (pelagik). • Kontinental shelf suvleri (sohil bo'yli suvleri). • Apvelling rayonlari (baliqchilik keng tarqalgan hududlar). • Estuarialar (sohil bo'yli qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, daryolarni quyilish joylari, sho'rlangan marshlar va boshqalar).

Maydon va makonga qarab tasniflashgan ekotizimlar tarkibi taxminan quyidagi qismlardan iborat bo'lishi mumkin:

- **Makroekotizimlar** – ekosfera, ekoatmosfera, ekolitosfera, pedosfera, gidrosfera.
- **Mezoekotizimlar** – ekoatmosfera, ekolitosfera, gidrosfera, pedosfera qatlamlari.
- **Miniekotizimlar** – ekoatmosfera, ekolitosfera, gidrosfera, pedosfera qatlamlaridagi o'ziga xos ekotizimlar.
- **Mikroekotizimlar** – mikroorganizmlarning yashash muhiti darajasidagi ekotizimlar.
- **Nanoekotizimlar** – nanoorganizmlar yashash muhiti darajasidagi ekotizimlar.

Ko'pgina ekologiyaga oid nufuzli adabiyotlarda – D.V. Valovaning «Основы экологии», (2001); M.I. Budikoning «Глобальная экология»,

(1977); A. To'xtayev va A. Hamidovlarning «Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish», (1994); R.U. Beknazov va Y.V. Novikovlarning «Охрана природы», (1995); X.T. Tursunovning «Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish», (1997); A. Ergashevning «Umumiy ekologiya», (2003); A.N. Nigmatovning «Ekologiya nima?», (2005); X.T. Tursunov va T.U. Rahimovalarning «Ekologiya», (2006); A.N. Nigmatovning «Ekologiya», (2008); A.E. Ergashev va boshqalarning «Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish», (2009) ham ekotizimlarga tasnif deyarli berilmagan. Vaholanki, ekotizimlar tasnifi ekologiyaning bosh ilmiy-nazariy masalasi bo'lib hisoblanadi.



2.2.1-rasm. *Ekotizimlarni maydon va makonga qarab tasniflanishi.*

Ekotizimlar tasnifiga oid yuqoridagi tahlildan kelib chiqqan holda biz quyidagi xulosalarga keldik:

- aksariyat hollarda organizmlarning yashash makoni bo'lgan ekotizimlar ekologiya fanining obyekti sifatida ko'rib chiqilmayapti;
- ekotizimlarning yagona umume'tirof etilgan tushunchasi yo'q;
- ekotizimlar aosan quruqlik yuzasi va suv havzalari nuqtayi nazardin tasniflangan xolos;
- tadqiqotchilarining e'tibori organizmlarning yashash makoni – litosfera va atmosfera muhiti ekotizimlariga yetarli darajada qaratilmagan;
- gidro-, pedo-, atmo-, litosferalar yagona ekosfera doirasida tasniflanmagan;
- hozirgi kunda ekotizimlarning ekosfera darajasida tasniflashda umumiy hidrologik (jumladan, «Okeanologiya» fanining yutuqlaridan foydalangan tarzda), tuproqshunoslik (jumladan, «Tuproqlar geografiyası»), geografik (jumladan, «Tabiiy geografiya»), fizik (jumladan, «At-

mosfera fizikasi»), geologik (jumladan, «Litologiya») tasniflanishidan foydalanish mumkin;

- kelajakda ekosfera ekotizimlarini tasniflashning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish va uni umume'tirof etiladigan darajada tasdiqlash lozim.

Umuman olganda, ekotizimlarni ekosfera darajasida tasniflash va ularni ierarxik pog'onada tizimlashtirish, tasniflangan har bir ekotizim darajasida tirik va notirik tabiat o'rtasida yuz berayotgan modda va energiya almashinuvining o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berish ekologik fan, ta'lim va amaliyotining kelajak istiqbollari uchun ham dolzarbdir.

2.3. Ekosfera tushunchasi, tuzilishi va chegaralari

Organizmlar tarqalgan qatlamni odatda «Biosfera» deb ataladi. U grekcha «*bios — hayot, sphaira — shar*» so'zlari yig'indisidan olingan. Organizmlar yashash muhiti nuqtayi nazaridan ayrim yirik ekolog olimlar uni «Ekosfera» deb ham atashadi. Zero, Yer planetasi, uni o'rab turuvchi sferalarda organizmlar «uyi», «yashash joyi», «makoni» biosferadan ham kengroq bo'lishi tabiiy holdir. Ekosfera ekologiyaning eng yirik tadqiqot obyektiidir. Chunki, *ekosfera Yer planetasi organizmlarining umumiyl yashash makonidir*.

Agarda ilk bor biosfera atamasini fanga avstriyalik olim E. Zyuss 1875-yili olib kirgan bo'lsa, u haqidagi batafsil ta'limot rus biolog olimi V.I. Vernadskiy tomonidan yaratilgan. Ekosfera atamasini AQSH Jorjiya universiteti «Ekologiya» instituti direktori va «Ekologiya» kafedrasining professori Yugen Odum o'zining 1983-yilda chop etilgan «Basic ecology» va 1986-yili rus tiliga «Ekologiya» nomi bilan Y.M. Frolova tomonidan tarjima qilingan kitobida ko'rib chiqqan.

Ekosfera juda murakkab tabiiy tizim. Murakkab tizimlarni tahlil qilishda masalaga oydinlik kiritish uchun va o'ziga xos tomonlarini aniqlash maqsadida turli jihatlarini inobatga olgan holda konseptual modellar qabul qilinadi. Masalan, ekosferaning fizik va kimyoviy xususiyatlari qarab turib o'zaro ta'sirini tasavvur qilish mumkin. Yerni bir butun, ya'ni planeta sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ekosfera ekologik tizim modeli, bir qator elementlar yig'indisi, elementlar orasidagi o'zaro bog'liqlik va o'ziga xos energetik rejim va modda almashishni xarakterlovchi sferadir. Ekosfera tabiiy-hududiy kompleks yig'indisidir. Har bir model ekosferaga turlicha yondashuvga, o'ziga xos kamchilik va ustuvorlik xususiyatlari ega.

Yer planetasi sferalar ko'inishiga ega bo'lgani uchun ham mod-dalarning zichlik bo'yicha tarqalishi o'zgarib boradi. Yer planetasining markaziga borgan sari ekosferalarning o'rtacha zichligi oshib boradi. Ekosferaning yuqori va quyi chegaralarini yuqori aniqlikda o'tkazish juda murakkabdir. Rus olimi G.N. Golubev (1999) aytganidek ekosfera «Geoekologiya»ning («Geografik ekologiya») obyekti emas, balki «Umumiy ekologiya» yoki «Global ekologiya»ning obyekti, deb to'g'ri ta'kidlagan. Geoekologiyaning obyekti esa ekosferaning organik faol qatlami yerning geografik qobig'idir.


Umuman olganda, ekologik nuqtayi nazardan organizmlarning yer sferalarida tarqalishi va yashash makonini inobatga olgan holda *eko-sferani* 4 ta qismga ajratish maqsadga muvofiqdir (2.3.1-rasm): *ekoatmosfera, ekolitosfera, gidrosfera, pedosfera*.

Odatda, jumladan ekologiya fanida ham atmosferani — troposfera (8–17 km gacha), stratosfera (50 km gacha), mezosfera (85 km gacha), ionosfera (400 km gacha), ekzosfera (2000 km gacha) qatlamlarga ajratadilar. Biosfera atmosferaning troposfera va quyi stratosfera qatlamini o'z ichiga oladi. Ekoastmosfera esa biosferadan ham yuqori qatlamlarga ko'tarila boradi.

Ekoatmosfera — *atmosferaning eng quyi organizmlar yashaydigan havo qobig'i*. Uning turli havo qobiqlarida, kengliklarida mikro-, nanoorganizmlar yashaydi. Nazariy nuqtayi nazardan stratosferadagi ozon qatlami ekoatmosferani yuqori chegarasidir. Uning qalinligi 15–20 km dan iborat bo'lib, Quyoshning ultrabinafsa nurlanishining organizmlarga salbiy ta'sir etish qatlamicaga boradi. Biosferaning chegarasidan farqli ravishda ekoatmosferaning yuqori chegarasi balandroqqa ko'tariladi. Zero, stratosferadagi havo oqimining doimiy ravishdagi gorizontal, vertikal va turbulent harakati organizmlarning ozon qatlaming yuqori chegarasigacha ko'tarilishiga imkon beradi. Shuning uchun ham ekosferaning ozon qatlamini to'lig'icha organizmlarning yashash makoni sifatida olish mumkin. Ushbu makon ular uchun xavfli yoki xavfsiz ekanligi alohida masala bo'lib, u doimiy o'zgaruvchan ko'rsatkichga ega.

Ekolitosfera — *bu litosferaning yuqori organizmlar yashaydigan qobig'i*. Mikro-, nanoorganizmlar yashash muhiti va ekotizimlarni ajratish kengligidir. Geologik tadqiqotlarga ko'ra litosferaning quyi chegarasi Yer qa'rining 30 MPa (300 atmosfera bosimi) va 100°C harorat bilan xarakterlanadi. Mazkur chuqurlik Kola yarimorolida olib borilgan burmalanish natijasiga ko'ra 6 km va yer yoriqlari va g'orlarida 3–4 km ga tusha-

di. Nazariy nuqtayi nazardan yer qa'rining harorati 25000 m chugurlikda 460°C ga ko'tariladi, qaysiki unda suv faqat par holatda bo'lgani uchun ham unda, odatda, hayot shakllari uchramaydi. Organizmlarning yashashi uchun sharoit yer osti suvlari suyuq holatda uchragungacha yetib borishi taxmin qilinmoqda.



2.3.1-rasm. *Ekosfera va uning qatlamlari.*

2.4. Ekosferaning ekologik funksiyalari

Ekosferaning ekologik funksiyalari – yer doirasida organizmlarning yashashi uchun muhit yaratuvchi qobiliyati. Unda har bir makrotizimlar o‘ziga xos ekologik funksiyalarni bajaradi. Masalan, *pedosfera* yer qatlaming yagona hosildor qattiq qatlami bo‘lib, u organizmlarning hayot kechirishi uchun barcha sharoitlarni yaratadi. Tuproq – tabiiy-tarixiy organo-mineral jins sifatida uzoq davrlarda, yerning gravitatsion maydonida turli ekotizimlarda litosferaning ustki qatlaming hamda tirik va o‘lik organizmlar aralashmasidan paydo bo‘lgan. Tuproqning ekologik funksiyasi – tuproqning ekotizimlar barqarorligini saqlash qobiliyati bo‘lib, u o‘zida yashovchi organizmlar va tuproq muhiti o‘rtasidagi munosabatlarni ta’minlaydi. Ular quydagilardan iborat:

- organik qoldiqlarni mineral moddalarga aylantiradi;
- o‘simliklarni mineral oziqlantiradi;
- o‘simliklarni suv bilan ta’minalashda ishtirok etadi;
- o‘simliklarga havoni yetkazib beradi;
- organizmlarni o‘sishi va rivojlanishi uchun qulay organo-mineral materiallarni yaratadi;
- tuproq ekotizimlarida optimal issiqlik rejimini ushlab turadi va h.k.

Uzoq muddatli geologik davrlarda tuproq qoplami tabiatni o‘zgaruvchan nurash, eroziya, deflatsiya kabi tabiat kuchlari hamda insonlarning xo‘jalik faoliyati ta’sirida yerning tuproq qatlamini saqlash – ekosferada ekologik muvozanatni ta’minalash va ushlab turishning zarur shartlaridan biridir.

Pedosferada ekosferaning boshqa qatlamlariga nisbatan ko‘proq organizmlar yashaydi. Masalan, 1 m^2 tuproqda 100 mlrd dan ko‘p mezo-, mikro- va nanoorganizmlarning turlari va ko‘rinishlari bo‘lishi mumkin. Chunki tuproq qatlami Mendeleyev davriy sistemasidagi minerallar, suyuq va gaz holatidagi barcha elementlarga boydir.

Gidrosfera yerning suv qatlami bo‘lib, u o‘ziga xos xossa va xususiyatlarga ega. Gidrosfera organizmlarning tuzilishi va tiriklik faoliyatiga ta’sir qiluvchi boshqa suyuqliklardan keskin farq qiladi. Masalan, suv yuqori universal erish; sirt tarangligi; muzning erishidagi mavhum issiqlik (336 Dj/g); issiqlik o‘tkazuvchanlik; dielektrik o‘tkazuvchanlik; molekular polyarlik; spektrning ko‘rish qismida to‘liq shaffoflik; suyuqlik uchun yuqori anomal issiqlikni bug‘lash (100°C da $2263,8\text{ Dj/g}$);

ixtiyoriy haroratda bug'lanish; kichik siqilish; fotosintezda olinadigan kislород манбай ва унда kechadigan jarayonlarda vodorod ionlari donori; +4°C da maksimal zichlikda bo'lish kabi o'ta muhim modda va energiya aylantirish xususiyatlariga ega. Suvning ushbu muhim jihatlari gidrosferaning ekologik funksiyasi:

- organizmlarning asosiy tarkibiy qismiga kirishni;
- ekosferaning harorat rejimini barqarorlashtirishni;
- ekotizimlarning rivojlanishida qatnashishni;
- organo-mineral moddalarni tashish va to'plashni;
- organizmlarda tuz tarkibini;
- suv havzalarining biologik unumдорлиги kabilarni ta'minlab berishidadir.

Suvning o'zini-o'zi tozalash xususiyati uning katta va kichik davriy aylanishiga proporsional ravishda kechadi, ya'ni qancha tez davriy aylansa shuncha tez tozalanadi (2.4.1-jadval).

2.4.1-jadval

Gidrosferadagi suv massasi va uning davriy aylanishi


Gidrosfera ning tarkibi	Suv massasi 10^3 mlrd t	Ulush, %		Qaytadan tuzilish vaqti, yil	Yer yuzasi- ning shartli qatlani, m
		Chuchuk suv zaixrasi	Umumiy massadan		
Dunyo okeani	1 370 000		91,55	2600–3000	2750
Yer osti suvlari:	100 000 (4000– 200000)	—	6,68	-5000	200
Chuchuk suvlar	4000	30,1	0,27		
Muzlagan hosilalar	26 000 (24 000– 30000)	68,7	1,74	8000 – 10 000	60
Ko'llar	280 (175–750)	0,26 (chu- chuk suv)	<0,02	7 (chuchuk suv)	
Tuproq namligi	100 (65–500)	0,02	<0,01	0,9–1,0	
Botqoqlik	100	0,03	<0,01		
Atmosfera namligi	14,0 (12,9–17,0)	0,04	<0,001	0,027	
Daryolar	1,2 (2,1)	0,006	<0,0001	0,033–0,022	
Biologik suv	1,1	0,003	<0,0001		
Jami	1 500 496,3	100	100	2800	3000

Ekoatmosfera – Yerning organizmlar tarqalgan havo qatlami bo'lib, u quyidagi ekologik funksiyalarini bajaradi:

- quyoshning ultrabinafsha nurlarining salbiy ta'sirini kamaytiradi;
- yerning gazli himoya qatlamini yaratadi;
- quyosh radiatsiyasini filtrlaydi;
- organizmlarni gaz bilan ta'minlaydi;
- yer iqlimini shakllantiradi;
- ekosferaning issiqlik rejimini ushlab turadi;
- atomlarni ionlashtiradi va h.k.


Masalan, atmosfera havosining ozon qatlami Yerdagi barcha tirik mavjudodlar uchun juda xavfli bo'lgan quyoshning ultrabinafsha spektri ($10 < \lambda < 400$ nm) elektromagnit nurlanishni 6500 martagacha kamaytiradi. Yer yuzasiga atmosfera muhofazasi bilan quyosh nuri spektrida ko'rinvchi nur va infraqizil nurlanishdan faqat UFI-A va juda zaiflashgan UFI-V lar yetib keladi, xolos. UBN-V diapazondagi nurlanishni ozon, UBN-S diapazondagini kislorod, uzoq UBNni esa boshqa gazlar ushlab qoladi (2.4.1-rasm). Atmosferaning yuqori qatlamida atomar kislorod vujudga kelishi bilan O_2 ning dissotsiatsiyasi sodir bo'ladi: $O_2 + h\nu = O + O$. Bu reaksiya uchun juda katta energiya zarur, molekuladagi kislorodning energiyasi 498 kDj/mol ni tashkil qiladi. Yetarli energiyani olish ultrabinafsha nurlanishi yoki elektr razryadli yoy orqali amalga oshadi. Atmosferada mazkur reaksiya natijasida 100 km balandlikdan boshlab kislorod ham molekular, ham atomar ko'rinishda bo'ladi.

Koinotdan kelayotgan nurlanishlar atmosferaning yuqori qatlami orqali o'tib, ularni mayjud gazlar qabul qiladi va eng qisqa to'lqinli nurlar quyida keltirilgan tenglamalar orqali ionlashtiriladi:




Shunday qilib, qisqa to'lqinli nurlanishning katta qismi yer qatlamidan 90 km uzoqlikka yetib kelganda yutilib ketadi, lekin O_2 kislorodning molekular dissotsiatsiyani keltirib chiqishiga moyilligi bo'ladi. 30–50 km balandlikda atomar kislorod bilan molekulalarni o'zaro ta'siri ozonni hosil bo'lishiga olib keladi:





2.4.1-rasm. *Ultrabinafsha nurlarining yer yuzasiga yetib kelishi.*

Past-balandliklarda O_3 – ozonni hosil bo‘lish tezligi gazlarning konsentratsiyasiga proporsional ravishda ortadi. Uning kamayishi esa $\times 240$ bilan yorug‘likni yutilishiga bog‘liq, bu esa 25 km balandlikda ozonni maksimum bo‘lishini ko‘rsatadi (2.4.2-rasm).



2.4.2-rasm. *Atmosferada ozonning tarqalishi.*

Bulutlilik. Biosferaga bulutlilikning ta'siri turlichadir. U yerning albedosiga ta'sir qiladi, okean va dengizlar yuzasidagi suvlarni yomg'ir, qor, do'l ko'rinishida quruqlikka olib o'tadi hamda kechqurun yerning ustini ko'rpgaga o'xshab yopib, uni radiatsiyaviy sovishini kamaytiradi. Bulut, V. Dalning ifodasiga ko'ra, – bu «balanddag'i tuman». Tuman disper tizimdag'i qattiq zarra yoki suyuq tomchilardan tashkil topgan, holati gazsimon muhitda muallaq turuvchi (odatda havoda) aerozolning bir ko'rinishidir. Shuningdek, aerozolga tutun, chang ham kiradi. Atmosferada tuman havoda erkin aylanib yuruvchi suv tomchilari yoki muz kristallarining yig'indisi, muhitning keskin ravishda shaffofigini kamaytiruvchisidir.

Yerning aylanish o'qining ekliptik tekislikka nisbatan $66,5^{\circ}$ og'gani uchun atmosferaning yuqori chegaralaridan o'tuvchi quyosh radiatsiyasining miqdori mahalliy geografik kenglik va yil fasllarini belgilovchisidir. Zaiflashish bulut qoplaming xususiyati, atmosferadagi changning tarkibi hamda turli fizik kattaliklarning sutkali va mavsumiy o'zgarishlariga bog'liq. O'rtacha yiliga 25–30% o'tayotgan quyosh nurlanishini bulutlar aylantirib, fazoga qaytarib yuboradi. Yana 25% nurlanish yutilib, so'ng bulut, chang, gazlar tomonidan, ya'ni diffuziyali tarqatilgan nurlanish ko'rinishida qayta nurlantiriladi. Taxminan yana uning shunchasi yer qatlamiga to'g'ri quyosh radiatsiyasi ko'rinishida tushadi. Geografik kenglikka qarab to'g'ri va tarqalgan nurlar orasidagi o'zaro bog'lanish qonuniyati o'zgarib boradi. Qutb hududlarida nurling umumiy oqimining 70 foizi tarqalgan nurlar ko'rinishida bo'ladi, ekvator hududlarida esa bu ko'rsatkich 30 foizdan oshmaydi. Bu to'g'ri nurlanish nurlarining atmosferadan gorizontga nisbatan kichik burchak ostida emas, balki vertikal pastga yaxshi o'tishi bilan bog'liq. Nurlanishning yuzaga yetib borgan bir qismi yana atmosferaga qaytadi. Uning miqdori albedoga bog'liq: qor taxminan 80–95%, o'tli yuza – 20%, to'q tuproq faqat 8–10% o'tayotgan nurlanish oqimini akslantiradi. Yerning o'rtacha albedosi – 35–45%.

Ekolitosfera – Yerning organizmlar tarqalgan qattiq qatlami bo'lib, u ekosferani mineral ozuqa bilan ta'minlaydi. Ekolitosferaning ekologik funksiyalari quyidagilardan iborat:

- yer ekotizimlarining ustqurmasi;
- tuproq ekotizimlarining mineral asosi;
- geologik sikllarning o'tish muhiti;
- suv va moddalarning kichik va katta aylanish manbasi;
- yer osti suvlarining yig'uvchisi va saqlovchisi;

- tabiiy boyliklarning mineral asosi;
- geodinamik jarayonlarni kechish muhiti va h.k.

Ekosfera chegaralaridan tashqaridagi moddalar almashinuvni tizimning ichida sodir bo'layotgan almashinuvga nisbatan qaralganda juda kamdir. Yiliga kosmosdan yerga taxminan 40 mln tonna meteor moddalari atmosferadan o'tib keladi. Ekosferaning ichidagi modda almashinuvni sezilarli darajada katta o'chamlar bilan farqlanadi. Masalan, yiliga daryolar dunyo okeanlariga 20 mlrd tonna jinslarni oqizadi yoki bu meteorlarning kirishiga nisbatan ikki ming marta ko'pdir. Shuning uchun geologlarning fikri bilan aytish mumkinki yer va uning eko-sferasi bu yopiq tizimdir. Ushbu yopiq tizimda yerning litosferasidagi moddalar harakatining sirkulatsiyasi hosil bo'laadi. Bular moddalarning aylanishi, akkulatsiya va transformatsiyasi bilan tog' jinslarining buzilishi va yemirilishini umumlashtiruvchi katta geologik aylanishga olib keladi. Katta geologik aylanish zaxira (rezervuarlar) va oqimlardan iborat.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Biologiya, geografiya va ekologiya fanlarining obyektlarini umumiy va xususiy tomonlarini ochib bering.
2. Ekotizimlarga misol keltiring va uni mahalliy miqyosda aks eturing.
3. Ekologianing tadqiqot predmetini aytib bering.
4. Ikkilamchi suksesiya nima?
5. Ekotizimlar barqarorligini tushuntirib bering.
6. Ekotizimlar klimaksasi qanday ta'riflanadi?
7. Y.Odum bo'yicha ekotizimlarni modellashtirishda qanday komponentlar inobatga olinadi?
8. Ekotizimlarda modda va energiya oqimini ta'riflab bering.
9. Ekotizimlarni maydon va makonga qarab tasniflang.
10. Ekosfera bilan biosferaning farqi bormi?
11. Ekosferaning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi roli qanday?
12. Organizmlarning ekologik funksiyalarini ochib bering.

Fanda muhimi — jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar ning asosiyalarini to'g'ri aniglash va ularning ta'sir kuchini optimallashtirish.

3-bob. EKOTIZIMLARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

3.1. Ekologik omillar

Ekotizimlarda kechadigan jarayon va hodisalar uning ichki va tashqi kuchlar ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Mazkur kuchlar fanda faktor (lotinchada factor — yaratuvchi, ishlab beruvchi) yoki o'zbek tilida «omillar» deb yuritiladi. Ekologik omillar ekologiyaning tadqiqot obyekti bo'lgani uchun uni ekotizimlarga ta'sir etuvchi omillar deb ham ataydilar.

Aksariyat adabiyotlarda, jumladan Sh.O. Muradov va boshqalarning (2005) Umumiy ekologiya¹ elektron mini darsligida ekologik omil — muhitning har qanday elementi (yoki sharoiti) bo'lib, tirik organizmlarning hech bo'limganda bir rivojlanish fazasiga bevosita yoki bilvosta ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega. Ekologik omilga nisbatan tirik organizmlar moslashishga harakat qiladilar.

N.I. Nikolaykin, N.Y. Nikolayenko va O.P. Melexovalar² ekologik omillarni ajratishda tirik organizmlarga ta'sir etuvchi kuchlar nuqtayi nazaridan qaraganlar.

Ekologik omil — bu organizmlarning individual rivojlanish davridagi bevosita yoki bilvosa ta'sir etuvchi har qanday element. Lekin ekotizimlar organizmlarning o'zidangina iborat emasligiga biz yuqorida iqror bo'ldik. Bunday yondashuv ekologik emas, balki biologik yondashuvdir.


Taxminan shu yo'sinda ekologik omillarni V.D. Valova (2004), M. Bigon, D. Xarper, K. Taunsend (1989) ham ajratadilar. Lekin, ular tashqi va ichki omillarga alohida tadqiqot obyekti sifatida qaraydilar. Bu mantiqan to'g'ri. Zero tashqi omillarga nisbatan ekotizimlarning o'zgarishlar aks ta'sirga ega emas.

Ichki omillar — ekotizimlar doirasida va o'zaro ta'sir kuchiga ega bo'lgan omillar. Ularga: organizmlarning son va sifat ko'rsatkichlari, havo va suv tarkibi, mikroqlim kabilar kiradi. Masalan, Angliya daryolarida uchraydigan yonga suzuvchi jonzotlarning uch turi (Gommarus

¹ Umumiy ekoologiya // Elektron darslik. Sh.O. Muradov va boshq.— T.: TDYI, 2005. 30-b.

² Н.И. Николайкин, Н.Е. Николаенко, О.П. Мелехова. Экология,. — М.: «Дрофа», 2004. С. 48.

— lacusta + zaddachi + pulex) dengizga quyilish joyidagi tuzning miqdorini o'zgarishiga qarab tarqaladi. Gommarus lacusta suv tarkibidagi tuzlar 25% dan ko'p bo'lsa, Gommarus zaddachi 10–20 %, Gommarus pulex 10% dan kam bo'lgan taqdirda ko'payadi (3.1.1-rasm).



3.1.1-rasm. Britaniya orollari daryo oqimlaridagi tuzning konsentratsiyasiga qarab yonga suzuvchi jonzotlarning tarqalishi.

XX asrning 60–70-yillarida Keniya va Tanzaniya mamlakatlariida milliy bog'larning tashkil etilishi ulardagi fillarni alohida muhofaza etish chora-tadbirlar dasturining amalga tatbiq etilishi natijasida savanna ekotizimlari komponentlari o'rtaсидаги muvozanatning buzilishiga olib keldi. Chunki unda fillar soni me'yordagidan ko'ra ikki barobarga oshib ketdi. Natijada savannaga xos bo'lgan baland o'tlar populatsiyasi – «tuproq qalqoni» kamayib, yerlar suv va shamol eroziyasiga uchradidi. Ekotizimlardagi ikkilamchi suksessiya jarayoni tezlashdi. Bu esa ekotizimlar ichki omilining o'zgarishi natijasida sodir bo'ldi. Komponentlar o'rtaсидаги muvozanatni saqlashga qaratilgan ekologik choralar ni bog' ma'muriyat hal qilishga majbur bo'ldi.

Umuman olganda, organizmlarning o'zaro ta'siri aksariyat hollarda ichki omillarga kiradi. A. To'xtayev va A. Hamidovlar¹ ichki biotik omillarni 6 guruhga ajratib ta'riflaydilar: o'simlik ↔ o'simlik, o'simlik ↔ hayvon, hayvon ↔ o'simlik, mikroorganizm ↔ hayvon ↔ o'simlik, hayvon ↔ hayvon, o'simlik ↔ hayvon ↔ mikroorganizm. Bulardag'i ichki

¹ A. To'xtayev, A. Hamidov. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. – T.: «O'qituvchi», 1994. 50–51-b.

ta'sir kuchi ekotizimlarning qay darajada tasniflanishiga bog'liq. Chunki kichik botqoqdagi ekotizimga yirik hayvon – filning kirib kelishi va undagi komponentlar o'rtaSIDAGI muvozanatni buzib yuborishi tashqi omil sifatida ko'rib chiqilsa, botqoq ekotizimidagi SUV o'tlarining o'zgarishi natijasida sodir bo'ladiGAN jarayonlar ichki omil ta'siridir. Ichki omil ta'sirida organizmlar o'rtaSIDAGI aloqalar parazitlik, simbiozlik (hamkorlik) yoki neytrallik ko'rinishida kechadi.

Tashqi omillar – ekotizimlarga bir tomonlama ta'sir etuvchi, lekin qayta ta'sir kuchiga ega bo'lмагan omillar. Ularga quyosh radiatsiyasi, havo massalari, havo bosimi, shamollar, dengiz oqimlari, tektonik harakatlar, zilzila, vulqon otilishi kabilar kiradi.

Quyosh radiatsiyasi omili. Undan Yer planetasi ekotizimlariga keladigan radiatsiyaning 46 % yorug'lik, 47% infraqizil va 7% ultrabinafsha nurlarni tashkil etadi. Atmosferaning yuqori qismiga har daqiqada 1 sm^2 yuzaga 2 kkal energiya keladi. Uning o'zgarishi $0,07 \text{ sm}^2/\text{kkal/min}$ tashkil etadi. Har yili yer yuzasi ekotizimlarining 12 km maydoniga $2,6 \times 10^{15}$ kkal energiya to'g'ri keladi. Bu esa 400 ming tonna ko'mir energiyasi ga teng. Yer yuzidan qaytgan quyosh radiatsiyasi – albedo qorli ekotizimlarda 70–90%, qumlarda 30–35%, qora tuproqli haydalgan dashtlarda 5–14%, o'rmon va o'tloqli dashtlarda 10–25%, SUV ekotizimlarida quyosh nurining tushish burchagiga bog'liq ravishda 2–78% gacha boradi.

Havo massalari – biror hudud ustida tarkib topgan va boshqa joylardagi atmosfera havosidan fizik xossalariغا (namligi, harorati, bosimi, tiniqligi) va xususiatlari (harakati)ga ko'ra farq qiluvchi atmosfera havo si. Troposferada arktik, mo'tadil, tropik, ekvatorial va antarktika havo massalari mavjud. Ikki xil havo massasi tutashib turgan chegarada havo frontida sovuq va iliq frontlar, ya'ni siklon va antitsiklonlar vujudga keladi va ular ekotizimlar holatiga keskin ta'sir etadi.

Dunyo okeani gidrosferadagi 96% SUVNI qamrab olgan. U global darajada quyosh energiyasi to'plovchi, tashuvchi va qaytaruvchisi hisoblanadi. Uning ushbu xususiyati butun Yer planetasi ekotizimlari ga o'z tashqi ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Albatta, okean ta'siri bevosita yoki bilvosita darajada namoyon bo'ladi.

Tektonik omil yer po'stidagi (yuqori mantiyadagi) harakatlar natijasida yer po'stida (4–80 km chuqurlikda) ro'y beradigan bukilish, burmalanish, sinish, siljish, ko'tarilish, cho'kish natijasida sodir bo'ladi. Tebranma (epeyrogenik) harakatlar, ya'ni yer po'sti ko'tarilishi va pasa-yishi orqali sinekliza va antiklizalar hosil bo'ladi. Tektonik harakatlar yangi quruqlik yuzasi yoki okean ekotizimlarini yuzaga keltiradi.

Turli darajada yer silkinishlari va vulqon otilishlari natijasida yer yuzasi ekotizimlarda sunami, tog' qulashi, yer yorilishi, lava otilishi kabi salbiy oqibatlar yuzaga keladi. Ekotizimlarda suksessiya jarayonlari yuzaga keladi. Yer qimirlashiga sarf bo'lgan energiyaning 80% Tinch okcani halqasiga, 15% Alp-Himolay tektonik zonasiga to'g'ri keladi, 5% Buyuk Afrika yorig'iga va qolgan yerkarda to'g'ri keladi. Yer po'stidagi gaz, tosh, lava, suv bug'i otilib chiqadigan yoriq va teshiklar hamda otilib chiqqan jinslar hosil qilgan relyef shakli vulqon deyiladi. Yer yuzida 530 dan ortiq vulqon bor. Vulqon jinslari tarkibidagi kremniy miqdoriga qarab asosiy (50–55%) va nordon (65% va undan ko'p) tog' jinslari hosil bo'ladi. Vulqonlarning otilishi natijasida vulqon ekotizimlari birlamchi suksessiya darajasida yuzaga keladi.

Ekologik tizimlarga ta'sir etuvchi omillarni birlamchi va ikkilamchi omillarga ham ajratiladi. Birlamchi omillar – ekotizimlardagi holat, jarayon va hodisalarga keskin yoki hal qiluvchi ko'rsatkich (indikator) sifatida ta'sir etuvchi kuchlar. Ikkilamchi omillar esa ekotizimlardagi holat, jarayon va hodisalarga keskin yoki hal qiluvchi ko'rsatkich (indikator) sifatida ta'sir etmaydigan kuchlardir.

3.2. Ekotizimlarga ta'sir etuvchi omillar tasnifi

Ekologik omillarni, odatda, ekotizimlarda yashovchi organizmlarga ta'sir etish nuqtayi nazaridan tasniflaydilar. Bu holda ekologiyaning biologiyadan farqi qolmaydi. Biz yuqorida aytib o'tdikki, ekologiyaning obyekti organizm emas, balki ekotizimlardir. Shuning uchun omillarni tasniflashda ekotizimlar va ularning komponentlariiga kompleks ta'sir etuvchi omillar nuqtayi nazaridan baholash mantiqan to'g'ridir.

Ekologik omillarning mazmuni va mohiyatiga qarab turli tadqiqotchilar turlicha tasniflaydilar. Ekologik omillarni tadqiqotchi o'z oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalari nuqtayi nazaridan turli ko'rinishda tasniflashi mumkin. Masalan tasniflash omillarining davriyligi, kelib chiqishi va uning ketma-ketligi, yuzaga kelishi, xarakteri, ta'sir doirasasi, darajasi, obyekti va sharoiti, hududiyligi, tizimliligi va shu kabi ko'rsatkichlariga qarab amalgalash oshiriladi (3.2.1-jalval).

Rossiyalik olimlar¹ ekologik omillarni ikki qismga ajratib tasniflashni ma'qul deb biladilar (3.2.1-rasm). Lekin ushbu tasniflash juda mujmal ravishda tuzilgan. Chunki kishilar faoliyati natijasida yuzaga kela-

¹ Н.И. Николайкин, Н.Е. Николаенко, О.П. Мелехова. Экология.— М.: «Дрофа», 2004. С. 49.

digan antropogen omillarga biotik va biogen, zoogen, fitogen va hattoki mikrobiogen omillar ham kirib ketgan.


Deyarli barcha ekologik tusdagи adabiyotlarda ekologik omillarni uch qismga ajratib ta'riflanadi va ularning ketma-ketligini aynan Yer planetasida paydo bo'lganligiga qarab tizimlashtiriladi: abiotik, biotik va antropogen (3.2.2-jadval). Ular o'z navbatida turlarga va ko'rinishlarga ajratiladi.

3.2.1-jadval

Ekologik omillarning tadqiqot maqsadiga ko'ra tasniflanishi

<i>Tyr</i>	<i>Tadqiqot maqsadi</i>	<i>Omillar</i>
1.	<i>Davriyilitygi bo'yicha</i>	Evolutsion
		Tarixiy
		Zamonaviy
		Bashoratli va h.k.
2.	<i>Kelib chigishi bo'yicha</i>	Abiotik
		Biotik
		Antropogen
		Aralash
		Abiotik-biotik
		Biotik-abiotik
		Abiotik-antropogen
		Biotik-antropogen
		Antropogen-biotik va h.k.
3.	<i>Hosil bo'lish sferasi bo'yicha</i>	Ekolitosferaga tegishli
		Ekoatmosferaga tegishli
		Gidrosferaga tegishli
		Pedosferaga tegishli
		Gidrosfera-ekoatmosferaga tegishli
		Ekolitosfera-pedosferaga tegishli
		Kompleks sferalarga tegishli va h.k.
4.	<i>Ta'sir obyekti bo'yicha</i>	Kompleks-majmuali
		Dukomponentli
		Triokomponentli
		Biokomponentli
		Antrokomponentli
		Abiokomponentli
5.	<i>Ta'sir darajasi bo'yicha</i>	Birlamchi
		Ikkilamchi

	<i>Ta'sir ogibati bo'yicha</i>	Letal Ekstremal Cheklangan Xavotirli Teratogen Mutagen va h.k.
	<i>Ta'sir doirasi bo'yicha</i>	Global Mintaqaviy Mahalliy va h.k.
	<i>Ta'sir sharoiti bo'yicha</i>	Noqlay Qulay O'ta qulay Kuchli qulay va h.k.



3.2.1-rasm. *Ekologik omillarning turkumlanishi*
(N.I. Nikolaykin, N.Y. Nikolayenko, O.P. Melexova, 2004).

Ekologik omillarning tasniflaniishi

<i>Ekotizimlarga ta'sir etuvchi omillar tipi</i>	<i>Turlari</i>	<i>Ko'rinishlari</i>
<i>Abiotik</i>	<i>Fizik</i>	Quyosh energiyasi
		Yer tubidan chiqadigan energiya
		Ichki energiya va h.k.
	<i>Kimyoviy</i>	Tabiiy sho'rланish
		Tabiiy kimyoviy ifloslanish
		Moddalar tarkibining o'zgarishi va h.k.
	<i>Geomorfologik</i>	Relyef tuzilishi
		Yon bag'ir ekspozitsiyasi
		Absolut balandlik va h.k.
	<i>Gidrologik</i>	Dengiz yuzasining davriy ko'tarilishi va tushishi
		Sel kelishi
		O'zan jarayonlari va h.k.
	<i>Meteorologik</i>	Havo, suv va tuproq harorati
		Havo, suv va tuproq namligi
		Yog'in miqdori, tezligi va h.k.
	<i>Geografik va h.k.</i>	Geografik kenglik
		Zonallik
		Mintaqaqaviylik va h.k.
<i>Biotik</i>	<i>Fitologik</i>	Neytrallik darajasi
		Parazitlilik darajasi
		Mutualistik daraja va h.k.
	<i>Zoologik</i>	Yirtqichlik
		Raqobatlilik
		Parazitlik va h.k.
	<i>Mikrobiologik</i>	Patogenlik
		Parazitlilik
		Viruslilik va h.k.
	<i>Kompleks va h.k.</i>	Fito-zoologik
		Mikro-zoo-fitologik
		Mikro-zoologik va h.k.

<i>Antropogen</i>	Ijtimoiy-sotsial	Aholi zichligi
		Iste'mol darajasi
		Qashshoqlik ko'rsatkichi
		Ish bilan ta'minlanganlik va h.k
	Siyosiy	Iqtisodiy prioritetlik
		Ijtimoiy prioritetlik
		Ekologik prioritetlik
	Ekologik	Noekologik
		Alarmistik
		Ekologik va h.k.
	Ma'naviy-ma'rifiy	Ekologik onglilik darajasi
		Ekologik bilimlilik darajasi
		Ekologik madaniyatlichkeit darajasi va h.k.
	Huquqiy	Ekologiyalashtirilganlik
		Ekologiyalashtirilmaganlik
		Ekologik-huquqiy mexanizm borligi va h.k.
	Institutsiyonal va h.k.	Universal miqyosda barqaror birlashganlik
		Regional miqyosda barqaror birlashganlik
		Mahalliy miqyosda barqaror birlashganlik va h.k.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ekologik omillar nima?
2. Ekologik omillarni tasniflab bering.
3. Ekologik omillarni tasniflash qoidalari qanday?
4. Birlamchi va ikkilamchi omillar qanday bo'ladi?
5. Tashqi va ichki omillarga misollar keltiring.
6. Havo oqimlari omili qanday ekologik omil turiga kiradi?

Ekologik muammolar boshqa xavfsizlik muammolaridan yashirin tarzda kechishi bilan farqlanib turadi.

Islom Karimov

4-bob. EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING GURUHLANISHI

4.1. Ekologik muammolar

Har qanday taddiqotlar zamrida muayyan bir mummolar va ularning yechimini topish zarurati yotadi. *Muammo – yechimi topilmagan masala, holat yoki hodisa*. Ko‘pincha uni ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy kategoriya sifatida, ya’ni faqtgina insonlarga tegishli va ijtimiy munosabatlarda yuzaga keladigan holat, deb qaraladi. Hattoki O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida¹ «Muammo» so‘zi faqat mumtoz adabiyotga tegishli so‘z nuqtayi nazaridan yoritilgan. Uni arab tilidan olingan ko‘r, ko‘r qilingan yoki yashirin ifoda etilgan so‘z yoki ism, deya ta’riflangan. Falsafiy-ilmiy nuqtayi nazardan esa bunga mutlaqo qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki mummo so‘zi nafaqat adabiyotda, balki inson faoliyatining baracha jabhalarida va ayniqsa, fanda juda ko‘p ishlatalidigan so‘zdir. 4 jildlik «Rus tilining izohli lug‘ati»da «Muammo – yechimini topish lozim bo‘lgan nazariy yoki ilmiy muammo»², deya ta’riflangan. Bu jamiyat qonuni.

Lekin muammo nafaqat insoniyatga, balki organizmlarga ham tegishlidir. Ular oldida ham turli xil muammolar turadi va ularni yechishinga organizmlar ham harakat qiladilar. Ushbu harakat ko‘pincha yashash uchun kurash yoki moslashishdan iboratdir. Uni biologiya fanida «Biogeotsenozlar evolutsiyasi», «Biotoplar evolutsiyasi», «Biosfera evolutsiya» deb ataladi³. Har uchala tabiiy sharoitda ham organizmlar yashash uchun kurashadilar va o‘zlariga tegishli bo‘lgan muammolarni hal etadilar. Bu tabiat qonuni.

Ekologik muammo – ekotizimlarda organizmlar o‘zaro va ularni atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarda yuzaga kelgan va yechimini kutayotgan masala.

¹ Муаммо. Узбекистон Миллий энциклопедияси. 6-жилд. – Т.: «ЎЗМЭДИН», 2003. 105-6

² Проблема. Словарь русского языка. 3-том. – М.: Гос. Изд.иностраных и нац. словарей., 1959. С. 628.

³ Н.Ф. Реймерс. Природопользование. – М.: 1990. С.587–588.

Masalan, N.F. Reymers¹, «Insonlar tabiatga nisbatan sezilarli ta'siri natijasidagi har qanday holat, qaysiki tabiatni insonlarning hayotiy va xo'jalik faoliyatiga qayta ta'siri (tabiiy ofat, iqlim bo'ronlari, yop-pasiga tartibga solinmagan hayvonot dunyosi migratsiyasi va h.k.) deb aytib o'tilgan. Bu tushunchada ham ekologik muammo bir tomonlama, ya'nii ijtimoiy kategoriya sifatida izohlangan. Hozirgi zamonda, xalqaro tajribada, ekologik qonunchilik nafaqat insonlarni muhofaza qilish, balki ekotizimlarning ajralmas komponenti bo'lgan barcha organizmlarni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan yozilishini talab etilmoqda.

Agarda biz ekologik muammoni «Umumiy ekologiya» fan muammo si nuqtayi nazaridan emas, balki ekologiyaning bir tarmog'i «Ijtimoiy ekologik» fanlar nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak N.F. Reymers (1990) aytib o'tgan ta'rif mantiqan to'g'ri bo'lar edi. Shuning uchun ham ekologik fanlarning nafaqat umumiy ekologiya, balki uning barcha tarmoqlarining nazariy asoslarini yaratish jihatidan qarash o'ta muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

4.2. Ekologik muammolarning tasniflanishi

Biz yuqorida tasniflash yoki klassifikatsiyalash tushunchasiga alohida to'xtalib o'tdik. Ekologik muammolarni tasniflashga ham aynan shunday yondashish kerakligini yana uqtirib o'tmoqchimiz. Ekologiyu sohasida chop etilayotgan minglab adabiyotlarda, internet saytlari da va axborot vositalarida antroekologik muammolarga juda ko'p e'tibor qaratilayotganligi, ularga oid misollar keng yoritilayotganligi uchun ham biz ushbu qo'llanmada uning nazariy jihatlariga o'z e'tiborimizni qaratamiz.

Odatda, ommaviy axborot vositalarida ekologik muammolarni global (kurraviy), regional (mintaqaviy), milliy (davlat) va lokal (mahalliy) muammolarga ajratiladi. Mazkur amaliy yo'naltirilgan tasniflash to'g'ri, lekin bu masalaning nazariy tomonini ochib bermaydi. Undan tashqari ekologik muammolarning hududiy tasniflanishi doimiy o'zgaruvchandir (4.2.1-jadval). Nazariya esa nisbatan konstantalik ko'rsatkichlarga asoslanadi.

Ekologik muammolarni tasniflashda nafaqat tabiat↔jamiyat o'rtasidagi, balki tabiatdagi organizmlar bilan organizmlar o'rtasidagi muammolarni ham ko'rib chiqish lozim ekan. Agarda biz ushbu masalaga ijtimoiy ekologik nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, un-

¹ Экологические проблемы. Н.Ф. Реймерс. Природопользование. — М.: 1990. С. 406.

da jamiyatning tabiatga munosabat shakllariga o'z e'tiborimizni qaratishimizga to'g'ri keladi. I bobning 2-bo'limida ushbu munosabatlarning 5 ta shaklini ko'rib chiqdik va har bir shaklda o'ziga xos ekologik tusdagi muammolarni aniqladik. Inson faoliyati bor ekan, muammolar to'xtamaydi. Lekin, ekologik muammolarning eng ijobili yechimi jamiyatning tabiatga nisbatan ekologik munosabat shaklida hal etilar ekan.

4.2.1-jadval

Ekologik muammolarning hududiy tasniflanishi va uning davriy o'zgarishi

<i>Davr</i>	<i>Muammolar</i>	<i>Sabablari</i>	<i>Oqibatlari</i>
XX asrning biringchi yarmi	1. Qurolli to'qnashuvlar (urush muammoosi)	Gegemonlikni o'rnatish va ta'sir doirasini kengaytirish uchun qurollanish.	O'nlab, millionlab kishilarning «yostig'ini quritish» va atrof-muhit holatining yomonlashuviga olib kelgan I va II jahon urushlari.
	2. Ocharchilik (oziq-ovqat muammoosi)	Iqtisodiyot ko'rsatkichlari past bo'lgan davlatlarda aholining tez ko'payishi.	Sotsial-gumanitar inqirozli holatning yuzaga kelishi, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi.
	3. Ommaviy qirg'in keltiruvchi kasalliklar (salomatlik muammoosi)	Sanitar-gigiyenik holatning yomonligi va tibbiyot sohasiga e'tiborning pastligi.	Vabo, o'lat, suvchechak kabi kasalliklarning ko'payishi orqali gumanitar inqirozning yuzaga kelishi.
XX asrning 50–60-yillari	1. Ommaviy qirg'in keltiruvchi qurollar («Sovuq urush» muammoosi)	Atom va vodorod bomalarini ko'plab ishlab chiqarish orqali o'z mavqeini ko'tarishga tomon harakat qilish.	«Karib inqirozi» kabi o'ta xavfli holatlarning yuzaga kelishi va aholini III jahon urushi bilan qo'rqitish.
	2. Ommaviy qirg'in keltiruvchi kasalliklar (salomatlik muammoosi)	Sanitar-gigiyenik holatning yomonlashushi va tibbiyot sohasiga e'tiborning pastligi.	Vabo, o'lat, suvchechak kabi kasalliklarning ko'payishi orqali gumanitar inqirozning yuzaga kelishi.
	3. Atrof-muhit muhofazasi (ekologik muammo)	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va xo'jalik faoliyatini ekologik talablersiz olib borish.	Ekologik xavfsizlikni pasaya borishi va u bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ahvolning nochorlanishi.

XX asrning oxiri	1. Atrof-muhit muhofazasi (ekologik muammo)	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va xo'jalik faoliyatini ekologik talablarsiz olib borish.	Ekologik xavfsizlikning pasaya borishi va u bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ahvolning nochorlanishi.
	2. Geosiyosiy to'qnashuvlar (mustaqillik muammosi)	Rejali iqtisodiyotning tanazzulga uchrashi va yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi.	Ishlab chiqarishning pasayishi va hududiy mojarolarning yuzaga kelishi.
	3. Iqlim o'zgarishi (ekologik muammo)	Atmosfera havosi-ga chiqarilayotgan gazlar hisobiga «Issiqxona samarasining yuzaga kelishi.	O'rtacha haroratning ko'tarilishiga bog'liq bo'lgan tabiiy ofatlar, cho'llanish jarayoni kabi oqibatlarning sodir bo'lishi.
XXI asrning boshi	1. Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar (ekologik muammo)	«Issiqxona samarasining yanada kuchayishi orqali yillik iqlim rejimining keskin o'zgarishi.	Ijtimoiy-iqtisodiy va cho'llanish hamda biologik jarayonlarning kuchayishi orqali xilma-xillikning kamaya borishi kabi ekologik xavfning kuchayishi.
	2. Geosiyosiy to'qnashuvlar (demokratiya muammosi)	Siyosiy va diniy qarashlarning birligi asosidagi ziddiyatlar.	Iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqarorlikning pasayishi.
	3. Atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish (ekologik-ijtimoiy muammo)	Tabiiy resurslardan oqilona va hamjihatlikda foydalanmaslik.	Tabiat komponentlari ga qaratilgan mintaqaviy qarama-qarshiliklarning kuchayishi.

Ekotizimlarni tasniflashda bo'lgani kabi, ekologik omillarni ham turli tadqiqot maqsadlarida tasniflanadi. Biz ekologik muammolarni taniflashda ilk bor ularni ikki qismga ajratib olamiz – ijtimoiy ekologik yoki *antroekologik* (insonlarning hayotiy faoliyatiga tegishli bo'lgan antropogen) muammolar, *bioekologik* (organizmlarga tegishli bo'lgan tabiyi) *muammolar*.

Ijtimoiy ekologik yoki antroekologik muammo – muayyan ekotizimlarda kishilik jamiyatida yechimini topmagan ekologik masala. Tushunchada ekotizimlar so'zi ishlatilgan. Zero ekologiyaning obyekti ekotizimlar ekan, har bir ijtimoiy kategoriyadagi masala aynan muayyan ekotizimlar nuqtayi nazaridan kelib chiqadi. O'rinali savol tug'ilishi mumkin, axir ma'muriy boshqaruvi muayyan bir ma'muriy chegaralar

doirasida olib boriladi-ku? To‘g‘ri, lekin inson-tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirish aksariyat hollarda ma’lum bir ma’muriy chegara doirasida olib borila olmaydi. Chunki:

- birinchidan, har doim ham ma’muriy chegara ekotizimlar chegarasiga mos kelmasligi mumkin;
- ikkinchidan, turli ierarxik pog‘onada ham ekotizimlar o‘zaro uzviy bog‘langan;
- uchinchidan, zamonamizda har bir ma’muriy birlikning (masalan, aholi punkti, tuman, viloyat, davlat, hamjamiyat) barqaror rivojlanishi (bu masalaga quyida alohida to‘xtalib o‘tiladi) uchun institusional, ya’ni barqaror birlashish muammosini hal etish kerakdir.

Antroekologik muammolarni, hozirgi kunda insoniyat oldida turgan ekologik vazifalariga monand ravishda quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

- ekologianing umume’tirof etilgan ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- tabiat-jamiyat uyg‘unligida barqaror rivojlanish ta’limini yo‘lga qo‘yish;
- ekologik ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash;
- Yer planetasi ekotizimlari va ularning organik hamda noorganik komponentlarini hisobga olish, baholash, kadastrlash, auditlash-tirish, monitoringlash va ekspertizalashni yagona ilmiy-amaliy asosda olib borishni ishlab chiqish va amalga joriy etish;
- hamjamiyat, davlat va jamiyatning ekologik boshqaruv talablarini zamon talabiga moslashtirish va uni amalda keng joriy qilish;
- lokal, milliy, regional, global miqyosda ekologik xavfsizlikni ta’minlash konsepsiyasini, turli miqyosdagi dastur va loyihalarni ishlab chiqish hamda amalga tatbiq etish monitoringini olib borish;
- atrof tabiiy muhit muhofazasida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, nodavlat tashkilotlari va jamoat uyushmalarini nazoratini o‘rnatish va ularni tavsija kuchidagi ma’lumotlaridan ekologik boshqaruvda keng foydalanish mexanizmini ishlab chiqish;
- davlat, davlatlar va xalqaro hamjamiyat tomonidan ekologik nazoratni tashkil etish va ularni ishslash mexanizmini yaratish;
- mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda ekologik-huquqiy me’yorlarni takomillashtirish va ularni ishslash mexanizmini yaratish;
- ekologik huquqbazarliklar va ularning javobgarligini belgilovchi regional va global miqyosdagi ixtisoslashgan tergov, prokuratura va sud organlarining tizimini yaratish;

- mahalliy, milliy, regional va global miqyosda faoliyat yurituvchi «ekologik tez yordam» tashkilotlari, jamg‘armalari, guruhlarini tuzish yoki ular faoliyatini faollashtirish;
- ekologik inqirozli va tanglikdagi ekotizimlarni tiklashga yo‘naltirilgan global chora-tadbirlarni ishlab chiqish va moliyaviy ta’minalash;
- ekologik terrorizmni oldini olish yo‘llarini qidirish;
- jamiyatni tabiatga nisbatan ekologik yoki ekologik-iqtisodiy munosabat shakllarini o‘rnatish va h.k.

Bioekologik muammo — muayyan ekotizimlarda organizmlar (*o’simlik va hayvonot dunyosi, mikro-, nanoorganizmlar*) o‘rtasida yuzaga kelayotgan va yechimini kutayotgan masala. Yuqorida biz ta’kidlab o‘tdikki, inson bu dunyoda tabiat bilan uyg‘unlikda yashashi uchun ijtimoiy munosabat qoidalarini, albatta, tabiat qonuniyatlari bilan muvosiflashtirishga majburdir. Qudratli kuchga ega bo‘lgan kishilik jamiyatni ekosferani bir kunda yo‘q qilib tashlash imkoniyatiga ega. Lekin, insonlarning yashash muhiti aynan ekosfera ekanligi, uni yo‘q qilish esa o‘zining halokati bilan tugashi muqarrarligini tushungan insonlar, hozircha ushbu falokatning oldini olish choralarini ko‘rishmoqda. Ammo, XXI asrga xos bo‘lgan regional urushlar, ayrim rivojlangan davlatlarning gegemonlik siyosati, diniy ekstrimizm, yuzaga kelayotgan «millat oligarxlari»ning iste’molchilik psixologiyasi, tabiiy energiya ta’minati masalalari ekologik xavfsizlikni juda qaltis darajada ushlab turishga olib kelmoqda. Shuning uchun bo‘lsa kerak muqaddas diniy kitoblar — Qur’oni Karim, Tavrot, Injil kabilarda insoniyatning qiyomat kuni aynan tabiatda sodir etilajak voqeа va hodisalar orqali yoritib berilgan.

Ekologik xavfsizlikni barcha ekotizimlar darajasida ta’minalash uchun ekologik muammolarni faqatgina antroekologik nuqtayi nazardan emas, balki boshqa organizmlar muammosi tomonidan turib o‘rganish va ularni optimal ravishda hal etish uchun organizmlarga yordam berish kerakligi ayon bo‘lmoqda. Ya’ni bioekologik muammolarga:

- milliy va xalqaro huquq normalarini ekotizim biotalarida yuzaga kelayotgan muammolar nuqtayi nazaridan qarab chiqish va ularni amalga tatbiq etish;
- ichki va tashqi biotik omillarni barcha ekotizimlar doirasida tadqiq qilish;
- ekotizimlarni ulardagi biologik komponentlar o‘rtasidagi muvozanatni optimallashtirish nuqtayi nazaridan baholash, kadastrlash,

monitoringlash, nazoratlash va prognozlashtirish tadqiqotlarini olib borish, turli miqyosda umumlashtirish va tegishli ko'rsatmalarni ishlab chiqish;

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni nanoorganizmlar doirasida hal etish texnologiyalarini yaratish;
- yer sig'imi va ekologik izni «ekotizim biotalariga bosim» nuqtayi nazaridan ishlab chiqish;
- alohida muhofaza etiladigan hududlarni tashkil etish va kengaytirish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash siyosatini olib borish kabi muammolarga insoniyatning e'tiborini qaratish.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Muammo so'ziga ta'rif bering.
2. Nima uchun ekologik muammolarni yashirin tarzda kechadigan muammolar toifasiga kiritiladi?
3. Ekologik muammolarning hududiy tasniflang va uning davriy o'zgarishini ochib bering.
4. XX asrning qaysi davridan boshlab ekologik muammolarga birlamchi masala sifatida qaraladigan bo'ldi?
5. Ekologik muammolarni tasniflang.
6. Ekologik muammolarni tasniflashda qanday ko'rsatkichlarga e'tibor qaratilishi lozim?
7. Antroekologik muammoni tushuntirib bering.
8. Ekoterrorizm qanday muammolar turiga kiradi?

Ekologiya – keng ma'noda insonlarning yashab ketishi haqidagi ta'limotdir.

N.F. Reymers

5-bob. EKOLOGIYA METODOLOGIYASI VA METODLARI

5.1. Ekologiya metodologiyasi va uning milliy xususiyatlari

Barcha fanlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri u qanday tadqiqot metodologiyasiga ega ekanligi. Zero fanlar nazariyasining bosh masalasi uning metodologiyasidadir. Shuning uchun bo'lsa kerak faylasuflarning munozara markazida aynan mazkur masala ko'ndalang bo'lib turadi va, afsuski, hamma fanlarda ham bu haqda yagona bir fikriga yetib kelinganicha yo'q.

Metodologiya yunoncha «metodos» – bilish yoki tadqiq qilish, «logos» – ta'limot degan so'zlar yig'indisidan iborat. Uni umumlashgan tarzda fanda *ilmiy bilish metodlariga oid ta'limotlar yig'indisi, to'g'rirog'i bu yerda ham tizimi*, deyish mumkin. Chunki metodologiyaning quyida sanab o'tiladigan qismlari, ya'ni tadqiqot metodlari aynan muayyan bir ketma-ketlikda va ierarxik pog'onada tizimlashtiriladi.

Metodologiya metod emas va undan farqli ravishda sharoit va zamonga qarab, yo evolutsion yoki noevolutsion tarzda o'zgarishi mumkin. Metod o'zgarmaydi, yangilari yaratiladi va ular eskilarining o'rniغا ilmiy bilishda qo'llaniladi, xolos. Metodlarni tizimlash esa muayyan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, ma'naviy-ma'rifiy holatdan kelib chiqadi. Masalan, sobiq Ittifoq davrida deyarli barcha fanlar, jumladan tabiiy fanlar metodologiyasi marksizm-leninizmning utopik kommunizm qurish g'oyasiga asoslangan siyosiy tizimga moslashtirilgan edi¹. Bundan ekologik fanlar ham chetda turmagan. Rejalashtirilgan iqtisod, barcha kishilarni bir xilda ijtimoiy ta'minlashga erishish utopiya, tabiiy resurs hisobiga AQSHni orqasidan qolmaslikka yo'naltirilgan ekologik munosabat, yagona millat g'oyasini aks ettiruvchi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot metodologiyasi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Sobiq Ittifoq parchalanib, mustaqil davlatlar paydo bo'lganidan so'ng ekologik fanlar qanday metodologik asos bilan qurollangan edi, degan o'rinni savol tug'iladi. Har biri o'z rivojlanish yo'liga kirgan musta-

¹ Человек, общество и окружающая среда. Географические аспекты использования естественных ресурсов и сохранения окружающей среды. – ПМ.: «Мысль», 1973. С. 10–11.

qil davlatlarda, xususan O'zbekistonda ham ko'pgina fanlarda bo'lgani kabi ekologik fanlarda ham «metodologik vakuum» yuzaga keldi va u hanuzgacha bo'shligicha turibdi. Chunki, Ittifoq tazyiqidan qutulgan O'zbekiston ekologlari chuqur nazariy fanlarning metodologik masalalariga oid izlanishlar olib borishdi, deb aytolmaymiz. Prezidentimiz Islom Karimov o'z vaqtida bu borada shunday fikr bildirgan edi: «*Siyosatda ham, ijtimoiy hayotda ham, fanda ham vakuum – bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ya'ni, agar o'z g'oyang bo'lmasa, sening yurtingda chetdan g'oya kelib hukmronlik qiladi. Shu ma'noda mustaqil fikrlaydigan odamlarimiz bo'lmasa, o'z davlatimiz, xalqimiz, millatimiz tarixini o'zimiz tiklamasak, o'zimiz xolisona yozmasak, uni boshqalar boshqacha qilib yozadi. Yozish bilan cheklansa mayliku-ya, bizni, o'sib kehayotgan avlodni, hatto olimlarimizni ham o'z yo'rig'iga solishga harakat qiladi*»¹. Shundan kelib chiqqan holda tabiatshunoslik fanlarining, xususan ekologik fanlarning mavjud metodologik asoslariga munosabat bildirish zarurdir.

Falsafada tabiat deb obyektiv borliqni, ya'ni bizning ongimizga, hatti-harakatimizga bog'liq bo'Imagan moddiy dunyoning xilma-xil shakkari va turlariga aytildi. Amaliyotda yoki tabiiy fanlarda unga kishi-larning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish manbai bo'lgan obyekt sifatida qaraladi. Tabiatga nisbatan falsafiy qarash to'g'riroqdir. Chunki, kosmik obyektlar – quyosh, yulduzlar, planetalar, osmon va uning cheksiz kengliklari inson ishtirokisiz kelib chiqqan va tabiiyidir. Doimo ham inson ongi va tafakkuri unga ilmiy bilish obyekti sifatida yeta olmaydi. Lekin, insonlar o'zlarining kundalik hayotiy faoliyatlarida tabiatdan bevosita yoki bilvosita tarzda foydalanadilar. Foydalanish ko'paygan sari yangi-yangi fan qirralari yuzaga keladi.

*Tabiatshunoslik – tabiatni ilmiy bilishga qaratilgan fanlar tizimi.*² Uning maqsadi tabiatda mavjud bo'lgan, o'zgarayotgan va inson hayotiga ta'sir etayotgan hodisa, voqeja va jarayonlarni tadqiq qilish. O'zbek faylasuf olimi O. Fayzullayevning «Tabiatshunoslik»ka bergen ta'rifiga, ya'ni «Tabiatshunoslik, – asosan, fundamental fanlar bo'lgan mexanika, fizika, kimyo va biologiyadan tashkil topgan. Astronomiya, geologiya, tibbiyot fanlari, qishloq xo'jalik fanlari, texnika va texnologiya fanlari, ekologiya kabi ko'plab bilim tarmoqlari shu fundamental fanlardan

¹ I. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q / Tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan suhbat, «Muloqot» jurnalining 1998-yil 5-soni.

² A. Nigmatov. Ekologiya nima. – T.: TDYI nashriyoti, 2002. 4-b.

kelib chiqqan¹ degan tushunchasiga *aslo qo'shila olmaymiz*. Chunki *birinchidan*, fundamental fanlarga nimagadir «Biologiya» kирган-у, «Geologiya» yoki «Geografiya» каби табиий fanlar kiritilmagan. Qaysi mezon bo'yicha ushbu muallif tomonidan sanab o'tilgan fanlar fundamental tabiatshunoslik fanlariga ajratilgan. Muallifning o'zi «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»ning 9-jild, 182–183-betlarida fanlarni tabiiy, gumanitar, texnika, ijtimoiy guruhlarga ajratib, tadqiqotlarni esa 2 ta – fundamental va amaliy tadqiqotlarga ajratganlar. Aynan fan emas, tadqiqotlarga «fundamental» maqomni berish mumkinligini e'tirof etganlar-ku.

Ikkinchidan, «Ekoliya», «Mexanika», «Kimyo», «Fizika» fanlari nafaqat tabiatni, balki jamiyat, texnika va texnologiyalarni (kishilar uchun xos bo'lgan ijtimoiy jarayonlarni) ham tadqiq qilmoqda-ku.

Uchinchidan, nima uchun «Geologiya», «Biologiya» каби fanlar bilan «Qishloq xo'jalik fanlari» bir toifaga kiritilgan? Agarda muallif yer bilimlari bilan qishloq xo'jalik fanlarini solishtirsalar maqsadga muvofiq emasmidi? Qishloq xo'jalik fanlari tizimiga – agrobuxgalteriya, agroiqtisod, agrotexnika каби sof ijtimoiy yoki texnologik fanlar ham kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan 3 ta asos bizni «Tabiatshunoslik»ka nisbatan falsafiy nuqtayi nazardan mustaqil fikrlashga olib keldi. *Tabiatshunoslik – tabiatda sodir bo'lgan, kechayotgan va kechishi mumkin bo'lgan holat, jarayon va hodisalarni mustaqil hamda ularni inson hayoti bilan bog'liq ravishdagi qonunlari va qonuniyatlarini ilmiy biliishga qaratilgan fanlar majmuasi*. Fanlar tizimi emas, chunki tabiatshunoslikka oid tizimlashgan fanlar ajratilmaydi. «Tabiatshunoslik» mustaqil fan emas, balki u o'quv kursi sifatida ta'lim jarayonida ishtirok etadi. Tabiatni ilmiy biliishga taalluqli fanlar esa – tabiiy fanlar guruhiiga ajratiladi.²

Avvalambor, fanlarni falsafiy jihatdan guruhlashтирishda «Ekoliya» (yana bir bor ta'kidlaymiz, ekologiya) tabiiy fanlar qatoriga kiritiladi. Savol tug'iladi ijtimoiy yoki inson ekologiyasichi? Ular ham tabiiy fanlar tizimida turadi-mi? Ijtimoiy fanlardan farqli, ijtimoiy ekologik fanlar («Shahar ekologiyasi» «Amaliy ekoliya», «Inson ekologiyasi», «Demokologiya», «Agroekologiya», «Sotsial ekologiya» va h.k.) – tabiat va kishilik jamiyatni o'rtasidagi munosabatlarni ijtimoiy hodisa va jarayonlar prizmasida (rakursida) talqin qiladi-ku. *Agarda ijtimoiy ekologik fanlar atrof tabiiy muhitdagi holat, jarayon va hodisalarni o'z tadqiqotlarida*

¹ O. Fayzullayev. Falsafa va fanlar metodologiyasi. – T.: «Falsafa va huquq nazariyasining nashriyoti, 2006. 15-b.

² Fanlar. O. Fayzullayev. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 9-jild. 182-b.

«asosiy mezon» tariqasida inobatga olmas ekanlar, ular «sof ijtimoiy fanlar» guruhiga qo'shilib ketadilar, ya'ni ekologik fanlar tizimini «tark etadilar». Ushbu masalani nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish zamonaviy ijtimoiy ekologik fanlarning dolzarb muammolaridan biridir.

Shu o'rinda zamonamiz yana bir karra »Ekologiya nazariyasi« o'quv kursini ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishi bor o'quv yurtlariga mustaqil fan va o'quv kursi sifatida kiritish zarurligini isbot qilmoqda.

Ekologik fanlarning obyekti — tabiiy yoki antropogen o'zgargan ekotizimlar, predmeti esa ularni muhofaza qilish, ularning komponentlaridan oqilona foydalanish va buzilganlarini qayta tiklashdir. Ekologik tizim-dagi fanlar (1.3.1-rasmga qarang) o'rtasidagi farq yo'byekti, yo predmeti yoki ikkalasida ham bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham, ekologik fanlar uning uch asosiy *tadqiqot predmetida* — ekotizimlar doirasida kech-gan, kechayotgan va kechishi mumkin bo'lgan tabiiy, ijtimoiy va tabiiy-ijtimoiy hodisa, jarayon va holatlarning turli jihatlarini (tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy) aks ettirmog'i lozim. Ana shundagina tadqiqotlar ekologik xarakterga ega bo'ladi.

Falsafiy ta'limot nuqtayi nazaridan olganda **ekologik fanlar metodologiyasi** — *real ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, ekologik vaziyatda ekotizimlarda kechayotgan tabiiy, ijtimoiy-tabiiy va tabiiy-ijtimoiy reallik, jarayon va hodisalarни ilmiy bilihga qaratilgan metodlarni tanlash va tizimlashtirish*. Biz metodologiyaning kengroq falsafiy ma'nosiga ko'proq yondashamiz va ekologiya metodologiyasida, ya'ni ilmiy bilihda quyidagi talablarni ajratib ko'rsatamiz (5.1.1-rasm.).

Ekologik fanlar metodologiyasida ijtimoiy sharoitni inobatga olishda tadqiqotlarni ijtimoiylashuviga, ya'ni inson tomonidan jamiyatda yashash imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o'zlashtirilishini inobatga olish kerak.¹ Bu degan so'z «Falsafa»ning ilmiy bilihagini, «Sotsiologiya»ning ijtimoiy uyushmalarining rivojlanishidagi (masalan, xalqlar va mamlakatlar taraqqiyoti ularning ekologik vaziyatga qarab joylashuviga bevosita bog'liqligi²), «Psixologiya»ning insonlarning ruhiy holatidagi, «Tarix»ning davriy o'zgarishlaridagi, «Etnografiya»ning mahalliy xalqning turmushidagi qonun va qonuniyatlarni inobatga olish zarurligini ko'rsatadi. Masalan, Quyi Zarafshon agroekotizimlarini ekologik jihatdan optimallashtirish yo'llarini ilmiy bilihda tadqiqot metodologiyasi:

¹ Falsafa. Qomusiy lug'at. — T.: «Sharq», 2004. 147-b.

² Falsafa. Qomusiy lug'at. — T.: «Sharq», 2004. 374-b.

- voha ekotizimlarining real ekologik, texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatidan kelib chiqqan tarzda metodlarni tanlash;
- tanlangan metodlarni amaliy nuqtayi nazardan ierarxik pog'onalash;
- tadqiqot predmetini falsafiy jihatdan aniqlashtirish;
- ekologik choralarни tavsия etayotganda voha aholisining ekologik ongi va madaniyatini inobatga olish;
- hududning tarixiy-ekologik an'anaviy usullariga e'tiborni qaratish;
- aholining ekologik ruhiy holatini tadqiq qilishga to'g'ri keladi.

EKOLOGIYA METODOLOGIYASINING TALABLARI

muayyan ekotizimlar doirasida tadqiqotlar olib borish

amaldagi huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, ma'naviy-ma'rifiy va texnologik sharoitlardan kelib chiqish

hududiy, ko'proq ma'muriy-hududiy farqalanish xususiyatiga egaligi

tabiiy, ijtimoiy-tabiiy va tabiiy-ijtimoiy voqeа, jarayon va hosalalarni tadqiq qilish

ekologik tadqiqotlar metodlarini tanlash

ilmiy bilish metodlarini real sharoitdan kelib chiqqan holda tizimlashtirish

5.1.1-rasm. Ekologik tadqiqot metodologiyasining talablari.

Aks holda, ekologik tadqiqotlar o'z ijobjiy natijalarini va, ayniqsa, amaliy samarasini bermasligi mumkin. Masalan: amaldagi huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, ma'naviy-ma'rifiy sharoitlardan va, hattoki, texnologik imkoniyatlardan kelib chiqish. Har bir tadqiqotchi yoki pedagog ekologik fanlardan ilmiy izlanishlar yoki unga oid ta'lif jarayonini olib borayotganda davlat, jamiyat va shaxs talablaridan kelib chiqqan tarzda olib borishni taqozo etadi. Ekologik fan va ta'lifni muayyan ekotizimlar doirasida baholash yuqori darajada tadqiqotlar o'tkazish demakdir.

Mustaqil O'zbekistonning o'ziga xos ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining milliy modelidagi besh tamoyil – iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi; davlatning bosh islohotchi va demokratik o'zgarishlarning

tashabbuskori ekanligi; qonun ustuvorligi; kuchli ijtimoiy siyosat ustuvorligi; bozor munosabatlariiga bosqichma bosqich o'tishning ustuvorligini sanab o'tish kifoyadir¹. Endilikda ekologik metodologiya mustaqil davlatimizning ichki siyosat sohasidagi o'ziga xos rivojlanish yo'li O'zbekiston SSRning markszism-leninizm g'oyasiga tayanganligi sotsialistik, rejali, ideologiyalashgan ichki siyosatidan tubdan farq qildi. Endilikda Quyi Zarafshon agroekotizimlarini sobiq SSSR mehnat taqsimotidagi «resurs o'lka» sifatida foydalanish tamoyilini inkor etib, uni mahalliy aholining «yashash makoni» sifatida qarashga undaydi.

Tabiiy, ijtimoiy-tabiiy va tabiiy-ijtimoiy voqeа, jarayon va hodisalarни ilmiy bilishda ekosferada kechayotgan tabiiy, tabiiy-antropogen, antropogen-tabiiy jarayonlarni inson faoliyatiligi hamda inson faoliyat natijasida o'zgarishini taqqoslashni tadqiq qilishdan iborat.

Yuqorida sanab o'tilgan talablarni ilmiy bilish uchun hisoblangan dala-ekspeditzion, kameral-laboratoriya, informatsion-kommunikatsion metodlarni tanlash va ularni tizimlashtirishdan iboratdir. Zero tadqiqot metodlari o'z-o'zidan tanlanmaydi. Avvalambor ekologik fanlar metodlari huquqiy asos, siyosiy holat, iqtisodiy imkoniyat, ijtimoiy sharoit, ma'naviy-ma'rifiy daraja va ekologik vaziyatni inobatga olish lozim. Masalan, GIS (GIT o'zbekchada) metodi – geoinformatsion usullardan Quyi Zarafshon agrotizimlarini raqamli kartografik usullarni qo'llash orqali tadqiq etish. Bu usul juda serharajat va u bevosita O'zbekistonni Yer atrofidagi sun'iy yo'ldoshlarga ega bo'lgan davlatlar bilan axborot olishdagi siyosiy aloqa va iqtisodiy imkoniyat darajasiga bog'liqdir.

Ekologik tadqiqot metodlarini tanlashda tizimlash yoki tizimli yondashuvni² qo'llashimiz lozim bo'ladi. Tizimli yondashuv ilmiy bilish jarayoni gipoteza, konsepsiya, rejadan boshlanib, nazariy asosini ishlab chiqish yoki aniqlashtirish hamda amaliy tatbiqiga yetib borish metodlarini muayyan ierarxiya (qismlar zinapoyasida) olib borishni talab etadi.

Ekologik tadqiqotlardagi mazkur metodologik talab, masalan, avval Quyi Zarafshon agrotizimlariga oid holatni aniqlash, so'ngra – dala-ekspeditzion, kameral-laboratoriya va so'ngra, analitik-tahlil metodlarni qo'llashga undaydi.

Ekologik fanlar nazariyasida zamонавиј metodologik asosni to'g'ri tanlash va uni tadqiqot ishlarida qo'llash, olinadigan natijalarning haqqoniyligi, asoslanganligi va amaliy ahamiyatliliginini bildiradi.

¹ S. Xolboyev. Tarixning metodologik asoslari va tamoyillari masalasi. I. Karimov asarlari misolida) // Ijtimoiy fikr – inson huquqlari, 11-som, 2004. 140–146-b.

² Tizimli tahlil // Falsafa: qomusiy lug'at. – T.: Sharq. 2004. 398–399-b.

5.2. Ekologik tadqiqot metodlari

Ekologik fanlarning rivojlanishidagi asosiy ko'rsatkichlardan biri — zamonaviy o'rGANISH, izlanish va tadqiq qilish metodlarining bo'l shidadir. *Metod* (grek. methodos — tadqiqot yo'li) — *muayyan bir maqsadga erishish yo'li yoki usuli. Fanda uni tadqiqot usuli deb ham ataladi.* Metodlar boshqa turdosh fan sohalarida ham bor, lekin ekologiya o'zining qonuniyatlaridan, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ularni tanlab oladi va tizimlashtiradi.

Ekologiya kompleks fanlar toifasiga kirgani uchun ham unda deyarli barcha fanlarga xos bo'lgan tadqiqot metodlari qo'llaniladi:

- Biologik — biokimyoiy, biotexnologik, biofizik, geobotanik, zoologik, fenologik, anatomo-fiziologik va h.k.

- Geografik — kartografik, qiyosiy geografik, landshaft-indikatsion, GAT, geomorfologik, sotsial geografik, gidrologik, meteorologik, geo-demografik, gidrolitodinamik va h.k.

- Huquqiy — ma'muriy, fuqaroviylar, aralash.

- Iqtisodiy — makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy, qiyosiy tahsil, min-taqaviy-iqtisodiy va h.k.

- Matematik-statistik — retrospektiv modellashtirish, kompyuter dasturlari orqali matematik analiz qilish, algoritmlari tizimlash va h.k.

- Geologik — geokimyoiy, geofizik (radiometrik, seysmoakustik, elektroqidiruv), hidrogeologik, paleogeologik, geokriologik, injener-geologik va h.k.

- Kosmik — aerokosmik zondlash, kosmik kartografik, aerokosmo-fotogrammetrik, aerogamma spektrometrik va h.k.

Ushbu metodlar turli sharoitlarda olib boriladi. Shuning uchun ham ekologik tadqiqotlarga tegishli metodlarni olib boriladigan joyi va xususiyatiga qarab guruhlashtiriladi: laboratoriya (lot. laboratorium — ishlayman), kameral (lot. kammer — maxsus xona), dala, ekspeditsiya (lot. ekspeditio — tartibga solish, sayr qilish) sharoitida o'tkaziladigan metodlar.

Dala sharoitida ekologik tajriba va tajriba-sinov ishlari statsionar yoki yarim statsionar tarzda muayyan ekotizimlar doirasida organizmlar turi, populatsiyasi, jamoasi o'rtasidagi va ularni real tabiiy sharoit bilan o'zaro aloqadorlik holati, dinamik o'zgarishi, genezisi kabi masulular tadqiq qilinadi, laboratoriya va kameral sharoitda ishlash uchun materiallar yig'iladi. Buni odatda, fiziologik, biokimyoiy, anatomik, fiziologik, morfologik, sistematik usullar bilan bir qatorda iqlimiylar, geo-

morfologik, tuproq-agrokimyoviy, meteorologik, geologik usullardan ham foydalanadi.

Ekologik tusdag'i *ekspeditsiyalarni* tashkil etish uchun aniq bir yo'nalishlar tanlanadi va tayanch nuqtalari bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi. Unda ekotizimlarni hududiy farqlanishi, davriy o'zgarishi, real tabiiy sharoitga organizmlarning moslashishiga oid ma'lumotlar tegishli ekspeditsion metodlar asosida to'planadi, ekotizim komponentlariidan namunalalar olinadi, texnik va texnologik metodlardan foydalangan tarzda audio-foto-videoaga tushiriladi.

Laboratoriya sharoitida dala va ekspeditsiya usullari bilan yig'ilgan ekotizim komponentlaridan olingen namunalarni analiz qilinadi, video materiallar montaj qilinadi. Lekin ekologik laboratoriyalar nafaqat ilm dargohlarida (ekologik tadqiqotlarni olib boradigan) balki sohaviy (biron-bir iqtisodiyot sohasiga tegishli ekologik masalalarni hal etadigan), muammoli (biron-bir ekologik muammoni hal etish uchun vaqtinchalik yoki doimiy ravishda faoliyat olib boradigan), ishlab chiqarish nazorati (korxonalarda mahsulotlarni ekologik nuqtayi nazardan baholaydigan), o'quv (ekologik bilim, malaka va ko'nikmalarni beradigan) turlariga ajratiladi.

Ekologik tusdag'i *kameral xonalarda* dala, ekspeditsiya, laboratoriya sharoitida olingen natijalar zamonaviy texnik va texnologik usullarни qo'llash (masalan, Geografik Axborot Texnologiyalari – GAT) orqali sintez qilinadi, umumlashtiriladi, tegishli xulosalar qilinadi, tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqiladi.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki dala, ekspeditsiya va laboratoriya sharoitida olingen natijalar aksariyat hollarda obyektiv, kameral usullar esa subyektiv ko'rinishga ega bo'ladi.

Y. Odum (1986) ekotizimlarni tadqiq qilish usullarini tanlashda ikki xil yondashuvni e'tiborga olish zarur deb uqtiradi. Birinchisi – *xolistik* (grek. holos – butun), ya'ni ekotizimlarda modda va energiya oqimini kompleks ravishda tadqiq qilish. Ikkinchisi – *merologik* (grek. meros – qism), ya'ni ekotizim komponentlarini alohida o'rganib turib, ekstropolatsiya metodini qo'llash orqali ularni sintezlash.

Ekologiyaning metodik jihatdan takomillashtirishga ekologlar (Odum, 1973, 1983; Dajo, 1975; Reymers 1992; Tursunov, 1977; Ergashev, 2002, 2005, 2006, 2007; Nigmatov, 2005, 2012; Muratov, 2005), biologlar (Pirs, 1926; Elton, 1934; Kashkarov, Shennikov, 1950; Laxner, 1978; Gorishina, 1978; Loganzen, 1959), geograflar (Sveyn, Deyvis, 1983; Garbuk, Gershenson, 1997; Safarov, 2006) birinchi navbatda dala, kameral, statsionar, matematik modellashtirish, GATdan foydala-

nish va kosmik usullarni qo'llash hamda kompyuter texnologiyalaridan hengroq foydalanishni tadqiqotlarga tatbiq qilmoqdalar.

XX asrning ikkinchi yarmidagi ekologiya fanining rivojlanishini tadqiq qilishda yangicha yondashuvlar bilan «qurollanish» talab etildi. Chunki matematik, geoinformatsion, masofadan ma'lumot yig'ish va uni raqamli ma'lumotlar bazasiga jamlash kabi metodlar dala sharoitida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, tezlashtirish hamda ilmiy bashoratlashni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ammo, ushbu metodlarni ilmiy bilishga jalb etish, ekologiyaning an'anaviy metodlariga (kuzatish, laboratoriya, eksperiment kabilarga) qarshi qo'yish degani emas.

Empirik ma'lumotlarning yig'ilishi va ularni matematik tahlil qilish zamonaviy sharoitlarda modellarni, tadqiqot ishlardan o'rinn olgan ekologik vogelikning «tabiiy portret»ini ishlab chiqishni talab qildi. Modellashtirishning turli ko'rinishlari: matematik-ekologik yoki matematik-kartografik modellashtirish, tibbiyat, rekreatsiya, iqtisodiy va sotsial ekologiyada modellashtirish muammolarini hal etishda juda qo'l kelmoqda.

XX asr oxirida olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati masofaviy tadqiqot usullarini rivojlantirish va qo'llanilishiga qaratilgan ishlarni tashkil etdi (Garbuk, Gershenson, 1997, Hikmatov, 2002). Masofaviy tadqiqotlarning metodik darajasi — monitoring tizimida aerokosmik, masofaviy usullar va tasvirni o'qish (interpretatsiya), raqamli obrazlar tahlili ham mukammallahmoqda (Nigmatov, Reymov, Abdireymov, 2006).

Germaniya Federativ Respublikasida iqlim, qor qoplami, relyef, tupperaq va biotani regional o'rganish davomidagi aerokosmik tadqiqotlarning natijalari ilmiy to'plamlarda tez-tez nashr qilinmoqda (Blaser et al, 2000; Dragicevic, Marceau, 2010). Tadqiqotlarning masofaviy metodlariga bag'ishlangan maxsus jurnallar chop etilmoqda (Remote Sensing of Environment, International Journal of Remote Sensing).

Texnika yutuqlari va ekologik axborotga o'sib borayotgan talab hajimi uni yig'ish, qayta ishlash va yetkazish vositalaridagi inqilobiy o'zgarishlarga sharoit yaratdi. Ekologiya ayrim tarmoqlarining oddiy ma'lumotlari bazasidan boshlab GATni yaratishgacha bo'lgan rivojlanish yo'llini bosib o'tgan geoinformatsion texnologiyalar tizimlari yaratilmoqda (ArcInfo, ENVI, Idrisi 32 dastur paketlari). Bular nafaqat amaliy (menejmentni ta'minlash), balki nazariy vazifalarni — retrospektiv modellashtirish, elektron kartalashtirish kabi o'ta murakkab vazifalarning yechimini topishga imkon bermoqda. GAT nafaqat ha-

yotning barcha jabhalariga kirib bormoqda, balki yangi axborot tovar xarakterini egallamoqda. Ishlab chiqaruvchilarning GAT xizmatlar professional birlashmalari va GATdan foydalanuvchilar konferensiylarining yaratilishi shu bilan bog'liqdir.

Zamonaviy usullardan biri *ekologik modellashtirishdir*. Model – organizmlar va atrof tabiiy muhit o'zgarishlarini matematik tarzda ifoda etish (G'ulomov, Barbakadze, 1994). Ushbu imitatsion usul juda katta jarayonlarni kichik muddatda kompyuter-informatsion texnologiyalarni qo'llash orqali sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Ekotizimlar harakatini son jihatidan baholashda yaratilgan o'nlab metodlar (neuron shoxobchalari yoki ko'p omilli nazariy apparat dasturlari) ekologik monitoringni olib borish va istiqbolli ekologik dasturlarni yaratishga xizmat qilmoqda (GAMS¹, OpenEV² va h.k.).

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Metod bilan metodologiyaning qanday farqi bor?
2. Ekologik metodologiyaning milliy xususiyatlarini sanab o'ting.
3. Ta'lilot bilan fanning grekchadagi atamasi qanday ta'riflanadi?
4. Tizimlash bilan majmualashning qanday farqi bor?
5. Ekologik tadqiqot metodlarini sanab o'ting.
6. Fanlarning umumiy tadqiqot metodlari bilan xususiy tadqiqot metodlarining farqini ochib bering.
7. Ekologiya metodologiyasida qanday holatlar inobatga olinadi?
8. GIS tadqiqot metodiga izoh bering.
9. Nima uchun ekologiyada modellashtirish metodlari keng ko'llaniladi?

¹ General algebraic model solver – Optimizatsiyalashgan masalalarni keng ko'lamliturlarini yechishga yordamlashuvchi dastur.

² OpenEV – rastrli va vektorli raqamli kartalardan foydalanishga yordamlashuvchi GDAL komplektiga oid dastur.

*Bozor munosabatlarda ekologik boshqaruv bilan
ekologik tartibga solish nisbati tenglashadi.
Bozor iqtisodiyoti qonuniyatlardan*

6-bob. EKOLOGIK BOSHQARUV

6.1. Ekologik boshqaruv va uni xalqaro miqyosda amalga oshirilishi

Ekologiya fani ijtimoiy kategoriya bo‘lgani uchun ham unga oid munosabatlarni tartibga solish insonlarga tegishlidir. Ekotizimlarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va qayta tiklash ishlari aynan kishilar o‘rtasida yuzaga keladi va shuning uchun ham u boshqaruvga muhtojdir.

Ekologik boshqaruv tushunchasi juda keng va ko‘p qirralidir. Chunki ekologik munosabatlarning o‘zi turli-tuman ko‘rinishga ega. Masalan, global ekologik boshqaruv — Yer kurrami bo‘yicha, regional ekologik boshqaruv — Markaziy Osiyo kabi mintaqalar bo‘yicha, milliy boshqaruv — muayyan davlatlar bo‘yicha, lokal boshqaruv — davlatlarning ma’muriy va mahalliy hududiy birliklarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish orqali ekologik xavfsizlikni ta’minlash.

Ekologik boshqaruv — atrof-muhitni muhofaza qiluvchi va ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi organlar vakolatlari, funksiyalari va uni amalga oshirish yo’llari yig‘indisi.

Odatda global va regional boshqaruvgaga oid ijtimoiy munosabatlarni xalqaro huquq normalari orqali tartibga solinadi. Ularga oid tegishli normativ hujjatlar xalqaro huquq subyektlari tomonidan ishlab chiqiladi, qabul qilinadi va ekologik boshqaruv amalga oshriladi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunining 4-moddasidagi ekologik prinsiplardan biri «Tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, mintaqalararo va xalqaro manfaatlarni uyg‘unlashtirish»dir. Chunki tabiatda sodir bo‘layotgan jarayonlar va hodisalar, jamiyatdagidan farqli na ma’muriy va na tabiiy chegarani biladi. Qирг‘изистонда Сирдарё ярмоqlarining radioaktiv moddalar bilan ifloslanishi, со‘zsiz, О‘zbekiston va Qozog‘iston respublikalarida atrof-muhitga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Chernobil yoki Orol dengizi ekologik fojalari nafaqat Sharqiylar Yevropa yoki Markaziy Osiyo, balki butun Yer kurrasidagi insonlarning yashash huquqining zaruriy elementlaridan biri bo‘lgan ekologik xavfsiz muhit

¹ A. Nigmatov. Ekologiya huquqi. — T.: Noshir. 2012. 453-b.

holatiga salbiy ta'sir etmoqda. Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov BMTning 48-, 50-, 55-sessiyalari hamda Mingyillik Sammitida so'zlagan ma'ruzalarida Orol muammosini xalqaro miqyosda hal qilishni taklif etdi va uning salbiy oqibatlarini nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo hamjamiyati uchun tahdid solayotgan dolzarb global boshqaruv masalasi qilib ko'rsatdi.

Atrof-muhitni xalqaro muhofaza qilish — insonlarning ekologik xavfsiz muhitda va davlatlarning barqaror me'yorda rivojlanishini ta'minlovchi xalqaro huquq prinsiplari, normalari va munosabatlari yig'indisi. Ekologiya huquqi manbalarining boshqa huquq sohasidagi manbalardan farqi yoki o'ziga xos tomoni — milliy ekologik qon unlarda xalqaro-huquqiy me'yirlarning ko'proq aks etganligidadir.

Atrof-muhitni xalqaro miqyosda muhofaza qilishni boshqarish XIX asrning boshlarida yuzaga keldi. Avvaliga bu masala ikki davlat o'rtasidagi tabiiy obyektlardan teng huquqli foydalanish ko'rinishida namoyon bo'lgan. Bunday ekologik munosabatlar ikki davlat o'rtasida tuzilgan umumi shartnomalar tarkibidan joy olgan. 1913-yil 17–19-noyabrda Shveysariyaning Bern shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya ekologik boshqaruvni xalqaro miqyosda amalga oshrishni olg'a surdi.

Global miqyosdagi yana bir muammolardan biri bo'l mish — yop-pasiga tarqalgan kasalliklar fan va texnika yutuqlari tufayli asta-sekinlik bilan orqaga chekina boshladi. Ammo, aynan fan va texnikaning jadal sur'atlarda rivojlanishi hamda kishilar kundalik hayotiy talab darajasining jadal sur'atlarda o'sishi boshqa global muammoni yuzaga keltirdi. Bu muammo «sovuq urush»dan yoki vabo kabi kasalliklardan farqli ko'zga ko'rinxaydigan, aksariyat hollarda yashirin tarzda kechadigan, lekin oqibati atom bombasidan ham xavfliroq — atrof-muhitni muhofaza qilish, to'g'rirog'i ekologik muammo edi. XX asrning 70-yillariga kelib insoniyat o'zining nisbatan qisqa tarixiy bosqichida Yer kurrasidagi o'rmonlarning 3/2 qismini kesib, 6 mlrd hektar unum-dor tuproqlarni qishloq xo'jalik oborotidan chiqazib, kuniga biron-bir turdag'i hayvonot yoki o'simlik dunyosini yo'qotib, 70 foizdan ortiq suv manbalarini ifloslantirib, atmosfera havosida esa is gazi miqdorini 20 mln tonnaga oshirib, ozon tuynugini AQSHdek katta mamlakat yer maydoniga teng bo'lgan kenglikda ochib qo'ygan edi. Oqibatda, jamiyatda yangi turdag'i — allergiya, OITS (SPID), yuqumli va surunkali o'pka yo'li va rak kasalliklari yuzaga keldi. Tug'ilayotgan ayrim bolalarda mutandlik xususiyatlari, ya'ni normal (tipik) insonlarga xos bo'limgan qulol va burunlarning turli shakli, qo'shaloq chaqaloqlar

tug‘ilishi, o‘pka qo‘shaloqligi, sochsizlik, yuz qiyshiqligi, qing‘ir-qiy-shiq qo‘l va oyoqli bolalarning tug‘ilishi surunkasiga kuzatila bordi.

Xalqaro miqyosda ekologik xavfsizlikni ta’minalash uchun atrof-muhit sifatini organizmlar uchun yetarli darajada ushlab turadigan, qayta tiklaydigan va oshirib boradigan xalqaro munosabatlarni shakllantirishni taqozo qiladi. Ekologik xavfsizlikni ta’minalash uchun esa, albatta, butun dunyo mamlakatlari va xalqlarining bir me’yorda rivojlanishi, ekologik siyosat tizimida davlatlarning integratsiyalanishini tabab qiladi. Bu borada BMT, davlatlararo va nodavlat tashkilotlarning egallagan o‘rni va ularning ekologik masalalar yechimini topishdagi ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda.

Xalqaro miqyosda ekologik xavfsizlikni ta’minalash — atrof-muhit sifatini barcha organizmlar uchun yetarli darajada ushlab turuvchi xalqaro munosabatlar.

XXI asr bo‘sag‘asida insonlarning ekologik ong va tafakkurida keskin o‘zgarishlar davri bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Endilikda ekologik muammo har bir insonning qalbidan joy olib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat hissini uyg‘otmoqda. Lekin, bu hissiyot amalda o‘z ifodasini topa olmayapti. Odamzodning yagona yashash makoni — Yer kurarsi ekanligi, atrof tabiiy muhit esa uning «o‘tirgan daraxtining shoxi» ekanligi, bu shoxni insoniyat o‘z faoliyati natijasida sekin-astalik bilan arralayotganligini anglab olishning o‘zi katta ekologik yutuqdir. Keyingi qadam esa xalqaro-huquqiy me’yorlarga asoslangan holda ekologik madaniyat va ma’rifatni o‘stirish, davlat boshqaruvi va nazorat tizimida ekologik talablarni «birlamchi masalalar» turkumi darajasiga ko‘tarishdir.

Hozirgi zamon xalqaro ekologik boshqaruvi uch yo‘nalishda amalga oshirilmoqda:

- atrof-muhitni muhofaza qilishning davlatlararo va millatlararo hamkorligi hamda ulardagи ijobiy tajribalarni keng targ‘ib qilish;
- mintaqada (regionda) yoki cheklangan zonalarda tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asoslangan chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amaliy tatbiq qilish;
- global ekologik muammolarning yechimini topishda xalqaro hamjamiyatning universal yo’llarini ishlatish.

Atrof-muhit muhofazasi xalqaro miqyosda nafaqat ekologik talablar, balki ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy talablarni ham o‘z ichiga qamrab olgan holda shakllanadi. Lekin, nazariy jihatdan qaraganda tabiatni muhofaza qilish me’yorlari faqatgina xalqaro ekologik munosabatlarni ino-

batga olishi kerak. Chunki, ekologik muammolar dunyoviy muammo-
lar — inson huquqlari, iqtisodiy, energetik, yadro urushi, oziq-ovqat,
ta’lim kabi muammolar bilan uzviy bog’langandir. Ular milliy ekologik
munosabatlар bilan bevosita yoki bilvosita aloqadorlikda bo’lgani uchun
ham mahalliy, regional, global masalalar qatoridagi yagona muammo-
lar tizimi sifatida qaraladi.

Prezidentimiz Islom Karimov o’zining «O’zbekiston XXI asr
bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot
kafolatlari» nomli asarida ekologik muammolarni e’tirof etdi hamda
boshqa milliy xavfsizlik omillari — terrorizm, diniy ekstremizm, kor-
rupsiya, mahalliy chilikdan farqini oshib berdi.

Ekologik munosabatlarni tartibga solishda tabiat va jamiyat mu-
nosabatlariga oid aniq qoida-prinsiplarga yondashiladi. Mazkur prin-
siplar har bir millat yoki davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’rifiy-
madaniy, milliy holati va an’analariiga asoslangan tarzda belgilansa,
xalqaro miqyosda esa ikki va undan oshiq millat, xalq yoki davlatlar-
ning umumiyl manfaatlariga va insonlarning umumiyl xavfsizligiga yon-
dashadi. Xalqaro prinsiplar — xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof
etilgan xalqaro huquq subyektlarining boshqaruv qoidalari.


Xalqaro ekologik prinsiplar — xalqaro hamkorlik ishtiroychilarining
global va regional ekologik boshqaruvga yo’naltiruvchi qoidalari. Xalqaro
ekologik prinsiplar xalqaro huquq normalari zamirida yotishi va o’zaro
munosabatlarni huquqiy me’yorlash hamda huquqiy mexanizmni ishlab
chiqishda yo’nalish beruvchi ko’rsatma tarzida xizmat qiladi. BMT
Nizomining 2-moddasida ko’rsatib o’tilgan va uning hamma a’zolari
uchun majburiy hisoblangan xalqaro munosabat prinsiplari xalqaro
ekologik prinsiplarning asosi hisoblanadi. Xalqaro ekologik prinsiplar
Stokgolm, Rio-de-Janeyro, Yoxannesburg konferensiyalarining deklaratsiyalarida,
Yevropada xavfsizlikni ta’minlashning yakuniy Xelsinki
hujjatida va Umumjahon tabiat Xartiyasida va shu kabi xalqaro huquq
manbalarida o’z aksini topgan.

Asosiy xalqaro ekologik prinsiplar 6.1.1-rasmida berilgan yo’naltiruvchi
qoidalardan iborat.

1. *Ekotizim resurslariga nisbatan davlat suverenitetligi* prinsipi BMT
Bosh Assambleyasi sessiyasi qarori (1962) va Stokgolm konferensiysi
deklaratsiyalarida (1972) o’z ifodasini topgan. Mazkur prinsipga binoan
har bir xalqaro huquq subyekti xalqaro munosabatlarda o’z tabiiy boy-
liklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni milliy qonunchilik
asosida olib borish, ya’ni har bir mustaqil davlat uchun o’z tabiiy boy-

liklarini nafaqat egallash, foydalanish, balki tasarruf qilish huquqidan to'la foydalanish imkoniyati olib berildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi, — deb ta'kidlagan edi Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida, — avvalambor, juda boy xomashyo va tabiiy boyliklardan o'zi bilganicha foydalanish huquqining paydo bo'lishidadir. Bunday foydalanish chor Rossiysi, so'ngra sobiq Ittifoq davridagi ekstensiv, ya'ni pala-partish va chala-yarim emas, balki mustaqillik davrida intensiv tarzda, ya'ni yuqori darajada samaradorlik bilan amalga oshirilmoqda.



6.1.1-rasm. *Global va regional ekologik boshqaruv prinsiplari.*

2. *Davlatlar o'zga yurtdagi ekotizimlarga zarar yetkazmaslik prinsipi* 1972-yil Stokholm konferensiyasida xalqaro ekologik hamkorlikning asosiy qoidalari toifasiga kirgizildi. BMTning Nizomiga binoan, har bir davlat yoki xalqaro huquq subyekti o'z hududi yoki nazorat doirasidagi harakatlari o'zga hudud yoki davlat nazorat doirasida turgan hududlarga zarar yetkazmasligi kerak va bu uchun ular javobgardirlar. Bunga misol qilib Tojikistondagi alumin zavodining shimoliy Surxondaryoga keltilirayotgan zararini olsak bo'ladi. Ifloslanish normasi ruxsat etiladigan me'yordan 7,2 barobar ko'pdir.

3. *Insonlarning ekologik huquqining afzalligi* prinsipi Yer yuzidagi bar-cha insonlar, ularning irqiy, milliy, diniy, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, yashash huquqiga egadirlar. Yashash huquqi esa inson huquqlarining birlamchi omilidir. BMT Nizomining uchinchi xat boshi 1-moddasiga binoan, xalqaro hamkorlikni davlatlar «inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishlari va ularni rag'batlantirishni rivojlantirishlari» asosida olib borishlari kerak¹.

4. *Hamma bosqichlarda ekologik nazoratlash* prinsipi yuqorida sanab o'tilgan xalqaro huquqiy qoidalarning amaliy tatbig'ini kuzatib borish va kafolatlovchi institutlar tizimini yaratishni talab qiladi. Agarda xalqaro ekologik hamkorlik me'yorlarining amaliy tatbig'i uning qatnashchilari yoki uchinchi bir vakolatli idoralar tomonidan nazorat qilinmasa, har qanday xalqaro hujjat deklarativ ko'rinishda namoyon bo'ladi va ular qog'ozda qolib ketadi. Bunday xalqaro nazorat institutining universal tarzda BMTning EKOSOS, YUNEP, YUNESKO, TMXI, JSST, XDK, MAGATE kabi umumiy yoki maxsus masalalar bo'yicha tuzilgan tashkilotlar yoki regional tarzdag'i — OBSE, ADA, ABT, ADT, ASEAN kabi tashkilotlar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, Markaziy Osiyo mintaqasida maxsus vakolatli davlatlararo ekologik tashkilotni tuzish (masalan, «Turkiston — bizning uyimiz», «Turk ekonazorat», «Turkistonda ekologik xavfsizlik») va uning qoshida ishtirokchi davatlarda nazorat, tergov va sud organlarini barpo etish zamон talabidir.

5. *Ekologik axborot almashuv erkinligi* prinsipi xalqaro hamkorlik qatnashchilaridan o'z milliy chegaralarida yuz berayotgan atrof tabiy muhitning salbiy o'zgarishlari haqida vaqtida axborot berib borishni nazarda tutadi. Chunki ekologik jarayonlar ma'muriy chegarani «tan olmaydi» va ular qo'shni mamlakatning ekologik xavfsizlik darajasiغا salbiy ta'sir etishi mumkinligini e'tirof etadi. O'z paytida va tezkor olingan axborot ekologik xavfning oldini olishi hamda uni birgalikda yoki xalqaro hamjamiyat yordamida bartaraf qilish imkonini beradi.

6. *O'zaro ekologik konsultatsiyalash* prinsipi bundan oldingi axborot-lash prinsipining davomi. Konsultatsiyalash yoki maslahatlashish prinsipi yuzaga kelgan ekologik inqiroz holatining keng yoyilishini oldini olish, uni bartaraf qilishning xalqaro strategik maqsad va taktik vazifalarini aniqlab olish, unga qarshi kurashishning chora-tadbirlar ko'lami va yo'llarini aniqlashtirishga imkon beradi.

¹ Международное право в документах. — М.: Юрист, 2007.

7. *Ekologik inqirozli holatda davlatlarning o'zaro yordam ko'rsatish* prinsipi davlatlarning o'zaro gumanitar yordam ko'rsatishi oqibatda o'z milliy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan harakatlar toifasiga kira-di. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan «Orol muammosi»ni hal qilishda 300 dan ziyod davlat yoki nodavlat tashkilotlarning ishtirok etishi va keyingi 10 yil mobaynida ularning yuz millionlab AQSH dollari miqdorida bizlarga moddiy yordam ko'rsatishlari bunday olivjanob prinsipi ni amalda qo'llanilayotganiga dalil bo'la oladi.

8. *Ekologik nizolarni tinchlik yo'li bilan hal etish* prinsipi xalqaro huquq subyektlari orasida ushbu nizolar orqali atrof tabiiy muhitga yanada ko'proq zarar yetkazuvchi «sovuq urush»larning yoki harbiy to'qnashuvlarning oldini olishga qaratilgandir. Zamon talabi — har qanday salbiy jarayonlarni diplomatik vositalar orqali hal qilish va davlatlarning butun kuchini har qanday urushlarga emas, balki insonlarga xavf solayotgan ekologik inqirozlarga sarf qilishlariga da'vat qilishidir.

9. *Ekologik muammolarni barqaror rivojlanish qoidalari orqali hal qilish* prinsipi «Rio—92» konferensiyasining deklaratsiyasida o'z aksini topgan bo'lib, u davlatlar va mintaqalar miqyosida ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni ekologik muammolar bilan bir paytning o'zida kompleks ravishda yechishni talab etadi.

Barcha global va regional miqyosdagi ekologik boshqaruvin, albat-ta, huquqiy me'yorlar orqali hal etilishi lozim. Unda davlat rahbarlari va siyosatchilarining xohish irodasi emas, balki xalqaro hamjamiyatning ongli yondashuvi orqali amalga oshirilishi lozim. Xalqaro hujjalarni fanda *atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbai* deb ataladi.

Xalqaro huquqiy hujjalarga shartnoma, kelishuv, konvensiya, rezolutsiya, xartiya, deklaratsiya, qaror (protokol)lar kiradi. Ayrim holarda xalqaro-huquqiy hujjalarga davlatlarning ichki qonunlarini ham kiritadilar, qachonki milliy qonunlar xalqaro huquq me'yorlariga nisbatan atrof-muhit muhofazasini ko'proq ta'minlab bera oladigan bo'lsa. Nima bo'lganda ham milliy qonunchilik, bizning fikrimizcha, to'lig'icha xalqaro-huquqiy manba bo'la olmaydi. Faqatgina ma'lum bir xalqaro huquq subyekti bo'lmish davlatlar hududida ekologik talab-larga ko'proq javob beradigan normalar qo'llanishi mantiqan to'g'ri, deb topilgandir.

Xalqaro munosabatlarda ekologik boshqaruvin obyekti — o'zining xususiyati, joylanishi va ahamiyati nuqtayi nazaridan biron-bir davlat yurisdiksiyasiga kirmaydigan yoxud nazoratida bo'lmaydigan va shuning uchun

ham ikki va undan ortiq mamlakatlar yoki xalqaro huquq subyektlari mulki bo'lgan ekotizimlar va ularning resusrlari. Misol tariqasida Amudaryoni ko'rsatish mumkin. U o'z tabiiy xususiyatiga va ahamiyatiga ko'ra xalqaro miqyosda boshqarilishi kerak. Chunki Amudaryo Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston respublikalaridan boshlanib qo'shni O'zbekiston va Turkmaniston respublikalaridan oqib o'tadi. Mazkur daryolarning yuqori qismidagi suvlarni ifloslantirish yoki suv rejimini o'zgartirish, albatta, ular oqib o'tadigan pastdagi davlatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bunday obyektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish xalqaro huquq manbalari orqali amalga oshiriladi. Bunga Rogun GESining qurilishi bilan bog'liq bo'lgan ekologik xavfsizlik muammolarini keltirib o'tishning o'zi kifoyadir.

Xalqaro ekologik boshqaruv obyektlari — o'zining xususiyati, joylashuvi va insoniyat uchun ahamiyati nuqtayi nazaridan biron-bir davlat yoki shaxs yurisdiksiyasiga kirmaydigan yoxud nazoratida bo'la olmaydigan ekologik boshqaruv obyektlari. Xalqaro ekologik boshqaruv ikki yo'nalishda, ya'ni xalqaro huquq obyektlarini muhofazalash va ulardan foydalanish nuqtayi nazaridan olib boriladi. Xalqaro huquq obyektlarini muhofazalash obyektiga havo basseyni, fazo, dunyo okeani, Antarktika, ko'chib yuruvchi hayvonlar va qushlar kiradi. Xalqaro huquq obyektlaridan foydalanishga ikki va undan ortiq mamlakatlar hududlarida joylashgan daryolar, ko'llar, dengizlar hamda Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan noyob va yo'q bo'lib ketayotgan o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini misol qilib keltirish mumkin.

Havo basseyniga yerning atmosfera qatlami kiradi. Garchand uning muhofazasi milliy qonunlar bilan ham tartibga solinsa-da, lekin atmosfera qatlamidagi iqlim resurslari doimo sirkulatsiya (aylanna harakat)da bo'lgani uchun ham bu qatlamidagi barcha jarayonlar hech qanday ma'muriy chegaraga bo'ysunmaydi va xalqaro huquq asosida tartibga solinadi.

Havo basseynining xalqaro muhofazasi asosan to'rt yo'nalishda amalga oshiriladi: iqlim va ob-havoga salbiy ta'sirning oldini olish; atmosfera havosini ifloslantirishni davlatlararo tarqalishining oldini olish va bartaraf qilish; ozon qatlamini yemirilishdan muhofazalash; atmosfera havosini nazoratlash va tozalash borasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Fazo — havo basseynidan farqli, biron-bir davlat yurisdiksiyasiga kirmaydigan xalqaro huquq obyekti hisoblanadi. Bu o'rinda 1963-yil BMT Bosh Assambleyasining «Kosmik kenglikdan foydalanishda davlatlar

faoliyatining huquqiy prinsiplari Deklaratsiyasi» va 1967-yildagi «Fazo kengligi, Oy va boshqa osmon jinslaridan foydalanish va ularni tad-qiq qilishda davlatlar faoliyatining prinsiplari to‘g‘risida»gi kelishuvlarni misol qilib olsak bo‘ladi. Bu xalqaro me’yoriy hujjatlarga muvofiq fazo umuminsoniyat boyligi hisoblanadi, undan foydalanish faqatgina tinchlik yo‘lida amalga oshiriladi hamda fazoni ifloslantirish va unga salbiy ta’sir ko‘rsatishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ammo hozirgi kunda fazoni «zabt etgan» mamlakatlar undan militaristik yo‘lda foydalanishni to‘xtatayotganlari yo‘q. Fazoda minglab harbiy-shpion fazo kemalari uchib yuribdi. Kosmosda 4,3 mln dan oshiq turli ko‘rinishdagi fazoviy chiqitlar mavjud va ular erkin harakatdadir.

Dunyo okeanlari Yer sharining 2/3 qismini band etgan holda, butun suvlarning 97% ini o‘zida mujassamlashtirgan. Ular nafaqat arzon va qulay transport yo‘li, balki oziq-ovqat maskani va yerdagi hayotni ushlab turuvchi yetakchi omil hamdir. Chunki atmosfera havosidagi 70—80% kislород okeanlardagi fitoplanktonlarning fotosintez jarayonlarida qatnashuvi orqali yuzaga keladi. Dunyo okeani suvning ekologik tizimdagisi katta aylanishi jarayonida faol qatnashadi va u «tozalovchi filtr» bo‘lib xizmat qiladi. Dunyo okeanlaridan foydalanish muayyan davlatning yurisdiksiyasiga kirmaydi va shuning uchun ham uning muhofazasi xalqaro-huquqiy me’yorlarning amaliy samaradorligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi.

Dunyo okeanlarini muhofazalash shu kunda quyidagi to‘rt yo‘nalishda olib borilmoqda: kimyoviy va radioaktiv moddalardan, neft va neft mahsulotlaridan okeanlar ifloslanishining oldini olish; harbiy maqsadlarda okeanlardan foydalanishni to‘xtatish; okean faunasi va florasini saqlab qolish, qayta tiklash va takroriy ishlab chiqarish; okean resurslaridan o‘ta samaradorlik bilan foydalanish.

1963-yilda qabul qilingan «Atom qurolini sinovdan o‘tkazishni uch sferada taqiqlash to‘g‘risida»gi shartnomaga binoan, hech bir davlat okeanda o‘z qurollarini sinashi mumkin emas. 1954, 1962, 1969, 1971, 1972, 2001, 2009-yillarda qabul qilingan dunyo okeanini muhofaza qilishga qaratilgan bir qator konvensiya va qaydnomalarga binoan, kemalardan inson va umuman jonli mavjudodga ta’sir qiluvchi neft va boshqa mahsulotlarni oqizish va tashlash qat’iyan man qilinadi, ularga yetkazilgan moddiy va ma‘naviy zarar uchun esa javobgarlik belgilangan. Keltirilgan zararni iqtisodiy qoplash maqsadida xalqaro normalarga muvofiq har bir kema va kompaniyalar sug‘urtalanishi hamda molivayiv hujjatga ega bo‘lishlari kerak.

1990-yildan boshlab AQSH dengiz portlariga faqatgina ikki qobilgi korpusga ega bo'lgan neft tankerlarining kirishiga ruxsat beriladi. Chunki dengiz va okeanlarning ifloslanishida neft tankerlarining «xizmati» juda kattadir. Masalan, 1973-yili talafotga uchragan «Amoco Kazus» supertankeridan 220 ming tonna, 1989-yili Ispaniya supertankeridan 217 ming tonna neft okeanga oqzilgan. 1989-yil Alyaska qirg'oqlarida dengiz riflariga urilgan «Ekason Valdiz» kemasidan oqzilgan neftni tozalash uchun 2 mlrd amerika dollari sarf qilingan. 1967-yilda Liberiya tankeri falokati Angliya va Fransiya davlatlarining 180 kilometrlik masofada qirg'oq bo'yini ifloslantirgan.

Okeanlar uchun yana bir katta xavf tug'dirayotgan ifloslanish omili — radioaktiv chiqitlarni okeanlarga tashlash va joylashtirish. Atom floti va atom sanoati yo'nga qo'yilgan mamlakatlar tomonidan yiliga minglab tonna miqdorida o'ta xavfli bo'lgan radioaktiv chiqitlar dunyo okeanlariga tashlanmoqda.

Antarktika — hech qaysi bir davlat yurisdiksiyasiga kirmaydigan va xalqaro-huquqiy me'yorlar bilan tartibga solib turiladigan Yer kurrasidagi eng sovug, oltinchi qit'a. Bu qit'ani muhofaza qilish va undan foydalanish «Antarktika to'g'risidagi shartnomaga ko'ra» (1959-yil) olib boriladi. Shartnomaga binoan Antarktikadan ilmiy maqsadlarda erkin foydalaniladi va harbiy yo'nalishdagi har qanday harakatlar bu qit'ada man qilinadi. Undagi dengiz va quruqlik hayvonlaridan foydalanish va ular muhofazasiga doir maxsus «Antarktika havzasidagi hayvonot dunyosini muhofaza qilish to'g'risida»gi konvensiyaga muvofiq amalga oshiriladi. BMTning YUNEP tashkiloti Antarktikadagi ekologik munosabatlarni tartibga solishni kuzatib boradi.

Xalqaro Qizil kitob 1972-yili noyabr oyida bo'lib o'tgan BMT YUNESKO tashkilotining konferensiyasida qabul qilingan «Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risida»gi konvensiyaga muvofiq tuzildi. Unda Yer kurrasida noyob va yo'qolish xavfi ostida turgan o'simlik va hayvonot dunyosi turlarining biologiyasi, tarqalishi, yo'qolib ketish sabablari va muhofaza qilish choralar ko'rsatib o'tilgan.

Xalqaro tabiatni xo'riqlash ittifoqi Qizil kitob uchun ma'lumotlarni 1949-yildan boshlab to'pladi va uni 1966-yili «Red Data Book» nomi bilan ingliz tilida chop etdi. U doimo to'ldirib boriladi va ingliz tilida chop etiladi. XX asrning oxiriga kelib sutebezuvchilarining 236, quşlarning 485, sudralib yuruvchilarining 141, baliqlarning 194 turlari xalqaro Qizil kitobga kiritildi. Hozirgi kunda ularning soni 2 baravar-gacha ko'paygan.

Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan flora va fauna dunyosi turlari qaysi bir mamlakat hududida yashashidan qat'i nazar, ularning xalqaro muhofaza qilinishi va xalqaro tashkilotlar tomonidan nazorat ostida bo'lishi shart. Ko'chib yuruvchi hayvonlar va qushlarning vaqtinchalik yashash makoni bo'lgan botqoq, ko'l, daryo yoki landshaftlar alohida muhofaza qilinadigan tabiiy obyektlar toifasiga kirgizilishini xalqaro huquqiy normalar talab qiladi. YUNESKOning «Kishilar va biosfera» xalqaro dasturiga muvofiq O'zbekistonda yangi ko'rinishdagi Chotqol biosfera qo'riqxonasi tashkil etildi.

Bo'linadigan tabiiy resurslarga doimo yoki vaqtinchalik ikki va undan ortiq mamlakatlar hududlarida joylashgan dengiz (Boltiq, Oxota, Xitoy), daryo (Dunay, Sirdaryo, Amudaryo) va ko'llar (Buyuk ko'llar, Kaspiy, Orol) kiradi.

Bo'linadigan tabiiy resurslarni boshqarish, asosan, undan manfaatdor mamlakatlar o'rtasidagi tuzilgan shartnomalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Unda ekologik boshqaruv nizolarini hal qilish, to'lovlar, takroriy ishlab chiqarish masalalarini hal etish orqali amalga oshriladi. Boshqaruv organi sifatida turli shakldagi ekologik komissiya yoki komitetlar tuziladi. Masalan, Orol ko'li va uning havzasi bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlarining «Orolni qutqarish» doimiy komissiyasi ishlab turibdi. 1995-yil BMTning Orol havzasiga bag'ishlangan maxsus xalqaro konferensiyasida «Nukus deklaratsiyasi», 1997-yil 28-fevralida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Almati uchrashuvida «Almati deklaratsiyasi» qabul qilindi va «Orol denizini qutqarish» xalqaro jamg'armasi tashkil etildi. Markaziy Osiyo davlatlari (O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari)ning jamg'armaga yillik badallari mamlakat budgetining 0,3% miqdorida belgilandi.

Xalqaro ekologik boshqaruv tashkilotlar, konferensiylar va jamg'armalar orgali yuritiladi. Umuminsoniyat qadriyatlaridan biri bo'lmish Yer kurrasidagi ekotizimlarni muhofaza qilish va uning resurslaridan oqilonqa foydalanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yan ekologik tashkilotlar, muassasalar va idoralar o'zlarining faoliyat doirasiga ko'ra universal va regional (mintaqaviy) turlarga ajratiladi.

Universal xalqaro ekologik boshqaruv tashkilotlari — faoliyat doirasiga ko'ra turli toifadagi, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish yo'nalishidagi hamda dunyoning barcha mintaqalaridagi davlatlarning ekologik munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan xalqaro muassasalar. Ularga BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari kiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – 1945-yilning 25-oktabridan buyon faoliyat yurgizib kelayotgan eng nufuzli xalqaro, davlatlararo tashkilot bo‘lib, u o‘z oldiga davlatlar o‘rtasida tinchlik va xavfsizlikni saqlash, mustahkamlash va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadini qo‘yadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi BMT Nizomidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Bosh Assambleya – BMTning eng oliy toifadagi organlaridan bo‘lib, u xalqaro masalalarga doir hamma dolzarb masalalarni kun tartibiga kirgizadi. Keyingi 30–40 yil mobaynida Bosh Assambleyaning kun tartibiga ko‘pincha ekologik masalalar ham kirgiziladigan bo‘lib qoldi. Bosh Assambleya atrof-muhit muhofazasiga doir muammolar yuzasidan unga a’zo davlatlar va Xavfsizlik Kengashiga tegishli tavsiyalar berishga haqlidir. Shuning uchun ham Bosh Assambleya sessiyalarida yirik jamoat, davlat va siyosiy arboblarning ma’ruzasi tinglanadi hamda unga muvofiq xulosalar qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48, 50, 55-sessiyalarida hamda Mingillik Sammitida so‘zlagan nutqlarida jahon hamjamiyatining diqqat-e’tiborini Orol dengizining qurib borayotganligiga va uning oqibatida kelib chiqayotgan ekologik inqirozli holatga qaratdi. 1995-yil 18–20-sentabrda Toshkentda ushbu tashabbusga muvofiq, BMT rahbarligida Orol muammolariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya o’tkazildi.

BMTning ekologik tadbirlari uning asosiy organlari yoki yordamchi idoralari orqali amalga oshiriladi. Bosh Assambleya qoshidagi BMTning *Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS)* muayyan turdagisi aniq vazifalarini bajaradi. Ular toifasiga ekologik masalalar ham kiradi. Ekologik masalalar uning rahbarligi ostidagi qo‘mita va komissiyalar vazifasiga yuklatilgan. Tabiiy boyliklar qo‘mitasi ekologik vazifalarni bajarishda alohida o‘rin tutadi. EKOSOS o‘zining qo‘mita va komissiyalar faoliyati natijalarini umumlashtirib, Bosh Assambleyaga tavsiyanomalar beradi va konvensiyalar tayyorlaydi, o‘z vakolat doirasida xalqaro ekologik konferensiyalar chaqiradi, ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan birqalikda ekologik bitimlar tuzadi.

Aniq bir turdagisi ekologik masalalarni BMTning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari olib boradi. Ixtisoslashtirilgan tashkilotlar BMT Nizomining 57-moddasiga muvofiq, davlatlar o‘rtasida tuzilgan bitimlar orqali tashkil etiladi va o‘zlarining ta’sis hujjatlariga binoan, bevosita yoki bilvosita ekologik masalalar bilan 63-moddasida ko‘rsatilgan qoidalarga asoslangan holda faoliyat olib boradi. BMT qoshida faoliyat ko‘rsatayotgan

16 dan ziyod ixtisoslashgan tashkilotdan quyidagilari atrof tabiiy muhit muhofazasiga doir masalalar bilan bevosita shug‘ullanadi.

BMning atrof-muhit bo‘yicha dasturi (YUNEP) 1972-yil 15-dekabrda tashkil topgan. YUNEPning uchta bo‘limi — Boshqaruvchilar Kengashi, Atrof-muhit muhofazasini muvofiqlashtiruvchi Kengash va Atrof-muhit Jamg‘armasi mavjud. Hal qiluvchi masalalar Boshqaruvchilar Kengashi tomonidan ko‘rib chiqiladi va amalga oshiriladi. Uning kun tartibiga sakkiz yo‘nalishdagi masalalarni hal qilish qo‘yilgan: atrof-muhit sanitariysi, aholi punktlarida kishilar salomatligi; yer va suv muhofazasi, cho‘llanishning oldini olish; okeanlarni muhofaza qilish; tabiat, yovvoyi hayvonlar va genetik resurslar muhofazasi; energetik muammolar; ekologik o‘quv va tegishli mutaxassislarni tayyorlash; tabiiy resurslar savdosi, iqtisodi va texnologiyalari; xalqaro va milliy qonunchilikni kodifikatsiyalash hamda unifikatsiyalash.

YUNEP va ayrim rivojlangan mamlakatlar ko‘magida O‘zbekiston Respublikasida «Biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va harakatlar rejasи» va 20 dan ziyod milliy ekologik qonunlar ishlab chiqildi. O‘zbekistonda ekologik axborot tizimi — YUNEP/GRID — ARENDAL (Norvegiya) loyihasi tayyorlandi.

O‘zining ekologik boshqaruv funksiyalari bilan YUNEPga yaqin bo‘lgan BMTdan biri — *madaniyat, fan va maorif masalalari bo‘yicha xalqaro tashkilot* (YUNESKO). YUNESKO 1948-yil tashkil topgan va o‘z Nizomiga muvofiq, u atrof tabiiy muhit muhofazasiga doir quyidagi masalalarni hal qilishda faoliyat yurgizadi: *100 dan ortiq mamlakatlar ishtiroy etadigan xalqaro ekologik dasturlarga rahbarlik qiladi*. Shular qatorida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurgizib kelayotgan «Inson va biosfera» (MAB), «Tabiat muhofazasiga doir xalqaro maorif dasturi», «Xalqaro hidrologik dastur» (1995-yildan buyon YUNESKO va Germaniya fan va texnologiyalar vazirligi loyihasiga binoan Orol den-gizi atrofidagi yer usti va osti suvlarini baholash va modellashtirish ishlari olib borilmoqda) va hokazolar *tabiiy obyektlar muhofazasini hisobga oladi va tashkil etadi*. Shunga asosan, Yer kurrasining turli burchaklarida biosfera qo‘riqxonalari tashkil etilgan. Biosfera qo‘riqxonalarini tashkil etish, ularda atrof-muhitga inson faoliyatining ta’sir qilish darajasining monitoringini olib borish YUNESKOning universal dasturi asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston hududida 1995-yildan buyon Chotqol tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasi xalqaro yagona biosfera qo‘riqxonalar tizimida ishtiroy etib kelmoqda. Ammo uning faoliyati YUNESKO dasturining 3 tabaqali tegralash bo‘yicha qo‘riqxonasi ishini tashkil qiladi.

lish talabiga hanuzgacha javob bermaydi. Biosfera qo'riqxonasi hудди — qo'riqxona, bufer (himoya) va yadro tegralariga ajratilmagan. Qo'riqxonadagi bunday tashkiliy ishlarni amalga oshirish ma'lum darajada moliyaviy qo'llab-quvvatlashni taqozo qiladi.

Jahon sog'iqliqi saqlash tashkiloti (JSST) eng birinchilar qatori (1946-yil)da tuzilgan BMTning tashkiloti bo'lib, u atrof-muhitning salbiy o'zgarishi natijasida inson salomatligi holati, uni saqlash va mustahkam-lashga o'z faoliyatini qaratadi. JSST quyidagi ekologik vazifalarni amalga oshiradi: atrof tabiiy muhitning sanitar-epidemiologik monitoringini olib borish; atrof-muhit holatiga qarab, kishilarda kasalliklarning ke-lib chiqishi va tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar toplash hamda ularni umumlashtirish; atrof-muhitning sanitar-gigiyenik ekspertizasini olib borish va uning sifatiga baho berish; shaharlarda inson salomatligi masalalarini tadqiq qilish; rekreatsion tabiiy mintaqalar va ularda aholining hordiq chiqarish chora-tadbirlarini olib borish.

Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) 1945-yilda tuzilgan bo'lib, uning qarorgohi Rim shahrida. FAONing ekologik faoliyati xalqaro tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish orqali yer yuzida ortib borayotgan aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish. FAONing sa'y-harakati orqali «Dunyo tuproq kartasi» tuzilgan, «Umumjahon tuproq kartasi» qabul qilingan. Aholini joylashtirish, oziq-ovqat muammolari, sahrolanishga qarshi kurash, suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish mavzusidagi bir qator xalqaro anjumanlar o'tkazilmoqda.

Hukumatlararo dengiz kengashi tashkiloti (HDK) 1948-yilda tuzilgan bo'lib, uning qarorgohi London shahrida. HDK dunyo okeani va den-gizlarda suv transportidan foydalanishning ekologik xavfsizlik darajasini ta'minlab berishda faol ishtiroy etmoqda hamda ularning ifloslanishiga qarshi kurash bo'yicha bir qator konvensiyalar ishlab chiqqan. Bu tashkilot o'z tarkibiga yuzdan ziyod mamlakatlarni birlashtirib, den-giz suvlari muhofazasiga doir asosiy xalqaro prinsiplarni o'rnatadi va uning siyosatini olib boradi.

Jahon meteorologik tashkiloti (JMT) 1947-yilda tuzilgan bo'lib, uning qarorgohi Jeneva shahrida. JMTning maqsadi insonlarning xo'jalik faoliyatini sayyoramiz iqlimiga ta'sir ko'rsatish darajasini tadqiq qilish va ularga oid materiallar toplash. U atrof-muhitning global monitoring tizimi (AMGMT) bo'yicha JMT, JSST, FAO, YUNESKO tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yurgizadi. Bu tizimni YUNEP tashkiloti muvofiqlashtirib turadi. AMGMT harakatdagи 5 dasturni

muvofiglashtirib turadi: atmosfera havosi holatining monitoringi; ifloslantiruvchi moddalarni uzoq masofalarga ko'chirish; inson salomatligi; dunyo okeanlari; quruqlikdagi resurslarni tiklash.

O'zbekiston Respublikasi AMGMT dasturi bo'yicha tuzilgan «Iqlimning o'zgarishi to'g'risida»gi Konvensiyaga 1993-yildan boshlab a'zo. Hozirgi kunda ushbu Konvensiyani 59 mamlakat ratifikatsiya qilgan. 1996-yil 12–14-noyabrda Toshkent shahrida o'tkazilgan ushbu Konvensiya bo'yicha seminar yig'ilishida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi: iqlimning o'zgarishi to'g'risidagi Konvensiya bilan Markaziy Osiyo davlatlari va nodavlat tashkilotlarini tanishtirish; Konvensiya ga qo'shilmagan mamlakatlarni jalb qilish; Markaziy Osiyo davlatlariiga BMT, xususan, YUNEPning yordam ko'rsatish yo'llarini aniqlash; O'zboshgidromet va boshqa respublikalar gidrometeorologik xizmatlaridan arid (quruq) iqlim sharoitlarida iqlimga sanoat ta'sirini aniqlash metodikalarini takomillashtirish.

BM Tning Tabiiy ofatlarni bartaraf etishga yordam ko'rsatish bo'yicha byurosi (YUNDRO) turli davlatlar va tashkilotlarga tabiiy ofat natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz holatida yordam ko'rsatishni tashkilashtiradi va olib boradi. Byuro yer yuzida sodir bo'layotgan tabiiy ofatlar bo'yicha ma'lumotlar bankiga va har bir salbiy ekologik jarayonning oldini olishning aniq tadbirlarini qo'llash tavsiyanomalariga ega.

1948-yilda tashkil topgan *Tabiat va tabiiy resurslarni muhofazalashning xalqaro ittifoqi* (TMXI) nodavlat tashkilot bo'lib, u 100 dan ziyod davlat va 500 dan ziyod nodavlat tashkilotlarni a'zo qilib olgan. TMXIning asosiy vazifasi unga a'zo bo'lib kirgan mamlakatlar va ularda faoliyat yurgizayotgan tashkilot, birlashma, uyushma va fuqarolarning ekologiya sohasida hamkorligini yanada rivojlantirishdir. TMXI tashkiloti quyidagi masalalar bo'yicha faoliyat yurgizadi: tabiiy o'simlik va hayvonot dunyosi hamda ekotizimlarni saqlab qolish; noboy va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini hamda tabiiy yodgorliklarni saqlab qolish; qo'riqxona, rezervatsiya, milliy bog'larni tashkil qilish; ekologik o'quvni tashkillashtirish.

TMXI tashabbusi bilan yer yuzasida noyob, yo'q bo'lib ketayotgan yoki yo'qolish xavfida bo'lgan o'simlik va hayvon turlari bo'yicha «Xalqaro Qizil kitob» tuzilgan va unga doimo qo'shimchalar kiritilib borildi. «Tabiatni muhofaza qilishning Butunjahon strategiyasi» dasturi ishlab chiqilgan va bunga asosan O'zbekistonda «Biologik xilma-xillikni saqlab qolishning milliy strategiyasi va harakatlar rejasi» ishlab chiqilgan.

Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) — 1957-yilda tashkil etilgan davlatlararo tashkilotdir. Agentlikning Nizomiga binoan, uning maqsadi atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishga erishishga ko'maklashish va uni nazorat qilish. MAGATE 34 ta mammalakat nomidan qatnashadigan Boshqaruvchilar Kengashi orqali quyidagi ekologik masalalarni ko'rib chiqadi: atom elektrostansiyalarni qurish va ishlatish qoidalarini ishlab chiqish; ishlab chiqarish yoki loyihadagi atom elektrostansiyalarning ekologik xavfsizligini ekspertiza qilish; atom qurilmalari va materiallarini atrof-muhitga ta'sirini baholash; radiatsion xavfsizlik me'yorlarini belgilash; turli atom qurollarini sinash, unga tayyorlash yoki laboratoriya sinovlarini o'tkazish bo'yicha monitoringni olib borish.

MAGATE talabiga itoat etmaslik BMT Bosh Assambleyasи Xavfsizlik Kengashi qaroriga binoan, Iraq va Eronga nisbatan qo'llanilgan yoki qo'llanilayotgan siyosiy va iqtisodiy sanksiyalar orqali qarshi kurash chorasiini tatbiq etishi mumkin.

Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda mintaqaviy (regional) boshqaruv tashkilotlarining ahamiyati juda katta. Chunki ular har bir mintaqaning aniq ekologik holatini, millatlarning azaliy yaqinligini, ekologik inqirozlarning bir-biriga juda tezlik bilan ta'sir qilishini hamda ularning diniy, ma'rifiy va madaniy yaqinligini inobatga oladi.

Xalqaro regional ekologik boshqaruv tashkiloti — faoliyat doirasiga ko'ra kompleks, jumladan ekologik masalalarni mintaqaviy miqyosda hal etuvchi xalqaro muassasa. Regional tashkilotlarga — Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (ОБСЕ), Arab davlatlari ligasi (ADL), Afrika birligi tashkiloti (ABT), Amerika davlatlari tashkiloti (ADT), Janubyi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN), Davlatlararo ekologik Kengash (DEK), Orol dengizi havzasi muammolari bo'yicha Kengash va shu kabi mintaqaviy tashkilotlar kiradi.

ОБСЕга barcha Yevropa mamlakatlari, AQSH, Kanada va MDH davlatlari a'zodirlar. Ushbu nufuzli regional tashkilot 1972—1975-yillarda Xelsinki shahrida bo'lib o'tgan uch bosqichli uchrashuvlar va muzokaralar natijasida 1975-yil 1-avgustdan faoliyat yurgiza boshlagan. ОБСЕning maqsadlaridan biri unga a'zo mamlakatlar doirasidagi hududlarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va bu sohada ular o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish. Xelsinkida imzolangan Yakuniy hujjatga muvofiq har qanday global masalalar bo'yicha uning qoidalarini bajarishni nazoratlash va muhokama qilish maqsadi da uchrashuvlar o'tkazilib turiladi.

1995-yil 10–14-noyabrda Toshkent — Urgench shaharlarida ОБСЕning atrof-muhitni tiklash bo'yicha seminari bo'lib o'tdi. Seminarda BMTning YUNEP, PROON, JSST, MAGATE, MDO', Jahon banki hamda ОБСЕга a'zo 20 ta mamlakat, jumladan, O'zbekiston ham qatnashdi. Seminar qarorida Markaziy Osiyo respublikalarida inson huquqlarining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan ekologik xavfsizlikni to'laqonli ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadbirlar belgilanib olindi.

Davlatlararo ekologik Kengash (DEK) 1992-yil 8-fevralda mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) rahbarlarining Moskvada bo'lib o'tgan kengashida tasdiqlangan. O'zbekiston uning to'la huquqli a'zosi sifatida sobiq Ittifoq mamlakatlari bilan atrof-muhitni muhofaza qilishni kelishib olgan. DEK muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarni ko'zlab faoliyat yurgizadi. DEKga a'zo 10 ta davlat rahbarlari tomonidan imzolangan Kelishuvga muvofiq (1-modda) uning a'zolari o'z hududlari uchun atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlarini ishlab chiqadilar va shu asosda huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy zamin yaratadilar hamda o'zaro hamkorlik qiladilar.

1993-yil mart oyida Qozog'istonning Qizilo'rda shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyodagi besh davlatning Oliy darajadagi uchrashuvida *Orol dengizi muammolari bo'yicha Davlatlararo Kengash* va uning Ijroiya qo'mitasi hamda Orolni qutqarish Xalqaro fondi tashkil etildi. 1994-yil Nukus, 1995-yil Tashhovuz va 1997-yil Almati shahrida BMT ishtirokida bo'lib o'tgan uchrashuvlarda Nukus va Almati deklaratsiyalari qabul qilindi. Ushbu uchrashuvlarda Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish rejaliari ishlab chiqildi. Kengashning taklifi va BMTning homiyligida 1998-yilni «Atrof-muhitni muhofaza qilish yili» deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan Markaziy Osiyo mintaqasi — ekologik va yadroviy xavfsizlik mintaqasi deb e'lon qilindi va bu region yadro quroldidan xoli tegra hisoblaniladigan bo'ldi.

Atrof-muhit muhofazasiga doir faoliyat yurgizayotgan tashkilotlardan tashqari, doimiy ravishda, ekologik yo'nalish bo'yicha tashkilashtirilayotgan va o'zining ekologik harakatiga ko'pgina davlatlarni jalb qilayotgan *xalqaro konferensiyalarning* atrof-muhit muhofazasidagi ahamiyati juda kattadir. Ular orasida 1972-yil atrof-muhit bo'yicha BMTning Stokholm konferensiyasi, 1975-yil Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik Kengashi, 1986-yil ОБСЕ davlatlari boshliqlarining Venna uchrashuvi, 1992-yil BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha

Rio-de-Janeyro konferensiyasi, 1999-yil ye XO'Tning Istambul Sammiti, 2002-yil Yoxannesburg Sammiti va 2012-yil «Rio+20» konferensiysi si alohida o'rinda turadi.

Xalqaro ekologik jamg'armalar tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitning sanitar va gigiyenik holatini yaxshilash hamda ekologik das-turlarni moliyaviy ta'minlash kabi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekologik fondlardir. Faoliyat yurgizish va amaliy harakat qilish ko'lamiga ko'ra, ular *umumjahon*, *regional* va *regionlararo turlaraga ajratiladi*.

Xalqaro ekologik jamg'arma — xalqaro miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish loyihalarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan fondlar.

Umumjahon ekologik jamg'armalarga BMTning YUNEP tashkiloti qoshidagi «Atrof-muhit jamg'armasi»ni olsak bo'ladi. Bu jamg'arma o'zining moliyaviy mablag'larini BMTga a'zo davlatlarning badal to'lovlardan, xalqaro tabiiy obyektlardan davlatlarning maxsus foydalanganlik uchun yig'ilgan to'lovlardan, xalqaro Gaaga sudi qaroriga binoan, atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni xalqaro ekologiya huquqi subyektlari tomonidan iqtisodiy qoplash bo'yicha to'lovlardan, yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan xayriyalardan va turli-tuman lotereya, shou, sport o'yinlari kabi tadbirlardan tushgan pul yig'imlaridan to'ldirib boradi. Uning mablag'lari faqatgina atrof-muhit muhofazasi va sanitar-epidemiologik holatini yaxshilashga yo'naltiriladi. Bu jamg'arma orqali Markaziy Osiyo mamlakatlariiga 1994—2010-yillar mobaynida bir necha yuzlab millionlik AQSH dollarida Orolni qutqarish bo'yicha moliyaviy va moddiy yordam ko'rsatilgan.

Regionlararo ekologik jamg'armalar turiga Minsk shahrida qarorghi bo'lган, MDH mamlakatlari orasida tashkil qilingan va Xalqaro Iqtisodiy Kengash (XIK) davlatlarining badal to'lovlari asosida tashkil qilingan «*Xalqaro ekologik jamg'arma*» kiradi. Uning nizom kapitali 60 mln rubldan iborat. Yiliga unga a'zo mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham yalpi milliy daromadning 0,05% miqdorida pul mablag'larini o'tkazib turadilar. Jamg'arma XIK davlatlari ning o'zaro Kelishuviga binoan (1-modda) tuzilgan Milliy ekologik das-turlarni moliyalab turadi.

XIKning keyingi yillarda o'tkazgan Oliy darajadagi uchrashuvlarida Xalqaro ekologik jamg'arma tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatish kerak bo'lган quyidagi obyektlar aniqlandi: Chernobil zonasasi, Amudaryo va Dnepr havzalari, Balxash ko'li, Qora, Azov, Kaspiy dengizlari, Orolbo'yи tegrasi.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi regional jamg'arma — *Xalqaro «Ekosan» jamg'armasi*. Nodavlat-notijorat Ekosan tashkiloti 1992-yil Toshkent shahrida tuzilgan bo'lib, hozirgi kunda uning faoliyati ancha susaygan. Ekosan — grekcha «ekos» va «sanos» so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, ekologiya va salomatlik degan ma'noni anglatadi. Uning maqsadi va vazifalari Markaziy Osiyo davlatlarida dolzarb ijtimoiy-ekologik muammolarni tadqiq qilish, ilmiy konsepsiyalarni ishlab chiqish va dastavval bajarilishi kerak bo'lgan muammolarga tadqiqotlarni yo'naltirish, ilmiy asoslangan ekologik siyosatni ishlab chiqish, ekologik xavfsizlikning yagona tizimini yaratish, ekologik o'quv, ong va madaniyatni shakllantirish, yagona region uchun iqtisodiy-ekologik tizimni tuzish borasida davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar, olimlar va mutaxassislarning sa'y-harakatlarini birlashtirishdir.


Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Qizilo'rda uchrashuvida 1993-yil 4-yanvarda *Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi* tashkil qilindi. Jamg'arma davlatlararo tashkilot bo'lib, uning mablag'i ishtirokchilari (O'zbekiston, Qиргизистон, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari)ning yillik badal to'lovlari orqali tashkil qilinadi. Badal to'lovi har bir ishtirokchi mamlakat uchun budgetning 0,3% miqdorida belgilangan. Uning ijroiya qo'mitasi tuzilgan bo'lib, jamg'arma Raisi uch yillik muddatga, ketma-ketlik asosida, biron-bir davlat Bosh vazirining birinchi o'rinnbosari darajasida saylanadi. Jamg'arma Prezidenti esa bir yillik muddatga davlat rahbarlaridan saylanadi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining asosiy maqsadi Orol dengizi atrofidagi ekologik inqirozli holatni yumshatish va aholining sanitarni giganenik hayat tarzini yaxshilashdan iborat.

6.2. O'zbekistonda ekologik boshqaruв

O'zbekistonda ekologik boshqaruв — vakolatlangan davlat organlari va nodavlat jamoat birlashmalarining ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi vakolatlari, funksiyalari va metodlari yig'indisi. Nima uchun biz faqatgina organlar, to'g'rirog'i, an'anaviy qabul qilingan¹, vakolatlangan davlat idoralari bilan cheklanib qolganimiz yo'q? Chunki huquqiy-demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatida barcha ijtimoiy munosabatlarni qatori ekologik munosabatlarning boshqarilishi va tartibga solinishi nafaqat davlat organlari, balki jamoat birlashmalarini va nodavlat tashkilotlar tomonidan olib boriladi (6.2.1-rasm). Preziden-

¹ Управление экологическое. Экология // юридический энциклопедический словарь. — М.: «Норма», 2001. С. 387–388.

timiz Islom Karimov Oliy Majlisning II chaqiriq 6-sessiyasida jamiyatni demokratlashtirish masalasiga alohida urg'u berib: «Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi», degan edi.



6.2.1-rasm. *O'zbekiston Respublikasining ekologik boshqaruvi tizimi.*

Ekologik boshqaruvda, albatta, davlat va uning vakolatlangan organlarning ekologik funksiyasi juda katta¹. Ayniqsa, bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan ikkinchi bir formatsiyaga, ya'ni bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat o'zining islohotchilik rolini yo'qotib qo'ymasligi kerak.

Davlatning ekologik boshqaruvi uning vakolatlangan organlari hamda ushbu organlarning atrof-muhitni muhofaza qilish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash funksiyasi va metodlari majmuasi.

Adabiyotlarda² ekologiya sohasida davlat boshqaruvi vakolatli davlat organlarning tabiiy resurslardan foydalanish hamda atrof tabiiy

¹ M. Najimov. Davlat va uning ekologik funksiyasi. – T.: «Yangi asr avlodji», 2002. 35-b.

² Ekologiya huquqi. Darslik. – T.: «Adabiyot jamg'armasi», 2001. 64-b.

muhitni muhofaza qilish bo'yicha ijro etish va farmoyish berish faoliyatidir. Davlatning ijro etishi ijroiya hokimiyat organlarining faoliyati, farmoyish berishi esa, ularning yuridik va jismoniy shaxslarga majburiy ko'rsatmalar berish huquqidir, deyilgan. Lekin bu o'rinda Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat, Prezidentlik instituti, Sud hokimiyati, Huquqni muhofaza qilish davlat organlarining ekologik funksiyalari inobatga olinmay qolinyapti. Vaholanki, ularning ham ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati, ayniqsa, O'zbekistonda juda beqiyosdir.

Ma'muriy huquqda davlatning ma'lum bir ijtimoiy munosabatlarini huquqiy tartibga solishda umumiyligi va maxsus vakolat doirasidagi organlari ajratib olinadi. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 2-bo'limida davlat hokimiyati va boshqaruv (to'g'rirog'i, ijro etuvchi) idoralarining ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi vakolatlari berilgan. Ularga umumiyligi vakolatlangan — Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, hokimiyatlar, maxsus vakolatlangan Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi kiritilgan. Lekin darslikning III bob 5-paragrafida (ekologik-huquqiy mexanizmida) ekologik normalarni qabul qilish hamda ularni amalga tatbiq etish jarayoni serqirra tizim va o'ta muhim masala ekanligiga iqror bo'ldik. Bizning fikrimizcha, ekologik boshqaruv tarkibini faqatgina Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunda keltirilgan davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari bilan cheklab qo'yish ekologik munosabatlarni to'laqonli tartibga solish imkonini bermaydi. Bu o'rinda davlat boshlig'i, sohaviy organlar, huquqni muhofaza qilish idoralarining ekologik boshqaruv vakolatlarini umumlashitirilgan tarzda bo'lsa ham keltirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi hokimiyat organlarining ekologik boshqaruvi. Har bir davlatning asosiy vazifalaridan biri o'zi tashkil etgan davlat organlari orqali barcha ijtimoiy munosabatlarni milliy hududda tartibga solishdan iborat. O'zbekiston ham bundan istisno emas va, ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan bir davrda davlat o'zining «bosh islohotchi»lik funksiyasini bajarishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning 5 tamoyillaridan biridir.

Davlatning ekologik boshqaruvi — *o'z vakolat doirasida davlat boshlig'i, hokimiyati, ijro etuvchi davlat organlari va ularning ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi faoliyati*. Davlatning ekologik boshqaruvi huquqshunoslikda davlatning ekologik funksiyasi deb ham ataladi. Funksiya esa vakolat doirasidan kelib chiqadigan faoliyatidir. Davlatning ekologik boshqaruvi ikki ko'rinishda — umumiyligi va maxsus davlat organlarining funksiyasi orqali amalga oshiriladi.

Davlatning umumiy ekologik boshqaruvi — davlat boshlig‘i va hokimiya-tining o‘z vakolatlari doirasida ekologik munosabatlarni tartibga solish funksiyasi. Ushbu faoliyat O‘zbekiston Respublikasi butun yer kengligi doirasida amalga oshiriladigan bo‘lsa — *davlatning markaziy organlarining ekologik boshqaruvi*. Agarda ushbu organlar muayyan ma’muriy-hududiy birlikkarda ekologik boshqaruvni amalga oshirsa — *umumiy ko‘rinishdagi mahalliy ekologik boshqaruv*, deya e’tirof etiladi. Davlat rahbari va hokimiyatining ekologik funksiyalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, tegishli Konstitutsiyaviy qonunlarda aks ettirilgan.

2002-yil 27-yanvar kuni O‘zbekistonda o‘tkazilgan umumxalq referendumiga binoan Oliy Majlis 2004-yil 1-iyuldan ikki palatadan — Qonunchilik (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat bo‘ladi. 2003-yil 24-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonuniga binoan bir palatali Oliy Majlisning ekologik funksiyasi ikki palataga ajratildi. *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi* davlat vakillik va qonun chiqaruvchi organ hisoblanadi. U ikki palatadan — *Qonunchilik palatasi (quyi palata)* va *Senat (yuqori palata)*dan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi va 2002-yil 12-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Qonunchilik palatasi va Senati to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonunlarining 8-moddasiga muvofiq ular quyidagi birgalikdagi ekologik vakolatlaraga ega¹:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ekologik tusdagi normalarni kiritish, unga o‘zgartish va qo‘srimchalar qilish;
- ekoliya va atrof-muhit muhofazasiga doir konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilish hamda ularga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish;
- ichki va tashqi ekologik siyosatning asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlatning strategik (uzoqqa mo‘ljallangan) ekologik dasurlarini qabul qilish;
- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini ekologik nuqtayi nazardan belgilash;
- O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi ekologik yo‘nalishdagi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarini tasdiqlash;

¹ *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi*, 2002-y., 12сон, 215-modda, 2003-y., 5-сон, 67-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 15-сон, 153-modda; 2008-y., 52-сон, 510-modda; 2011-y., 16-сон, 160-modda.

- Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan Davlat budgetida atrof-muhit muhofazasini inobatga oluvchi me'yorlarni qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;
 - ekologik soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;
 - tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirishda tabiatning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
 - ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga tegishli davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish;
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruving boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek mamlakat ekologik dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish;
 - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinnbosarini saylashda fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash nuqtayi nazaridan qarash;
 - Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqishda ekologik masala-larga e'tibor qaratish;
 - ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;
 - Konstitutsiyamizda nazarda tutilgan boshqa ekologik vakolatlarni amalga oshirish;
 - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi quiyi va yuqori palatalarining birgalikdagi vakolatlariga kirdigan masalalar, qoida tariqasida, avval Qonunchilik palatasida so'ngra Senatida ko'rib chiqiladi.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasi va 2002-yil 12-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida Konstitutsiyaviy qonunining 9-moddasiga muvofiq *Oliy Majlis Qonunchilik palatasining* mutlaq ekologik vakolatlariga¹:
- Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinnbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinnbosarlarini saylashda ekologik harakat deputatlari guruhidan;

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-y., 12-son, 215-modda, 2003-y., 5-son, 67-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 15-son, 153-modda; 2008-y., 52-son, 510-modda; 2011-y., 16-son, 160-modda.

• O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, jumladan Ekoharakat deputatlar guruhi a'zosini daxlsizlik huquqidан mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

• o'z ekologik faoliyatini tashkil etish va palataning ichki ekologik tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

• ekologiya sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi ekologik siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasi va 2002-yil 12-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida Konstitutsiyaviy qonunining II qism 9-moddasiga binoan *Oliy Majlisning Senati* quyidagi mutlaq ekologik vakolatlarga egal¹:

• Prezidentimizning taqdimiga binoan Senat raisi va uning o'rinnbosarlari, qo'mita raislari va ularning o'rinnbosarlari, Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudini saylashda ularning ekologiya borasidagi faoliyatini inobatga olish;

• Prezidentimizning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;

• Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlashda ularning atrof-muhitni muhofaza etishdagi faoliyatini inobatga olish;

• Prezidentimizning taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilishda ekologik javobgarlik sanksiyalarining rolini pasaytirmaslik;

• Bosh prokurorning taqdimiga binoan Senat a'zosini daxlsizlik huquqidан mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etishda uning ekologik faoliyatini inobatga olish;

• O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining hisobotlarini eshitish va tegishli qarorlarni chiqarish;

• siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, jumladan ekologiya sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Senat qarorlarini qabul qilish;

• O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan mansabdor shaxslarni Senat tomonidan saylash, tayinlash hamda ular-

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-y., 12-son, 213-modda, 2003-y., 5-son, 67-modda; 2011-y., 16-son, 160-modda.

ni lavozimidan ozod etishda ularning ham ekologiya borasidagi faoliyatini inobatga olish.

O‘zkonstitutsiyaviy vakolati doirasida Oliy Majlis aholining ekologik xavfsizligini ta’minlashga ulkan hissa qo’shamoqda. Masalan, Konstitutsiyamizga to’rtta bevosita va 124 ta bilvosita ekologik normalar kiritilgan. 30 dan ziyod ixtisoslashtirilgan va o’nlab umumlashtirilgan ekologik qonunlar qabul qilindi, «2008—2012-yillarda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi» amalga ttabiq qilinmoqda. Hozirda esa xuddi shunday dasturining 2013—2017-yillar uchun loyihasi tayyorlanmoqda va u Oliy Majlisda ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida Konstitutsiyaviy qonunining 23-moddasiga binoan O‘zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan deputatlar 15 ta deputatlar guruhlarini tuzishga haqli. Ushbu guruh Konstitutsiyaviy qonunning 23-moddasiga muvofiq ekologik qonunlar va qarorlar loyihasini ishlab chiqadi, amaldagi qonunlarni takomillash tirish bilan bog‘liq masalalarni tayyorlaydi va ularni Oliy Majlis sessiyasi kun tartibiga kirgazish taklifi bilan chiqadi. Qo‘mita ekologik masalalarni davlat organlari va nodavlat tashkilotlari hamda o‘zini o‘zi boshqaruv idoralarining mutasaddi xodimlari bilan muhokama qiladi. Ekologik qonunlarning amalda tatbiq qilinishiga doir deputat nazoratini olib boradi va shu kabi muhim ekologik masalalarni hal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig‘i va davlat hokimi yati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydigan shaxs sifatida Konstitutsiyamizning 89—97-moddalariga binoan bir qator o‘ta muhim markaziy ekologik boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradi. 1991-yil sobiq Ittifoq respublikalari orasida O‘zbekistonda birinchilar qatori Prezidentlik institutining joriy etilishi uning tinch va osoyishta yo‘l bilan bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o‘tib borishiga xizmat qilmoqda. U milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy kafili sifatida ekologik xavfsizlikni tarkib toptirish uchun xizmat qiladi. *Prezidentning ekologik boshqaruv vakolati* juda keng qamrovlidir, masalan:

- fuqarolarni toza atrof-muhitda yashash huquqini ta’minlaydi, Konstitutsiya va qonunlardagi ekologik talablarga rioya etilishini kafolatlaydi;
- ekologik xavfsizlikni muhofaza etadi;
- ichki va xalqaro tashqi ekologik munosabatlarni o‘rnatishda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;

- atrof-muhit muhofazasiga oid muzokaralarni olib boradi, shartnomaga va bitimlarni imzolaydi hamda ularga rioya etilishini ta'minlaydi;
- Oliy Majlisga har yili mamlakat ekologik hayotining, ichki va tashqi ekologik siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi;
- respublikada hokimiyat va ekologik boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi;
- ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ekologik qonunchilikni ta'minlashiga doir ishlarini muvofiqlashtiradi;
- Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi nomzodini Oliy Majlisga taqdim etadi;
- ekologik qonun me'yorlari va qoidalarini buzgan hokimlarni lavozimidan ozod etadi;
- respublika boshqaruv organlari, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan noekologik hujjatlarini to'xtatadi va bekor qiladi;
- ekologik qonunlarni imzolaydi, noekologik qonunlarni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytaradi;
- ekologik xavf yuzaga kelgan taqdirda O'zbekiston Respublikasining butun hududi yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi;
- O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan tabiatni muhofaza qilishda jonbozlik ko'rsatganlarni mukofotlaydi;
- ekologlarga O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;
- davlatning ekologik nazorat xizmatlarini tuzadi;
- Konstitutsiya va qonunlar ijrosi yuzasidan davlat ahamiyatiga molik farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Qo'shimcha qilingan va o'zgartirishlar kiritilgan Konstitutsiyamizning 93—94-moddalariga binoan, unda yuqorida zikr etilgan ekologik vakolatlarning deyarli hammasi saqlanib qolindi.

Hozirgi kunda dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim masalalardan biri global miqyosda inson xavfsizligi, xususan uning bir elementi bo'l mish ekologik xavfsizlikni ta'minlashdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot ka-

folatlari» nomli asarida, — «*Eng murakkab savollardan biri shuki, bizdagi barqarorlik va xavfsizlik yo'lida tahdid bo'lib turgan muammolarni anglab yetayapmizmi? Xavfsizlikka tahdid solib turgan muammolarga nimani qarshi qo'ya olamiz?... biz istiqomat qilayotgan mintaqada jo'g'rofiy-siyosiy muvozanatni saqlanishiga nimalar kafolat bo'la oladi? Xavfsizlikni qanday saqlab qolish mumkin?*», — degan savollar barcha o'zbek xalqining dolzarb muammolari sifatida kun tartibiga qo'yilgan.

Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakatimizda mustaqillik davrida ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida olib borayotgan ulkan ishlarini tahlil qilish uchun ularning ma'ruzalari va nutqlari bayon etilgan maxsus kitobchadan bilib olish mumkin¹. Turli anjuman, yig'ilish va Sammitlarda ekologik inqiroz to'g'risida so'z yuritilganda, misol tariqasida o'z-o'zidan Orol fojiasi milliy yoxud mintaqaviy muammo emas, balki global falokat ekanligi haqida Prezident Islom Karimov BMT Bosh assambleyasining 48-, 50-, 55-sessiyalari va davlat va hamjamiyat rahbarlari ishtiroy etgan Mingyillik Sammiti minbaridan turib gapirgan edilar.

Yaponiya, Hindiston, Germaniyada bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasida ham davlat ijroiya hokimiyatining ekologik ahamiyati kattadir. Konstitutsiyamizning XX bob 98-moddasi va 2003-yil 29-avgust yangi tahrirda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonuniga binoan **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi** ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir, uning o'rinosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi².

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning ijtimoiy, ma'naviy, jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarining samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoniyishlari ijrosini ta'minlaydi. U amaldagi qonun hujjatlariiga muvofiq respublikamiz hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ekologik

¹ *Tabiat. Jamiyat. Ma'naviyat / Prezident Islom Karimov asarlarida ekologiya masalalarining yoritilishi*. To'ldirilgan ikkinchi nashr // Ekologik ta'lrim va tarbiya uchun qo'llanma. — T.: «O'zbekiston», 2009. 152-b.

² *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi*, 2003-y., 9–10-son, 138-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 15-son, 153-modda; 2008-y., 52-son, 510-modda; 2009-y., 50–51-son, 532-modda; 2011-y., 16-son, 160-modda.

talablarning bajarilishi bo'yicha qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. *O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri* Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi. Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ekologik masalalar bo'yicha ish ko'radi, milliy ekologik qonunlar, Prezidentning ekologik munosabatalarni tartibga solishdagi farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini amalga tatbiq etilishini ta'minlaydi. Uning faoliyatsiz har qanday ekologiyalashtirilgan Konsitutsiya, qonun, qaror, farmon va boshqa huquqiy normativ hujjatlar hayotda o'z o'rnini topa olmaydi. Shuning uchun ham u ekologik-huquqiy mexanizmning muhim va asosiy zvenosi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi o'z ekologik faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi kollegiallik, demokratik va qonuniylik, O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsiplaridan kelib chiqqan holda, ekologik boshqaruvida ishtirok etuvchi barcha davlat, nodavlat, o'zini o'zi boshqarish hamda xalqaro hamjamiyatlar bilan atrof-muhit muhofazasi borasida hamkorlik qiladi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ularga zarur yordam ko'rsatadi.

Vazirlar Mahkamasi Oliy Majlis bilan ekologik masalalar bo'yicha munosabatlarini muvofiqlashtiradi. U o'z ekologik faoliyat dasturini taqdim etadi. Respublikada ekologik rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, budgetdagi atrof-muhitni muhofaza qilishga oid asosiy ko'rsatkichlar va unga kiritiladigan o'zgarishlarni ishlab chiqadi, Oliy Majlis tasdig'iga taqdim etadi hamda bu borada unga hisob berib turadi. Vazirlar Mahkamasi a'zolari Oliy Majlis yig'ilishlarida qatnashish va axborot berish huquqiga ega. Oliy Majlisning Atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi kabi barcha ekologik masalalarni hal qilish bilan bog'liq bo'lgan qo'mita va komissiyalarining Hukumat faoliyati masalalariga doir tavsiyalari va takliflarini Vazirlar Mahkamasi ko'rib chiqadi va ular yuzasidan tegishli chora-tadbirlar qabul qiladi hamda axborot beradi. Deputatlar yoki komissiya va qo'mitalarning ekologik masalalar bo'yicha so'rovlariga 3 kun ichida yozma yoki og'zaki javob beradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolat doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining ekologik masalalar bo'yicha davlat hokimiyati va boshlig'i tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar-

ning mazkur respublikada bajarilishiga oid axborotlarini eshitadi, takliflarni ko'rib chiqadi, nizoli masalalarini hal etadi, uning noekologik qarorlari va farmoyishlarining ijrosini to'xtatadi. Vazirlar Mahkamasidan tomnidan Qoraqalpog'iston Respublikasini (QQR) ekologik jihatdan rivojlantirish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga taalluqli masalalar hal etilayotganda QQR Vazirlar Kengashining fikri hisobga olinadi. Shuning uchun ham Vazirlar Mahkamasida uning doimiy va kolatxonasi faoliyat yuritadi.

Vazirlar Mahkamasi o'zi to'g'risidagi Qonunning 6-moddasiga binoan mahalliy hokimiyatlari (viloyat, tuman, shaharlar)ning ijro etuvchi organlari bilan doimo hamkorlikda faoliyat yuritadi. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ekologik faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularning atrof-muhit muhofazasiga doir takliflarni ko'rib chiqadi. Vazirlar Mahkamasining ekologik qarorlari, farmoyishlari, yo'riqnomalari, topshiriqlarining bajarilishini nazorat qiladi, ularni bajarish yuzasidan hokimiyat rahbarlarini yig'adi va axborotlarini tinglaydi. Markaziy apparat va organlar bilan mahalliy hokimiyat organlarining ekologiya borasidagi hamkorligini ta'minlaydi hamda nizoli masalalarni hal etadi. Mahalliy va regional miqyosda atrof-muhit muhofazasiga oid reja hamda dasturlarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi. Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan noekologik qaror hamda farmoyishlarni to'xtatib qo'yish va bekor qilish huquqiga ega.

O'zi to'g'risidagi Qonunning 5-moddasidan kelib chiqqan holda ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir Vazirlar Mahkamasi:

- ekologik tadbirlarning iqtisodiy mexanizmini shakllantirish va realizatsiya qilish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qodir bo'lgan turli mulk shakllarini yuzaga keltirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- ekologik to'lov va ekologik tadbirlarni kreditlashtirish tizimini mustahkamlash va uni amalga tatbiq qilish;
- respublika budjetida atrof-muhit muhofazasiga doir mablag' miqdorini aniqlash va uni Oliy Majlis tasdig'iga kiritish;
- ekologik dastur va istiqbolli yo'nalishni ishlab chiqish va ularning ijrosini tashkil etish;
- ekologik boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish – vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi takliflari ni ishlab chiqish;
- ekologiya fani va texnikasini rivojlantirish;

- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- fuqarolarning toza atrof tabiiy muhitga bo'lgan talabini qondirish;
- ekologik ta'lif, ekologiya va salomatlikni rivojlantirish hamda ta-komillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, ekologik madaniyatni rivojlantirishga ko'maklashish;
- milliy xavfsizlik elementi bo'lgan ekologik xavfsizlikni oshirish;
- davlat boshqaruvi organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o'tkazish;
- respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yirik ekologik das-turlarni amalga oshirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish;
- atrof-muhit holatiga salbiy ta'sir qiluvchi katta avariylar, falokatlar va tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko'rish;
- xorijiy davlat va xalqaro tashkilotlarda ekologiya sohasi bo'yicha vakillikni ta'minlash;
- hukumatlararo ekologik shartnomalar va bitimlar tuzish, ularni ba-jarish chora-tadbirlarini ko'rish;
- ekologik jihatdan tashqi iqtisodiy, ilmiy-tehnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshirish kabi vakolatlarga ega.

Vazirlar Mahkamasi tarkibidagi davlat va xo'jalik boshqaruvi or-ganlarida ekologik boshqaruvning umumiyligi masalalari bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi. Ularning nizomlari, apparatlar soni va ularga sarflanadigan mablag'lar miqdorini belgilaydi. Ularning rah-bar xodimlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi. Umuman olganda, o'z tizimidagi barcha bo'linmalarining ekologik boshqaruvida na-zorat o'rnatadi va tegishli qarorlar qabul qiladi.

Mustaqil Respublikamiz 20 yil mobaynida Vazirlar Mahkamasi to-monidan yuzlab ekologik tusdagini qarorlar, farmoyishlar, yo'riqnomalar qabul qildi. Maxsus vazirliliklar, davlat qo'mitalari, agentliklar va as-sotsiatsiyalar tashkil etildi, ularning ekologik boshqaruv tizimi qayta ko'rib chiqildi. Masalan, 1998-yil 1-aprelda uning 139-sonli qarori bilan «O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va harakatlar rejasи» qabul qilindi. Xuddi ana shu yili Yer resurslari davlat qo'mitasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2008–2012-yil-larda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi» to'g'risidagi 212-sonli qarori juda muhim ekologik-huquqiy

manba bo'lib qoldi. Unda keyingi 5 yil mobaynida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning quyidagi asosiy chora-tadbirlari belgilanib olindi:

- * aholi yashashi uchun qulay sharoitlar yaratish;
- * tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- * ekologik qonun hujjatlarini va uni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish;
- * iqtisodiy mexanizmni amalga oshirish;
- * monitoring va axborotlar, ekologik ta'lif tizimini takomillashirish;
- * xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi mustaqil respublikadir. Uning huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVII bobi 70—75-moddalarida hamda 1993-yilda qabul qilingan Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasiga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo'lishi mumkin emas. Ushbu ikkala konstitutsiyalarga binoan Qoraqalpog'istonda mustaqil vakillik va qonun chiqaruvchi hokimiyat — Jo'qorig'i Kenges va ijro etuvchi hokimiyat — Vazirlar Kengashi mayjud.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorig'i Kengesi Oliy Majlis qatori ekologik qonunchilik jarayoni bilan shug'ullanish huquqiga ega. Lekin uning ekoliyaga doir qonunlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga (71-moddasiga ko'ra) zid bo'lmasisligi kerak. Markaziy davlat apparati chiqargan ekologik qonun hujjatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham majburiy ahamiyat kasb etadi. Uning ekologik xavfsizligi O'zbekistonning milliy xavfsizlik elementi sifatida qaraladi va Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan himoya qilinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi — ijro etuvchi hokimiyat sifatida mahalliy davlat hokimiyati organlarining barcha vakolatlarga tenglashtirilgan. Ekologik munosabatlarni tartibga solishda u mahalliy hokimiyat va mahalliy ijroiya hokimiyat organlarining vakolatlari doirasida ish yuritadi. Shuning uchun ham biz Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar, tuman hokimiyatlarining ekologik funksiyalari bilan bir qatorda ko'rib chiqamiz.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'ziga xos jihatlaridan biri, birinchi bor tariximizda mahalliy davlat hokimiysi organlariga o'z hududlarida atrof-muhitni muhofaza qilish vakolati yuklatildi. Masalan, 1991-yil chop etilgan O'zSSR Konstitutsiyasining

yangi tahrirdagi qonunining 16-bob, 13-modda ikkinchi qismida xalq deputatlari mahalliy sovetlariga ekologik vakolat yuklatilmagan. Ushbu faoliyat turi faqatgina ittifoq va markaziy respublika organlari zimmasida turar edi.

Konstitutsiyamizning XXI bobi 100–102-moddalaridan kelib chiq-qan holda 1993-yil 2-sentabrda «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Mazkur Qonunning 1-moddasiga binoan *Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati organlari* o‘z hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, ekologik boshqaruvni amalga oshiradilar. Mahalliy hokimiyat tarkibiga viloyat, tuman, shahar hokimliklari kiritiladi. Ular davlat mulki — umummilliy boylik bo‘lgan tabiiy obyektlarning davlat nomidan o‘z vakolat doirasida tasarruf etilishini ta’minlaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonunning 24-moddasiga muvofiq ravishda Xalq deputatlari Kengashi o‘z hududida *quyidagi vakolatlarga egadirlar*:

- hokimning taqdimiga binoan mahalliy budgetda atrof-muhit muhofazasiga oid xarajatlarni belgilash;
- hududiy rivojlanishning istiqbolga mo‘ljallangan ekologik dastur, reja va loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- mahalliy yer solig‘i, aksiz solig‘i, boj to‘lovi kabi yig‘imlar va to‘lovlarni ekologik nuqtayi nazardan ishlab chiqish hamda unga imtiyozlar berilishini hal qilish;
- hokimning ekologik tusdagи qarorlarini tasdiqlash;
- Xalq deputatlari Kengashining atrof-muhit muhofazasiga doir doimiy muvaqqat komissiyalarini va organlarini tuzish, saylash va tugatish hamda tarkibini o‘zgartirish, hisobotlarini tinglash;
- xalq deputatlarining ekologiya borasidagi vakolatlarini e’tirof etish, muddatidan oldin to‘xtatish, ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish;
- ijroiya hokimiyat bo‘linmalarining ekologiyaga doir hisobotlarini tinglash;
- xalq deputatlarining ekologiya va atrof-muhit muhofazasi borasidagi so‘rovlarini qarab chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- hokimning va quyi kengashning ekologik-huquqiy bo‘limgan qarorlarini bekor qilish;
- fuqarolarning ekologik huquqlari, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o‘z vakolatidagi masalalarni hal etish.

Hokimlik instituti O‘zbekiston uchun tarixiy jihatdan yangilik emas, lekin uning vakolat doirasasi mutlaq o‘zgachadir. «Mahalliy davlat

hokimiyati to‘g‘risida»gi qonunning 25-moddasiga binoan *viloyat, tuman va shahar hokimlariga quyidagi vakolatlar yuklatilgan*:

- ekologik qonun hujjatlarining ijrosini o‘z hududida ta‘minlash;
- ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy ofat va texnogen jarayonlarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini tugatish;

• atrof-muhit muhofazasi sohasidagi asosiy yo‘nalishlar, budgetdan tabiatni muhofaza qilishga mablag‘ ajratish va ularning ijrosini ta‘minlashga doir hisobotlarni Xalq deputatlari Kengashining tasdig‘iga taqdim etish;

• quyi turuvchi hokimlarning atrof-muhit muhofazasiga doir qarorlarini (ekologik qonun hujjatlariga zid bo‘lsa) bekor qilish hamda quyi turuvchi Xalq deputatlari Kengashlarining noekologik hujjatlarini bekor qilish to‘g‘risida taqdimnomaga kiritish;

• atrof-muhitni muhofaza qilish, buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanayotgan shaxslarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash haqida iltimosnomani ko‘rib chiqish va u bo‘yicha markaziy davlat organlariga takliflar kiritish;

• fuqarolarning toza atrof-muhitda yashash huquqini talab qilishga doir shikoyat, taklif va arizalarini ko‘rib chiqish;

• tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta‘minlash kabi masalalarni qonuniy hal etish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tabiatni muhofaza qilishni joylarda amalga oshirishlarida ularni Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi bo‘linmalari, huquqni muhofaza qilish va nazorat inspektorlari bilan hamkorlikda ishlashlari juda katta ahamiyat kasb etadi. Ichki ishlar, nazorat inspektorlari va adliya organlari hokimiyatlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘ysunadilar. Shuning uchun ham ekologik nazorat bo‘linmalarining joylardagi faoliyatları bevosita hokimiyatlarning ekologik dunyoqarashlari va ularning mazkur masala bo‘yicha amaliy harakatlariga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlarining maxsus ekologik boshqaruvi — ixtisoslashtirilgan davlat organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga oid munosabatlarni vakolat doirasida bevosita tartibga solish faoliyati. Ushbu maxsus boshqaruv 3 yo‘sinda olib boriladi — kompleks, tarmoq va funksional.

Davlatning maxsus kompleks ekologik boshqaruvi — davlatning ixtisoslashtirilgan organlarini, ekologik munosabatlarni tarmoqlararo maj-

muali tartibga solish funksiyasi. Kompleks vakolati yuklatilgan davlat organlari ekologiya huquqi obyektlari qaysi mulk shaklida yoki qaysi xalq xo'jaligi tarmog'ida bo'lischenidan qat'i nazar, ularning atrof tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga doir barcha faoliyatlarini huquqiy jihatdan tartibga solib turadilar, nazorat qiladilar va kuzatib boradilar hamda tegishli chora-tadbirlar qabul qiladilar. Bu o'rinda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining alohida o'rni bor.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi 1996-yil 26-aprelda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizom»ga muvofiq faoliyat yuritadi (6.2.2-rasm). Nizomning 11-moddasiga binoan Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi quyidagi asosiy kompleks ekologik vazifalarni bajaradi:

- atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- tabiatni muhofaza qilishga doir faoliyatni tarmoqlararo kompleks boshqarish;
- tabiatni muhofaza qilish hamda resurslarni tejash borasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- atrof-muhitning ekologik holati qulay bo'lishini ta'minlash, ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish.

Davlatning maxsus ekologik boshqaruvi — davlat tarmoq organlarining tegishli xalq xo'jaligi sohalarida yoki obyektlarida ekologik munosabatlarni tartibga solish funksiyasi. Hammamizga ma'lumki, xalq xo'jaligining biron-bir sohasi yo'qliki, tabiiy obyektlar — yer, suv, havo, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosidan o'z xo'jalik va boshqa faoliyatlarda foydalanmasalar. Ular davlatning umumiy va maxsus-kompleks ekologik boshqaruv organlari tomonidan beriladigan huquqiy ko'rsatma, qoida va me'yorlar asosida o'z tarmoqlarida ekologik munosabatlarni tartibga soladilar. Masalan, Yer resurslari davlat qo'mitasi 1998-yil 27-iyulda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizomning 1-moddasiga muvofiq yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni nazorat qilish sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshiradi.

Davlatning maxsus funksional boshqaruvi — ayrim davlat organlarining ish faoliyati yoki xizmat doirasidan kelib chiqadigan va ma'lum bir tabiiy obyektlarga doir muayyan ekologik munosabatlarni tartibga solish-dagi funksiyasi. Davlatning maxsus funksional boshqaruv organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimidagi DYHHX

vizmatiga avtotransportlardan chiqadigan zaharli chiqitlarni (CO gazi, moy, turli xil tormoz suyuqliklari) va shovqindan atrof-muhit iflosanishini nazorat qilish vakolati berilgan edi.

O'zini o'zi boshqarish organlari (fuqarolar yig'ini)ning ekologik funksiyalari. 2001-yilda Rossiya Federatsiyasining eng ommabop haftanomasi «Аргументы и факты»da chop etilgan «O'zbek mahallasi – insoniyat o'ylab topgan eng ajoyib jamoa birligi» to'g'risidagi bir sahifali katta maqolasida ushbu fuqarolar yig'ini dunyo jamoatchilik majmuasi tarixida eng ibratli va qadimiy tarixga ega bo'lgan uyushmalaridan biri ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Garchand O'zbekiston Respublikasi Amerika Qo'shma Shtatlari kabi o'zining erkin bozor munosabatlari yoki demokratik institutlari, Germaniya kabi qonun yoki Shvetsiya kabi fuqarolik jamiyatining ustuvorligi bilan dong chiqargan bo'lmasada, lekin o'zining «mahalla»si bilan bemalol ular oldida g'ururlanishi mumkin. Chunki «mahalla» kabi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi boshqa yurtlarda yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mahalla haqidagi gapirar ekan, uni «Eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit va vaziyat faqat mahallada bo'lishi mumkin», deya e'tirof etgan. Lekin, «Mahalla qishloqqacha o'zini o'zi boshqarishi, mustaqil bo'lishi zarur. Faqat bu beboshlik, bo'ysunmaslik degani emas. Har qanday rahbar, har qanday kengash va har qanday mustaqil kishi xalq oldida, yurt oldida mas'ul va javobgardir, degan qoidadan kelib chiqishi shart»¹.

Har bir inson, ayniqsa O'zbekiston fuqarosi «Mahalla avvaldan qanday bo'lgan, bugungi kuni va mavqeい nimadan iborat hamda kelajakda nima bo'ladi?», degan o'rinali savollarni berishga haqli. Tarixiy xotira bugungi kunimiz va kelajak istiqbollarimizni belgilab berishi esa isbot talab etmaydigan aksiomadir.

Mahalla haqida bilish uchun aziz o'quvchi, «Mahalla o'zini o'zi boshqarish organi» (Fan, 1994), «Mahalla: o'zini o'zi boshqarishning huquqiy kafolati» (Adolat, 1999) kabi bir qator adabiyotlar bilan tanishib chiqishingiz foydadan xoli emas. Ajoyib huquqshunos olim, mahalla harakatining jonkuyarları Marat G'ulomov o'zining «Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi» (Adolat, 2003) va Shuhrat Mahmudbekovning «Mahalla o'zini o'zi boshqarish tizimi: tarixi va bugungi kuni» (Akademiya, 2004) nomli kitoblarida mahalla tarixini tadqiq qilar

¹ Islom Karimov. O'zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning paydo bo'lishi. – T.: «O'zbekiston», 1992.

ekanlar, o'zbek-turkiy millatlar etnosi ko'hna moziyning tabiiy huquqlar va ular negizida shakllangan ibridoiy jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni boshqarishning asosiy omili urf-odatlarga borib taqalishini e'tirof etganlar. Mahalla, o'sha davrlarda urug'-aymoqchilik ana'nalari asosida qaror topgan qabila ko'rinishida aks etganligi tarixdan ma'lum. Bundan 3 ming yillar chamasi avval, ya'ni zardushti ylik davrida o'zini o'zi boshqarish idoralari qonuniy kuch olgan va u Avesto kitobida o'z aksini topgan. Qadimiy huquq manbalaridan biri bo'lgan Avestoda mahalliy boshqarish qoidalari andisha, pand-nasihatlar, yo'l-yo'riqlar, da'vat va chaqirishlar sifatida aks ettirilgan.

Rus olimi S. Tolstoy tomonidan Jonboshqal'a va Tuproqqa'lalarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, mahalliy turai joylarning o'rtasida «olovxonalar» tarkib topgan. Abu Rayhon Beruniyning ma'lum qilishicha, jamoaning to'planadigan joyi, ya'ni «mahalla maskani» bo'lib aynan o'sha olovxonalar hisoblangan. Unda jamoaga tegishli masalalar ko'rib chiqilgan, diniy marosimlar o'tkazilgan, ko'pchilik kelib ovqatlanadigan joy hisoblangan¹ Avesto urug' jamoasini — «Vis», «Vispata», Oqsoqollar Kengashi boshlig'i sifatida esa qabila boshlig'i — «Zantupati» nomi bilan atalgan.

Ilk uyg'onish davridayoq shaharlardagi savdo-hunarmandchilik guzarlari, keyinchalik esa aholi yashaydigan mavzelar «mahalla» deb atala boshlangan. Mahalla so'zi arabchada «mahallun» — joy degan ma'noni anglatib, u shaharlarning shakllangan muayyan bir bo'lagini ifoda etuvchi so'z sifatida qo'llanilgan. Qadimdan mahallalarda boy va kambag'al, kosib va savdogar, etikdo'z bilan hammol birga yashab keliшган. Shuning uchun ham mahallalarda barcha kundalik muammojar mahalla oqsoqollari yoki kengashlari tomonidan hal etilgan. Shu tariqa mahallalar rivojlanib va shakllanib kelgan. XIX—XX asrlarga kelib mahallalar shaharlardan chiqib, katta-yu kichik qishloqlarga ham tarqala boshlagan. Bunday jarayon ayniqsa Farg'ona vodiysidek aholi zich yashaydigan hududlarga xos bo'lgan.

Sobiq Ittifoq davrida ham mahallalar faqatgina katta shaharlarning mahalliy millat vakillari ko'proq yashaydigan joylarida bor edi, lekin ularning davlat, jamiyat va ayniqsa shaxsning kundalik hayotida tutgan o'rni deyarli yo'q edi. Chunki hamma boshqaruv, hattoki mahalliy miqyosdagi boshqaruv ham faqat davlat va uning tegishli organlari qo'lida bo'lgan.

¹ Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. — Toshkent.: Sharq, 2001.

TABIATNI MUHOFAZA QILISH DAVLAT QO'MITASI

Oliy Majlis
bo'y sunadi va hiso- bot beradi
amal qiladi
bo'linadi
qarorlari ijro etiladi
qarorlarni qabul qilishu munkin
boshqaruvni amal- ga oshirish
xalqaro va min- taqaviy muammo- larni hal qilish
muvofiqiqashtirib boradi
hamkorlik qiladi
prinsiplariga amal qiladi
ishlab chiqadi, tas- diqlaydi va tashkil- lashtiradi
amalg'a osdiradi va tahhil qiladi
haq undiradi va olib boradi
boshqaradi, yurita- di va taklif qiladi
qarnashadi, keli- shadi va tasdiqlaydi

bo'y sunadi va hiso-
bot beradi

O'zR Konstitutsiyasiga, qonunlariga, Oliy Majlis qarorlariga, Prezident farmonlari va farmoyishlari-
ga, VM qarortari va farmoyishlariga, nizomiga

QQR qomitisiga, viloyat va Toshkent sha-
har qomitalariga, tumanlararo va tumanlar
qo'mitalariga, shaharlar qo'mitalariga

vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, yuridik va
jismoni shaxslar tomonidan

vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar bilan
birgalikda va kelishilgan holda

boshqa davlatlarning tegishli tabiatni muhofaza
qilish organlari va taskilotlari bilan hamkorlikda
Sog'ilqini saqlash va Ichki ishlar vazirliklari, sa-
noatda ishlarni bexatar olib borish va kon-
chilik nazorat agentligi, O'rmon bosh boshq,
O'zebekdast, Boshgidromet, Davlat standarti va
boshqa ekologik nazorat organlari faoliyatini

jamoat birlashmalarini va aholi bilan
keng ko'landa iqtisodiy ta'sir etishni qo'llash,
ekologik faoliyatni rag'batiantirish, imiy-texnik
yutuqlarni keng joriy qilish

ekologik me'yornlari, ekologik qoida va standart-
larni, ekologik jamg'armalarni
ekologik nazoratning usulubiy rahbarligini, atrof-
muhit monitoringini

tabiatni iftoslatiriganlik va chiqindilarni joylash-
turanlik uchun davlat ekologik ekspertizasi
qo'triqxonasi ishlani, alohida muhofaza qilinadigan
tabiiy hududlarning davlat kadastriни va yangisini
taskil qilishni

tabiat muhofazasiga qaratilgan va yangi obyektlar-
ni qabul qilish va ishga tushirishni, xo'jalik faoli-
yati uchun beriladigan yerlarni tanlash va ajatish-
ni, «Qizil kitob» to'g'risidagi Nizomni

Mustaqilligimizning birinchi yiliyoq huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni qurishni bosh maqsad qilib olgan O'zbekiston Respublikasida sobiq Ittifoq davlatlari ichida birinchilar qatori o'z Konsitutsiyamizni ishlab chiqishga kirishildi. «Kuchli davlatdan – kuchi fuqarolik jamiyatni sari» g'oyasini ilgari surgan davlatimizda 1992-yil 12-sentabrda «Respublika mahalla xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida» Prezidentimiz farmon chiqardilar. Unda tarixan shakllangan asriy, milliy va an'anaviy qardriyatlarni asrash, ularni faol targ'ib etish, ommalashtirish, ularda zamon talablariga mos ravishda uyg'un va muqaddas istiqlolimiz ma'naviy manfaatlarini, mushtarak urf-odatlarni qaytadan tiklash, aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni olib borishni jadallahshirish, xalqimizning huquqiy savodxonligini oshirish, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, yetimlar va yolg'iz qolgan qariyalarga nisbatan inson-parvarlik hamda mehr-shafqat munosabatida bo'lish, ularga moddiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, fuqarolarning madaniy rivojiga ko'mak berish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni hal etish zarurligi kabi qator masalalar ko'rib chiqildi. Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori bilan mahalla xayriya jamg'armasining tashkiliy-boshqaruva maqomi ishlab chiqildi va ularga 25 mln so'm yordam puli ajratildi.

1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi tomonidan «Mahalliy davlat hokimiysi to'g'risida»gi qonun bilan bir kunda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» qonun qabul qilindi. Ushbu ikki qonunning bir muddatda qabul qilinishi bejiz emas edi. Shu kungacha faqatgina mahalliy davlat hokimiysi («raykom» va «gorkom») vakolatiga kirgan masalalarni hal etishni ikkiga bo'lishga qaror qilindi va uning huquqiy me'yorlari aniq qilib belgilanib olindi. Unda ilk bor shaharcha, qishloq va ovullarda hamda ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ni va uning maslahatchilarini 2,5 yilga saylash muddati qonuniy tus oldi.

Bu bilan mahalla to'g'risidagi davlat va shaxsan Prezidentimizning sa'y-harakatlari to'xtab qolgani yo'q. Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va rivojlanish kafolatlari» nomli asarida: «mahallada qonun ustuvor bo'lib u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi», deb aytdilar. Agarda Siz 1993–1999 yillarni yodga olsangiz, o'sha davrda respublikamizda kishilik jamiyatining barcha jabhalarida tub islohotlar davri bo'lди: mahalliy miqyosda xususiy-lashtirishning birinchi bosqichi yakunlanish arafasida edi, tadbirkorlik

faoliyatining ham huquqiy, ham iqtisodiy negizi yaratildi, fuqarolarning xatti-harakatlari beboslikdan chiqib, aniq bir shakl va mazmun kusib eta boshladi, yurtimizga chet el investitsiyasi mahalliy miqyosgacha kirib keldi. Shuning uchun ham zamon talabiga mos ravishda fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini qaytadan ko'rib chiqish vaqt yetib kelgan edi. Natijada 1999-yil 14-aprelda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» (yangi tahrirda) qonun qabul qilindi. Qonunda mahalla tinchlik-totuvlik maskani sifatida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi alohida ta'kidlab o'tildi. Lekin qonunda davlat hokimiyati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining shakllanishi va rivojlanishida olib borilayotgan ishlariga aralashishga yo'l qo'ymaydi, deb bitilib qo'yildi.

Yangi tahrirdagi qonunning 29 ta moddasidan atigi bittasida, ya'ni 20-moddada «Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) va rais maslahatchilarini saylash tartibi» belgilangan edi, xolos. 2003-yil 29-aprelda maxsus «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylovi to'g'risida» qonun qabul qilindi. Mahalla raisi va uni «komandasasi»ning davlat, jamiyat va shaxs hayotida tutgan o'rni va mavqeini oshayotganligini inobatga olgan holda ushbu qonun 31 moddadan iborat bo'lgan normalarni o'zida aks ettirdi.

Qonunda fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilarini demokratik, oshkorlik va teng saylov huquqi asosida o'tkazilishi, unda shu hududda yashovchi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy hamda ijtimoiy mavqeい, ma'lumoti, mashg'ulot turi va uning xususiyatidan qat'i nazar saylanishi mumkin ekanligi belgilab berildi. Hozirgi kunda Respublikamizda 10 mln kishidan ortiq aholi saylash va saylanish huquqiga egadir. Mahalla raislari va uning maslahatchilarini saylovida ishtirok etish, albatta, ixtiyoriy hamda erkendir, lekin ular saylovgacha 18 yoshga to'lgan bo'lishlari hamda muomala layoqatiga ega bo'lishlari shart.

Saylovni o'tkazish ochiq va oshkora ravishda, oldindan belgilangan kun, vaqt va joyda o'tkaziladi. Ovoz berish natijalari va nomzodlar haqidagi ma'lumot barcha ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarga yetkazib boriladi.

Davlat hokimiyati hamda boshqaruв organlari ushbu saylovni o'z muddatida va hamma qoriun talablarida o'tishini ta'minlaydi. 2006-yil mayiyun oylarida o'tkazilgan fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va ularning maslahatchilarini saylovi fuqarolar yig'ini raislari va uning maslahatchilarini saylovini tashkil etish va ularga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha Oliy Majlis,

Vazirlar Mahkamasi, Prezident devoni hamda Qoraqalpog'iston Respublika Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tashkiliy kadrlar ishlari guruh rahbarlarining saylova doir hisobotlari tinglandi.

Respublika mahalla jamg'armasi tegishli davlat organlari bilan kelishilgan tarzda, 2006-yilda, jami 8794 ta fuqaro yig'inlar raislari (oq soqollari) va ularning kamida 40 mingdan ziyod maslahatchilarini saylandilar. Ulardan 1629 tasi shaharcha, qishloq va ovul yig'inlariga, 4887 tasi ular tarkibidagi mahallalarga, 474 tasi shaharlardagi mahalla fuqarolar yig'inlariga tegishlidir. Shu o'rinda bir narsani eslatib o'tish joizki, 1993-yil fuqarolar yig'inlariga O'zbekiston bo'yicha 5260 ta valil saylangan edi. Ularning ko'payishi shaharlardagi mavzelarni hamda qishloq va ovul kengashlarini mahallalarga aylantirish hisobidan amalga oshirildi. Bunga o'zimizning ma'rifiy-ma'naviy an'analarimiz, boy va qaytarilmas urf-odatlarimizni tiklash nuqtayi nazaridan qaraldi.

Xo'sh, kelajakda «o'zbek xalqining mahallasi» qanday bo'lmos'i kerak degan savol tug'iladi. Bu masala yuzasidan 2000-yil 2-iyunda «XXI asr mahallasi konsepsiyasini yaratish to'g'risida» Prezident farmoniga binoan Respublika mahalla jamg'armasi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari bosh qotirib kelmoqdalar. Mazkur masalani ilk bor 2002-yil 5-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'n yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda Prezidentimiz boshlab bergen edi. «Mahallaning hayotimizdagি mavqeyi yuksak, uning qonuniy, huquqiy asoslari har tomonlama mustahkam bo'lib rivoj topsa, bu idorani jamiyatimiz siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotining ajralmas bir qismi, quyi boshqarish tizimi sifatida nechog'li kuchaytirsak, buning uchun barcha moddiy-moliyaviy sharoitlarni tashkil qilib bersak, o'ylaymanki, bu o'z oldimizga qo'yan oliv maqsadlarga erishish yo'lida katta qadam bo'ladi. Barchangiz yaxshi bilasiz, «Otag — mahalla, onang — mahalla» degan hikmatda juda katta ma'no bor».

Konsepsiya o'zi nima? XXI asr konsepsiyasini qanday bo'lmos'i kerak? Konsepsiya bu — dunyoqarashlar tizimi yoki bizning holatimizda endigina zamonomamizga qadam qo'yib kelayotgan yangi uchinchi ming yillikning birinchi asri o'zbek mahallasi qanday bo'lmos'i kerakligi haqidagi o'ylar. Ushbu o'ylar yoki dunyoqarashlar muayyan bir guruh yoki qatlam, yoki biron-bir partiyaning duyoqarashi bo'lsa u tizimga aylanadi. Mening «*Kelajak mahallasi*» haqidagi dunyoqarashim ko'pchiliknikiga to'g'ri kelmasligi tabiiy hol. Lekin davlatimiz, xususan Prezidentimiz dunyoqarashlaridan kelib chiqqan tarzda, ya'ni «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatasi sati» shiori ostida quyidagi tamoyillarni ma'qul, deb aytish mumkin.

Birinchidan, kelajak mahallasining maqsadi bitta va lo'nda qilib ifodalangan bo'lmodi zarur. Masalan, mahallada yashayotgan hamma fuqarolarning farovon turmush tarzining barcha jabhalarini demokratik prinsiplar asosida boshqarish va tartibga solish.

Ikkinchidan, mahallalar vakolatini kuchaytirayotganda davlat ahamiyatiga molik yoki nodavlat tashkilotlarning funksional yo'nalishlariga oid mahallalar mahallaga o'tib ketmasligi lozim. Davlatning bevosita vakolat doirasidau mahallaga olib berib bo'lmaydigan funksional yo'nalish: umumsiyosiy, umumiqtisodiy, umumekologik masalalar. Misol tariqasida – davlatlararo kelishuvlar, bitimlar va shartnomalar, davlat xavfsizligini ta'minlash, mudosaa, jamoat tartibini saqlash kabi siyosiy masalalar. Iqtisodiy rivojlanishning taktik vazifalarini belgilash yoki strategik yo'nalishlarni rejalashtirish, ekologik xavfsizlikni milliy, regional va global miqyosda amalga oshirish. Nodavlat-notijorat tashkilotlardan turli partiyalarni tuzish, klublar yoki harakatlar yo'nalishini belgilash, jamg'arma ichida yana turli yo'nalishdagi yoki oqimdagisi jamg'armalarni tashkil etish.

Ushbu maqsadga erishmoq uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirmoq talab etiladi: mahalla imkoniyatlarini shaxs va jamiyat rivoji uchun xizmat qildirish; davlat organlarining bevosita vakolatiga kirmaydigan, ya'ni umumsiyosiy, umumiqtisodiy, umumekologik masalalardan tashqari vakolatlarni borsqichma-bosqich fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazish; zamon talabiga mos ravishda qonunchilik tizimini takomillashtira borish; mahalliy, iqtisodiy rivojlantirish tizimini yaratish va uni amalga oshirish; mahallada tadbirdorlik faoliyatini rivojlanish; diniy aqidalardan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda keng foydalanish; mahalla boshqaruv organlarining maoshlari, ularga beriladigan qo'shimcha haqlarni yuqori darajaga ko'tarish yo'llarini izlab topish; moddiy va moliyaviy tomondan mahallaning mustaqilligini ta'minlash, uni erkin va baquvvat qilish. Mazkur vazifalar quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirilishi lozim: oshkorlik, qonuniylik, faollik va h.k. Unda 7 ta g'oyaviy-mafkuraviy yo'nalishlar: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson tarbiyasi, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik ustuvorlik qilishi kerak.

2003-yil O'zbekistonda «Obod mahalla yili» deb e'lon qilindi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurayotgan respublikamizda davlatning umumiyligi, ayniqsa, maxsus ekologik boshqaruv organlarining ijtimoiy-iqtisodiy vakolatlarini o'zini o'zi boshqaruv idoralariga o'tkazish masalasi juda dolzarbdir. Toza atrof tabiiy muhit kishilarning yashash huquqining asosiy elementi va uni as-

rab-avaylash, avvalambor, o‘zlariga bog‘liq ekanligini anglashlari hamda o‘z hududlarida ekologik boshqaruvni bosqichma-bosqich o‘z va kolat doirasiga kirgizishlari muhim masaladir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolar yig‘inlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat olib boradilar. Mahalla fuqarolari har ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarni saylash orqali o‘z hududlarida atrof-muhit muhofazasini tashkil etish hamda vakolet doirasida sog‘lomlashtirish ishlarini olib borishlari mumkin.

1999-yil 14-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi qonunga va obod mahalla yiliga mo‘ljallangan davlat dasturiga binoan *shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolarining yig‘ini (vakillar yig‘ilishi)* o‘z ekologik manfaatlaridan, urf-odat qoidalaridan va hududiy ekologik xavfsizlikdan kelib chiqqan holda, vakolet doirasida mustaqil faoliyat yurgizish huquqiga egadirlar. Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig‘ini va shahar mahallasida, qonunning 10-moddasiga ko‘ra, *fuqarolar yig‘ini*:

- atrof-muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish yuzasidan o‘z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxona, muassasa, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi;
- obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va sanitariya-tozalash ishlariini o‘tkazish uchun tegishli hududda joylashgan korxona va tashkilotlarning mablag‘laridan shartnomaga asosida foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;
- atrof-muhitni muhofaza qilishga ko‘maklashadi;
- yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko‘rib chiquvchi tuman komissiyasiga o‘z vakilini yuboradi va qonun hujjatlariiga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Nisbatan kamroq ekologik boshqaruv funksiyasi shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolar yig‘iniga berilgan bo‘lib, ular hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha tadbirlar rejasini belgilangan tartibda tasdiqlaydilar hamda qonun hujjatlarda ko‘rsatilgan boshqa ekologik faoliatlarni ham amalga oshiradilar.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatni sari boriladigan asosiy yo‘l «mahalla chorrahasidir». Unda yoshlarning faolligi, albatta, birlamchi ahamiyat kasb etadi. Zero kelajak negizi yoshlar, ularning soni esa O‘zbekistonda 60% dan yuqoridir.

Nodavlat-notijorat tashkilotlarining ekologik boshqaruvi. Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning yana bir talabi nodavlat organlarning faoliyatini erkinlashtirish va ularga ijtimoiy hayotning turli jahbalarida ulkan vakolatlar berishdan iborat.

1999-yil 14-apreldagi «Nodavlat-notijorat tashkilotlar to'g'risida»gi qonun nodavlat organlar faoliyatining huquqiy asosi hisoblanadi.

Nodavlat-notijorat tashkilot — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) kelishini o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti.

Nodavlat-notijorat tashkilotlarining ekologik-huquqiy maqomi o'zi to'g'risidagi qonun, siyosiy partiylar, kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunlarda ham belgilangandir. Ularga respublikada faoliyat yurituvchi milliy, xalqaro, chet el nodavlat-notijorat tashkilotlari kirishi mumkin. Ushbu tashkilotlar ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan jamg'arma, uyushma, klub, assotsiatsiya, qo'mita va harakatlarga birlashish huquqiga ega (6.2.3-rasm).



6.2.3-rasm. *Ekologik yo'nalişdagagi nodavlat-notijorat tashkilotlari (ENNT) va ularning huquqiy faoliyatları.*

O‘zbekistonda 2003-yilga kelib o‘nlab ekologik yo‘nalishdagi jamoat birlashmalari tuzilgan. Mazkur birlashmalar o‘z nizomlariga egalular tabiatni muhofaza qilish borasida davlat organlari va o‘zini o‘zi boshqarish idoralari bilan faol harakat qilib kelmoqdalar. Misol tariqa-sida «Ekosan» xalqaro jamg‘armasini olsak bo‘ladi. «Ekosan» — ekologiya va salomatlik yo‘nalishidagi xalqaro jamg‘arma. U 1992-yil Toshkent shahrida tuzilgan bo‘lib, hozirgi kunda uning 3 mln dan ortiq a‘zosi, 30 dan oshiq mamlakatda 70 dan ziyod bo‘linmalari va vakolatxonalarini bor. «Ekosan» nafaqat Respublikamizda, balki xorijda ham juda tanilgan ekologik yo‘sindagi tashkilot bo‘lib, u turli yo‘nalishda katta loyiha va dasturlarni amalga oshirmoqda (6.2.4-rasm). U ekologik munosabatni huquqiy jihatdan tartibga solishda, aholining huquqiy ongi va madaniyatini ko‘tarishda, atrof-muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan moliyaviy mablag‘larni ajratishda o‘zining katta hissasini qo‘shmoqda.

EKO HARAKAT	<ul style="list-style-type: none"> → 2008-yil 2-avgustda yuridik shaxs sifatida tashkil topdi. → 2008-yil 20-sentabrda ro‘yxatdan o‘tdi. → Shiori: Sog‘lom muhit — inson salomatligi. → Maqsadi: O‘zbekistonda aholining qulay atrof-muhit holatini ta‘minlash, sog‘ligni saqlash, atrof-muhitini muhofaza qilish, tabiatdan oqilonaga foydalinish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi huquqlarini ro‘yobga chiqarish va unga rioya etish imkoniyatlarini yaratish. → Ishlash tartibi: O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilishga muvofiq ravishda faoliyat olib borish. → Faoliyat prinsiplari: qonuniylik, o‘zini o‘zi boshqarish va oshkoraliq. → Boshqaruva organlari: Konferensiya, Markaziy Kengash, Ijroiya qo‘mita. → O‘zR Oliy Majlisiga vakilligi: 15 nafar deputat QQR, viloyatlar va Toshkent shahridan uning Respublika Konferensiyasida yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadilar. Ekoharakat deputatlari Oliy Majlisning barcha qo‘mitalarida uning maqsadidan kelib chiqqan tarzda qonun hujjaligiga muvofiq ravishda faoliyat yuritadilar.
-------------	--


6.2.4-rasm. *O‘zbekiston ekologik harakati (Ekoharakat)ning huquqiy maqomi.*

Ayrim mamlakatlarda «Kedr», «Grinpis», «Yashillar partiyasi» kabi ekologik oqimlar faoliyat yurgizishmoqda. Bu ham aholining ekologik boshqaruvda qatnashishining bir yo‘li, chunki ilmiy-texnika revolutsi-

yusli tabiatga «bostirib» kelar ekan uning zararli oqibatlarining oldini olish, avvalambor, fuqarolar, ularning maqsadli va qonuniy uyushmalarining xohish va irodasini inobatga olgan tarzda ekologik munosabatlarni tartibga solinishi maqsadga muvofiqdir.

6.3. Ekologik boshqaruvda ekologik kadastr, nazorat va ekspertizaning ahamiyati

Ekologik boshqaruv samaradorligini ta'minlashda mutaxassislar uch muammoning yechimini topishni tavsija etadilar (E.S. Navasardova, 2002, 2007; «Ekoliya huquqi», 2003, A.N. Nigmatov, 2004, 2012 va boshq.): ekologik kadastr, monitoring va nazorat tizimini yo'lga qo'yish; ekoliyalashtirilgan texnologiyalarni amaliy ekoliyaga keng jalb etish; fuqarolarning ekologik ongi va madaniyatini ko'tarish. Keyingi ikki muammoning yechimi davlatning izchil ekologik boshqaruv va nazoratini yo'lga qo'yish bilan uzviy bog'langandir. Ekologik boshqaruvni amalga oshirish uchun, albatta unga bir necha talablar qo'yilgan (6.3.1-rasm).



6.3.1-rasm. *Ekologik boshqaruv talablari.*

Yuqorida keltirilgan ekologik boshqaruv tizimining qismlari, albatta, mana shunday ketma-ketlikda va ierarxik pog'onada turadi. Ularning birisiz ikkinchisini amalga oshirish yoki boshqaruv mexanizmini yuritishning imkoniyati yo'q. O'zingiz bir tasavvur qilib ko'ring ekotizim-

larni aniqlamay turib, ularning o‘ziga xos sifat va son ko‘rsatkichlarining holatini aytta olmaymiz. Ekotizim komponentlarining holati qanday darajada, ularning sifati, tarkibi va soni ekologik kadastr uchun indekator bo‘lib xizmat qiladi va h.k. Hech qachon ekologik monitoring ni ekotizimlar komponentlarini baholamay yoki kadastrini olib bormay turib o‘tkazilishining iloji yo‘q. Ekologik boshqaruvning eng asosiy elementlari — ekologik kadastr, nazorat va ekspertizaga alohida to‘xtalib o‘tamiz. Chunki ularning amaldagi holati qaysi bir mamlakatda yaxshi yo‘lga qo‘yilsa, ana shu yurtda ekologik-huquqiy boshqaruv mexanizmi harakatda bo‘ladi va unda real ekologik boshqaruv imkoniyati yuzaga keladi.

Ekologik boshqaruv aynan **ekologik kadastr**, aniqrog‘i, tabiiy obyektlarning kadastrini yuritishdan boshlanadi. *Kadastr — fransuz tilida «Cadastral — reestr, ro‘yxat, degan ma’noni anglatadi*. Odatda, ushbu ro‘yxatlash umumiyligi obyektlar bo‘yicha emas, balki aniq bir moddiy, jumladan, tabiiy obyektlarga nisbatan qo‘llaniladi.


O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrdagi Davlat kadastrlari to‘g‘risidagi qonuning 3-moddasiga binoan ekologik kadastr davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu yagona tizim respublika va uning muayyan hududlari tabiiy-iqtisodiy salohiyatining yagona umum davlat hisob-kitobi yuritilishini, baholanishini ta’minlashga mo‘ljallangan ko‘p maqsadli tizimi tarzida yaratiladi.

Ekologik kadastr — uning obyektlarining geografik joylashuvi, huquqiy magomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan (o‘zgaruvchan) ma’lumotlar va hujjatlar tizimi. Ekologik kadastr obyektlari turli mamalatlarda turlicha belgilanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat kadastrlari to‘g‘risidagi qonuning 5-moddasi ekologik kadastr obyektlariga 11 ta kadastrlash obyekti kiritilgan (6.3.2-rasm).

Ekologik kadastrni yuritishda hududni to‘liq qamrab olishlik, fazoviy koordinatalarining yagona tizimini qo‘llash, uslubiyatning umumiyligi, axborotning aniqligi va ommaviyligi kabi huquqiy prinsiplarga asoslani ladi. Mazkur kadastrlarni Ijroiya hokimiyat, maxsus vakolatlangan davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan, aksariyat holdarda davlat budgeti hisobidan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ularni nomlashda ko‘pincha «Davlat» so‘zi qo‘shib ishlataladi.

Davlat ekologik kadastr obyektlarini baholash tabiiy unsur hamda komplekslarning sifat va qiymat jihatlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, «Davlat

yer kadastro to‘g‘risidagi qonun»ning 17-moddasiga binoan, yer sifati — qishloq xo‘jaligi bo‘yicha uni rayonlashtirishni, tuproq va yerlarni tasniflashni, ularning agronomik, ekologik, texnologik va shaharsozlik belgilari bo‘yicha tavsiflashni, tuproqni guruhlarga ajratishni o‘z ichiga oladi. Yerlarning qiymat bahosi 1998-yil 6-avgustda tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni sifat, iqtisodiy va qiymat bahosini aniqlashning Muvaqqat uslubi»ga binoan yerlarning me‘yoriy baholari, banklardan ipoteka qarzlari berishda, xususiy turar joylar qurish uchun yer ajratib berish, dehqon xo‘jaligiga qo‘srimcha yer berish va yer solig‘i stavkalarini aniqlash kabi hollarda yer uchastkasining dastlabki (boshlang‘ich) bahosi belgilanadi. Respublikamizda boshqa tabiiy obyektlarni kadastrlash bo‘yicha ham Nizomlar ishlab chiqilgan va amalda tatbiq qilinmoqda.



6.3.2-rasm. *Ekologik kadastrni olib borish obyektlari.*

Ekologik kadastr obyektlari bo‘yicha hujjatlar — ekotizim va uning komponentlariga nisbatan mulk huquqi va boshqa huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar yig‘ma jildi, kartasi (plani), kitobi, holati haqidagi hisobtlarni o‘z ichiga oladi.

Ekologik kadastr obyektlari bo‘yicha axborot davlat hokimiyyati organlariga bepul, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga esa belgilangan tartibda haq evaziga taqdim etiladi.

Ekologik tizim va uning komponentlari kadastro ekologik nazoratni olib borishning iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy, huquqiy asosi bo‘la oлади. *Ekologik nazorat* — ekologik munosabat subyektlarining faoliyatlarini

vakolatlangan davlat organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari tomonidan tekshirib borish va tegishli chora-tadbirlarini amalga oshirish tizimi.

Ekologik nazorat ekologik monitoringni o'tkazish; ekologik qonun hujjatlarida ko'rsatilgan me'yor va qoidalarning bajarilishini tekshirib borish hamda tegishli yuridik oqibatlarni keltirib chiqarish; davlatning ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan dastur, reja va loyihalarini ro'yogha chiqarish kabi vazifalarni bajarish uchun olib boriladi.

Ekologik nazorat ekologik boshqaruv mexanizmining ajralmas bit qismi bo'lib, u ekotizimlarni muhofaza qilish, buzilganlarini esa qayta tiklash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishda juda katta ahamiyat kasb etadi. ***Ekologik nazorat tizimiga:***


- *ekologik munosabatlarning davriy o'zgarishini ekologik kadastr ma'lumotlariga asoslangan holda kuzatib borish;*
- *olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va tegishli davlat organlari va jamoat birlashmalariga topshirish;*
- *fugorolarning ekologik faoliyatlarini baholash;*
- *tegishli xulosalar chiqarish va chora-tadbirlarni belgilash;*
- *yuridik va jismoniy shaxslarning ekologik faoliyatlariga litsenziyalar berish;*
- *noekologik faoliyat yuritayotgan shaxslarning harakat yoki harakatsizliklarini ogohlantirish, huquqlarini cheklash, faoliyatlarini bekor qilish yoki to'xtatib turish*
- *hamda tegishli javobgarlikka tortish (6.3.3-rasm).*

Yuqoridaagi fikrimizdan ko'rinish turibdiki, ekologik nazorat juda keng qamrovli va turlicha yo'nalishdagi faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun ham u yagona tizimga birlashtiriladi. Ekologik nazorat xizmati tizimiga:

- *ekologik monitoring xizmati;*
- *davlat ekologik inspeksiyalarining xizmati;*
- *huquqni muhofaza qilish davlat organlarining xizmati;*
- *ichki idoraviy va ishlab chiqarish organlarining xizmati;*
- *jamoat birlashmalarining xizmati kiradi.*

Ekologik monitoring — ekologik nazoratning birinchi bosqichi bo'lib, u atrof tabiiy muhit va tabiiy resurslarning davriy o'zgarishini (*kadastr ma'lumotlariga asoslangan tarzda*) kuzatib borish, hisobga olish, baho berish va istiqbolini belgilash tizimi. U milliy, regional (mintaqaviy) va global miqyosda olib boriladi. O'zbekistonda milliy ekologik monitoring tizimi 1972-yil BMTning Stokholm konferensiyasida qabul qilindi.

tingan atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan rezolutsiyasida aks ettiligan prinsiplarga mos ravishda olib borilmoqda. Uning huquqiy asosi bo'lib «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 28-moddasи, 2002-yil 3-aprelda Vazirlar Mahkamasining 111-sonli qarori bilan ta'sidiqlangan «Atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi to'g'risida»gi Nizom, maxsus vakolatlangan davlat organlarining Nizomlari hamda boshqa qonun osti normativ hujjatlari hisoblanadi. Lekin ekologik monitoring faqatgina davlat organlari tomonidan olib boriladi, deyish noto'g'ri bo'ladi. Ekologik kadastrdan farqli, ekologik monitoring no davlat tashkilotlari, o'zini o'zi boshqaruv idoralariga ham xos bo'lgan nazorat turidir.



6.3.3-rasm. *Ekologik nazorat obyektlari, shakllari, turlari va metodlari.*

Ekologik monitoring xizmati davlat boshlig'i, hokimiyatlar va ijroiya organlariga atrof-muhit holatiga doir ma'lumotlarni o'z vaqtida yetka-zib berish orqali ekologik yo'nalishdagi maxsus vakolatlangan davlat inspeksiyasi xizmati faoliyatini aniq va jadal sur'atlarda olib borishga asos bo'ladi. Ekologik monitoring ma'lumotlari ochiq-oshkora ravishda olib borilishi kerak. Ushbu axborot, avvalo, ekologik boshqaruv organlarida umumlashtiriladi va baholanadi. Salbiy ekologik holat bo'yicha monitoring ma'lumotlari darhol aholiga e'lon qilinishi talab etiladi.

Ekotizimlarning miqdori, sifat va boshqa xil ko'rsatkichlari, ulardan foydalanish hajmi, tartib-tamoyilini hisobga olib borish uchun davlat tabiiy resurslar kadastrini yuritadi. Ekotizimlar holatiga zararli ta'sir etishi mumkin bo'lgan obyektlar, ularni ifloslantiruvchi zararli moddalari va ularning miqdori, ishlab chiqarish va kommunal chiqindilarning hajmlari, tarkibi ham nazorat etib boriladi va davlat hisobiga olinadi.

Ekologik nazorat inspeksiyasi davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralari hamda maxsus vakolatlangan davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Ular ham o'z ekologik boshqaruvi vakolatlaridan ke lib chiqqan tarzda umumiy va maxsus ekologik nazoratlovchi davlat or ganlariga ajratiladi.

O'zbekistonda umumiy ekologik nazorat organlari – *Oliy Majlis* (ekologik qonunlar va o'z qarorlarining bajarilishini nazorat qiladi), *Prezident* (ekologik xavfsizlik va davlat ekologik nazorati xizmatlarini tuzadi, ularning rahbarlarini tayinlaydi va lavoziimlaridan ozod etadi), *Vazirlar Mahkamasi* (ekologik qonun va qonun osti normativ hujjatlar, jumladan, dastur, reja va loyihalarning bajarilishini nazoratlaydi), *Mahalliy davlat hokimiyati organlari* (o'z vakolat doirasida ekotizimlarni muhofaza qilish masalalari bo'yicha nazorat ishlarini) olib boradilar.

Respublikamizda maxsus ekologik nazorat organlari – *Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi* (ekotizimlarni muhofaza qilish, ularning resurslaridan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash ustidan kompleks davlat nazoratini), *Sog'liqni saqlash vazirligi* (ekotizim sanitariyasi, gigiyenasi va epidemiologik holati bo'yicha nazoratni), *Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish inspeksiyasi* (xalq xo'jaligi tarmoqlarida yer osti va usti mineral boyliklaridan foydalanish ishlarini ekotizimlar holatiga keskin zarar yetkazmaydigan qilib olib borilishini), *Ichki ishlar vazirligi* (joylarda ekologik huquqbazarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik nazoratga ko'maklashish, jamoat joylari tozaligini nazoratlash, avtotransportdan atmosfera havosining ifloslanishini va shovqinlanishini nazorat qilish, tabiiy va xalq xo'jaligi obyektlarining yong'inga qarshi turish holatining nazoratini), *Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi* (qishloq xo'jaligi yer, suv va o'rmon fondlaridan unumli foydalanish hamda ularning muhofaza qilinishi nazoratini), *Yer resurslari davlat qo'mitasi* (yerdan foydalanish hamda uni muhofaza qilish ustidan nazoratni) tashkil etadilar va amalga oshiradilar.

Ekoliya sohasidagi idoraviy nazoratni amalda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning ekologik xizmatlari o'z tasarrufidagi korxonalar hamda tashkilotlar ustidan nazoratni olib boradilar.

Ekologiya sohasidagi ishlab chiqarish nazoratini korxona, tashkilot, birlashma, muassasalardagi ekologik xizmatlar amalga oshiradilar. Bu o'rinda milliy qonunlarda ko'pincha aks etmay qolgan muassasani alohida ta'kidlab o'tish darkor. Chunki *ta'lif sohasi yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarida* ekotizimlardan oqilona foydalanish, yangi turdag'i madaniy o'simliklar, ximikatlar va dorilarni yaratish, ularni sinab ko'rish mobaynida ishlab chiqarish faoliyatining ekologik talablarga javob berishini nazorat qilish ham ekologik xavfsizlikni ta'minlashda mulim ahamiyat kasb etadi. Idoraviy ishlab chiqarish va jamoatlarning ekologik nazoratining tashkil etilishi, faoliyat yuritishi, huquq va majburiyatlari tegishli qonun hujjatlari va nizomlarda berilgan bo'ladi.


Ekologiya sohasidagi *jamoat nazorati* nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, o'zini o'zi boshqaruv organlarining ekologik boshqaruv funksiyasidan kelib chiqadi. Unda ekologik nazorat — fuqarolar yig'ini kengashi, kengash qoshidagi maxsus ekologik komissiyalar yoki shaxslar, ekologik nazorat bo'linmalari, mehnat jamoalarari, faol mutaxassislar guruhni, jismoniy shaxslar tomonidan olib boriladi.

Ekspertiza so'zi lotinchada «expertus» — tajribali, degan so'zdan olin-gan bo'lib, u ma'lum bir masalani tajribali mutaxassis tomonidan yoritib berilishi demakdir. Ekspertiza turli fan va xo'jalik sohalarida turlicha ko'rinishda namoyon etilib, voqeа va hodisalarни to'g'ridan to'g'ri belgilash, o'lchash va aniqlash imkoniyati bo'limgan taqdirda, ushbu sohadagi mutaxassislar xulosasiga muhtoj holatlarni inobatga oladi.

O'zbekiston Respublikasi ekologik qonunchiligidagi ilk bor ekologik ekspertiza 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning maxsus VI bo'lif 24—27-moddalarida yoritib berildi. Ushbu qonunning 4-moddasida esa ekologik ekspertizaning majburiylik prinsipi belgilab qo'yildi. Lekin Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun ekologik ekspertizaning imperativ (qat'iy) shartlarini belgiladi, xolos. Uning asl mohiyati, turlari, olib borish metodlari, muddatlari, prinsiplari va obyektlari esa yoritilmay qolgan edi. 2000-yil 25-mayda qabul qilingan va shu yilning 1-iyulidan kuchga kirgan «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni huquqiy-ekologik mexanizmni shakllantirishga va uni hayotga tatbiq qilishga katta hissa qo'shdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Ekologik ekspertiza — rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza obyektini ro'yobga chiqarish mumkinligini aniqlash. Ekologik ekspertizaning asosiy maqsadi va vazifalari

— mo‘ljallanayotgan xo‘jalik, boshqa xil faoliyatni rejalashtirish hamda amalga oshirishdan avval, ushbu faoliyatni ekologik talablar, xususan, fuqarolar sog‘lig‘iga qay darajada ta’sir etishi mumkinligini aniqlash, shuningdek, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning ekologik talablarga javob bera olishi yetarliligi va ilmiy asoslanganligini aniqlashdan iborat (6.3.4-rasm).



6.3.4-rasm. *Ekologik ekspertiza turlari, prinsiplari, obyektlari, subyektlari va usullari.*

Ekologik ekspertiza obyekti bo‘lib davlat dasturlari, konsepsiyalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish kuchlari, ijtimoiy va iqtisodiy soha tar-

moqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish loyihalarini tuzish; barcha turdag'i qurilishlar uchun yer uchastkalarini ajratish, hujjatlarni tayyorlash va o'tkazish; texnika, texnologiya, materiallar, moddalar va mahsulotlarning yangi turlarini yaratishga doir hujjatlar tayyorlash; alohi'da muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va favqulodda ekologik vaziyat bo'nda ekologik ofat zona (tegra)lari maqomini berish; shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish, ularni amaliy qo'llash mexanizmi ham ekspertiza obyekti bo'ladi va ular, albatta, mutaxassislar xulosasiga muhtojdir.

Ekologik ekspertiza *davlat, jamoat va ixtisoslashtirilgan firmalar* tomonidan o'tkazilishi mumkin. Lekin *davlat ekologik ekspertizasidan* o'tish inson faoliyatining yuqorida sanab o'tilgan hamma jaboliklari uchun majburiydir. Shuning uchun ham maxsus vakolatlangan organlar turli maqomdag'i ekspert bo'linmalari tomonidan o'tkazilishi mumkin. Agarda xo'jalik yoxud boshqa faoliyat yurgizuvchi subyekt (buyurtmachi) davlat ekologik ekspertiza komissiyasi xulosasidan qoniqmaydigan bo'lsa, u o'z e'tirozini umumiy yoki xo'jalik sudlarida ko'rib chiqish uchun da'vo bildirishi mumkin.

Davlat ekspertizasini o'tkazish muddati turlicha belgilanadi. Masalan, O'zbekistonda uning muddati 30 kundan oshmaydi va ayrim, o'ta murakkab sharoitlarda, bosh davlat eksperti ruxsati bilan 2 oydan oshmag'an muddatga uzaytirilishi mumkin. Ushbu ekspertiza faoliyatini moliyalash buyurtmachilar hisobidan amalga oshiriladi.

Fuqarolar, fuqarolar yig'ini, o'zini o'zi boshqarish organlari, no davlat-notijorat tashkilotlari tomonidan *jamoat ekspertizasi* o'tkazilishi mumkin. Ekologik ekspertiza nuqtayi nazaridan, ular o'z mablag'lari hisobiga, davlat ekspertizasidan tashqari mustaqil holda ekologik ekspertizani o'tkazishlari mumkin. Faqatgina jamoat ekologik ekspertiza xulosasi tavsiya kuchiga ega bo'ladi va davlat ekspertiza xulosasini teksirib ko'rish hamda sudga da'vo e'tirozi bilan chiqish imkonini beradi.

Jamoat ekologik ekspertizasini o'tkazish uchun fuqarolar, fuqarolar yig'ini yoki jamoat tashkilotlari mustaqil ekspert komissiyasiga «Ekologik oqibat arizasini» berishlari mumkin. Bu arizada ular ikki masalani yoritishlari kerak: ekologik tavakkallikni hisobga olgan tarzda atrof tabiiy muhit holatining buzilish oqibatlari; ekologik zarar oqibatlarini tugatish, atrof-muhit holatini tiklash va mo'tadillashtirish uchun zaruriy choratadbirlarni ko'rsatishlari kerak. Ekspertlarning vazifasi esa ushbu vaziyat yoki holatni to'g'ri yoki noto'g'riligini isbotlashdan iborat, xolos. Agarda jamoat ekspertizasi davlat ekspertizasi xulosasi bilan mos kelmasa, unda ushbu nizoli holat haqida davlat ekologik ekspertizasini tayinlovchi

davlat organi prokuratura yoxud sud organlariga murojaat etish orqali masalaga oydinlik kiritiladi.

Bozor munosabatlarining o'ziga xos tomonlaridan biri turli ko'rinishdagi auditorlik faoliyatini shakllantirishdan iborat. Audit ingliz tilida «audit» — tekshirish, ya'ni buxgalteriya kitoblari, hisobotlari va hujjatlarini taftish qilish, degan ma'noni anglatadi. O'zbekistonda auditorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish 2000-yil 26-maydag'i «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonun va shu asosda qabul qilingan qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Ekologik audit — ekologik munosabat subyektlarining buxgalteriya kitoblari, hisobotlari va hujjatlarini taftish. Auditorlik faoliyati auditor (audit firma)lar tomonidan tadbirkorlik faoliyati ko'rinishida amalga oshiriladi. Ekologik audit birmuncha o'ziga xos ko'rinishga ega.

Ekologik audit uch xil:

- 1) ishlab chiqarish ekologik ekspertiza;
- 2) hududiy ekologik ekspertiza;
- 3) ekologik konsalting ko'rinishida olib boriladi.

Ishlab chiqarish obyektlarini ekologik auditlashning maqsadi atrof-muhitni muhofaza qilishga doir talab va yo'riqnomalarga korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'ri kelishi, tabiatni muhofaza qilish tadbirlari bo'yicha tavsiyanomalarini tayyorlash hamda tabiiy resurslardan foydalanishdagi sarf-xarajatlarni tekshirishdir. Bunday tekshiruv ishlarni moliyalashdan avval nazoratlovchi organlar bilan bo'ladigan nizoli holatlarda amalga oshiriladi.

Hududiy ekologik audit — aniq bir yer uchastkalari yoki hududlarni tabiiy resurs imkoniyatlarini salbiy tabiiy hodisalar hamda atrof tabiiy muhitga texnogen jarayonlarning ta'sirini va ularning turlarini aniqlashni baholashda qo'llaniladi. Ushbu ekologik audit turiga ko'chmas mulk va yer uchastkalari yuzasidan bajariladigan ope-ratsiyalar bilan shug'ullanish; dastlabki xulosani shakllantirish va u bilan jamoatchilikni tanishtirish; ekspertiza xulosasini taqdim qilish va yuqori vakolatli organlar tomonidan tasdiqlash; nizolarni hal qilish kabilar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik kadastr, nazorat va ekspertiza ekologik boshqaruvning samaradorligini oshiruvchi asosiy chora-tadbirlardandir.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ekologik boshqaruv so'zlar birikmasiga izoh bering.

2. Ekologik munosabat deganda nimani tushunasiz?
3. Regional ekologik boshqaruv bilan global ekologik boshqaruvning nima farqi bor?
4. Global ekologik boshqaruv manbalarini sanab o'ting.
5. Milliy boshqaruv nima?
6. Mahalliy boshqaruvni qaysi organlar amalga oshiradi?
7. Ekologik munosabatlarni tartibga solish kerakmi yoki boshqarish kerakmi?
8. Global miqyosda qanday ekologik boshqaruv prinsiplariga amal qilish kerak?
9. O'zbekistonda ekologik boshqaruvni kimlar amalga oshiradilar?
10. Vazirlar Mahkamasining ekologik boshqaruv funksiyalarini sanab o'ting.
11. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ekologik funksiyalarini yoritib bering.
12. O'zbekiston ekologik harakati qanday organ?
13. Ekologik boshqaruv talablarini sanab o'ting.
14. Ekologik kadastr turlari nima uchun kerak?
15. Ekologik nazorat bilan ekologik monitoringning farqi bormi?
16. Ekologik ekspertiza turlari, prinsiplari va usullarini sanab o'ting.

*Dunyo, rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi
o'zaro bog'langan va ajralmasdir.*

Barqaror rivojlanish prinsipi

7-bob. ATROF-MUHIT, EKOLOGIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH

7.1. Barqaror rivojlanish konsepsiysi – jamiyat va tabiatning uyg'unlikda rivojlanish g'oyasi

Tabiiy boyliklardan foydalanmasdan turib biror-bir inson, jamiyat yoki davlat yashay olmaydi. Ularning bu boqiy dunyoda farovon hayot kechirishlari va rivojlanishlari esa ularni o'rab turuvchi ekotizmlardan nechog'li foydalanish imkoniyatlariga ega ekanliklari bilan belgilanadi. Shuning uchun ham qadimdan kishilik jamiyati tabiat ne'matlarini o'z ehtiyojlarini qondirishlari uchun o'zlashtirib olishga bor kuch va g'ayratlarini ishga solganlar. Natijada davlatlar, jamoalar va insonlar o'rtasida turli ziddiyatlar kelib chiqqan va barqarorlikka jiddiy ziyon yetkazilgan. Dunyo aholisining «demografik portlash» darajasida o'sishi va ilmiy-texnik inqilobiy jarayonlarning jadallahushi atrof-muhitga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda, ya'ni ekotizim unsurlarga nisbatan antropogen bosimni kuchaytirmoqda. Ekotizimlar insonlarning nafaqat iqtisodiy rivojlanishining moddiy asosi, balki ularning ma'naviy-estetik ehtiyojlarini qondirish manbai hamdir. Bu esa insonlarning tabiatga bo'lgan ehtiyojlarini kundan-kunga oshirayapti. Undan tashqari, inson xo'jalik faoliyatining ekotizmlarga bo'lgan bosimini kuchayishi tabiiy hodisa va jarayonlarni ham kuchaytirib yubormoqda. Natijada, hammamizga ayonki, tabiat va uning muvozanati buzilib ketmoqda. Hozirgi kunda butun insoniyat va uning progressiv qatlami qanday qilib inson va tabiat o'rtasidagi optimal holatni belgilab olishga, ya'ni ekologik xavfsizlikni ta'minlashga intilmoqda. Ushbu yo'nalishda «Barqaror rivojlanish konsepsiysi» umume'tirof etilgan va boshqa bir qator dunyo-qarashlardan ustun turgan fikrlar hamda real harakatlar majmuasidir. Shuning uchun ham uni atrof-muhit va ekologiya yo'nalishidagi barcha ta'lim muassasalarida mustaqil o'quv kursi sifatida batafsil ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

«**Barqaror rivojlanish**» nima ekanligini uning tarixida aks ettirilgандир. Mazkur konsepsiyaning yaratilishi aynan xalqaro hamjamiatning

atrof-muhitni muhofaza qilishga oid harakatlardan boshlanganligiga iqror bo'lamiz. XX asrning 60-yillarda, ya'ni «sovuv urush» ayni avjiga chiqqan davrda, butun insoniyat va xalqaro hamjamiyatning diqqat-e'tibori asosan yadroviy to'qnashuvning oldini olishga qaratilgan edi. «Karib inqirozi» deb nom olgan SSSR va AQSH o'rtasidagi mojarodan so'ng yadro quroliga ega bo'lgan «katta» davlatlar bir narsaga – atom, neytron, vodorod qurollarining oz miqdorda bo'lsa ham ishlatalishi nafaqat dushmanga, balki o'z uyining ham barbod bo'lishiga olib kelishi mumkinligiga iqror bo'lishdi. Ommaviy qirg'in keltiruvchi qurollarning qo'llanilishi va uchinchi jahon urushining boshlanishi yerdag'i hayotning tugashi ekanligini butun insoniyat tushunib yetdi. Bu urushda na mag'lublar va na g'oliblarning bo'lmasligi isbot talab qilmaydigan aksiomaga aylanib qoldi. Global miqyosdagi yana bir muammolardan bo'lmish – yoppasiga tarqalgan kasalliklar fan va texnika yutuqlari tufayli sekin va astalik bilan orqaga chekina boshladi (4.2.1-jadvalga qarang).

Barqaror rivojlanish g'oyasining paydo bo'lish tarixi. Kishilik jamiyati tarixida juda ko'p siyosiy ziddiyatlarga boy davr bo'lgan XX asrga kelib insoniyat kelajakda qanday qilib tinch va osoyishta hayot kechirishi kerak, degan fikr eng dolzarb masalaga aylanib qoldi. Inson aql-zakovati yuqori pog'onaga ko'tarilgan bir davrda bunday ayanchli holat sababini, atrof tabiiy muhitning inqirozli holatini tushunib yetgan bir guruhi fan, madaniyat, maorif va davlat arbollaridan iborat bo'lgan kishilar ekologik oqibatdan chiqib ketish rejasini ishlab chiqish maqsadida **«Rim klubi»ni tuzishdi.** **«Rim klubi» a'zolarining 1970-yilda «O'sish chegarasi»** nomli kitobida Yer kurra sida aholining o'sishini tabiiy resurslar imkoniyatiga monand ravishda mo'tadillashtirishni taklif etishdi.

«Rim klubi» hisoboti 1972-yil 5-iyunda Shvetsiya poytaxti Stokholm shahrida Butunjahon «Atrof-muhitni muhofaza qilish» konferensiyasini chaqirishga asos soldi (7.1.1-rasm). Mazkur konferensiyani, hech mubolag'asiz, *xalqaro hamjamiyatning ekologik dunyoqarashidagi tub burilish nuqtasi*, deyish mumkin. Chunki insoniyat tarixida ilk bor BMTning juda keng qamrovli va salohiyatlari anjumani Yer sayyorasidagi ekologik muammolarni hal qilishga bag'ishlangan edi. Aynan Stokholm Konferensiyasidan boshlab davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari alohida bahs va muzokaralar mavzusiga aylana boshladi. Endilikda ekologik muammolarning yechimini topish global miqyosdagi xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omili ekan-

ligini tushunib yetgan dunyo hamjamiyati 1975-yil Xelsinki shahrida 35 ta Yevropa davlatlari hamda AQSH va Kanada rahbarlari ishtirokida xalqaro Sammitni chaqirishdi. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik Kengashining «*Yakunlovchi hujjat»ida ekologik xavfsizlikni ta'minlash barqaror rivojlanishning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri* ekanligi e'tirof etildi.


Shu tariqa 1987-yil BMTning Butunjahon atrof-muhit va rivojlanish Komissiyasi tuzildi va unga norvegiyalik davlat arbobi Gro Xarlem Brunland rahbarlik qildi. Komissiyaning «*Bizning umumiy kelajagimiz*» nomli hisobotida barqaror rivojlanish konsepsiysi modeli — *hozirgi avlod ehtiyojlarining qondirilishi va kelasi avlodlarning munosib hayot kechirishga bo'lgan huquqini hisobga olgan tarzda amalga oshirilishi lozim*, deya takidladi.

1989-yili BMT Bosh Assambleyasining 44x428-sonli rezolutsiyasiga binoan barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun BMTning maxsus konferensiyasini chaqirishga qaror qilindi. Unda barqaror rivojlanish konsepsiysi — davlatlar va butun dunyo hamjamiyatinining xususiyat, mohiyat va tarkibiy jihatdan bir maromda rivojlantiruvchi qarashlar tizimi, deb e'tirof qilindi.

Barqaror rivojlanish konsepsiysi ishlab chiqarish va iste'mol qilish, aholining o'sishi va ijtimoiy himoyasi o'rta sidagi muvozanatni rivojlangan va rivojlanish yo'lida turgan barcha davlatlarda saqlashni inobatga oladi. Chunki Yer sayyorasidagi atrof-muhit holati mamlakatlarning birgalikdagi harakat majmuasidir. Ekologik muammolarning yechimi biron-bir davlat (masalan, AQSH) yoki biron-bir davlatlar (masalan, «katta sakkizlik») faoliyatiga bevosita bog'liq emas ekanligini biz yuqorida aytib o'tgan edik.

Atrof-muhit muhofazasi bilan barqaror rivojlanish g'oyasining birligi 1992-yil 3-14-iyun kunlari Braziliyaning *Rio-de-Janeyro* shahrida bo'lib o'tgan BMTning «*Atrof-muhit va rivojlanish*» konferensiysi (*AMRK*) hisoblanadi. Chunki, uning ishida dunyoning 170 dan ziyod, jumladan Mustaqil davlatlar hamdo'stligidan 7 ta davlat vakillari ishtirok etgan va 130 ta davlatdan hukumat boshliqlari kelgan. *AMRK-ning maqsadi* — *davlatlarning barqaror rivojlanishi va tinch-totuv yashashini ta'minlash uchun ekotizimlarga tushadigan bosimni kamaytirish*. Konferensiya qatnashchilari uchta ishchi guruhda munozaralar olib bordilar:

- atmosfera havosi, yer resurslari va biologik xilma-xillikni saqlash;



7.1.1-rasm. *Atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish.*

- okeanlar, dengizlar, qirg‘oq bo‘yidagi mintaqalar va chuchuk suv resurslari;

- institutsional (barqaror birlashish) va tashkiliy masalalar.


«Rio—92»da paralell ravishda BMTning maxsus hukumatlararo muzokaralar qo‘mitasi «Iqlimni o‘zgartirishni cheklash konvensiyasi», YUNEP doirasida esa «Biologik xilma-xillik konvensiyasi»ni ishlab chiqishga kirishildi. *Konferensiya raisi* Braziliya Prezidenti *Fernando Kollar de Mello* «Bizlar ikkita fundamental nizomga — rivojlanish va atrof-muhitga asoslangan umumiy vazifalarni bajarishda olg‘a siljishni ta‘minlash uchun yig‘ildik. Bizlar tarixiy zaruriyat va axloqiy majburiyatni rivojlantirishning yangi modeli, ya’ni rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi degan tushunchalardan iborat bo‘lgan jamiyatni qurishni qabul qilamiz. Bizlar ekologik xavfsiz ijtimoiy adolatli dunyoni ta‘minlay ololmaymiz», deya e’tirof qildi.

AMRK tomonidan muhokama qilingan asosiy masalalar: Yer sayorasida hayotiy tizimni buzuvchi, sanoati rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarish va iste’mol qilish; qoloq va rivojlanmagan mamlakatlarda aholining o‘sish darajasi; boy va qoloq davlatlar, boy va kambag‘al fuqarolar o‘rtasidagi tafovutning orta borishi; atrof-muhit holati, tabiat imkoniyatlari, moddiy mansaatlаримизни hisobga olmaydigan va tabiatga qoplanmaydigan zarar yetkazadigan iqtisodiy tizim.

«*Rio Deklaratsiyasi*»da jamiyat va tabiat qonunlarining uyg‘unlashtirish mezoni hamda *ijtimoiy-ekologik-iqtisodiy muammolarning o‘zaro birligi va davlatlarning mazkur masalalar yechimini topishdagi majburiyatlari* aks ettirildi.

«Rio—92» Konferensiyasida qabul qilingan «XXI asr kun tartibi»da 2000-yilgacha va undan keyingi yuz yil ichida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasida antropogen faoliyatning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tildi (7.1.2-rasm).

«XXI asr kun tartibi»da rivojlanishning har bir sohasida ishtirokchilar faoliyati, maqsadi, vazifalari, harakatlari va asoslari berilgan. Ularni amalga tatbiq etish uchun mahalliy, regional va milliy miqyosda faoliyatni moliyalashtirish yo‘llari hamda ko‘lami bayon etilgan. Hujjat global va lokal loyiham, qarzlarni qoplash, boshqarish va iqtisodiy siyosatni samarali olib borish, xalqaro va regional hamkorlik va muvofiqlashtirish kabi qismrlarga ajratilgan va unda moliya masalalari ajratib ko‘rsatilgan. Har bir bobning yakunida sarf-xarajatlarni baholashni hisobga olgan holda moliyalashtirish mexanizmlari va amalga oshirish imkoniyatlari berilgan.



7.1.2-rasm. «XXI asr kun tartibi»ning mazmuni.

Mamlakatimizda, Vazirlar Mahkamasining 12-noyabr 1997-yildagi 510-sonli maxsus qarori asosida, milliy barqaror rivojlanish hay'ati tashkil etildi. Hay'at «XXI asr kun tartibi»ning talablarini amalga oshirish maqsadida «Barqaror rivojlanishning milliy strategiyasi»ni ishlab chiqdi.

«Rio-92»da qabul qilingan muhim hujjalardan yana biri «*O'rmonlardan unumli foydalanish, ularni saqlash va o'zlashtirish prinsiplari to'g'risidagi bayonnomma*»si edi. Bu bayonnomma inson va jamiyatning o'rmonlarga nisbatan munosabat huquqlari va uni tabiatning bebaaho in'omi ekanligi haqidagi hujjatidir. Mazkur hujjat «Yer» deb atalmish sayyorada o'rmonlar va uning resurs imkoniyatlarini saqlash, hamma turlarini nazoratsiz kesishlardan tiyish va ularni tugatishni to'xtatish borasidagi global darajadagi xalqaro hujjat bo'lib qoldi.

«Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiya» va «*Iqlimiň o'zgartirishni cheklash to'g'risidagi Konvensiya*» ko'pchilik davlatlar tomonidan imzolandi. Ushbu Konvensiyalar 1993-yil 14-mayda O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlandi va 1996-yilning 7-may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolandi.

«Iqlimiň o'zgartirishni cheklash to'g'risidagi Konvensiya»ning maqsadi – atmosfera «issiqxonə»sinı global isishga olib keluvchi gazlarning umumiy ta'sir hajmini bir me'yorda ushlab turish. 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi, 2002-yil 5-aprel-dagi «Chiqindilar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida mazkur Konvensyaning asosiy prinsiplari va normalari aks ettirilgan.

«Atrof-muhit va rivojlanish» konferensiyanining 10 yilligini sarhisob qilish («Rio+10») maqsadida 2002-yilning 26-avgust – 4-sentabr Janubiy Afrika Respublikasining Yoxannesburg shahrida BM Tning «Barqaror rivojlanish» rukni ostida Butunjahon Sammiti (BRBS) bo'lib o'tdi.

«Rio-92»dan farqli ushbu Sammit davlatlar va xalqaro hamjamiyatning barqaror rivojlanishiga doir jiddiy va dolzarb masalalarni muhokama qilish va ularning yechimini topishga intilish uchun chaqirilgan edi. Sammitda *ijtimoiy hayotning ekologik muammolari davlat va mintaqalarning bir maromda rivojlanishida, ularning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim ko'rsatkich sifatida ko'rib chiqildi*. BRBSning boshqa shunga o'xshash uchrashuvlardan farqi shunda ediki, unda ishtirok etayotgan davlat va hukumat boshliqlari, nodavlat va xalqaro tashkilotlarning vakillari, sanoat va biznes namoyondalarining ko'pligi va xilma-xilligida edi. Markaziy Osiyo davlatlaridan BRBSda Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmaniston delegatsiyalari qatnashdi.

BRBSning tayyorlov hay'ati va tashkiliy qo'mitasi tomonidan «BRBS qarorlarini bajarish rejası» va «Siyosiy deklaratsiya» ishlab chiqildi.

Sammit ishtirokchilarining asosiy e'tibori «*BRBS qarorlarini bajarish rejası*» loyihasining muhokamasiga qaratildi. Unda barqaror rivojlanishga tegishli ma'lumotlardan foydalanish, qarorlar qabul qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida sndlardan foydalanish borasidagi Nizomlar ishtirokchilar tomonidan to'la ma'qullanmadı. Masa-lan, keng jamoatchilik tomonidan qarorlarni qabul qilishdagi ishtiroki to'g'risidagi 151-paragraf ma'qullanmadı. Ushbu muhim qoidalarsiz «*BRBS qarorlarini bajarish rejası*» qabul qilindi. Umumiylajmi 133 betdan iborat bo'lgan hujjat 170 band, IX bo'lim, 12 bobdan iborat edi. Mazkur Rejada, «*Rio-92*»da qabul qilingan «XXI asr kun tartibi»dan farqli, barqaror rivojlanish masalalari ma'muriy birliklarda emas, balki Sayyoramizning turli geotizimlari bo'yicha ko'rib chiqildi.

«*BRBS qarorlarini bajarish rejası*»ning muqaddimasida, uni amalga tatbiq qilishda jahon hamjamiyatining birgalikdagi ish rejalarini qabul qilish lozimligi ko'rsatib o'tilgan edi.

Rejaning ikkinchi bandida mazkur hujjat «*Rio-92*»da qabul qilingan hujjatlarning davomi ekanligi ta'kidlangan edi. AMRKda belgilangan, lekin hayotga tatbiq etila olinmagan maqsad va vazifalarni bajarish, XXI asr boshlanishi arafasida yuzaga kelgan holatni hisobga olgan tarzda, xalqaro huquqning yangi prinsiplari va normalarini e'tirof etish uchun qabul qilinganligini ko'rsatdi. «Barqaror rivojlanish, — deyilgan edi Rejada, — inson huquqlarining barqarorligi, qadrliligi hamda erkinligi, uning rivojlanish huquqi hamda madaniy xilma-xillikni qadrlashda hammaning manfaatlariga va talablariga javob beradi».

«*BRBS qarorlarini bajarish rejası*» prinsiplari barqaror rivojlanishning uch tarkibiy qismi: iqtisodiy o'sish, ijtimoiy rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi talablariga javob beradi (7.1.3-rasm).

Barqaror rivojlanishning asosiy vazifalari va talablari:

- *qashshoqlikni yo'qotish;*
- *ishlab chiqarish va iste'mol qilishning barqaror bo'lmagan model-larini o'zgartirish;*
- *iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning tabiiy resurslarini muhofaza qilish va undan ogilona foydalanish.*

Barqaror rivojlanish bo'yicha Sammit rejasida asosiy e'tibor davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligiga qaratildi. Global miyosoda aniq hal etilishi mumkin bo'lgan ekologik masalalar faqatgina qit'alar va mintaqalar miyosida ko'rib chiqildi, xolos.

Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha qoidalar

Davlatlar yoki alohida bir transkontinental kompaniyalarning rivojlanish huquqi hozirgi va kelajak avlodlarning atrof-muhit muhofazasi sohasidagi ehtiyojlarini adekvat darajada qondirishi lozim.

Davatlarning tabiiy resurslardan foydalanimdagi suveren huquqi boshqa, milliy yurisdiksiyasi kirmaydigan davlatlar va mintaqalarning atrof-muhitiga zarar qilmasligi kerak.

Barqaror rivojlanishda atrof-muhit muhofazasi taraqqiyot jarayonining bir qismi hisoblanadi va undan ajralgan tarzda muhokama qilinmasligi kerak.

Ekologik muammolarni barcha manfaatdor fuqarolar ishtirokida va turli darajada: milliy miqyosda har bir fuqaro atrof-muhitga tegishli bo'lgan ma'lumotlardan erkin foydalinish huquqiga ega bo'lishlari.

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro doirada barqaror rivojlanishni ta'minlashda mas'uldirlar, mazkur davlatlar jamoasi Yer sayyorasining muhitiga yetkazgan zararini ulardagi texnologik va moliyaviy resurslardan kelib chiqqan holdagi javobgarligini tan olmoqlari lozim.

Davlatlar atrof tabiiy muhitga zarar yetkazuvchi moddalarning harakatlanshi va tashilishining oldini olish uchun samarali ravishda hamkorlik qilishlari kerak.

Davlatlar, xalqaro miqyosda yordam berish maqsadida, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi har qanday ofat yoki boshqa favqulodda vaziyat haqida darhol o'zga mamlakatga axborot yetkazishlari kerak.

Davlatlar urushlarini (qurolli to'qnashuvlarni), ekotizimlarning bir butunligining parchalanishini oldini oluvchi xalqaro huquqiy me'yornarni hurmat qilmog'i kerak.

Har bir davlat atrof-muhit holati uchun javobgardir.

Davlatlar maqbul va ochiq xalqaro ekologik tizimni tashkil qilishda hamkorlik qilishlari kerak, bu esa atrof-muhit holatiga doir muammolarni yanada samarali hal qilishga olib kelishi lozim.

Atrof-muhit muhofazasiga yo'naltirilgan chegaralararo yoki global ekologik muammolarni yechish yo'llari xalqaro konsensus (murosa)ga asoslangan bo'lishi kerak.

Davlatlar atrof-muhit muhofazasiga doir qonun hujjalariiga, ekologik qat'iy o'rnatilgan me'yorlarga (standartlarga) ega bo'lmoqlari lozim, xo'jalik faoliyatining maqsadi va ustuvorligi atrof-muhitni muhofaza qilish vazifalariga muvofiq kelishi kerak.

Milliy qonunlar davatlarda ham, ularning tashqarisida ham tabiiy muhitiga yetkazilgan zararni qoplashni hisobga olmog'i lozim.

Tabiiy resurslardan foydalinishni mo'tadillashtirish maqsadida davlatlar o'z demografik siyosatlarini muvoqilaqshirishlari zarur.

Ayollar atrof-muhit unsurlaridan oqilonna foydalinish va barqaror rivojlanishda hayotiy muhim rol o'ynaydilar, shuning uchun ham ularning turli ekologik tadbirlarda har tomonlama ishtiroklarini ta'minlash zarur.

Tinchlik, rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'zaro bog'langan va ajralmasdir.

Davlatlar, xalqlarni barqaror rivojlanishi uchun, ekologik talablarni bajarishda yaxshi niyat va sherikchilik ruhida hamkorlik qilishga majburdir.

Davlatlar ekologiya sohasidagi nizolarini va masalalarни tinch yo'l bilan tegishli vositalar yordamida, BMT Nizomiga muvofiq ravishda hal qilmog'i kerak.

Tabiiy xomashyonи ishlab chiqarish, qazib olish va qayta ishlash ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi va ushuu jarayonlarda ilg'or texnologiyalarni qo'llash lozim.

Davlatlar atrof-muhitga bo'lgan an'anaviy munosabatlarini tan olishlari kerak, mahalliy aholi va jamoalarning tarixiy tajribasini amalda ishlatmog'i lozim.

7.1.3-rasm. *Barqaror rivojlanish konsepsiyasida atrof-muhit muhofazasi.*

Rejaning IV bo'limi 24–26-moddalarida ko'rsatilganidek, milliy hududda va uning tashqarisida atrof-muhitni muhofaza qilishga erishish uchun:

- ichimlik suvi bilanta'minlanish sohasida «Mingyillik deklaratsiya»si dasturini moliyaviy va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- 2015-yilga qadar toza chuchuk suv bilan bevosita foydalanish imkoniyatiga ega bo'lмаган kishilarning sonini ikki barobargacha kamaytirish;
- moliyaviy resurslar mobilizatsiyasi;
- texnologiyalarning uzatilishi;
- ilg'or tajribalarni ommalashtirish;
- suv bilan ta'minlash;
- sanitariya sohasida milliy va xalqaro miqyosda xizmatlarni tashkil etish;
- kam ta'minlangan kishilarning ehtiyojlarini, gender huquqlarini hisobga olgan tarzda amalga oshirish;
- okean resurslarini barqaror o'zlashtirishni maxsus organlar orqali barcha bosqichlardagi chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirish va hamkorlikni ta'minlash;
- okeanlar muhofazasini yagona tizimda, ya'ni okean – dengiz – orol – qirg'oq hududi orqali amalga oshirilishi;
- global dasturlardagi faoliyatni tezlashtirish yo'li bilan, Montreal deklaratsiyasiga muvofiq ravishda, dengizlarni shaharlardan oqib kehayotgan suvlar bilan ifloslanishining oldini olish;
- tabiiy ofatlarning oldini olishga kompleks yondashuvni amalga oshirish uchun xavf-xatarli omillarning jadallahushi va tabiat majmularining nozikligini hisobga olish;
- iqtisodiy barqarorlik asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;
- qurg'oqchilik yoki cho'llanish jarayonlari tez-tez sodir bo'layotgan davlatlarda BMTning cho'llanishga qarshi kurash Konvensiyasini tatiq qilish;

- yer yuzasining noyob flora va faunasiga ega bo‘lgan nozik va zaif tog‘ ekotizimlarini saqlash;
- «Xalqaro ekoturizm yili» (2002-yil), «Xalqaro madaniy meros yili» (2002-yil), Kvebek deklaratsiyasi va Butunjahon turizm tashkilotining «Global turizm etikasi kodeksi»dagi normalarga asoslanib ekoturizmni rag‘batlantirish;
- barqaror rivojlanish muhim ahamiyat kasb etayotgan biologik xilma-xillik konvensiyasidagi normalarni kengroq amalga tatbiq etish.

Mazkur vazifalar, «BRBS qarorlarini bajarish rejası»dagi nizomdan kelib chiqqan tarzda, rivojlanayotgan davlatlar – Afrika, Lotin Amerikasi va Karib havzası, Osiyo va Tinch okeani, G‘arbiy Osiyo va Yevropa iqtisodiy komissiyasi mintaqalarida hamda orollarida joylashgan davlatlar misolida ko‘rib chiqildi.

Institutsional masalalar, ya’ni barqaror birlashishdagi ko‘rsatmalar BMT Bosh Assambleyasi, uning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi, Barqaror rivojlanish hay’ati, global, regional va milliy tashkilotlarning maqsadi, vazifalari va faoliyat yo‘nalishlarini aniqlashtirdi, ularning rolini oshirishda hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashda aholi asosiy guruhlarining ekologik xavfsizligi uchun sharoit yaratish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ruminiya Delegatsiyasi barqaror rivojlanish bo‘yicha mahalliy va regional markazlarni (BRRM) tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi. Bu esa Markaziy Osiyo uchun ayni muddao edi. Sammitda 200 dan ortiq sherikchilik tashabbuslari, jumladan Markaziy Osiyodagi nodavlat tashkilotlardan ham e’lonlar berildi.

BRBSning ikkinchi muhim hujjati ***«Barqaror rivojlanishga doir Yoxannesburg Deklaratsiyasi»*** 37 banddan iborat bo‘lib, u quyidagi qism-larga ajratilgan:

- *chashmalarimizdan kelajakka tomon;*
- *Stokgolmdan Rio-de-Janeyroga va Yoxannesburggacha;*
- *oldimizda turgan vazifalarimiz;*
- *barqaror rivojlanishga bizning tarafdarligimiz;*
- *kelajakka ko‘p tomonlama yondashishda;*
- *shunday bo‘sin.*

Yoxannesburg Deklaratsiyasining 35-moddasida «Sayyoramizni saqlab qolish, kishilar imkoniyatini ko‘tarish va umumfarovonlik yo‘lida totuvlikka erishishda bir bo‘lib harakat qilish majburiyatini olamiz», deb ta’kidlangan edi.

BRBSning yopilishiga bag‘ishlangan press-konferensiyada BMT Bosh kotibi Kofi Anan: «Yoxannesburg – bu Rio emas. Rioda berilgan va’dalar bajarilmadi, biroq umid qilamizki, qabul qilingan hujjatlar – barqaror rivojlanishni yuzaga chiqaradigan aniq faoliyat rejasidir. Bi-roq, menimcha, Sammitda qabul qilingan qarorlar deklarativ (ixtiyoriy) xarakterga ega, shuning uchun ham uning maqsadi va tashabbuslariga erishmoqlik hamma manfaatdor tomonlarning butun kuch va g‘ayratini ishga solmoqligi zarur. Qabul qilingan hujjatlar bo‘yicha yakuniy xulosalarni puxta tahlil qilish darkor. Reja va Deklaratsiyaning hayotiyligini vaqt ko‘rsatadi», – deb aytgan edi.

2010-yil 20–21-sentabr kunlari Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o‘z ma’ruzasi bilan ishtirok etgan BMT Bosh Assambleyasining **Mingyillik rivojlanish** maqsadlariga bag‘ishlangan Oliy darajadagi yalpi majlisining kun tartibida turgan bir qator masalalardan biri (1-rasmga qarang) barqaror rivojlanish g‘oyasini olg‘a surishda ekologik xavfsizlikni ta’minlash edi. Unda yurtboshimiz Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash uchun Orolbo‘yi va uning havzasida yuzaga kelgan ekologik muammo-larni hal qilishda mazkur hududdagi davlatlarning birlamchi masalalar turkumidan joy olishi lozimligini aytib o‘tdi.

7.2. Barqaror rivojlanish-mi yoki taraqqiyot-mi?

O‘zbek tilida **«barqaror»** degan so‘z (bar – forscha, qaror – arabcha) qaror topgan, qat’iy, uzil-kesil o‘rnashgan, ya’ni hech qanday o‘zgarish ta’sir etmaydi, doim birdek turadi degan ma’nolarni anglatadi. **«Barqarorlik»** esa turg‘unlik, mustahkamlik o‘zgarmaslik holati, demakdir¹. Umumlashtirgan tarzda barqaror so‘zini milliy miq-yosda tatbiq etadigan bo‘lsak – muayyan davlatning ma’lum bir sohada olib borayotgan siyosatining barqarorligi, deb tushunish mumkin. Le-kin ijtimoiy hayot doimo o‘zgaruvchan va moslashuvchan bo‘lmoqlikni talab etadi. Ayniqsa bu bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan ikkinchisi-ga o‘tayotgan davlatlar uchun juda xosdir.

Rus va ingliz tillarida **«Устойчивый»** va **«Sustainable»** – qat’iylik, ikkilanmaslik, tik turishlik², ya’ni biron-bir masalada qat’iy va ikkilanmasdan turish, degan ma’noni anglatadi. Mazkur so‘zning rus va ingliz tillardagi ma’nosiga deyarli mos tushadi.

¹ Барқарор. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – ЎзМЭДИН, 2006. 173-б.

² Устойчивый. С.И. Ожегов. Словарь русского языка. – М.: ОНИКС XXI век, 2004. С. 1101.

O‘zbek tilida «*rivojlanish*» yoki «*rivojlanmog*» – ravnaq topmoq, taraqqiy etmoq, o‘sмоq, yuksalmoq degan ma’nolarni anglatadi¹. Ilmiy lug‘atda *rivojlanish – materiya va ongning qaytarilmas, bir yo‘nalishdagi qonuniy o‘zgarishi, ularning universal xossasi*, deb tushuntirilgan. Rivojlanish natijasida obyekt tarkibining yangi sifat holati vujudga keladi. U tabiat, jamiyat va bilish tarixini tushuntirishning umumiy prinsipidir². K. Webster, M.A. Jevlakova, P.N. Kirillov, N.I. Koryakinalarning «От экологического образования к образованию для устойчивого развития» kitobining o‘zbekcha varianti «Ekologik ta’limdan barqaror rivojlanish ta’limi sari» deb tarjima qilingan. Chunki «развитие» so‘zining o‘zagi «развиваться», ya’ni rivojlna bormoq demakdir³.

O‘zbek tilida «*taraqqiyot*» degan so‘z arabchada yuksalish, olg‘a harakatlanish, rivojlanish, o’sish degan ma’nolarni anglatadi⁴. Taraqqiyot so‘zi rivojlanish so‘zining sinonimi, lekin aynan o‘zi emas. Taraqqiyot garchand ikki xil ma’noda qo’llanilsada, lekin u ko‘proq ruschada «прогресс»⁵ so‘ziga mos tushadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimovning «Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантия прогресса» (Т.: «O‘zbekiston», 1997) asarini o‘zbek tilidagi varianti «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va *taraqqiyot kafolatlari*» deb nomlangan. Agarda biz «Barqaror rivojlanish» so‘zlar birikmasini o‘zbek tilida «Barqaror taraqqiyot» desak ko‘p adashmagan bo‘lamiz. Lekin bir xil so‘z yoki so‘zlar birikmasini ikki xil ma’noda qo’llash fanda, ayniqsa ta’limda ko‘p chalkashliklarga va ikkilanishlarga olib kelishi mumkin⁶.

Yuqorida keltirilgan «Xelsinki–1975», «Rio–1992», «Yoxannesburg–2002» anjumanlarining barcha hujjalardida aks ettirilgan g‘oya aynan «*Barqaror rivojlanish*» deb nomlangan. Lekin bu qotib qolgan dogma emas. U zamon va makonga qarab shakllanib hamda takomillashib borishi tabiiy hol. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini qo‘lga kiritishda har jihatdan o‘zini oqlagan besh tamoyildan biri, – «Islohot-

¹ Ривожлан.мөқ. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. З-жилд. – ЎзМЭДИН, 2007. 382-6.

² Ривожланниш. Энциклопедик луғат. 2-том. Т.: ЎСЭБР, 1990. 136-6.

³ Развиваться. Русско-узбекский словарь. – II том. Т.: ЎСЭБР, 1984. С. 296.

⁴ Тарақиёт. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. З-жилд. – ЎзМЭДИН, 2007. 677-6.

⁵ Прогресс. Русско-узбекский словарь. – II том. Т.: ЎСЭБР, 1984. С. 238.

⁶ Заславский М.Н. Эрозиоведение. – М.: «Мысль», 1979. С. 17.

larni bosqichma-bosqich amalga oshirish, «shok terapiyasi»¹ deb atalmish turli usullardan voz kechish», – eslab o'tish joizdir. Zero ta'lim sohasi va, ayniqsa, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ham bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, yurtboshimiz aytmoqchi «Yangisini qurmasdan eskisini buzmaslik» kerak.

Biz, o'zbekistonliklar uchun, barqaror rivojlanish g'oyasini, yuqorida keltirilgan tarixiy tahlildan kelib chiqqan tarzda, «*Tabiat-jamiyat uyg'unligida barqaror rivojlanish*» g'oyasini ilgari surmoqchimiz. Unga yarasha tegishli konsepsiya, dastur, reja va standartlarni ishlab chiqqanimiz ma'quldir. Ta'lim va tarbiyani ham bundan mustasno etmagan tarzda «*Tabiat-jamiyat uyg'unligida barqaror rivojlanish*» deyish mumkin.

Barqaror rivojlanish tushunchasi turli adabiyotlarda turlicha berilgan. A.A.Azizov va N.G.Akishinalarning «Barqaror taraqqiyot ta'limi» (T.: 2008) kitobida uning uch turdag'i tushunchasi e'tirof qilningan:


Barqaror rivojlanish kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini ta'minlagan holda hozirgi ehtiyojlar qondiriladigan rivojlanishdir.

Barqaror rivojlanish yerdag'i hayotni ta'minlovchi, tizimlarni muhofaza qiluvchi va kuchaytiruvchi usullar bilan o'z turmush tarzlarini yaxshilashlari uchun barcha insonlarga imkon beruvchi dinamik jaryondir.

Barqaror rivojlanish atrof-muhit va jamiyat uchun xavfsiz hamda bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy o'sish va rivojlanishdir.

Umumlashtirilgan tarzda ushbu uch ko'rinishdagi tushunchalarini quyidagi universal ko'rinishda e'tirof etish mumkin. Barqaror rivojlanish – kelajak avlodning «rizqiga xuruj qilmagan» tarzda hozirgi zamon kishisining ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta'minlangan, ijtimoiy muhofazalangan va barqaror birlashgan munosib hayot tarzini ta'minlovchi jarayon. Chunki global, regional, milliy va mahalliy miqyosda barqaror rivojlanish uchun ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional muammolar bir paytning o'zida kompleks hal etilishi lozim (7.2.1-rasm). Aks holda ishsiz, qorni to'q bo'lman, salomatligi yo'q va yagona maqsad sari birlashmagan kishilar yoki ularning uyushmasi atrof-muhitni muhofaza qila olmaydilar va ekologik xavfsizlikka erisha olmaydilar.

¹ И. Каримов. Ўзбекистон 16 йиллик мустақил тараққиёт йили. – Т.: «Ўзбекистон», 2007. 6-6.



7.2.1-rasm. *Barqaror rivojlanish muammolari va ularni ishlash mexanizmi.*

Barqaror rivojlanish konsepsiysi esa bir maromda (stabil) rivojlangan davlatlar va butun dunyo hamjamiyatining xususiyat, mohiyat va tarkibiy qarashlar tizimi. Barqaror rivojlanish konsepsiysi ishlab chiqarish va iste'mol qilish, aholining o'sishi va ijtimoiy himoyasi o'rtasidagi muvozanatni rivojlangan va rivojlanish yo'lida turgan barcha davatlarda saqlashni hisobga oladi. Chunki Yer sayyorasidagi atrof-muhit holati ularning birgalikdagi harakat majmuasidir. Ekologik muammolarning yechimi biron-bir davlat (masalan, AQSH) yoki biron-bir davlatlar (masalan, «katta sakkizlik») faoliyatiga bevosita bog'liq emas ekan. Bu o'rinda yana bir bor Orol va Orolbo'yи muammosiga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasi 48, 50, 55-sessiyalari va Mingyillik Sammitidagi ma'rzasida aytib o'tilganidek, ushbu muammo nafaqat O'rtta Osiyo davlatlarining, balki butun dunyo hamjamiyatining «chuqur tabiiy dardidir», chunki Orol inqirozi kurrai zaminda ekologik xavfsizlikni keskinlatadi va shuning uchun ham global xarakterga ega. Prezidentimiz barcha davlat rahbarlarini, mahalliy va xalqaro tashkilotlarni Orol muammosini hal qilishga yordam berishga chaqirdi va aks holda ekologik inqiroz oqibatini oldini olish mumkin emasligini, ta'kidlab o'tdi.

Barqaror rivojlanish konsepsiysi, yuqorida keltirilgan atrof-muhitni muhofaza qilishga oid prinsip-qoidalar tufayli, xalqaro huquq talablariga to'la javob beradi, u jamiyat va tabiat uyg'unligini oshiradi. Ushbu ekologik prinsip-qoidalarga rioya qilish, shubhasiz, xalqaro hamjamiyatning hamkorligiga va bir maromda rivojlanishiga xizmat qiladi.

7.3. Barqaror rivojlanishning ekologik jihatlari

Shunday qilib, barqaror rivojlanishning mazmun va mohiyati – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan tarzda hozirgi zamon kishilik jamiyatini uzviy bog'langan ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotini bir me'yorda ta'minlashdir. U bevosita ekologik xususiyat kasb etadi. Chunki ushbu maqsadga erishish uchun avvalambor ma'lum bir ekotizimlar (tog', dengiz qirq'oqlarida, cho'l zonasida, kichik orollarda va h.k.)da kompleks ekologik tadqiqotlar orqali atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, turli o'zgargan ekotizimlarda esa ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish va rivojlantirish, tabiat-jamiyat munosabatlарining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xususiyatlarini inobatga olgan holda davriy o'zgarishlarni doimiy taraqqiyot sari yo'naltirish talab etiladi. Ko'rinib turibdiki, aynan ekologiya fanining obyekti doirasida – ekosferada, uning tadqiqot predmeti – ekotizimlarni muhofaza qilish, ularning resurslaridan oqilona foydalanish, buzilganlarini esa qaytadan tiklash bevosita barqaror rivojlantirish masalalaridan kelib chiqadi.

Biz barqaror rivojlanishni ekologiya fani nuqtayi nazaridan tahlil qilib chiqishga harakat qilamiz. Zero ekologiya – yashash makoni falsafasi ekan, falsafa esa masalaning tub mohiyatini anglatuvchi nazariy asosdir.

1992-yil BMTning maxsus konferensiyasida qabul qilingan Barqaror rivojlanish konsepsiyasida inson va tabiatning garmonik rivojlanishi uchun quyidagi ekologik qoidalar nazarda tutilgan:

✓ davlatlarning tabiiy resurslardan foydalanishda o'ziga xos ekologik vaziyatdan kelib chiqishi;

✓ barqaror rivojlanishda atrof-muhit muhofazasi taraqqiyot jarayonining bir qismi bo'lib hisoblanadi va undan ajralgan tarzda muhokama qilinmasligi kerak;

✓ rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotida turgan davlatlarda ekologik muammolarni birlamchi masalalar turkumiga kiritish lozim, shuning uchun ham ularda tabiiy resurslarni konservatsiya qiluvchi (saqlovchi) xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirmoq zarur;

✓ davlatlar yer ekotizimlarini saqlash, muhofaza qilish hamda uning tozaligi va butunligini tiklash maqsadida global miyosdag'i sherikchilik ruhida hamkorlik qilishlari lozim;

✓ har bir davlat atrof-muhit holati uchun javobgardir;

✓ rivojlangan mamlakatlar xalqaro doirada barqaror rivojlanishni ta'minlashda mas'uldirilar va ularning jamoasi Yer sayyorasi muhitiga

yetkazgan zararini ulardagi texnologik va moliyaviy resurslardan kelib chiqqan holdagi javobgarligini tan olmoqlari lozim;

✓ tabiiy resurslardan foydalanishni mo'tadillashtirish maqsadida davlatlar o'z demografik siyosatlarini muvofiqlashtirishlari zarur;

✓ ekologik muammolarni barcha manfaatdor fuqarolar ishtirokida va turli darajada (milliy miqyosda) har bir fuqaro atrof-muhitga tegishli bo'lgan ma'lumotlardan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lishlari, davlatlar esa bunday masalalarni hal etishda keng ma'lumotlar berish yo'llini rivojlanirishlari va qo'llab-quvvatlashlari kerak;

✓ ekologik zararlarni qoplashda sud orgali himoyalanish vositalarini qo'llash va ma'muriyat ishlarini ularda ko'rib chiqishni ta'minlashlari zarur;

✓ davlatlar atrof-muhit muhofazasiga doir qonun hujjatlariga, qat'iy o'rnatilgan ekologik me'yordarga (standartlarga) ega bo'imoqlari, xo'jalik faoliyatining maqsadi va ustuvorligi esa atrof-muhitni muhofaza qilish vazifalariga muvofiq kelishi kerak;

✓ atrof-muhit muhofazasiga yo'naltirilgan chegaralararo yoki global ekologik muammolarning yechish yo'llari xalqaro konsensus (murosa) ga asoslangan bo'lishi kerak;

✓ ekologik oqibatlarni baholash vakolatli milliy organlar tomonidan tasdiqlanishi kerak;

✓ davlatlar atrof-muhitga bo'lgan an'anaviy munosabatlarini tan olishlari, mahalliy aholi va uning jamoalarining tarixiy tajribasini ishlatmoqlari lozim va h.k.

Barqaror rivojlanish konsepsiysi yuqorida keltirilgan atrof-muhitni muhofaza qilishga oid prinsip-qoidalar ekologik prinsiplarga mos tushadi. U jamiat va tabiat uyg'unligini oshiradi. Ushbu ekologik prinsip-qoidalarga rioya qilish, shubhasiz, xalqaro hamjamiatning hamkorligiga va bir maromda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun barqaror rivojlanishning institutsional asosi. Ekologik muammolarni hal qilishning o'ziga xos xususiyati — hukumat, boshqaruv, xalqaro tashkilotlar va aholining barcha qatlamlari atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish va ularni birgalikda hal etishdadir. Atrof tabiiy muhitda hamma narsa o'zaro uzviy bog'langan, mahalliy ekotizimdagи salbiy jarayonlar yoki hodisalar regional ekotizimlarda aks etadi, ular o'z navbatida yig'ilib global ekotizimlar fojasiga aylanishi mumkin. Ekolog-olim N.F. Reymers (1992) «Atrofdagilarni xavfsizlantirmsadan turib, o'z uyingizning xavfsizligini ta'minlay olmaysiz», deb to'g'ri aytgan edi.

Stokholm, Rio-de-Janeyro, Yoxannesburgdagi Konferensiya va Sammitlarning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, butun insoniyatning ekologik xavfsizligini ta'minlashning yagona to'g'ri yo'li – atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida-gi faol xalqaro hamkorlikdir.

BMT hay'atining atrof-muhit bo'yicha ma'ruzasi (London, may 2002-y.) shuni ko'rsatdiki, Yer sayyorasida odamzod «ekologik chorraha»da turibdi va ushbu kesishuvdan chiqqan yo'llar quyidagi «manzillar»ga olib kelishi mumkin:

- bozor iqtisodiyoti qolgan barcha qadriyatlardan ustun turishligiga;
- maqsadlarga siyosiy vositalar orqali erishishga;
- ulkan tafovutlar dunyosiga;
- barqaror rivojlanishning ustunligiga.

Birinchi «manzilda» har bir individ, jamiyat va davlatning asosiy maqsadi – kuchli raqobat muhitida o'zining va, ayniqsa, birovlarning tabiiy resurslaridan foydalanish orqali maksimal darajada boyish, deb e'lon qilindi.

Ikkinchi «manzilda» har bir davlat o'z rivojlanish yo'lida o'z ekologik muammolarini hal qiladi, bu esa tabiat qonunlari va qonuniyatlarini inkor etishini ta'kidlaydi.

Uchinchi «manzilda» turli davlat boshqaruvi tizimlarining maqsadlari har xil yo'nalishidagi umumekologik, umumsiyosiy, umumijsitmoiy, umumiqtisodiy masalalarni hal qilish uchun imkoniyat bermaydi, deb aytib o'tilgan.

To'rtinchi «manzilda» ekologik va boshqa barcha muammolarning hal etilishi barcha davlatlarning barqaror rivojlanish konsepsiyasiga yondashishida, deb ta'kidlangan. Bu individ jamiyat va hamjamatiyating ekologik xavfsizligini ta'minlovchi insoniyat rivojlanishining yagona yo'lidi.

BMTning «XXI asr kun tartibi» I bo'lim 2.1-bandida: «Atrof-muhitni va rivojlanish muammolarini hal qilish uchun davlatlar sherikchilik munosabatlarining yangi shaklini yaratishga qaror qilishdi. Ushbu munosabat shakli millatlararo hamjamoalarning uzviy bog'langanligini hisobga olib barcha davlatlarda doimiy va konstruktiv muloqotni hamda samarali vaadolatli jahon iqtisodiyotini tashkil qilish zaruriyati barqaror rivojlanishda ustuvor masala bo'lishi kerak», deb yozilgan. Atrof-muhit muhofazasi borasidagi barqaror rivojlanish muammolarini hal qilish uchun xalqaro hamkorlikning dolzarb yo'nalishlari «BRBS qarorlarini bajarish rejasida berilgan.

Barqaror rivojlanish institutsional bazasining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat: BRBS vazifalarini bajarishga moyillikni mustahkamlash; iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash; «XXI asr kun tartibi»ni amalga oshirish; hamjihatlik, muvofiqlashtirish va nazoratni mustahkamlash; qonun ustuvorligi va davlat institutlarini qo'llab-quvvatlash; xalqaro tashkilotlarning ish faoliyati va samaradorligini parallelizm va qaytarilishlarni tizim doirasida va uning tashqarisida mandatlarni va nisbiy ustunlikni hisobga olgan holda cheklash yo'li bilan oshirish; «XXI asr kun tartibi»da aholining barcha qatlamlari ishtirokini kengaytirish hamda transparentlik va jamoaning keng ishtirokini rag'batlantirish; barcha darajadagi boshqaruva (mahalliy boshqaruvdan tortib to xalqarogacha) barqaror rivojlanish imkoniyatini ko'tarish.

Yuqorida sanab o'tilgan maqsad va vazifalarni amalda tatbiq etish uchun milliy, mintaqaviy va global miqyosda barqaror rivojlanishning ekoliya sohasidagi institutsional bazani yaratish orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan,

Xalqaro darajada:

- integratsiyalashni mustahkamlash, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida «XXI asr kun tartibi»ni va shu kabi xalqaro huquq normalarini qo'llab-quvvatlash;
- ekoliya bilan bog'liq bo'lgan xalqaro tashkilotlar faoliyatini to'la hisobga olishni ta'minlash;
- barqaror rivojlanishga erishish maqsadida, ayniqsa rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotidagi davlatlarda ekologik xavfsizligini ta'minlovchi dastur va rejalar ishlab chiqishni tartibga solish;
- milliy va mahalliy ekologik dastur va rejalarini amalda tatbiq qilishning iqtisodiy imkoniyatini beruvchi BMT, xalqaro moliyaviy muassasalar, global ekologik fond (GEF) va boshqa tashkilotlar doirasida hamkorlikni mustahkamlash;
- YUNEP tashkilotining 7-sessiyasida Boshqaruv Kengashi tomonidan qabul qilingan tabiiy resurslardan foydalanishni xalqaro tartibga solishga doir qarorini to'la amalga oshirish va mazkur masalani BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi sessiyasiga olib chiqish;
- ekoliya sohasidagi vazirlarni BMTning Boshqaruvchilar Kengashiga a'zo qilishga doir masalani ko'rib chiqish;
- BRBS tavsiyalariga muvofiq ravishda BMT Bosh Assambleyasi, uning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi, barqaror rivojlanish bo'yicha BMT hay'ati va xalqaro muassasalarining rolini oshirish.

Regional darajada:

- «XXI asr kun tartibi»ni regional komissiyalar, muassasalar va organlar orqali tafsiq etish;
- maxsus ekologik komissiyalarni (Markaziy Osiyoda mazkur vazifani Regional Ekologik Markaz – MO REM bajaradi) tashkil qilish; barqaror rivojlanish borasida regionlar darajasida muvofiqlashtirish va hamkorlikni yaxshilash hamda ularning faoliyatini xalqaro tashkilotlar faoliyati bilan uzviy bog'lash;
- ichki moddiy, moliyaviy va intellektual rezervlardan maksimal foydalanishga erishish, zaruriyat bo'lganda tashqaridan yordam olish;
- tajriba almashish yo'llini yengillashtirish va kengaytirishning regional munosabatlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, bu o'rinda ilg'or milliy ishslash usullaridan foydalanish, aniq bir tematik izlanishlar va partnyorlik tajribasiga doir ma'lumotlar va «XXI asr kun tartibi»dagi ekologik masalalar bilan bog'liq bo'lgan muayyan mavzudagi izlanishlarini ko'pchilikka yetkazish yo'lli bilan regional harakatlarni qo'llab-quvvatlash.

Milliy darajada:

- ekologik qonunchilik ustuvorligini ta'minlovchi siyosatni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan direktiv davlat organlari va mexanizmlarini yaratish yoki borini mustahkamlash;
- barqaror rivojlanish milliy strategiyasini ishlab chiqishda oldindagi qarab siljish uchun zudlik bilan harakat qilmoq va uning amalga oshirilishini 2005-yildan boshlamoq; barqaror rivojlanishning hamma muammolarini nazarda tutgan samarali ekologik qonunlar va qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini yaratish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha faoliyat yuritayotgan davlat organlarining transparentlik, hisobdorlik va adolatli faoliyatiga yordam berish yo'lli bilan ma'muriy va sud muassasalarining ishini mustahkamlash;
- barqaror rivojlanish vazifalarini bajarishda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan samarali foydalanishda davlat qonunlari, strategiyalari va dasturlariga oid ma'lumotlardan foydalanish huquqini oshirish yo'lli bilan xotin-qizlar, ilmiy xodimlarning keng jamoasi va yoshlarning faol ishtiropini ta'minlash;

- barqaror rivojlanish bo'yicha rejalarini (masalan, iqtisodiyotni ekologiyalashtirish yoki davlatning ijtimoiy hayotini ekologiyalashtirish) va dasturlarni amalga oshiruvchi milliy institutlarning harakatini hamma davatlarda va, ayniqsa, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotidagi davatlarda qo'llab-quvvatlash;
- mahalliy hukumat hamda manfaatdor kishilarning barqaror rivojlanishdagi milliy rejalar bo'yicha faoliyatini, rolini va imkoniyatlarini oshirish.

Barqaror rivojlanishning ekologik jihatlarini bajarilishi xalqaro tashkilotlar, davlatlar va jamoalar uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarning amalga oshishi, afsuski, xalqaro huquqning majburiy normasi hisoblanmaydi. Ular deklarativ xarakterga ega. Shuning uchun ham atrof-muhitni muhofaza qilishda institutsional munosabatlarning umumiyo yo'llarini izlash, bizning umumiy uyimiz – Yerni, sayyoramizni saqlab qolish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Barqaror rivojlanishning ekologik-iqtisodiy jihatlari. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy-texnik taraqqiyot keskin ravishda rivojana bordi. Bu esa, o'z navbatida, Yer sayyorasidagi 70% dan ortiq barcha tabiiy ekologik tizimlar buzilib ketishiga sabab bo'ldi. Yer kishilik jamiyatining hayotiy faoliyati chiqindilarini qayta ishslash qobiliyatiga ega bo'lsa ham, biosferaga ta'sir qilish darajasi hozirdanoq mumkin bo'lgan kattaliklardan bir necha barobar oshib ketgan. Bundan tashqari, kishilar atrof-muhitga uning tarkibida bo'limgan va qayta ishslashga yaroqsiz bo'lgan ming tonnalab sun'iy moddalarni ishlab chiqarmoqda. Atrof-muhitni «boshqaruvchisi» va «qayta ishlovchisi» bo'lgan tirik organizmlar mazkur funksiyani bajarishga qodir bo'lmay qoldi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, 30–50 yillardan so'ng tiklanmaydigan jarayonlar boshlanadi va ular XXI–XXII asrlar oraliq'ida global ekologik falokatga olib kelishi mumkin. Alovida xavotirli vaziyat Yevropa qit'asida yuzaga keladi. Chunki G'arbiy Yevropa o'zining tabiiy resurslarini asosiy qismini tamom qildi va o'zgalarnikidan foydalanishga o'tdi.

BMTning ma'lumotlari bo'yicha har yili Dunyo okeaniga 30 mlrd tonna neft mahsulotlari, 50 ming tonna pestitsidlar va 5 ming tonna simob tashlanadi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va oqova suvlarni tozalash muammolari alovida ahamiyat kasb etmoqda. Sanoatda juda ko'p miqdorda suv ishlataladi. Masalan, 1 tonna po'latni eritish uchun 200 m³, 1 tonna qog'oz ishlab chiqarish uchun 100 m³,

1 tonna sintetik ipak tayyorlash uchun esa 2500 dan 5000 m³ gacha suv sarf qilinadi.

BMTning ma'lumoti bo'yicha dunyo aholisining 1/4 qismi toza ichimlik suvdan foydalanish imkoniyatiga ega emas, qolgan 1/3 qismi esa sisatsiz suvdan foydalanishga majbur. Butun dunyo bo'yicha oqova suvlarning faqat 10% oldindan tozalanadi. Janubiy Amerika va Afrika davlatlarida esa bu ko'rsatkich faqat 2%, xolos. Bularning barchasi yer osti suvlari holatida aks etmoqda.

Yoqilg'ining yonishi natijasida har yili atmosferaga 20 mlrd tonna atrofida karbonat angidrid gazi tashlanmoqda. Gazlarning atmosferadagi miqdori sekin-asta ko'payib bormoqda, oxirgi 100 yil ichida bu ko'rsatkich 10% dan oshdi. Karbonat angidrid gazi kosmik fazoga issiqlikning tarqalishiga to'sqinlik qilmoqda, bu esa yer harorati isib ketishiga olib kelmoqda. Iqlimshunoslarning ma'lumotlari bo'yicha XXI asrning o'rtalariga borib u 2–5 gradusni tashkil etishi mumkin. Gazlarning atmosferaga chiqarilishi ultrabinafsha nurlardan yerning asosiy himoyachisi bo'lgan ozon qatlaming 9%ini yo'q qildi. «Ozon tuynigi»ning umumiy maydoni AQSH hududiga teng bo'lgan maydoni ishg'ol qildi.

Avtomobil transporti, elektrostansiylar, qora va rangli metallurgiya korxonalari, neft va gazni qayta ishlash, kimyo va o'rmon sanoatlari atmosfera havosini sezilarli darajada iflos qilmoqda. Atmosfera havosidagi zararli moddalarning katta qismi avtomobillardan chiqqan gazlar hisobiga to'g'ri kelib, ularning roli muntazam ravishda oshib bormoqda.

Ekologik muammolarning miqyosi haqidagi tessavvurlarga ega bo'lgan holda, uni keltirib chiqargan asosiy sababchilaridan bo'lmish iqtisodiy yuksalish darajasiga murojaat qilamiz. Iqtisodiy yuksalish va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi ziddiyat yaqqol ko'zga tashlanadi. Tadqiqotchilarning aksariyati ekologik muammolarni iqtisodiy sabablar bilan bog'lashga urinmoqdalar va bunda «jon» bor, albatta.

Barqaror rivojlanishning ekologik-ijtimoiy jihatlari. Barqaror rivojlanishning uchta asosiy jihatlari mavjud iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va atrof-muhit muhofazasi. Ularni bir-biridan ajratish yoki alohida baholash mumkin emas, chunki ular o'zaro uzviy bog'langan va bir-biridan kelib chiqadi. Har bir mamlakat, har bir xalqaro huquq subyekti barqaror rivojlanish muammolarini o'zining siyosiy, tarixiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlaridan ke-

lib chiqqan holda yechadi. Ammo ushbu uch tarkibiy qismning ilmiy asoslanganligi, ularning o'zaro tenglashtirilganligi va integratsiyalanganligi muhimdir.

Statistikada umumiy son yoki imperik yagona ko'rsatkich olish uchun ikki yoki ko'p omilli tahlil o'tkaziladi. Barqaror rivojlanish modeli yoki statistik ko'rsatkichni olish modelini yaratish murakkab masaladir. Shuning uchun ham biz uning ikki omilli sifat tahlilini berishga harakat qilamiz. Atrof-muhitga kambag'allik, qashshoqlik, aholining o'sish dinamikasi va uning faolligi yoki bilim darajasasi, iste'mol tuzilmasi, aholi zichligi kabi ijtimoiy ko'rsatkichlar ta'sir etishi sababli barqaror rivojlanishning *ijtimoiy jihatlarini* ko'rib chiqish maqsadga muvofiqidir. Qashshoqlik ham milliy, ham xalqaro xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur muammonning universal yechimi yo'q, u muayyan mamlakatga xos ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy va siyosiy sharoitlarga bog'liq. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda ushbu muammo yechimi borasidagi jarayonlar doimo amalga oshiriladi. Biroq, har bir davlatning qashshoqlikni tag-tomiri bilan yo'qotishga o'zining xohishi, irodasi, kuchi va intilishi bo'lmas ekan, hech bir tashqi omil uni bartaraf etishga qodir emas.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun insonlar manfaatini nazarda tutmoq muhim ahamiyatga ega. Buning boisi insonlar faolligi ishlab chiqarishni kengaytirishga olib boradi. Aks holda, u qashshoqlik muammosi yechimi nuqtayi nazardan ham, ekologiya sohasida uzoq hukm suradigan ijobjiy natijalarga erishish nuqtayi nazardan ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Keng qamrovli resurslardan ekstensiv foydalanish hisobiga ishlab chiqarishni kuchaytirish ertami, kechmi mehnat unumdarligining pasayishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida qashshoqlik masalasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham barqaror rivojlanishning assosiy shartlaridan biri – qashshoqlikka qarshi kurashishning aniq bir strategiyasini ishlab chiqishdan iborat.

BMTning atrof-muhit komissiyasi tavsiyalariga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy va ekologik muammolarini samarali hal etish strategiyasi o'ziga tabiiy resurslar, keng qamrovli resurslarga asoslangan ishlab chiqarish va insonlar bilan bog'liq jihatlarni qamrab olib bo'lishi kerak. Shu bilan birga, u demografik ko'rsatkichlar, ya'ni tibbiy xizmat ko'rsatish, maorif va ta'lif, xotin-qizlar huquqi, yoshlarining tutgan o'rni, mahalliy xalqlar aholisi, mahalliy jamoalar, jamiyatni demokratlashtirishda aholining ishtiroki, mukammal boshqaruv kabi-

larni ham o‘zida mujassamlashtirishi lozim. Ushbu omillar o‘sib borayotgan aholining turmush ta’mnotinini ifodalaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun barqaror rivojlanish normalari tegishli ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni beradi:

- yashash uchun zarur mablag‘ topishning barqaror asoslarini yaratish;
- adekvat hajmda mablag‘ bilan ta’minalashga qaratilgan siyosat va strategiyani amalga oshirish;
- tabiiy resurslardan foydalanish bo‘yicha mahalliy nazoratni kuchaytirish;
- nodavlat tashkilotlar va mahalliy bashqaruv organlarini davlat boshqaruviga keng miqyosda jalb qilish;
- yashash darajasi past bo‘lgan tumanlarni rivojlantirish, qashshoqlik muammolari keskinligini kamaytirish, ish bilan ta’minalash va foya olish imkoniyatini oshirish strategiyasi va dasturlarini ishlab chiqish;
- insoniy «kapital» rivojini asosan qishloq joylarda yo‘lga qo‘yish, shuningdek, ijtimoiy muhitoj aholi tabaqalarini budget mablag‘lari hisobidan ta’minalash rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Barqaror rivojlanishning me’yoriy hujjalarda ko‘proq e’tiborni energetika va transportga qaratish ko‘zda tutiladi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga binoan mamlakatlarning, ayniqsa, resurslarni qazib olish bilan bog‘liq iste’mol tuzilmasini o‘zgartirish uchun aholi talabi, asosiy ehtiyojini qondirish tuzilmasini o‘zgartirish, chegaralangan darajada resurslardan ishlab chiqarish jarayonida foydalanishni tashkil qilish va keraksiz surʼat-xarajatni keskin kamaytirish strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O‘tish iqtisodiyotida turgan har bir mamlakat o‘zining ijtimoiy va ekologik xususiyatlaridan kelib chiqqan, o‘z xalqining hayot tarzi va atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq muammolarni, shu jumladan, quyidagilarni hal etmog‘i kerak:

- o‘z kuchini xalqning kambag‘al qatlamlari iste’molining oqilona tuzilmasini shakllantirishga yo‘naltirish;
- xalqaro tashkilotlar bilan kelishgan holda ishlab chiqarish sohalari va iste’mol bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yaratish va uning imkoniyatlarini kuchaytirish tadbirlarini ko‘rish, shu bilan birga, mazkur sohani tahlil qilish usullarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish va iste’mol, iqtisodiy o’sish va demografik omil kabi ko‘rsatkichlarning atrof-muhit holati bilan bog‘liqligini, texnologik

kashfiyotlarga mavjud texnologiyalarning moslashuvi va boshqalarini aniqlash darkor.

BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha komissiya kotibiyati ta'rifiga ko'ra, iste'mol tuzilmasini o'zgartirish bilan bog'liq barcha tadbirlar qashshoqlik bilan kurashishga qaraganda ko'p sarf-xarajat talab etmaydi. Shuning uchun ham har bir mamlakat o'zining ichki moddiy imkoniyatidan kelib chiqib ish yuritmog'i kerak.

Nooqilona iste'mol tuzilmasini o'zgartirishga qaratilgan milliy siyosat va strategiyalarni ishlab chiqishda xalqaro tashkilotlar rivojlanayotgan mamlakatlarga uslubiy va ekologik ko'maklashadi. Ko'rsatiladigan yordam miqdori har bir mamlakatning aniq strategiyasi va dasturiga bog'liq. Iste'molni o'zgartirish milliy dasturlarida quyidagi masalalar o'z yechimini topmog'i lozim:

- tinch-totuvlikda (ayniqsa, alohida muhofazalanadigan tabiy hududlarda) yashash imkoniyatini yaratish bo'yicha ish o'rinalarini tashkil etish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofaza-siga keng ommani, jumladan, mahallalarni keng jalb qilish;
- qashshoqlik muammolarini tabiatdan ekstensiv foydalanishsiz hal etish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan ayollar, bolalar, qishloq aholisi va kambag'al fuqarolarni moddiy qo'llab-quvvatlash uchun budgetdan alohida mablag' ajratish.

Iste'mol tuzilmasini o'zgartirish bilan bog'liq tadbirlarning haqqoniyligi rivojlanayotgan mamlakatlardagi ekologik muammolarning keskinligi bilan belgilanadi.

Inson sog'ligini mustahkamlash va muhofaza qilish. Aholi salomatligining buzilishi, kambag'allik va demografik keskinlik bilan birga, barcha mamlakatlarda atrof-muhitning sanitarni holati yomonlashishi bilan bog'liq jiddiy muammolarga olib kelmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiysi bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar insonlarning sog'lig'ini yaxshilash borasidagi asosiy ehtiyojlarini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Chunki ular atrof-muhit muhofazasi, ta'lim masalalari, uy-joylar qurish, jamoa ishlarini tashkil etish va turli jamoa guruhlari (shu jumladan, tadbirkorlik, ta'lim muassasalari, diniy va fuqaroviylar tashkilotlar) faoliyati bilan chambarchas bog'langan. Asosiy e'tibor profilaktika, davolash va inson sog'lig'ini yaxshilashning terapevtik usullari bilan bog'liq dasturlarga qaratiladi. Buning uchun aholi salomatligini mustahkamlash va himoya qilish bo'yicha (davlat

organlarining, NNT va mahalliy jamoalar bilan birgalikda) dasturlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu faoliyat BMT qoshida Jahon Sog'liqni Saqlash (JSS) kabi xalqaro tashkilotlar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi, albatta. Bunday dasturlar o'z ichiga quyidagi masalalar ni qamrab olishi zarur:

- birlamchi tibbiy-sanitar xizmat (ayniqsa, ekologik holati tang bo'lgan tumanlarda) ko'rsatishga doir ehtiyojlarni qondirish;
- atrof tabiiy muhit ifloslanishi tufayli vujudga kelgan yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlaminu muhofaza qilish;
- antropogen o'zgargan shahar joylari va aholi shoxobchalari, qishloq joylari, sanoat tegralariga xos bo'lgan sog'liqni saqlash muammolarini hal etish;
- ifloslanish va atrof-muhitga xavfli ta'sir ko'rsatilishi bilan bog'liq bo'lgan sog'liqni yo'qotish ehtimolini kamaytirish.

Mamlakatlarga, ularning milliy hukumatlariga, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlariga BR konsepsiyada, xalqaro tashkilotlar hamkorligida quyidagi vazifalarni bajarishni tavsiya etadi:

- amaliy faoliyatga qodir, ilmiy asoslangan, ekologiya nuqtayi nazaridan maqbul ichimlik suvi, sifatli oziq-ovqat mahsulotlari va sanitariya xizmatini bajaradigan birlamchi tibbiy-sanitar xizmati tizimini ishlab chiqish va borini mustahkamlash;
- sog'liqni saqlash va tabiatni muhofaza qilish bo'limlari hamda mahalla ko'rinishidagi mahalliy jamoalar o'rtasidagi uzviy aloqa va hamkorlikni ta'minlovchi mexanizmlardan foydalanish va ularni mustahkamlashga ko'mak berish;
- atrof-muhit holatini nazarda tutgan holda qurilish va tibbiy-sanitar xizmatning samarali tizimini ishlab chiqish va yaratish;
- ekologik tang bo'lgan ma'muriy birliklarda ijtimoiy xizmat ko'rsatishning umumiy hajmini kengaytirish;
- yuzaga kelgan ekologik vaziyat bilan bog'liq ravishda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish strategiyasi va mablag' bilan ta'minlash yo'llarini ishlab chiqish;
- ta'lif litseylari, maktablar axborotlar almashinishi, ekologik sanitariya uchun kadrlar tayyorlashda texnik yordam ko'rsatadigan sanitarlarni tayyorlashga ko'maklashish;
- himoyasiz aholi qatlamlarining (nogironlar, nafaqaxo'rlar, bolar) tabiiy potensialini sog'lomlashtirish tizimiga keng miqyosda jalb qilish;

- atrof-muhitning sanitar holatini yaxshilashga mahalliy jamoa (mahalla)larni keng jalg etish mexanizmini joriy etish;
- atrof-muhitning sanitar holati va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlarni keng miqyosda o'tkazish.

Yuqorida bayon qilingan dasturiy amallarni tatbiq etish uchun barcha davlatlar 1993–2000-yillar oralig'ida rejalashtirilgan 40 mlrd o'rniiga 15 mlrd AQSH dollari sarf qilishgan, xolos. Mazzur masalada xalqaro yordam ham rivojlanayotgan mamlakatlarning aniq dasturi va strategiyalariga juda bog'liq. Aholi yashash joylarida, xususan, shahar suv ta'minoti va kanalizatsiyasining sanitar-epidemiologik holati buzilishidan ogoh qilish (oldini olish)da Jahon banki va uning xalqaro assotsiatsiya (MAR)si orqali xalqaro yordamni kuchaytirish va uning hajmini oshirish belgilangan. PROONning texnik hamkorligida aholi yashash joylarini sog'lomlashtirish uchun sarf qiladigan har bir dollar davlat va xususiy sektor orqali 120–130 AQSH dollari sarf bo'lismiga olib keladi. PROONning turlicha yordam ko'rsatish sohalari orasida bu eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Aholi yashash joylarini barqaror rivojlantirish maqsadida shaharlarda atrof-muhit muhofazasiga doir quyidagi dasturlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

- tabiiy obyektlardan kundalik yotog'i sifatida foydalanmasliklari uchun kishilarni zarur istiqomat joylari bilan ta'minlash;
- ekologik munosabatlarning boshqarilishini takomillashtirish;
- yashil o'simliklar maydoni bo'yicha sanitar normaga ko'ra har bir kishiga 25 m² dan kam bo'limgan shahar yer fondini rejalashtirish va ta'minlash;
- suv ta'minoti, sanitariya, kanalizatsiya chiqitlari va, ayniqsa, kundalik maishiy chiqindilarni joylashtirish, utilashtirish va qayta ishlashga doir kompleks infratuzilmasini yaratish;
- tabiiy ofatlar ko'p kuzatiladigan va tabiiy texnogen xarakterdagi o'zgarishlar bo'ladigan hududlarda aholi yashash joylarini rejalashtirish va boshqarish;
- loyihalash, qurish va foydalanishga topshirish bosqichlarini ekologik ekspertizadan o'tkazish, qurilish sektori faoliyatining barqaror ishlashini ta'minlash va boshqalar.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga binoan shaharlarning ekologik muammolarini hal etish uchun 1993–2000-yillarda 70 mlrd AQSH dollaridan ko'p mablag' sarflangan bo'lib, uning 15 foizidan ortig'ini uni-

versal xalqaro jamg‘armalarning subsidiyalari yoki imtiyozli kreditlari tashkil etgan.

Barqaror rivojlanish konsepsiysi amalga oshirilishida xalqaro, davlat va mahalliy boshqaruv masalalariga alohida o‘rin ajratilgan. Bunday dasturlar atrof-muhit holatining siyosat, rejalashtirish va boshqarish masalalarida hisobga olish uchun yo‘nalgan bo‘lishi zarur. Samarador huquqiy va me’yoriy asoslari yaratilishini hisobga olish, iqtisodiy mexanizmlar, bozor iqtisodiyoti va boshqa turdag‘i rag‘batlantirishdan samarali foydalanishga qaratilishi, ekologik va iqtisodiy omillarni hisobga oladigan kompleks tizimning yaratilishi bilan belgilanadi. Siyosat, rejalashtirish va boshqarish darajalarida atrof-muhit holatini hisobga olish deganda har bir kishi, jamiyat va hamjamoalarning ekologik manfaatlarni nazarda tutishi tushuniladi.

Har bir mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, «XXI asr kun tartibi»da atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha quyidagi tadbirlar tavsiya etiladi:

- iqtisodiy, sektorli va ekologik siyosat, strategiya va atrof-muhit holatini hisobga olishning ilg‘or rejalarini ta’minlash masalalarini sharhlash (tahlil etish);
- atrof-muhit holatini to‘la hisobga olish maqsadida qaror qabul qilish jarayonlarining barcha tashkiliy tuzilmalarini mustahkmalash;
- jismoniy shaxs, guruh va tashkilotlarni barcha holatlarda bir qarorga kelishlari maqsadida xizmat qiladigan mexanizmlarni ishlab chiqish va takomillashtirish;
- atrof-muhit holatini hisob oladigan ichki chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Samarali huquqiy va me’yoriy asoslarni atrof-muhit muhofazasi maqsadida barqaror rivojlanish konsepsiysi quyidagilarni rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tavsiya etadi:

- ekologik qonunchilik me’yorlari va qoidalariga oid axborotlarni keng yoyish;
- qayta tiklashga oid me’yorlarni rag‘batlantirish, shuningdek, ekologik qonunbuzarlarni jazolash, yetkazilgan zararlarni qoplash shart-sharoiti, usullari va mexanizmlarini yaratish;
- ekologik muammolarning globallik xarakterini inobatga olgan tarzda barqaror rivojlana olmaydigan mamlakatlarga yordam ko‘rsatish;
- milliy, mintaqaviy va mahalliy darajada zarur ekologik dastur va tadbirlar ishlab chiqishni rag‘batlantirish.

Iqtisodiy mexanizmlar, bozor iqtisodiyotiga xos va boshqa rag‘-batlantirishning samaradorligini ta‘minlash atrof-muhit muhofazasiga yo‘naltirilgan bo‘lishi bilan birga, «ifloslaydigan to‘laydi» yoki «tabiiy resurslardan foydalanuvchi to‘laydi» tamoyillariga asoslanadi. Bu kabi dasturlarni amalda joriy etishni ta‘minlash uchun har bir rivojlanayotgan mamlakat, o‘z sharoitidan kelib chiqib, uchta eng muhim vazifaning bajarilishiga erishmog‘i zarur:

- atrof-muhit muhofazasida ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar tomonidan qaror qabul qilish jarayonida, shuningdek, atrof-muhitga munosabat borasida, «tekin mahsulot» ma’nosida sarf-xarajatlarni hisobga olishni ta‘minlash va bu xarajatlarni jamiyatning boshqa tabaqasi, o‘zga mamlakat yoki kelajak avlodga yuklashga qaratilgan fikrlarning o‘zgarishini hisobga olish;
- iqtisodiy faoliyatda ekologik xarajat (chiqim)larni to‘la hisobga olmoq, boshqacha qilib aytganda, narx-navo belgilashda yetishmovchilik yoki resursning to‘la qiymatidan kelib chiqib atrof-muhitga yetkaziladigan zararning oldini olish;
- barqaror rivojlanish uchun ekologik siyosat yurgizishda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini qo’llash.

Ekologik va iqtisodiy omillarni kompleks hisobga olish tizimini barpo qilish deganda, odatda, barqaror rivojlanishning maqsadi va vazifalari yechimini topishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va xatti-harakatlarni birlashtirish, milliy hisob raqamlar tizimini mustahkamlash, ma'lumot va axborotlarni yig‘ish samarasini oshirish va baholash mexanizmini bunyod etish, o‘zaro texnik hamkorlikni kuchaytirish kabilar nazarda tutiladi. Ko‘rsatilgan maqsadlariga erishishda rivojlanayotgan mamlakatlarga xalqaro hamjamiyatdan ko‘rsatiladigan yordamning umumiy miqdori 2 mlrd AQSH dollarini tashkil qiladi.

7.4. Barqaror rivojlanishning geoekologik jihatlari

Hammamizga ma'lumki ekologiyadagi ayrim tadqiqotlar boshqa tur-dosh fandagi tadqiqotlarni qaytaradi yoki unga juda yaqin keladi. Bunday parallelizm «Geoekologiya» bilan «Umumiy ekologiya»da ham bor. Masalan: ekologik va geokologik monitoring, ekologik va geoekologik bashoratlash, ekologik va geoekologik nazorat kabi tadqiqotlar. Bunday tadqiqot metodlarini aniqlashtirib olishdan avval geoekologiyani mustaqil fan sifatida e’tirof qiladigan tomonlariga alohida to‘xtab o‘tishimiz zarur.

Birinchidan, ekologiyadan farqli **geoekologiyaning obyekti** bo'lib eko-sfera emas, geosfera hisoblanadi. Geoekologiyada yer yuzasiga bevosita ta'sir qiluvchi, endogen va ekzogen jarayonlar yuzaga keluvchi hamda organizmlarning nisbatan (chunki gidrosferaning eng chuqur qatlamlarida organizmlar unchalik faol emas) faol harakati sodir etiladigan qobig'i olinadi. Ushbu faol geografik qobiqni geotizim deb to'g'ri yuritildi. Shunday qilib geoekologik izlanishlar hech qachon ushbu geosfera doirasidan chiqib ketmaydi.

Ikkinchidan, **geoekologiya fanining predmeti**, ya'ni geotizimning qaysi bir jihatdan o'rganmoqchi ekanligi. Geoekologiya geografik ekologiya bo'lgani uchun ham u geografik qobiq doirasi tabiat va inson tizimida sodir bo'layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarning hududiyligi, davriyiliги va kompleksliligini tadqiq qiladi.

Geoekologiya faqatgina tabiiy yoki ijtimoiy geografiyaga xos yoki faqat yer yuzasining quruqlik qismini o'rganadi desak, mutlaq noto'g'ri bo'ladi. Chunki geografik qobiq yer yuzasining suv qismini ham, unda kechayotgan tabiiy, ijtimoiy, sotsial, iqtisodiy, huquqiy jarayon va hodisalarni ham inobatga olishi mumkin. Chunki barcha tabiiy va ijtimoiy hodisa va jarayonlar geografik qobiqdagi ekologik vaziyatga ta'sir etadi.

Uchinchidan, geoekologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishining yana bir talabi o'ziga xos o'rganish, izlanish va **tadqiq qilish metodlarining** bo'lishidadir. Bu metodlar boshqa tabiiy, gumanitar yoki ijtimoiy fan sohalarida ham bor. Lekin geoekologiya o'zining maqsadi, obyekti va predmetidan kelib chiqqan holda ularni ixtisoslashtiradi yoki umumlashtiradi. Geoekologik metodlarga biz geotizimlarda kechayotgan hodisa va jarayonlarni muayyan bir hududga bog'lay oladigan, davriy o'zgarishlarni inobatga oladigan va kompleks yondasha oladigan usullarni kiritishimiz mumkin, xolos.

Geoekologik metodlarga masofaviy hududiy kompleks kuzatish usuli (tabiat komplekslarini geoinformatsion tizimli – GIT (GIS) orqali tadqiq qilish va nazoratlash usuli); tabiiy geografik komplekslar bo'yicha yarim statsionar va statsionar tajriba (eksperiment) o'tkazish; landshaftlarda kechayotgan ekzogen va endogen jarayonlarni yoki undagi boshqa dinamik hodisalarni kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda modellashtirish va hokazo.

So'nggi yillarda geoekologik izlanishlar olib borishda kichik kosma (mikrokosma) – geotizimlarni sun'iy ravishda yaratish orqali tajriba o'tkazish metodidan keng foydalanilmoqda. Inson tomonidan yara-

tilayotgan sun'iy «Bios-6» (Rossiya Federatsiyasi) va «Biosfera-2» (AQSH) rusumli biokameralardan olingan ma'lumotlar juda qiziqarli xulosalarga olib kelmoqda.

Zamonaviy geoekologik usullardan yana biri geoekologik model-lashtirishdir. Model – organizmlar va atrof tabiiy muhit o'zgarishlarini matematik tarzda ifoda etish demakdir. Ushbu imitatsion metod juda katta jarayonlarni kichik muddatda informatsion texnologiyalarni qo'llash orqali sinab ko'rish imkoniyatini bermoqda. Geotizimlardagi voqeа, hodisa va jarayonlarni son jihatidan baholash metodlari (neyron shoxobchalar yoki ko'p omilli nazariy apparat dasturlari) geoekologik monitoringni olib borish va uning istiqbolli dasturlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

To'rtinchidan, geoekologik tadqiq qilish va izlanishlardan olin-gan natijalarni aniq bir *xalq xo'jaligi sohasiga* milliy, regional va glo-bal miqyosda tatbiq qilish ham zamonaviy fanlarga qo'yiladigan ta-lablardan biri hisoblaniladi. Chunki inson, jamiyat, davlat va xalqaro hamjamiatning asosiy maqsadi – farovonlikka erishish. Farovonlik-ning asosiy ko'rsatkichlaridan biri ekologik xavfsizlikdir. U nafaqat in-son farovonligi, balki milliy va xalqaro xavfsizlikning asosiy element-laridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov, «Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda kat-ta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir», deb bejiz aytmagan edi¹.

Beshinchidan, geoekologik baholash, nazoratlash va bashoratlash o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra umumekologik baholash, na-zoratlash va bashoratlashdan farq qiladi. Ushbu farq asosan uning obyekti va unda qo'llaniladigan usullardadir. Masalan, ekologik moni-toring kuzatuvini olib borish ko'lamiga ko'ra: mahalliy (lokal), mil-lyi, regional, mintaqaviy bo'lsa, geoekologik monitoring muayyan tabi-iy geografik komplekslarning geografik qobig'ida olib boriladi va unda yuqorida aytib o'tilgan geoekologik metodlar ko'proq qo'llaniladi.

Aniqlangan geografik qobiq doirasidagi tabiiy hududlarni ekologik ji-hattan kuzatib borish, hisobga olish, istiqbolini belgilash va ularga baho berishning turli xil metodlari mavjud. Masalan, an'anaviy (yer yuzasida turib geografik) kuzatish va aerokosmik (masofadan turib) kuzatish.

¹ И. Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: «Ўзбекистон», 1997. 112-б.

An'anaviy kuzatish — instrumental va vizual tarzda olib boriladi. Instrumental kuzatish geotizimlardagi barcha ekologik indikatorlar, ya'ni organizmlar va ularning atrof tabiiy muhitiga ta'sir etuvchi hodisa va jarayonlarni qayd etuvchi asbob-uskunalar orqali olib boriladi. Massalan, erozion jarayonlarni taxeometrik, geofizik va reperlarni ishlatish orqali o'lchab borish.

Kameral—dala—kameral izlanishlar orqali turli mashtabdagi kartalarda yuzaga kelgan geoekologik holatni aks ettirish. Vizual kuzatish esa marshrut-ekspeditsiyalarda yuzaga kelgan holatni muayyan geokartochkalarda qayd etish orqali olib boriladi.

Aerokosmik masofali geoekologik monitoring samolyot, vertolyot, kosmik apparatlardan olingan rasmlar asosida geografik komplekslarni yoki ularning komponentlari bo'yicha baholash, tahlil etish va tegishli chora-tadbirlarni tavsya qilish orqali amalga oshiriladi. Yuqorida nomlari tilga olingan metodlar yordamida ikki guruh geoekologik indikatorlar aniqlanadi. Birinchisi, geotizimlarga ta'sir etuvchi abiotik, biotik va antropogen omillarni aniqlash hamda ularning ta'sir kuchi, yo'nalishi, hajmi, maydoni kabi ma'lumotlarni yig'ish, ularni tahlil qilish. Ikkinchisi, tabiiy geografik komplekslar holatini baholash, tahlil qilish va tegishli optimallashtirish yo'llarini tavsya etish.

Odatda, lokal (mahalliy) va milliy monitoring davlatning vakolatlangan organlari tomonidan olib boriladi. Regional va global monitoring davlatlararo tuzilgan maxsus birlashmalar yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan olib boriladi. Bunday ekologik monitoring geomonitoringdan kengroq va chuqurroq qatlamni qamrab oladi. Lekin, ekologik monitoring geoekologik monitoringdan kelib chiqadi va biri ikkinchisini to'ldirib boradi.

Ekologik, jumladan geoekologik monitoring O'zbekistonda 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning XII bobi (Ekologik nazorat), 28-moddasida umumlash-tirilgan tarzda ifoda etilgan. Unga binoan O'zbekistonda monitoring tuzilishi, mazmuni va uni amalga oshirish tartibi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Geoekologik monitoring, davlat kadas-trilaridan farqli, nafaqat davlat organlari, balki nodavlat tashkilotlar, o'zini o'zi boshqaruv idoralari, ilmiy va o'quv muassasalari tomonidan ham olib borilishi mumkin. Lekin ularning ma'lumotlari va xulosalari faqatgina tavsya kuchiga ega bo'ladi, xolos.

Geoekologik monitoring ma'lumotlarning oshkoraliqi va keng om-maga e'lon qilinishi mumkinligi bilan boshqa nazorat turlaridan ajralib turadi. Geoekologik monitoring ma'lumotlari davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga bepul, yuridik va jismoniy shaxslarga esa muayyan haq evaziga beriladi. Chunki ekologik holatning buzilishi xalqaro hamjamiyat, davlatlar va davlatning ekologik xavfsizligini ta'minlovchi shoshilinch chora-tadbirlarni qo'llashga, huquqbuzarlarga nisbatan tegishli javobgarliklarni qo'llashga asos bo'la oladi. Shunday qilib, geo-ekologik monitoring ekologik monitoringning o'ziga xos va zarur bir qismi bo'lib, u tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilonona foydalanish va buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklashda ham ilmiy, ham amaliy asosdir.

Umuman olganda barqaror rivojlanishning geoekologik xususiyatlari to'liq o'rganilmagan zamonomamizning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblaniladi.

Barqaror rivojlanish g'oyasining hududiyligi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining maqsadi yagona, ya'ni tabiat boyliklariga nisbatan bugungi kun ehtiyojlarini qondirish kelajak avlod hisobiga bo'lib qolmasligi kerak, degan maqsad hamma xalqaro huquq subyektlari uchun bir. Lekin unga erishish yo'llari, ya'ni vazifalari turlicha bo'lishi muqarrar. Zero bu maqsadga yaqin turgan Shveysariya, Kanada, Norvegiya, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlar bor. Ularda «XXI asr kun tartibi»da ko'rsatilgan barqaror rivojlanish mazmunidagi – chet mamlakatlar, ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan uzviy hamkorlik aloqasini o'rnatish, qashshoqlikka qarshi kurash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholining ekologik ongi va madaniyatini shakllantirish, mahalliy aholining ehtiyojlarini inobatga olish va fuqarolik jamiyatini kuchaytirish kabi masalalar juda dolzarb muammo emas. Aksincha, Somali, Efiopiya, Nepal, Iraq, Afg'oniston kabi davlatlarda barqaror rivojlanishni ta'minlashda ayollarni keng jamoatchilik ishlariga jalb qilish, bolalar huquqlarini ta'minlash, xalqaro mintaqaviy aloqalarni yo'lga qo'yish masalasi juda dolzarbdir. Shuning uchun ham «Barqaror rivojlanish» g'oyasining maqsadini saqlab qolgan tarzda uning mazmun va mohiyatini real hududiy imkoniyat va sharoitga qarab shakllantirish, ya'ni kishilik faoliyatining barcha jihatlarini bir me'yorda rivojlanishga mintaqqa, mamlakat va hattoki, mahalliy miqyosda individual yondashish ayni muddaodir.

Barqaror rivojlanish g'oyasining davriyiliqi. Yuqorida keltirilgan 1-rasmdagi atrof-muhit va barqaror rivojlanish konsepsiyasini yaratilish

tarixiga jiddiy ravishda nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tkazilgan anjumanlar nomi, qabul qilingan qarorlar va ularni amalga oshirish mexanizmi, hattoki ishtirokchilari ham zamonga qarab o'zgarib borgan. Bu esa barqaror rivojlanish g'oyasining davriyigini bildiradi. Agarda 1970-yil «Rim klub» a'zolarini xavotirga solayotgan global muammo aholining iste'mol tovarlariga nisbatan tez suratlarda o'sayotganligi va shu munosabat bilan «O'sish chegarasini» o'rnatishga qaratilgan bo'lsa, 2 yil o'tar-o'tmas bu muammo global miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasiga aylandi. 20 yildan so'ng «Atrof-muhit va rivojlanish» g'oyasi tabiat va jamiyat birligini anglatadi. «Rio+10» anjuman esa atrof-muhitni muhofaza qilish g'oyasidan uzoqlashib «Barqaror rivojlanish» g'oyasini ilgari surdi.

Barqaror rivojlanish g'oyasining tizimliligi. Tizim (o'zbek tilida) yoki sistema (grek tilida) yagona bir ma'noni anglatib, u narsa, hodisa, jarayon, voqelikni muayyan bir maqsadlariga qarab qismlarga ajratish va ularni ierarxik pog'onaga joylashtirilgan bir butunlik demakdir. Barqaror rivojlanish g'oyasining tizimliligi, uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat ekanligi va ushbu qismlarni amalga tatbiq etishning birlamchiligiga yoki muammoning qaysi bir jihat real sharoitda qanday ahamiyat kasb etishiga qarab muayyan bir ketma-ketlikda joylashtirish. Massalan, barqaror rivojlanishda uch asosiy masala, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik qismlarning bir butunligi aks ettirilgan. Lekin endigina mustaqil rivojlanish yo'liga o'tib olgan barcha mamlakatlar uchun iqtisodiyotning birlamchiligi, ya'ni iqtisodning siyosatdan ustuvorlik tamoyili, to'g'rirog'i prinsipi amal qiladi. Shuning uchun ham ular: iqtisodiyot → ijtimoiy hayot → ekologiya masalalari ketma-ketligida turadi. Kanada, Shveysariya, Germaniya kabi mamlakatlarning barqaror rivojlanishida ekologiya → ijtimoiy hayot → iqtisodiyot tizimi amal qiladi. Shu tariqa barqaror rivojlanish g'oyasi, real sharoitdan kelib chiqqan tarzda, bir qator qismlarga ajratiladi va u barqaror rivojlanish talablariga qarab zi'nasimon ierarxiyada joylashtiriladi.

Barqaror rivojlanish g'oyasining majmualiligi. Majmualilik tizimliyidan farqli ravishda, barqaror rivojlanish tarkibiy qismlarining tengligi bilan ajaralib turadi. Inson faoliyatining barcha jihatlarida barqaror rivojlanish darajasiga erishgan mamlakatlarda iqtisodiyot = ijtimoiy hayot = ekologiya masalalarining tengligi, ajralmasligi va bir butunligi aks etadi. Bunday holatda barqaror rivojlanishning barcha masalalari bir paytning o'zida, birini ikkinchisidan ustuvor darajaga qo'yмаган tarzda (ierarxik pog'onaga joylashtirmsadan) amalga oshiriladi.

Barqaror rivojlanishning hududiyligi, davriyiligi, tizimliligi, majmualiligidan kelib chiqqan holda biz shuni aytishimiz mumkinki, *barqaror rivojlanish g'oyasi yagona, lekin uni amalga tatbiq qilish mexanizmi turlichadir*. Har bir mintaqa, mamlakat va hattoki, mahalliy jamaoa yuzaga kelgan real sharoitni barqaror rivojlanish talablariga nisbatan son va sifat jihatidan baholab o'ziga xos yo'lni tanlab olishi zarur. Uni bir mamlakatdan ikkinchi bir mamlakatga yoki mahallaga ko'chirib olib o'tish mantiqan to'g'ri emas. O'zbekiston ham bundan istisno emas, albatta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yil 20-sentabr BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan Oliy darajadagi yalpi majlisidagi ma'rurasida «...taraqqiyotni jadallashtirishga oid global harakatlar rejasini qo'llab-quvvatlaydi va uni amalga oshirishda faol ishtirot etadi», deb ta'kidlagan edi. Shundan kelib chiqqan tarzda O'zbekiston Respublikasining Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining 2011-yil 19-iyulda 305-sonli «O'zbekiston Respublikasining barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta'lim (BTT) konsepsiysi to'g'risida» qo'shma qarori qabul qilindi. Ushbu qaror BMT Bosh Assambleyasining «2005–2014-yillarda Barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligi to'g'risidagi» rezolutsiyasi va BMT Yevropa Iqtisodiyot komissiyasining BTT bo'yicha Strategiya-si asosida ishlab chiqildi.

Barqaror rivojlanish qoidalariga rioya etish 2010-yil 12-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida, Oliy Majlisning 2011-yil 26-martdag'i 181-II sonli hamda Vazirlar Mahkamasining «2008–2012-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to'g'risida»gi 212-sonli qarorlarida ham aks ettirilgan. Lekin barqaror rivojlanish nima? Rivojlanish-mi, yoki taraqqiyot-mi? Uning tushunchasi, mazmuni va mohiyati nimalardan iborat? O'zbekiston uchun u qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi, kabi o'rinali savollarga hanuzgacha aniq javob topa olinmayapti. Bunga O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan 2011-yil 14-dekabrda o'tkazilgan «O'zbekiston Respublikasining Barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta'lim Konsepsiysi: reja va istiqbollar» mavzusida o'tkazilgan davra suhbati ham yaqqol misol bo'la oladi. Unda davlat hokimiyati va boshqaruva organlari, nodavlat tashkilotlaridan kelgan mutaxassislar, tegishli yo'nalishda

faoliyat yuritayotgan olimlar ham yagona bir fikrga kela olmadilar. Shuning uchun ham biz barqaror rivojlanish konsepsiyasining kelib chiqishi, rivojlanishi, hozirgi holati va kelajak istiqbollariga barcha ning e'tiborini tortmoqchimiz.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Barqaror rivojlanishmi yoki barqaror taraqqiyot?
2. Barqaror rivojlanish mazmuni nimadan iborat?
3. Nima uchun barqaror rivojlanishni G.X. Bruntland konsepsiya-si deb ataladi?
4. Barqaror rivojlanishning ekologik jihatlarini sanab o'ting.
5. Barqaror rivojlanish g'oyasi qachon yuzaga keldi?
6. Ekologik mummolarni qanday muammolar bilan birlgilikda hal etish lozim?
7. Atrof-muhit muhofazasi so'zi xalqaro anjumanlar tarixida nima uchun ishlatilmaydigan bo'ldi?
8. O'zbekiston Respublikasining BTT uchun konsepsiyasining maz-munini aytib bering.
9. Barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihat-larini aytib bering.
10. Barqaror rivojlanishning geoekologik jihatlarini tushuntirib be-ring.

8-bob. AMALIY EKOLOGIYANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

8.1. Amaliy ekologiyaning ilmiy asoslari

Yuqorida ta’kidlanganidek XXI asrga kelib ekologiya mustaqil fan, ta’lim va amaliyot sohasi bo’lib keldi. Aksariyat yangi fanlardan farqli ravishda ekologiyaning nazariy qismiga nisbatan amaliy qismi tez suratlarda rivojlanib ketdi. Chunki, atrof-muhit holati jadal suratlarda buzilib ketishi insoniyatdan fanga va ta’limga qaramasdan uning amaliy jihatlarini rivojlantirishga majbur etdi. Natijada ekologik fan va ta’lim amaliyotdan ancha orqada qolib ketdi. Bunga hanuzgacha ekologiyaning nazariy asoslari yaratilmaganligi, ekologik ta’limning sobiq Ittifoq respublikalarida bor-yo‘g‘i 15–20 yillik tarixga ega ekanligi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Amaliy ekologiyaga oid o‘quv standartlari, dastur va adabiyotlari da («Ekologiya va tabiatdan foydalanish», «Ekologiya» (fan va ta’lim) yo‘nalishi I bosqich magistrлari uchun amaliy ekologiya o‘quv kursidan Davlat standartlari va namunaviy o‘quv dasturlari, 2008, 2011) amaliy ekologiyaga turlicha yondashilgan.

O‘zbekcha-ruscha-inglizcha ekologik izohli lug‘atda (Toshkent. «Chinor ENK», 2004) «Amaliy ekologiya»ga izoh umuman berilmagan. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida (Toshkent. O‘ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2000, 1-jild, 253–258-b.) agroelektronika, astronomiya, bezak san’ati, geografiya, geometriya, grafika, amaliy san’at fanlariga izoh berilgan-u, lekin zamonamizning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan «Amaliy ekologiya» haqida hech narsa aytilmagan. Xuddi shunday holat sobiq SSSR paytida chop etilgan ensiklopediyalarda ham bor.

Garchand XX asrning 70-yillarida yoq «Amaliy ekologiya» haqida bir qator kitoblarning chop etilishi nima uchundir undan keyin yaratilgan sobiq Ittifoq lug‘atlarida aks etmay qolgan. Masalan, Amerikalik olim Y. Odumning «Fundamental ekologiya» (Filadelfiya-London-Toronto, 1971) o‘quv adabiyotining uchinchi to‘ldirilgan nashri 3-qismini aynan «Ekologiyaning amaliy va texnologik jihatlari»ga bag‘ishlagan edi. Y. Odumning ta’kidlashicha (519-b.), ushbu kitobning 1959-yilda chop etilgan ikkinchi nashridan farqli ravishda «Amaliy ekologiya» popula-

tsialarni muhofaza qilishdan ekotizimlarni muhofaza qilish darajasiga ko‘tarilganligini uqtiradi. U endilikda «Amaliy ekologiya»da organizmlarni muhofaza qilish kabi biologik yondashuvdan, ekotizimlarni muhofaza qilish kabi ekologik yondashuvni ma‘qul deb bildi. Garchand hanuzgacha O‘zbekistonda chop etilayotgan barcha adabiyotlarda «Amaliy ekologiya»ga biologik va geografik yondashuv saqlanib qolningan.

Y.Odumning «Amaliy ekologiya»ning ekotizimli yondashuvini qo‘llab-quvvatlagan tarzda buyuk rus ekolog olimi N.F. Reymersning «Tabiatshunoslik» izohli lug‘atida (1990) «Amaliy ekologiya» — turli ierarxik bosqichdagi ekotizimlarni boshqarish shakli, ularga tushadigan yuk sig‘imi, tabiiy resurslardan foydalanish normalarini ishlab chiqish va xo‘jalik sohalarini «ekologiyalashtirish», degan tushunchani beradi. Umumiylar esa «Amaliy ekologiya» — inson tomonidan biosferani buzish mexanizmini tatqiq qilish, ushbu salbiy jarayonni, organizmlarning yashash muhitini deklaratsiya qilmasdan turib bartaraf etish yo‘llari va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish prinsiplarini ishlab chiqish. Amaliy ekologiya, ekologiya va tabiatdan foydalanish qonunlari, qoidalari va prinsiplariga asoslanadi, deydi.

Bizningcha ham «Amaliy ekologiya»ga ekotizimlar nuqtayi nazardan yondashish vaqt yetdi. Zero ekologiyani boshqa fanlardan farqli ravishda tadqiq qilish obyekti ekotizimlardir. Shunday qilib «Amaliy ekologiya» — ekotizimlarni muhofaza qilish, ularning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, buzilgan ekotizimlarni qayta tiklashga oid kishilik jamiyatni faoliyatidir. Ushbu faoliyatni olib borish uchun esa «Amaliy ekologiya» ekotizimlarni real muhofazalayotganligi, ulardan real foydalanilayotganligi va ularni qayta tiklanayotganligi to‘g‘risidagi holatni bilish talab etiladi. Aks holda amaliy ekologik ishlar noekologik tadbirlarga aylanib ketishi mumkin. Ushbu pustulatni, ya’ni qoidani inobatga olgan tarzda biz *«Amaliy ekologiya» — ekotizimlarning real holatidan kelib chiqqan tarzda tabiiy ekotizimlarni muhofaza qilish va buzilganlarini qayta tiklash, ularning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanishga oid kishilik jamiyatining amaliy faoliyatini deb tushunamiz.*

Amaliy ekologiyaning maqsadi, uning tushunchasidan kelib chiqqan tarzda, iqtisodiyotning turli sohalarida va turli miqyosda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash uchun tabiiy ekotizimlarni muhofaza qilish va buzilganlarini qayta tiklash, ularning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish.

Amaliy ekologiyaning vazifalari uning maqsadidan kelib chiqqan tarzda quyidagilardan iborat:

✓ ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish;

- ✓ ekotizimlarning amaliy jihatlariga oid milliy normativ hujjatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish;
- ✓ amaliy ekologik boshqaruv tizimini zamon talabiga mos ravishda takomillashtirib borish;
- ✓ ekotizimlarning real holatini son va sifat jihatidan baholash;
- ✓ ekotizimlar doirasida davlat kadastr obyektlarini aniqlash va ularni o'tkazish;
- ✓ ekotizimlarning amaliy jihatdan monitoringini olib borish;
- ✓ ekotizimlardan amaliy jihatdan foydalanish, muhofazalash va qayta tiklashni ekspertizalash va auditlash;
- ✓ amaliy ekologik tadbirlarni o'z muddatida bajarganlarni rag'batlantirish va ularni olib bormaganlarni vaqtida javobgarlikka tortish;
- ✓ turli iqtisodiyot sohalarida amaliy ekologik tadbirlarni ishlab chiqish va ularni doimo takomillashtirib borish va h.k.

Amaliy ekologiyaning tadqiqot obyekti – turli ierarxik pog'onalarda turuvchi iqtisodiyot tarmoqlaridagi ekotizimlar.

Ekoatmosferada:

- ✓ quyi troposfera ekotizimlari (50–100 m balandlikda);
- ✓ o'rta troposfera ekotizimlari (50–100 dan to 1,0–1,5 km gacha balandlikda);
- ✓ yuqori troposfera ekotizimlari (1–1,5 km dan to 10–17 km gacha);
- ✓ tropopauza ekotizimlari (1–11 km qalinlikda);
- ✓ quyi stratosfera ekotizimlari (10–17 km dan to 12–20 km gacha);
- ✓ o'rta stratosfera ekotizimlari (12–20 km dan to 40–55 km gacha).

Yer yuzasiga yaqin qatlam bo'lgan quyi troposfera qatlamida issiqlikning turbulent oqimlari, suv bug'i va turbulent ishqalanish o'zgarmas deb hisoblanadi.

O'rta stratosfera ekotizimlari ozon qatlaming yuqori chegarasi ga boradi. Unda organizmlarning yashash muddati vaqtinchalik davriy ko'rinishga ega. Stratosferadagi havo siyrak massasining vertikal-turbulent harakatlari natijasida quyosh ultrabinafsha nurlarining tushishi natijasida yo'q bo'lib ketadi. Lekin vaqtinchalik bo'lsada ozon qatlami ushbu organizmlar uchun yashash muhitini bo'lgani uchun ham ekosferaning yuqori chegarasi aynan o'rta stratosfera qatlamigacha ko'tariladi.

Gidrosferada:

- ✓ dengiz ekotizimlari;
- ✓ daryo ekotizimlari;
- ✓ ko'l ekotizimlari;

- ✓ botqoq ekotizimlari;
- ✓ muzlik ekotizimlari;
- ✓ doimiy qor qatlami ekotizimlari;
- ✓ buloq ekotizimlari va h.k.

Pedosferada:

- ✓ tabiiy shakllangan bo'z tuproq ekotizimlari;
- ✓ madaniylashgan tuproq ekotizimlari;

Ekolitosferada:

- ✓ yer osti suvlari ekotizimlari;
- ✓ g'orlar ekotizimlari;
- ✓ to'rtlamchi davr yotqiziqlari ekotizimlari;
- ✓ uchlamchi davr yotqiziqlari ekotizimlari metamorfik yotqiziqlar ekotizimlari va h.k.

Amaliy ekologiyaning o'r ganish predmeti – turli ierarxik pog'onalarda turuvchi va iqtisodiyot tarmoqlaridagi ekotizimlarni muhofaza qilish, ular dan oqilona foydalanish va buzilganlarini qayta tiklash.

Amaliy ekologiyaning prinsiplari – turli ierarxik pog'onalarda turuvchi va iqtisodiyot tarmoqlaridagi ekotizimlarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va buzilganlarini qayta tiklashga oid yo'naltiruvchi qoidalalar. Ular quydagilardan iborat:

- ✓ Yer planetasi organizmlar, jumladan insonlar uchun yagona ma-kondir;
- ✓ ekotizimlarga ta'sir etmaydigan kishilik jamiyatining faoliyat tu-ri yo'qdir;
- ✓ kishilik faoliyati ekotizimlarga nafaqat salbiy, balki ijobjiy ta'sir etishi ham mumkin;
- ✓ atrof tabiiy muhit sening uyingdir;
- ✓ jadal suratlarda iqlim o'zgarishi inson faoliyati natijasidir;
- ✓ ekologiyalashtirilgan tadbirlar iqtisodiylashtirilgandir;
- ✓ sen va oilang salomatligi ekotizimlar holatiga to'g'ri propor-sionaldir;
- ✓ sog'lom tabiiy muhit salomatlik garovi;
- ✓ uglevodorod yer osti va usti resurslari cheklangandir;
- ✓ muqobil energiya kelajak zaminidir;
- ✓ ekologik muammolarning yechimi barqaror rivoshlanish qoi-dalaridadir;
- ✓ ekologiyalashtirilmagan siyosat diplomatik ko'rinish ololmaydi;
- ✓ harbiy mojarolar va to'qnashuvlar ekologiyalashmaydi;
- ✓ ekologik ong, bilim va madaniyat birligi;

- ✓ oila ekologik madaniyat o‘chog‘idir;
- ✓ huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati ekologik munosabat shaklini yuzaga keltiradi;
- ✓ ekologik chora-tadbirlar ma’muriy birliklar doirasida emas, balki ekotizimlar doirasida samaraliroqdir;
- ✓ mahalliy ekologik boshqaruв vakolati zaruriy holatdir;
- ✓ ekotizimlardagi holat, jarayon va hodisalar o‘zaro uzviy bog‘langandir;
- ✓ tabiiy ekotizim komponentlari o‘rtasidagi muvozanat uzoq mudattli evolutsion jarayon natijasidir;
- ✓ o‘ziga xos, noyob, nozik va yo‘qolib ketayotgan tabiiy ekotizimlar alohida muhofazaga muhtojdir;
- ✓ hamma ekotizim komponentlari ham tiklanavermaydi;
- ✓ biologik resusrlar nafaqat tur, balki xil jihatdan ham saqlanishi lozim;
- ✓ umume’tirof etilgan xalqaro ekologiya huquqi me’yorlari milliy miqyosda aks etsagina o‘z kuchiga ega bo‘ladi.

Amaliy ekoliya tizimi – amaliy ekologik yo‘nalishlarni qismlarga ajratish va ularni muayyan ierarxik pog‘onalarga joylashtirish.

Amaliy ekoliyaga doir tadqiqot yo‘nalishlarini qismlarga ajratish uni tasniflashdan boshlanadi. Tasniflashning asosiy belgilari bo‘lib, uning tushunchasidan kelib chiqqan tarzda, birinchi galda ekotizimlarning ierarxik pog‘onasi hisoblanadi. Tasniflashda ekoliyaning tadqiqot obyekti bo‘lmish organizmlarning yashash muhiti – ekotizimlarning turli hudud, makon va akvatoriyalarda tizimlashgan holatlari unga asos bo‘la oladi. Bunday obyekt bo‘lib, yuqoridagi ilmiy-nazariy asoslardan kelib chiqib, iqtisodiyot tarmoqlaridagi turli darajada o‘zgargan ekotizimlar hisoblanadi. Tadqiqot predmeti bo‘lib esa ushbu sohalarda yuzaga keladigan ijtimoiy ekologik munosabatlardir.

Iqtisodiyot tarmoqlariga qarab ekologik fanlarning tasniflanishi:

- ✓ sanoatda – Sanoat ekoliyasi
- ✓ qishloq xo‘jaligida – Agroekologiya
- ✓ transportda – Transport ekoliyasi
- ✓ mudofaa ishlari va harbiy sanoatda – Harbiy ekologiya
- ✓ aholi punktlarida – Shahar ekoliyasi
- ✓ arxitektura va qurilishda – Qurilish ekoliyasi
- ✓ aloqa va yo‘l qurilishida – Kommunikatsion ekologiya
- ✓ o‘rmon xo‘jaligi va alohida muhofaza etiladigan hududlarda – Bioekologiya

- ✓ tuproqshunoslikda — Pedoekologiya
- ✓ fanda — Ekologiya nazariyasi
- ✓ huquqda — Ekologiya huquqi
- ✓ siyosatda — Ekologik siyosat
- ✓ ta'lim va tarbiyada — Ekologik tarbiya va madaniyat va h.k.

Ushbu iqtisodiyot tarmoqlarini qaysi bir yer sferasidagi ekotizimlarga ta'sir etishi mumkinligiga qarab quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) kompleks miqyosda barcha sferalardagi ekotizimlarga ta'sir etuvchi amaliy ekologik faoliyat;
- 2) trio miqyosdagi ekosferalarga ta'sir etuvchi amaliy ekologik faoliyat;
- 3) dio miqyosdagi ekosferalarga ta'sir etuvchi amaliy ekologik faoliyat;
- 4) mono miqyosdagi ekosferalarga ta'sir etuvchi amaliy ekologik faoliyat.

Iqtisodiyot tarmoqlarining ta'sir etishiga ko'ra kishilik jamiyatining amaliy ekologik faoliyatini quyidagicha tasniflash tavsiya etiladi:

- ✓ lokal miqyosda ta'sir etuvchi amaliy ekologik faoliyat;
- ✓ regional miqyosda ta'sir etuvchi amaliy ekologik faoliyat;
- ✓ global miqyosda ta'sir etuvchi amaliy ekologik faoliyat.

Yuqorida keltirilgan har ikkala tasniflashda ularning barchasi ekotizimlarning o'zaro uzviy bog'langan prinsipidan kelib chiqqan holda doimo o'zaro ta'sir doirasida turadi. Bu o'rinda amaliy ekologiyaning «Global miqyosda o'yash, regional miqyosda kelishish, lokal miqyosda esa harakat qilish» shiori juda katta ahamiyat kasb etadi. Har qanday lokal amaliy ekologik faoliyat, xoh u ijobjiy yoki salbiy ko'inishda bo'lmasin, u regional miqyosga va oxir oqibatda global ahamiyat kasb etishi mumkin.

8.2. Ekotizimlarni muhofaza qilish va qayta tiklash hamda ulardan oqilona foydalanish

Amaliy ekologiyada ekologiyaning uch tadqiqot predmeti — ekotizimlarni muhofazalash, ulardan foydalanish va buzilganlarini qayta tiklash jarayoni inobatga olinadi:

Ekotizimlarni muhofaza qilish — turli ierarxik pog'onadagi ekotizimlarni saqlash va ularda ekologik xavfsizlik darajasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui, to'g'rirog'i tizimi. Zero, mazkur chora-tadbirlarni muayyan ketma-ketlikda olib borish kerakdir.

Ekotizimlardan oqilona foydalanish — ekotizimlarning foydali xususiyatidan inson faoliyatida ilmiy asoslangan darajada foydalanishga oid chora-tadbirlar tizimi.

Buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash — tabiiy va texnogen xarakterdagi jarayon va hodisalar natijasida buzilgan ekotizimlarda modda va energiya almashinuvining tabiiy holatiga olib kelishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.

O'zbekistonda atrof-muhitning asosiy komponentlari, ya'ni organizmlarning hayotini belgilaydigan omillar — atmosfera havosi, suv, yer va o'rmon resurslari, hayvonot va o'simlik dunyosi hisoblanadi. Hozirgi kunda vatanimizning 27% hududida atrof-muhit holati ekologik talablarga to'liq javob beradi. Ekologik noqulay vaziyat Respublikamizning barcha viloyatlarda mavjud. Shuning uchun ham «Rio—92» va «Yoxannesburg—02» xalqaro anjuman hujjatlarida asosiy e'tibor davlatlar va xalqaro tashkilotlarning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi ga qaratilgandir.

Atmosfera havosi muhofazasi. Yerda hayotni saqlash uchun atmosfera havosining turli qatlamlaridagi tabiiy tarkibini o'zaro muvozanatda barqaror saqlab turish. Atmosfera havosini mulk sifatida o'zlashtirish imkoniyati bo'limgani uchun ham uni muhofaza qilish barcha davlatlarning muqaddas burchi hisoblanadi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish uchun barcha davlat hokimiya ti va boshqaruva organlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ekologik mu nosabatlarni tartibga solishlari uchun o'z e'tiborlarini quyidagi masalalarning yechimini topishga qaratmoqlari talab etiladi:

✓ atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalarni atrof-muhitga chiqarishni kamaytirish va uni kvatalash;

✓ ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

✓ transport va sanoatning turli sohalarida xalqaro va, ayniqsa, yev rostandartlarga javob beruvchi talablarni joriy etish va uning amaliy tatiqini qattiq nazorat qilish;

✓ transchegaraviy ifloslanish masalasini tinch yo'llar bilan regional va global miqyosda hal etish;

✓ iqlim o'zgarishi va unga moslashish muammolarining yechimini topish;

✓ shahar va aholi zich yashaydigan hududlarda atmosfera havosini muhofaza qilish;

✓ «issiqxona samarasini»ini ijobjiy tomonga yo'naltirishga oid innovation ishlarni kengaytirish;

✓ agrar sohada atmosfera havosini ifloslantiruvchi vositalardan kechish metodlarini o'ylab topish va h.k.

Hammamizga ma'lumki, atmosfera havosining ifloslanishi shaharlarda va katta sanoat markazlarida boshqa hududlarga nisbatan ko'proq seziladi. Ba'zi bir sanoatlashgan shaharlarda kimyo zavodlari va turli sanoat korxonalari 50% gacha ifloslantiruvchi gazlarni atmosferaga chiqaradi. Ularning tarkibi 150 dan ziyod turli birikmalardan, jumladan oltingugurt II oksidi (46%), uglevodorodlar (15%), qattiq moddalar (14%), uglerod oksidlari (13%), azot oksidlari (8%)dan iborat bo'lishi mumkin. Yoqilg'i moddalarining barchasi yonish jarayonida o'zidan ko'plab uglerod II oksidi chiqaradi va atmosferaning sun'iy isib ketishiga olib keladi. Natijada u yer yuzasining barcha qismida issiqlik samarasini keltirib chiqaradi. Ba'zi gazlar miqdori atmosferada 97–98% gacha yetishi mumkin.

Hududlarni barqaror rivojlantirishda atmosfera havosini muhofaza qilishga alohida e'tibor beriladi. Masalan, 1985-yilgi Vena konvensiyasida ozon qatlamini saqlashga qaratilgan rejalar tuzilgan bo'lsa, 1987-yilgi Montreal protokolida ozon qatlamini yemiruvchi moddalarga, 1992-yilgi BMTning Ramkali konvensiyasida esa iqlim o'zgarishiga qarshi ishlarni olib borish uchun muhim normalar qabul qilindi. Biroq, har bir mamlakat barqaror rivojlanish dasturlariga qo'shimcha sifatida xalqaro hujjatlardagi tamoyillardan chiqmagan tarzda, o'z hududidagi atmosfera havosini saqlash imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi mumkin. Ular quyidagilar:

- o'rganilmagan muammolarni hal qilish uchun ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish;
- xalq xo'jaligi tarmoqlarida atmosfera havosining muhofazasi bo'yicha hamkorlik qilish;
- ozon qatlami yemirilishining oldini olish;
- chegaralararo atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish.

Xalqaro hamjamiyatda iqlim o'zgarishi, atmosfera havosining ifloslanishi va ozon qatlaming yemirilishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlarning oldini olish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish zarur. Hozirgi kunda mazkur muammolarni hal qilishda ko'ptomonlama fikrlashish, insoniyat taraqqiyoti davomida olgan tajribalarga asoslanib kompleks tadqiqot ishlarini olib borish kerak. Joylarda, regionlar va umumbashariy muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, atmosfera havosining o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan oqibatlarni chuqurroq his etish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jarayonlarga salbiy ta'sirini anglash ham samarali ta'sir kuchiga va ushbu muammolarni yumshatishda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Atmosferaning chegaralararo ifloslanishi – bu o'simlik qoplamlarining kamayishi va o'rmonlar, suv havzalarining tarkibiy jihatdan buzilishiga olib kelmoqda. Mazkur muammoni oldini olishning asosiy chorasi tabiyi resurslarning mamlakatlararo monitoringini yuritish. Olingen ma'lumotlar orqali har bir chegaradosh hududlarda salbiy oqibat holatlarining oldini olish uchun birqalikdagi harakat dasturini ishlab chiqish zarur. Har bir davlatda atmosfera havosi ifloslanishining oldini olishning milliy dasturi asosida amaliy ish rejalariga ega bo'lish kerak. Yuqoridagi ishlarni amalga oshirishda xalqaro loyihibar bo'yicha hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotlarga ustuvor yo'nalish deb qarash lozim. Masalan, AQSH 2000–2010-yillar mobaynida ushbu muammolarni hal qilish uchun 22 mlrd dollar hajmida sarmoya xarajat qilgan.

Tuproq resurslaridan foydalanishga kompleks yondashish. Yer tuproq tushunchasining sinonimi, lekin aynan o'zi emas. Chunki yer yuzasi nafaqat tuproqlardan, balki o'simlik bilan qoplanmagan qumli, toshli, sho'rxok, toshloq kabi sof mineral jinslardan ham iborat bo'lishi mumkin. Uning inson faoliyatida turli xil maqsadlarda ishlatilishi turlichcha ma'no kasb etishga olib kelgan. Ekologik-huquqiy munosabat nuqtayi nazaridan yer — muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, qayta tiklash, qayta ishlab chiqarish va oqilona foydalanish obyektidir.

Tuproq resurslaridan kompleks foydalanish o'z navbatida odamlarning tuproq unumдорligidan unumli foydalanishga o'rgatadi. Tuproq har qanday ekosistemaning ajralmas qismidir. Antropogen jarayonlar va ekologik muvozanatning buzilishi oqibatida tuproqdan samarasiz foydalanish cho'l ekosistemalari barqarorligini izdan chiqaradi.

O'zbekiston mustaqilligi avvalambor uning boy tabiat komponentlari, xususan yerkarni o'zi mustaqil ravishda tasarruf qilish huquqida namoyon bo'ldi. Endilikda u 44,8 mln ga yer fondini milliy qonunchilik asosida muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni huquqiy tartibga sola boshladи. Ushbu huquq respublikamiz uchun mustaqillikdan avval qabul qilingan ilk milliy qonunchilik manbalari – «Til» va «Mulk» to'g'risidagi qonunlar bilan bir qatorda, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan «Yer to'g'risida»gi qonundan boshlangan. Shundan xulosa qilish mumkinki, tabiiy boyliklar har bir davlatning mustaqilligini ifoda etuvchi eng muhim elementlardan hisoblanadi¹. Nima uchun tabiiy zaxiralarga, jumladan yerga bunchalik katta e'tibor berilmоqda? Chunki O'zbekistonda yer va ayniqsa, unumdar tuproqli yer-

¹ А. Нигматов. Ер қонунчилиги ва тупроқ унумдорлиги // Аграр қонунчиликни ривожлантириш муаммолари. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2003. 57–62-б.

lar juda cheklangandir. Ana xolos, deyishi mumkin masalani chuqur anglamagan kishilar, axir yer maydoni O'zbekistonda Buyuk Britaniyadan ikki barobar, Gollandiyadan 10 barobar, Belgiyadan 15 barobar ko'p-ku! 44,9 million gektarga teng bo'lgan yer kengliklarimizning 44,5 mln gektari uning quruqlik qismidan iborat-ku! Shundaylik-ka shunday, ammo, respublikamiz davlat yer fondining 5/3 qismi sahro va cho'l landshaftlaridan, 5/1 qismi geomorfologik jihatdan noqulay bo'lgan tog'u toshlardan iborat. Diyormizning faqatgina 10/1 qismi inson yashashi uchun qulay sharoitdagi yerlardan, to'g'rirog'i tuproqlardan iborat¹.

Tuproq — yer so'zining sinonimi, ammo aynan o'zi emas. Chunki tuproq toshli, qumli, suvli yerlardan farqli unumidorlik xususiyati ega. Aynan ana shu unumidorlik bizni to'yintiradi va boqadi. U sa-noat uchun xomashyo yetkazib beradi. Tuproq unumdorligining foydali xususiyatlari to'laqonli namoyon bo'lishida *namlik va issiqlik* juda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, mo'tadil iqlimda tarqalgan eng unumli qora tuproqlarda bug'doydan 20–25 s/ga gacha hosil olinadi².

Unumidorlik ko'rsatkichlari bo'yicha bir necha barobar past bo'lgan O'zbekistonda eng ko'p tarqalgan bo'z (sur) tuproqlarda hosildorlik ikki va undan ham ko'proqdir. Buning sababi issiqlikdadir. Ammo, bo'z (sur) tuproqlarda namlik yetishmaydi, ya'ni sug'ormasdan turib yuqori hosil olishning iloji yo'q. Shuning uchun ham qishloq xo'jalik tovar mahsulotining 95 foizi aynan sun'iy namlash darajasiga ega bo'lgan sug'orma-obikor yerlardan olinadi.

O'zbekistonda sug'orib dehqonchilik qilsa bo'ladigan tuproqlarning umumiyligi maydoni 7,4 mln hektar atrofida. Hozir uning 4,3 mln gektari sug'oriladi, xolos. Qolgan 3,1 mln gektari esa cho'l-sahro va tog'li hududlarda, ya'ni o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan yerlardadir. Fan va texnika rivojlangan XXI asrda buni ham iloji bordir, deyish mumkin. Afsuski uning iloji doimo ham topilmaydi, chunki sug'orish uchun kerak bo'ladigan chuchuk suv muammosi bizlarga doimo to'sqinlik qiladi. Mamlakatimizda keyingi o'n yil mobaynida aholi soni 4–4,5 mln kishiga ko'paydi va 29 mln dan oshib ketdi. Sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yerlar miqdori esa keyingi 15–20 yil ichida deyarli o'zgargani yo'q. Vatanimiz agrar-industrial respublika. Agrar soha

¹ И. Каримов. Дехқончилик тараққиёти — фарновлик манбаи. — Т.: «Ўзбекистон», 1994. 72-б.

² Т.С. Закиров. Культура земледелия в орошаемых условиях Узбекистана. — Т.: «Ўзбекистон», 1979. 239 с.

respublikamiz yalpi ichki mahsulotining 30 foizidan ortig‘ini, valuta tushumining 55 foizini, tovar aylanuvining 60 foizga yaqinini beradi. Qishloqda mehnatga yaroqli aholining 44 foizi istiqomat qiladi. Haydalib dehqonchilik qilinadigan ekin maydonlarini jon boshiga taqsimlaydigan bo‘lsak biz MDH respublikalarining orasida oxirgilaridan birimiz, ya‘ni har birimiz uchun bor yo‘g‘i 0,15 hektar atrofida ekin maydoni to‘g‘ri keladi¹.

Xo‘sh, juda cheklangan ekin maydonlaridan va, ayniqsa, sug‘oriladigan yerlardan oqilonqa foydalanish uchun nima qilmoq kerak? Avvalambor O‘zbekistonda yerga nisbatan munosabatlarni qaytadan ko‘rib chiqish va xalq xo‘jaligini barcha sohalarida tegishli evolutsion tarzdagi o‘zgartirishlarni yo‘lga qo‘yish kerak bo‘ladi (8.2.1-jadval).

Tuproq ekotizimlardagi eng muhim komponent ekan, uni muhofaza qilish, uning inson uchun foydali bo‘lgan xususiyatlaridan to‘g‘ri foydalanish, buzilgan yerlarni qayta tiklash zamon talabidir. Tuproq insonlarning nafaqat ishlab chiqarish vositasi, balki yashash makoni hamdir. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz «Yeri boyning – eli boy», biz olimlarda esa «Tuprog‘i boyning – eli boy» deb, bejiz aytilmagan.

O‘rmonsizlanish jarayonining oldini olish. O‘rmonlar atrof-muhit musaffoligini ta‘minlashi, insonlarning ekologik xavfsizligi va madaniy boyligi sifatida alohida e’tibor bilan huquqiy muhofazalanadi. O‘rmonlar turli mintaqalarda turli xil funksiyalarni bajaradi. Qalin o‘rmonlar bilan qoplangan mintaqalarda o‘rmonlar, avvalambor, *jamiyatning iqtisodiy talablarini* (Kanada, Finlandiya, Rossiya, Belorussiya kabi mo‘tadil iqlimli davlatlarda), chiroyli manzara va turizmni rivojlantirish imkoniyati keng bo‘lgan hududlarda o‘rmonlar *jamiyatning ijtimoiy talablarini* (Fransiya, Ispaniya, Gretsiya, Kipr kabi subtropik iqlimli davlatlarda), iqlimi keskin kontinental bo‘lgan hududlarda o‘rmonlar jamiyatning *ekologik talablarini* (O‘zbekiston, Turkmaniston, Meksika, Isroil, Arab mamlakatlari) qondiradi.

O‘rmon – bir-biriga va o‘sish sharoitiga ta’sir etuvchi va alohida ekotizim hosil qiluvchi daraxtsimon o‘simliklar majmui. Zero inson hayotiy faoliyatiga tabiiy obyektlar ichida eng ko‘p ta’sir qiladigani ham aynan o‘rmonlardir. Kishilik sivilizatsiyasi davrida yer yuzidagi butun o‘rmonlarning 2/3 qismi kesilib ketdi. Bu esa atmosfera havosidagi kislorod va is gazining nisbati, tuproq eroziyasi, hayvonot dunyosining xilma-xilligiga keskin salbiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘rmonlarning yo‘qotilishi

¹ A. Nigmatov. Yer huquqi. — T.: TIU nashriyoti, 2001. 224-b.

jishloq xo'jaligi yerlarining 60 foizini xalq xo'jaligi oborotidan chiqib etishiga olib keldi.

8.2.1-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlarida tuproqlarni muhofaza qilish istiqbollari

Iqtisodiyot tarmogi	Chora-tadbirlar
Atrof-muhit muhofazasida	Barcha yer toifalaridagi tuproqlarni ekologik jihatdan optimallashirish yo'llarini, yerlarning son va sifat bahosini aniqlash, operativ ekologik nazorat va monitoringni olib borish, huquqburzarlarga javongarlik muqarrarligini ta'minlash tizimini yaratish hamda amaliy mexanizmini shakllantirish.
Moliya va ta'minotda	Ichki moliyaviy zaxiralar va maqsadli yo'naltirilgan tashqi investitsiyalar orqali «Yer jamg'armasi»ni tashkil etish. Buning uchun yer solig'i va javobgarligi orqali budgetga tushayotgan mablag'larning 60% «Yer fondi»ga tushishi darkor. Zero ushbu mablag'lar tuproqqa yetkazilayotgan zararni qoplashi va hattoki, <i>davlatning dotatsiyalash va kreditlash siyosati</i> aynan yerga «yuz tutishi» maqsadga muvofiqdir. Tashqi iqtisodiy aloqalar va qishloq xo'jalik tovar mahsulotlarini realizatsiya qilish keng tarmoqlangan xizmat ko'rsatishga asoslanishi, ya'ni «bir dehqonga uch xizmatkor» principida ish yuritmoq kerak. Qishloqda xizmat ko'rsatishni xomash-yoni qayta ishlay oladigan va kam chiqitli texnologiyalarini joriy qila oladigan kichik va o'rta biznes sohiblariga topshirish darkor.
Qonunchilikda	Konstitutsiyamizning 55-moddasida yer bilan bir qatorda tuproqni alohida bir tabiiy zaxira, to'g'rirog'i tabiiy «boylik» sifatida e'tirof etish va « <i>Tuproq unumdarligi to'g'risida</i> »gi qonunni qabul qilish lozim. Unda unumdr o'ta qimmatli sug'oriladigan yerlarni faqatgina qishloq xo'jalik maqsadlaridagi toifada ushlab turish va ixtisoslashgan fermerchilikni rivojlantirish lozim. Bonitet bahosi 30 balldan kam bo'lgan sug'orma yerlarni aholi punktlari va uning atrofini noqishloq xo'jalik maqsadlarida ishlatalish, mehnat resurslari kam bo'lgan yerlarda esa <i>kreditlash va dotatsiyalashning birlamchi obyekti</i> sifatida qaramoq lozim. Chunki sug'oriladigan yerlarning yarmidan ko'pi turli darajada sho'rangan, 5/1 qismi eroziyaga uchragan, 12/1 qismi texnogen buzilgan, qolgan qismi esa ifloslangan. Yer qonunchiligidagi qishloq xo'jalik subyektlari uchun 30 baldan boniteti past yer uchastkalarini yer solig'iga tortmaslik yoki muddatini «ushbu yerlardan foyda olish muddatiga qadar», deb belgilanishi lozim. Chunki tabiiy va texnogen buzilgan yerlarning « <i>o'zlashtirish muddati</i> » 3–25 yilgacha davom etishi mumkin. Yerlarning o'zlashtirish muddati bo'yicha yo'riqnomasi, tavsyanoma va metodik qo'llanmalarini ishlab chiqish va doimo ekspertrash normalarini ishlab chiqish lozim.

Tashkiliy-xo'jalik yuritishda	Tuproqlarni diagnostika qiladigan, tez yordam ko'satishni ta'minlaydigan – «Agrodoktor», «Yer tez yordami», «Yer klinikasi» kabi firmalarni tuzish va ularni kerakli moddiy-teknika va mutaxassislар bilan ta'minlash. Firmalarni tashkil etish va birlamchi faoliyatini yuritishda davlat bosh islohotchi bo'lishi, ya'ni ularni soliqlardan ma'lum muddatga ozod qilish va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ib qilish hamda ularga imtiyozli kreditlар berish, keyinchalik esa mustaqil xo'jalik shartnomalari asosida ish yurituvchi subyektlarga aylantirish lozim. Tuproq nazoratida umumiqtisodiy, umumsiyosi va umumekologik ahamiyatga molik bo'limgan yer uchastkalarini o'zini o'zi boshqaradigan uyushma va nodavlat-notijorat tashkilotlariga boshqarish va nazorat qilish uchun topshirish fuqarolik jamiyatining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.
Ta'lim va tarbiyada	Yer tuzish, kadastrlash, ekspertizalash, nazoratlashning yagona tizimini amalga oshirish yo'nalishidagi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash. Qishloqda yuridik xizmatni yo'lga qo'yuvchi agroyuristlarni tayyorlash. Buning uchun maxsus davlat dasturini ishlab chiqish va amalga tatbiq qilish mexanizmini yaratish kerak. Umumiylar ta'limda «Tuproq – bizning boyligimiz», «Ona zamin sening ixtiyoringga» kabi o'quv predmetlar, to'garaklar va klublarni ochish va ularni tegishli davlat standarti, dastur va rejalar hamda o'quv-amaliy qo'llanmalar bilan ta'minlash lozim.
Ma'naviyat va ma'rifatda	«Yer beba boyligimiz», «Yeri boyning – eli boy», «Yer rizqu ro'zimiz» degan mavzularda maxsus konkurslar, viktorinalar, ko'sratuvlar, eshitirishlar va ruknlarni tashkil etish. Ularga nafaqat o'zimizni balki shu sohadagi yetuk mutaxassislarni chet ellardan ko'proq jalb qilish. Rivojlangan mamlakatlardan tuproq muhofazasiga doir ko'sratuv va reportajlarni tayyorlash hamda ular bilan tajriba almashishni qo'llab-quvvatlash, adabiyot va san'at kunlari kabi «Bobo dehqon kunlari» ruknidagi xalqaro uchrashuvlarni davlat miqyosida olib borish. «Yer qo'shig'i», «Yer tarixi», «Yer falsafasi», «Yer dardi» mavzuidagi shou-dastur, uchrashuv, ko'rgazma, konferensiya, konsert, muloqot va, hattoki, lotoreyalar o'yinini uyshtirish o'z ona yerimizga bo'lgan mehrni orttiradi.

Garchand O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida «o'rmon» mustaqil tabiiy zaxira, to'g'rirog'i boylik deb ifoda qilinmagan bo'lsa-da, dunyoning aksariyat mamlakatlarda u amaliy jihatdan alohida tartibga solish obyekti hisoblanadi. Chunki o'rmon o'zining ekologik tizimda tutgan muhim ahamiyatiga ko'ra juda katta o'ziga xos majmua hisoblanadi. O'rmon nafaqat o'simlik dunyosiga, balki o'rmonsiz yerkarta nisbatan keskin ajralib turadigan hayvonot dunyosi, tuprog'i, atmosfera havosi va, hattoki, suviga ham ega. O'rmonlarda uchraydigan bo'ri bilan yaylovdagi bo'ri, «podzol» o'rmon tuprog'i bilan och qo'ng'ir rangli cho'l tuprog'i, kislorod bilan boyitilgan o'rmon havosi bilan baland tog' havosining tarkibiy qismida juda

katta farq bor, albatta. Shuning uchun ham o‘rmon ekotizimlari alohi-da tadqiqot obyekti bo‘lib hisoblanadi, amaliy ekologik nuqtayi nazar-dan esa mustaqil iqtisodiyot tarmog‘idir.

O‘zbekistonda o‘rmonlar Yevropa, Shimoliy yoki Janubiy Amerika singari juda rang-barang va zich, deb aytolmaymiz. O‘zR Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasining ma’lumotlariga ko‘ra 2008-yil 1-yanvarga kelib Respublikamizda davlat o‘rmon fondi yerlarining umumiyligi maydoni 8,2 mln hektarga teng bo‘lib, shundan o‘rmon bilan qoplangani 2,7 mln hektarga teng. Undan tabiiy o‘rmonlar maydoni 2,1 va madaniy o‘rmonlar – 0,6 mln hektarni tashkil etadi.

O‘rmonlarning tarqalishi, o‘sishi va rivojlanishiga qarab, mamlakatimizda *uch mintaqaga ajratib olinadi — tog‘, cho‘l va sohil o‘rmonlari*. Tog‘ o‘rmonlari 0,9 mln hektar yoki o‘rmonli yerlarning 10,1 foizini (204 ming ga archazorlar), 7,1 mln hektar cho‘l o‘rmonlari yoki 86,6 foizini (saksovul va psammofitlar turkumiga kiruvchi butalar), 0,2 mln hektar yoki 2,3 foizini (to‘qayzorlar — mayda tol, terak va turli butalar) tashkil qiluvchi o‘rmonlar mavjud. Keyingi 100 yil davomida garchand o‘rmon fondi yerlari ko‘paysa-da, lekin o‘rmonlar maydoni 4–5 barobarga kamaygan va, ayniqsa, sohildagi o‘rmonlarning yo‘qolib ketayotgani achinarli holdir.

Shunday qilib, O‘zbekistonda o‘rmonlar organizmlar uchun ekologik barqarorlikni ushlab turuvchi omil sifatida xizmat qilar ekan. Ular tirik organizm, xususan, insonlar uchun kislorod manbai, tuproqdagi mineral xomashyo uchun organik manba, yerlarni yemirilishdan saqlovchi «qalqon», mikroiqlim hosil qiluvchi «konditsioner», biosferadagi va yer ostidagi namlikni bir me’yorda ushlab turuvchi «balansyor», minglab turdagи jonzotlar uchun «yashash makoni», qolaversa, go‘zal landshaft-larning asosiy ko‘rsatkichidir. O‘rmonlarning ushbu muhim ijtimoiy-ekologik ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda, uni O‘zbekistonda qolgan o‘simlik dunyosidan ajratilgan tarzda alohida muhofaza qilish tartibi o‘rnatilgan.

Barqaror rivojlanish dasturida o‘rmonlarga alohida bir muhim tabiat obyekti sifatida qaraladi, masalan:

- barcha o‘rmonlarni saqlash va ularni ko‘p qirrali ekotizimdagи ahamiyatini hamda biosferadagi o‘rnini ko‘rsatib berish;
- o‘rmonlarni saqlash va ularni muhofaza qilishning samarali usul-larini ishlab chiqish;
- o‘rmonlardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash;
- keng jamoatchilik orasida o‘rmonlarni saqlash va ularning ahamiyatini keng targ‘ib qilish.

Qurg‘oqchilik va cho‘llanish jarayonlarining oldini olish. Cho‘llanish — yer yuzasida o‘simlik qoplamining yo‘qolib borishi va o‘z-o‘zini qayta tiklay olmasligi. Qurg‘oqchilik — kutilmagan quruq ob-havo va haroratning keskin ko‘tarilishi natijasida tuproqdagi namlik darajasining keskin pasayishi. Cho‘llanish va qurg‘oqchilik jarayonlarining oldini olish va boshqarish juda dolzarb masala hisoblanadi, chunki har yili dunyoda o‘rtacha 1 mln hektar yer mazkur jarayonlar ta’siriga uchramoqda.

Xalqaro miqyosda cho‘llanish va qurg‘oqchilik jarayonlarini boshqarishga, ayniqsa cho‘l va sahro mintaqalarida alohida e’tibor berilgan. Yer yuzasining 6/1 qismi cho‘llanish jarayoniga uchragan. Shu bois sug‘oriladigan maydonlarning 30 foizida rejalashtirilgan hosil yig‘ishtirib olinmayapti va oqibatda yuz millionlab sayyoramiz aholisigi yetarli darajada birlamchi ozuqa bilan ta’minlanmayapti. Bu borada barqaror rivojlanish konsepsiysi quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- tegishli ma’lumotlar bankini, asosan mazkur jarayonlar kechayotgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisobga olgan tarzda yaratish;
- tuproq degradatsiyasining, asosan yerdan oqilona foydalanish va o‘rmonlarni qayta tiklash hisobidan, oldini olish;
- cho‘llanish jarayonlari kechayotgan hududlardagi aholining ijtimoiy holatini tiklashda qo‘srimcha mablag‘ manbalarini izlab topish;
- cho‘llanishning oldini olishning kompleks boshqarish chora-tadbirlariga oid milliy dasturlarni ishlab chiqish;
- ekologik qochoqlar muammosiga alohida e’tibor berish;
- aholining mazkur yo‘nalishdagi ishlarini qo‘llab-quvvatlash va keng jamoatchilik orasida ekologik ta’lim tadbirlarini o‘tkazish va h.k.

Tog‘ ekotizimlari muhofazasi. Tog‘ — suv, energiya va biologik xilma-xillik manbai, qazilma boylik makoni, chorva yaylovları asosi, tabiiy tizimning ekologik barqarorlik hududi hamda rekretsya va salomatlikni tiklash imkoniyatini beruvchi hudud. Tog‘ murakkab va bir paytning o‘zida nozik ekotizimlar majmui, zero relyefi og‘ir geodinamik jarayonlarga o‘ta beriluvchandir. Ishlab chiqarish jarayonlari da kam ishtiroy etgani uchun ham ulardagagi aholi ijtimoiy jihatdan nisbatan kambag‘allashgan guruhlar toifasiga kiritiladi. Dunyo aholisining 10 foizga yaqini tog‘ resurslariga bog‘liq holda yashaydi, 40 foizidan ortig‘i esa uning mahsulotlaridan foydalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi yer maydonining 20 foizini tog‘ ekotizimlari tashkil etadi. Lekin, biologik xilma-xillik nuqtayi nazaridan juda boy. U chuchuk suv manbai hisoblanadi va rekretsion hududga

kiradi. Shuning uchun ham tog‘ ekotizimlarining barqarorligi mamlakatimiz rivojida muhim ekologik ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Tog‘ ekotizimlarining barqarorligini ta’minlashda quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi:

- toza ichimlik suvi manbai sifatida alohida muhofaza etiladigan hududlarni tashkil qilishni birlamchi masala sifatida kiritish;
- tog‘lardan aksariyat hollarda rekreatsiya va dam olish maskanlari sifatida foydalanish;
- iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirish va loyihalashda uning nozik ekotizimlarini geodinamik jarayonlardan saqlash masalasiga alohida e’tiborni qaratish;
- sun’iy ravishda tog‘ o‘rmonlarini tashkil etish, borlarini esa qayta tiklash yuzasidan qayta ko‘rib chiqish;
- tog‘ yaylovlari kadastrini va monitoringini uning «yer sig‘imi» va «ekologik iz» nuqtayi nazaridan olib borish;
- qishloq xo‘jaligida tog‘larni o‘zlashtirishda uning geomorfologik ko‘rsatkichlari va qayta tiklash imkoniyatlariga alohida urg‘u berish;
- tog‘-kon sanoatida rekultivatsiya tubdan melioratsiya qilish zamonaviy texnologiyasini yaratish;
- mahalliy aholining ekologik bilimi va madaniyatini ko‘tarishga qo‘sishma investitsion mablag‘larni jaib etish va h.k.

Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhit. Rivojlanish yo‘lida turgan va asosan agrar sektori ustuvorlik qiladigan mamlakatlarda aholining taxminan 70 foizi aynan qishloqlarda yashaydi. Aholining kundalik o‘sib borayotgan oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun agrar sektorni intensiv rivojlantirish talab etiladi. Bu esa ko‘pincha mineral o‘g‘itlardan keng foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Oqibatda yer usti va ostidagi tirik organizmlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishning buzilishi atrof-muhitning ifloslanishi, zararkunandalarning muhitga chidamli shakllarining ko‘payib ketishi, ekologik jihatdan toza bo‘lmagan mahsulotlarning yetishtirilishi va aholining turli kasalliklar bilan kasallanishini va ekologik nosog‘lom muhitni yuzaga keltiradi.

Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekistonda uzoq yillar davomida paxta yakkahokimligiga asoslangan xalq xo‘jaligi bunga misol bo‘la ola di. Buning natijasida nafaqat mahalliy, balki eng mudhish va global muammo Orol va Orolbo‘yi inqirozli holati vujudga keldi. Respublikamizda sug‘oriladigan ekin maydonlari qishloq xo‘jaligi umumiy yer maydonining 15 foizini tashkil etsada, ammo u yalpi mahsulotning 93 foizidan ortig‘ini beradi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasidan ke-

lib chiqqan tarzda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olish uchun quyidagilarga e'tibor bershish talab etiladi:

- tuproq unumdorligini saqlash va qayta tiklash;
- aholini inson resurslarini rivojlantirishga va atrof-muhit muhofazasiga ko'proq jalb qilish;
- qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga zamonaviy, ekologiyalash-tirilgan texnologiyalarni jalb etish, qishloq aholisi infrastrukturasini rivojlantirish;
- yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishning axborot tizimlarini shakllantirish;
- iqtisodiy rivojlanishga o'tayotgan davlatlarda agrar siyosatni to'g'ri tashkil etish va uni targ'ib qilish;
- qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish;
- agrar sohada o'simlik va hayvonot genofondidan ilmiy asosda foy-dalanish;
- tabiiy zararkunandalarga qarshi kurashning ekologik boshqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- qishloq xo'jalik ekinlari va hayvonlarini zararli ekologik omillardan saqlashning samarali usullarini izlab topish va h.k.

Biologik xilma-xillikni saqlash. Biologik xilma-xillik bu sayyoramizning hayot resursini saqlab qolish demakdir, zero uning unsurlari yashaydigan muhit biosferani tashkil etadi. Tabiat xilma-xilligi insonlarni ushbu muhitda yashab qolishlarini va ularning nechog'lik farovon hayot kechirishlarini belgilaydi.

Ekotizimda modda va energiyaning almashinushi organizmlarning sifat va miqdor ko'rsatkichlariga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Bunda tashqari, insonlarning moddiy va ma'nnaviy ehtiyojlarini qondirish uchun biologik xilma-xillikka, genlar, populatsiyalar va ekotizimlar o'zgaruvchanligiga ham bog'liqidir. Biologik resurslar oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, dori-darmonlar, ma'nnaviy ozuqa sifatida odam ehtiyojini qondiradi. Barqaror rivojlanish shartlaridan biri esa Yer say-yorasida biologik xilma-xillikni saqlash va ko'paytirishdir.

O'zbekiston hududidagi ekologik vaziyat flora va fauna tarkibi bilan farqlanadigan beshta biogeografik zonalarni qamrab oladi. Ularda biologik xilma-xillik 27000 o'simlik va hayvonot turlari dunyosidan tarkib topgan. Ammo keyingi paytda ularning keskin ravishda qisqarishi ro'y bermoqda. Masalan, noyob va yo'qolib borayotgan flores-

tik turlar 8% ni, faunistik turlar esa 6% ni, jumladan, sute Mizuvchilar, qushlar va baliqlarning 60 turdan ortig‘ini tashkil etdi. To‘ng‘iz, oqqayruq, ondatra va zaharli umurtqasizlarning soni keskin darajada o‘zarmoqda. Respublikadagi o‘rmonlar soni ham anchagina qisqardi. Cho‘l zonasining o‘rmonlari 2,4 mln hektar yoki o‘rmonlar umumiyligi maydonining 87% ini egallaydi. Cho‘lda saksovulzor va butazorlar – psammofitlar ko‘proq uchraydi. Qayirdagi o‘rmonlar 25 ming hektarni yoki umumiyligi o‘rmon maydonining 1% ini tashkil etadi, xolos.

Hududlarda ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun biologik xilma-xillikni saqlash maqsadida quyidagilarni nazarda tutish tavsiya etiladi:

- biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi Konvensiya amaliy tatbiqini tezlashtirish va ishtirokchilarning sonini ko‘paytirish;

- biologik xilma-xillikni saqlash va biologik resurslardan oqilona foydalanishning milliy strategiyasini ishlab chiqish va uni rivojlanishning milliy dasturlariga kiritish;

- biologik va genetik resurslardan adolat va tenglik mezonlariga binoan uning barcha ishtirokchilari tomonidan foydalanish;

- biologik xilma-xillikni muhofaza qilish va foydalanishning ilg‘or usullarini qo‘llash;

- milliy ma‘lumotlar asosida sayyoramizning biologik xilma-xilligi to‘g‘risida doimiy ravishda ma‘ruzalarni tayyorlash;

- biologik xilma-xillikni saqlash va biologik resurslardan barqaror foydalanishda xotin-qizlar roliga alohida e’tibor berish, mahalliy aholining an‘anaviy usullari va bilimlarini qo‘llab-quvvatlash;

- biotexnologiyalarni ishlab chiqish, rivojlantirish va mukammallashtirish uchun mexanizmlarni yaratish hamda ularni xavfsiz tarqatish sharoitlarini barpo etish;

- biologik xilma-xillik va uning ekotizimdagи o‘ziga xos funksiyalarini ilmiy jihatdan chuqurroq talqin qilish, iqtisodiy jihatdan muhimligini ko‘rsatish hamda mazkur masala bo‘yicha xalqaro va regional hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash;

- biotexnologiyalarni rivojlantirish va genetik bioresurslardan kommersiya maqsadida foydalanishda bioresurslarga ega bo‘lgan davlatlarning huquqlarini ta’minlash uchun chora-tadbirlar va mexanizmlarni ishlab chiqish va h.k.

Biotexnologiyalarni ekologik xavfsiz darajada ishlatish. Biotexnologiyalar zamонави и an‘anaviy biotexnik usullarning qo‘shilishidan kelib chiqqan murakkab faoliyat sohasidir. Muayyan maqsadga yo‘naltirilgan

biotexnologiyalar yordamida dezoksiribonuklein kislotaning (DNK) tuzilishi yoki o'simlik, hayvon va mikroorganizmlarning genetik materialini o'zgartirish orqali yangi foydali mahsulotlarni olish, tibbiy xizmat darajasini oshirish, qishloq xo'jaligida yangi usullarni joriy qilish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichimlik suvining sifatini oshirish, sanoat xomashyosining qayta ishlash imkoniyatini ko'tarish, o'rmonlarni saqlash va tiklashning samarali usullarini joriy qilish, xavfli chiqindilarni zararsizlantirish va shu kabi muhim masalalarni hal qilish mumkin bo'ladi.

Biotexnologiyalar biologik resurslarga (jumladan, genetik resurslarga) boy, lekin ulardan foydalanishda maxsus bilimlar va investitsiyalarga ega bo'lмаган davlatlar va jamoaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda ushbu imkoniyatlarga ega bo'lган rivojlangan davlatlar va uyushmalar o'rtasidagi global hamkorlikni o'rnatishga yordam beradi. Biotexnologiyalar orqali biologik resurslarni «*in situ*» usuli yordamida saqlash mumkin.

Barqaror rivojlanish xalqaro dasturidagi faoliyat xalqaro muvofiqlash-tirilgan tamoyillarni ishlab chiqishga, ekologik xavfsiz biotexnologiyalarni ishlatishga, jamiyatning kelajakka bo'lган ishonchini oshirishga va xavf-xatarni yumshatishga, biotexnologik usullarning samarali qo'llanilishiga ko'maklashadi. U, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda tegishli mexanizmlarni yaratishni ta'minlashga yo'nalgan bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Barqaror rivojlanish tamoyillari biotexnologik nuqtayi nazardan quyidagilarni amalgalash oshirishga yo'naltirilgan:

- inson salomatligini yaxshilash;
- oziq-ovqat mahsulotlari, yem-xashak va tiklanadigan xomashyo materiallarini ishlab chiqishni ko'paytirish;
- tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lган faoliyat samaradorligini ko'tarish;
- xavfsizlikni ta'minlash va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini yaratish;
- biotexnologiyalarni ishlab chiqish va ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi mexanizmlarni yaratish va h.k.

Suv ekotizimlari muhofazasi. Xalqimiz «Suv — hayot manbai, suv bor joyda hayot bor», deb bejiz aytmagan. Suvlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish nafaqat global, regional, balki o'ta dolzarb milliy masaladir. Garchand sayyoramizda suv bilan egallangan maydon quruqlikka nisbatan ikki barobar ko'p bo'lsa-da, uning ekologik muammosining yechimini topish juda dolzarbdir. Bunga sabab:

Birinchidan, suv tirik organizmlar, jumladan, inson massasining 90% dan ortig'ini tashkil qilgan holda u doimo aylanma (sirkulativ) harakatda. Aylanma harakatdagi suv chuchuk, toza va musaffo bo'lishi talab etiladi. Aks holda tirik organizmlar nobud bo'ladi.

Ikkinchidan, chuchuk suvlar zaxiralari sayyoramizda bir tekis tarqalmagan. Yer usti suvlari (daryo, ko'l, suv omborlaridagi suvlar)ning 70% aholi yashashi noqulay bo'lgan shimoliy sovuq yoki baland tog' mintaqalaridadir. Ayrim mamlakatlarda (Kanada, Norvegiya, Rossiya kabilarda) suv toshqinlari muammosi yuzaga kelayotgan bo'lsa, ayimlarida (O'zbekiston, Arab mamlakatlari, Turkmaniston kabilarda) suv tanqisligi juda katta muammodir.

Uchinchidan, toza suv doimo harakatdadir. U ko'pincha daryolar orqali bir davlatdan ikkinchi bir davlatga o'tib boradi. Bu degan so'z daryo suvining muhofazasi xalqaro muammolar toifasiga kiradi va davlatlardan juda katta diplomatik mahorat talab qiladi.

To'rtinchidan, okean suvlarining keskin ravishda ifloslanishi atmosfera havosida kislorodning kamayishiga sabab bo'lmoqda. Chunki kislorod «ishlab chiqaruvchi» okean yuzasidagi planktonlar ifloslanayotgan okean suvlarida kamayib boryapti.

Beshinchidan, deyarli barcha xalq xo'jaligi sohalarida suv ishlatildi. Gidroresurslarning imkoniyati kamayib, unga talab esa ko'payib bormoqda. Xo'jalikda ishlatilayotgan suv ham, afsuski, toza — chuchuk bo'lishi kerak ekan. Agrar respublika bo'lgan O'zbekistonda xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i — qishloq xo'jaligi. Qishloq xo'jaligi mahsulotining 93% sug'oriladigan yerlardan olinadi.

Oltinchidan, Markaziy Osiyoda chuchuk suv zaxirasi — 183 km³ (undan Amudaryoda — 78 km³ va Sirdaryoda — 36 km³). Uning aksariyati sug'orish uchun ishlatiladi va turli sun'iy suv havzalari (kollektor, drenaj, suv omborlari, tashlandiq ko'llar)da va yer ostida yig'ilib, Orol ko'li muammosini yuzaga keltirdi.

Dengiz muhiti o'z ichiga okean, dengiz va ularning qirg'og'idagi hududlarni qamrab olib, yagona hayotiy zarur ekotizimning muhim komponenti bo'lib xizmat qiladi hamda barqaror rivojlanish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Dengiz huquqi konvensiyasidagi xalqaro huquq normalari davlatlarning mazkur sohadagi huquqiy majburiyatlarni belgilaydi. Ularga dengiz va dengiz oldi mamlakatlari barqaror ravishda tabiiy resurslarni muhofaza qilishning yuridik asoslarini beradi. Mazkur qoidalarga rioya qilinishi milliy, subregional, regional va global miyosda dengiz va dengiz oldi zonalardan samarali foydala-

nish va ularni o'zlashtirishda mazmun jihatdan yangi, yo'nalish jihatdan tezkor usullarni qo'llashni tavsiya etadi:

- dengiz ekotizimlarini tasniflash va unga asosan muhit muhofazasini ta'minlash;
- dengiz qirg'oqlarini, shu jumladan, 12 milli iqtisodiy dengiz zonalarini samarali ishlatish;
- hech bir davlat yurisdiksiyasiga kirmaydigan «ochiq» dengizlarning jonli resurslaridan samarali foydalanish va ularni saqlash;
- milliy yurisdiksiyadagi jonli dengiz resurslaridan samarali foydalanish va saqlash;
- dengiz muhitidan samarali foydalanish va iqlim o'zgarishlarini baholashdagi noaniqliklarni yo'qotish;
- xalqaro, jumladan, regional hamkorlik va muvofiqlashtirishni mustahkamlash;
- dengizdagи kichik orollarni rivojlantirish va h.k.

Suv ekotizimlari muhofazasiga oid rivojlanayotgan davlatlar faoliyati ularning texnik va moliyaviy imkoniyatlariga, tabiiy resurslardan qay darajada foydalanishlariga, mazkur davlatlarga zamonaviy texnologiyalarning kiritilishiga va ajratilayotgan mablag'lar hajmiga bog'liqdir.

Chuchuk suvdan oqilona foydalanish. Chuchuk suv resurslari yer gidrosferasining muhim komponenti va ekotizimlarning ajralmas bir qismidir. Chuchuk suv ekotizimlari holati ulardagi suvning davriy aylanishi bilan belgilanadi. Davriy aylanishning buzilishi suv toshqinlari va qurg'oqchilik kabi salbiy jarayonlarni yuzaga keltiradi. Ular esa kundan kunga kuchayib bormoqda va inson fojasiga aylanmoqda.

Iqlimning global miqyosda isib borishi va atmosfera havosining ifloslanishi chuchuk suv zaxiralariga ta'sir ko'rsatmoqda. Dengiz sathining ko'tarilishi esa pastqamlikdagi qirg'oq hududlari va kichik orollar eko-tizimi uchun xavf tug'dirmoqda.

Suv hayotimizning barcha jabhalarida ishiltiladi va shuning uchun ham sayyoramiz aholisini bir me'yorda sifatli suv bilan ta'minlash bir-lamchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadga erishmoq uchun ekotizimlarning gidrologik, biologik va kimyoiy funksiyalarini saqlash zarurdir. Bularning hammasi, jumladan, suv bilan bog'liq bo'lган santiar holat, tabiat imkoniyatlarini hisobga olgan tarzda inson faoliyatiga bog'liq. Cheklangan suv resurslarini ifloslanishdan saqlash va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash uchun yangi texnologiyalar, jumladan, takomillashgan mahalliy texnologiyalar zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining suv resurslari – bu Orol dengizi havzasida mavjud bo'lgan umumiy suv resurslarining bir qismidir. Orol dengizi havzasidagi suv resurslaridan foydalanishga oid Markaziy Osiyo davlatlararo kelishuviga muvofiq Respublikamiz aholisi tomonidan ishlatilishi mumkin bo'lgan chuchuk suvning miqdori $52,4 \text{ km}^3$ daryo suvi sarfiga to'g'ri keladi. Orol havzasida yuzaga kelayotgan suv resurslarining: Amudaryo havzasida – 6%, Sirdaryo havzasida – 16% bevosita O'zbekiston hududida shakllanadi. Yer osti chuchuk suv zaxirasi O'zbekistonda $19,7 \text{ km}^3$ ni tashkil etadi. Foydalanish mumkin bo'lgan barcha suv resurslari xo'jalik faoliyatida ishlatilmoqda va ularning yetishmovchiligi keyingi paytlarda sezilarli ravishda namoyon bo'lmoqda.

Respublikamizda oqar suvlarning ko'pi o'rta yoki kuchli darajada ifloslangan. Toshkent viloyatida bu holat juda sezilarli ravishda. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona vodiysi viloyatlari, Mirzacho'l, Qarshi cho'li kabi pastqamliklarda kollektor-drenaj suvleri kimyoviy jihatdan juda ham ifloslangan. Kuchli antropogen faoliyati ta'sirida yer osti suvlarning tabiiy sifat ko'rsatkichlari doimiy ravishda yomonlashib bormoqda. Buning natijasida aniqlangan yer osti suv zaxiralaring 40% dan ortig'i iste'mol uchun yaramay qoldi.

O'zbekistonda kollektor-drenaj suvlarning asosiy qismi agrokimyoviy va mineral tuzlar bilan to'yingan va $21-22 \text{ km}^3$ hajmda Amudaryo va Sirdaryolarga oqib tushadi. Ikki katta daryoning shartli ravishdagi «toza» suvi $2,5 \text{ g/l}$ atrofida mineralizatsiyalashgan. Ushbu suvlarda biogen elementlar, pestitsidlar, ftor, fenol, neft mahsulotlari va boshqa ifloslantiruvchi moddalar ham uchrab turadi. Qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda kaliy, azot va fosfor kabi mineral o'g'itlarning ishlatilishi tuproqlar va suv manbalarida ballast (erimaydigan) elementlarni, og'ir metallarni, mikroelementlarning yig'ilishiga olib kelmoqda. Yaqingacha yuqori darajadagi toksik moddalarining (masalan, gektari $20-30 \text{ kg gerbitsidlarni}$) ishlatilishi tuproqni, suv havzalari tubidagi cho'kindilarni, yer usti va ostidagi suvlarni erimaydigan xlorli organik birikmalar bilan zaharlanishiga olib kelmoqda.

Dunyoning ba'zi mintaqalarida chuchuk suvning yetishmasligi uning asta-sekinlik bilan yo'qolib borishiga va ifloslanishiga, samarsiz xo'jalik faoliyat hajmining oshib borishiga olib kelmoqda. Bularning hammasi global miqyosda suv resurslaridan kompleks ravishda unumli foydalanish zaruriyatini tug'dirmoqda.

Davlatlararo suv manbalaridan va dengiz qirg'oqlari bo'yidagi davlatlarda suvdan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ush-

bu munosabatlarda o'zaro hamkorlik xalqaro kelishuvlarga yoki boshqa turdag'i shartnomalarga ko'proq bog'liq bo'ladi. Bunda o'zaro manfaatdorlik birlamchi ahamiyat kasb etishini inobatga olib:

- chuchuk suv resurslarini baholash;
- suv resurslarini kompleks o'zlashtirish va suvdan oqilona foydalanish;
- suv resurslari, suv sifati va suv ekotizimlarini muhofaza qilish;
- ichimlik suvi bilan aholini ta'minlash va sanitariya normalarini saqlash;
- suv va shaharlarning rivojlanishi;
- suv, oziq-ovqatni yetishtirish va qishloqlarni rivojlantirish;
- iqlim o'zgarishini suv resurslariga ta'sirini o'rghanish kabi chuchuk suv muammolarida tegishli tavsiyalarga amal qilish zarur.

Zaharli moddalardan foydalanish. Iqtisodiyotda kimyoviy moddalardan ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal qilishda keng foydalani ladi. Hozirgi zamon fani ulardan yetarli darajadagi rentabellik asosida xavfsizlikka erishish orqali keng foydalanishni inkor etmaydi. Yer planetasi aholisining yashash sifatini ko'tarish maqsadida zaharli kimyoviy moddalardan ekologik xavfsiz ravishda foydalanishning ilmiy asosini yaratishni davom ettirish tavsiya etiladi. Bu borada rivojlanayotgan davlatlar oldida ikki katta muammo turadi:

- ko'pgina kimyoviy moddalar qatorining xavflilik darajasini baholashga doir ma'lumotlarning kamligi;
- aniqlangan ma'lumotlar bo'yicha kimyoviy moddalarni baholash uchun resurslarning yetishmasligi.

Sanoati rivojlangan ayrim mamlakatlarda inson salomatligi, uning genofondi va atrof-muhitga zarar keltirayotgan kimyoviy ifloslanish sezilarli ravishda davom etib kelmoqda. Ularda bexatar ekologik vaziyatni tiklash uchun juda katta miqdorda kapital mablag'larni sarflashga va yangi-yangi usullarni ishlab chiqishga to'g'ri keladi. Yer sayyorasining atmosfera va iqlim tizimlaridagi kimyoviy va fizik jarayonlarga keskin ta'sir etayotgan uzoq muddatli ifloslanishlarning salbiy oqibatlari faqat gina keyingi paytlarda sezila boshlandi va buni hech kim inkor qilmaydi ham.

Xalqaro tashkilotlar kimyoviy zararsizlantirish bilan shug'ullanadilar. Ko'pgina mamlakatlarda kimyoviy xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan harakat dasturlari amal qiladi. Lekin biron-bir mamlakatdagi kimyoviy xavfsizlik ikkinchi bir mamlakatdagi xavflilikni belgilab bermaydi va uning aksidir. Chunki kimyoviy moddalar uchuv-

chanlik, reaksiyaga kirishuvchanlik va tez harakatlanuvchanligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham kimyoviy moddalar va, ayniqsa, ularning zaharli turlaridan ekologik xavfsiz ravishda foydalanishni ham milliy, ham xalqaro miqyosda olib borishni taqozo etadi:

- kimyoviy moddalar bilan bog'liq bo'lgan xavfni xalqaro miqyosda baholash ishlarini kengaytirish va jadallashtirish;
- kimyoviy moddalarni tasniflash va ularga tegishli belgilarni qo'yish;
- zaharli kimyoviy moddalar va ularning xavflilik darajasi to'g'risida ma'lumot almashish;
- kimyoviy moddalar bilan bog'liq bo'lgan xavfni kamaytirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- kimyoviy moddalardan foydalanishni boshqarishga doir milliy imkoniyatlarni mustahkamlash;
- zaharli va xavfli mahsulotlarni noqonuniy ravishda oldi-sotdi qilishning oldini olish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olti dasturning umumiyligi tomoni shundaki, barcha dasturlarni harakatga keltirish, xalqaro miqyosda faol harakat olib borish, xalqaro miqyosda kundalik tadbirlarni muvofiqlash-tirish, texnik, ilmiy, o'quv va moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash va ishlatish, jumladan rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu dasturlar u yoki bu darajada kimyoviy moddalarning zararliligini baholash (kimyoviy moddalarning boshlang'ich xossalariiga asoslangan tarzda), xavflilik darajasini baholash (ta'sir etish mumkinligi bilan birga), xavflilik darajasini qabul qilish va boshqarishni ham inobatga oladi. BMTning YUNEP, Xalqaro mehnat tashkiloti, Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'rtaсидаги kimyoviy xavfsizlik sohasидаги hamkorlik Xalqaro kimyoviy xavfsizlik dasturi doirasida amalga oshirilib, u zaharli kimyoviy moddalardan foydalanishni boshqarishni ta'minlashi lozim. Buning uchun hamma kuchni mazkur dasturni bajarishga, u bilan bog'liq bo'lgan dasturlarga yordam ko'rsatishga yo'naltirmoq kerak.

Xalqaro hamjamiyat atrof-muhit va kishilar salomatligiga salbiy ta'sir etayotgan, noqonuniy ravishda amalga oshirilayotgan zaharli va xavfli kimyoviy moddalarning bir qismi xalqaro miqyosda tashilayotganligidan xavotirda. 1989-yil 22-dekabrdagi BMT Bosh Assambleyasining 44 – 226-sonli rezolutsiyasiga binoan barcha mintaqaviy komissiyalardan xavfli va zaharli kimyoviy moddalarni noqonuniy ayirboshlashni tegishli monitoring va baholash orqali bartaraf etishni so'ragan edi. Bundan tashqari, Bosh Assambleya mintaqaviy komissiyalardan maz-

kur masalada YUNEP tashkiloti bilan kelishilgan holda faoliyat olib borishni tavsiya etgan.

Xavfli chiqindilarni chetlashtirish. Xavfli chiqindilarning paydo bo‘lishi, saqlanishi, qayta ishlanishi, tashilishi, rekuperatsiyalanishi (qayta ishlab chiqarishga jalb etilishi) va chetlashtirilishini samarali nazoratlash sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa xalqaro hamjamiyat, hukumatlar hamda sanoat tarmoqlari, yirik milliy korxonalar, transmilliy korporatsiyalarning boshqaruvchilari o‘rtasidagi faol hamkorlik va umumishtirokchilikni talab etadi.

Xavfli chiqindilarni kompleks boshqarish yoki tartibga solish maqsadida ularning yig‘ilishini oldini olish va undan zararlangan hududlarni qayta tiklash uchun bilim va tajriba, mutaxassislar, jamg‘armalar, moliyaviy resurslar, texnik va ilmiy jihatdan salohiyatlari bo‘lishi zarur.

Ko‘pgina mamlakatlar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar, atrof-muhit va kishilar salomatligiga salbiy ta’sir etayotgan, noqonuniy ravishda amalga oshirilayotgan xavfli chiqindilarning bir qismi xalqaro miqyosda tashilayotganligidan xavotirda. Xavfli chiqindilarni utillasshtirishni kompleks boshqarish maqsadi ular paydo bo‘lishini minimallashtirish hamda atrof-muhitga juda kam miqdorda zarar yetkazishni nazarda tutadi. Buning uchun:

- nisbatan toza ishlab chiqarishning kompleks strategiyasi doirasida xavfli chiqindilarning paydo bo‘lishini minimallashtirish yoki oldini olish;
- xavfli chiqindilarni ekologik xavfsiz va samarali chiqarish orqali ularni davlatlararo tashilishini to‘xtatish yoki kamaytirish;
- xavfli chiqindilarni ekologik xavfsiz ravishda chiqarilishini maksimal darajada mazkur chiqindilarni paydo qilgan davlatlarda ta’minlash (ularni davlatlararo tashilishi ekologik va iqtisodiy jihatdan zarur bo‘lgan holatda manfaatdor tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalaraga qat‘iy amal qilish);
- xavfli chiqindilarning davlatlararo tashilishi va chiqarilishini nazorat qilish to‘g‘risidagi Bazel konvensiyasini davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilish. Konvensiyada ko‘rsatilgan ishtirokchilarining javobgarligi va yetkazilgan zararni qoplash mexanizmi va prinsiplariga oid protokolni tezda ishlab chiqish;

- xavfli chiqindilarni Afrika qit’asiga olib kirilishi unda tashilishini nazorat qilish to‘g‘risidagi Bamak konvensiyasini uning ishtirokchilari tomonidan ratifikatsiya qilish. Konvensiya ishtirokchilarining javob-

garligi va yetkazilgan zararni qoplash mexanizmi to‘g‘risidagi protokolni tayyorlash;

- mustaqil ravishda yoki xalqaro kelishuvlarga binoan o‘z milliy hududlariga xavfli chiqindilarni chiqarishni man etgan davlatlarga ularni olib kirishni to‘xtatish. Masalan, Bamak va Lomey konvensiyasining ishtirokchi davlatlariga.

Barqaror rivojlanish dasturlariga muvofiq ravishda xavfli chiqindilarni chiqarish quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

- xavfli chiqindilar yuzaga kelishining oldini olish yoki minimallashtirishga yordam berish;
- xavfli chiqindilarni chetlashtirish borasidagi tashkiliy imkoniyatlarni jadallashtirish va mustahkamlash;
- xavfli chiqindilarni davlatlararo tashilishini boshqarish masalasi-da xalqaro hamkorlikni rag‘batlantirish va mustahkamlash;
- xalqaro miqyosda xavfli chiqindilarni noqonuniy ravishda tashili-shining oldini olish va h.k.

Qattiq chiqindilarни chetlashtirish va oqova suvlarni tozalash. «Rio-92» konferensiysi atrof-muhit holati yomonlashuvining oldini olish uchun ekologik xavfsiz rivojlanishni barcha mamlakatlarda amalga oshirish, BMT tashkilotining rezolutsiyasiga muvofiq ekologik xavfsiz ravishda chiqindilarni chiqarishga alohida e’tibor qaratildi. Unda ushbu masalalarni rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshirishga alohida e’tibor berildi. Mazkur sohalarda O‘zbekistonda ham amalga oshiriladigan ishlar ko‘lami yetarlidir. Maishiy chiqindilarning to‘planishi sanoat chiqindilarini to‘planishiga nisbatan 10 marotaba tezroq kechadi. Lekin sanoat chiqindilarini tarkibida o‘ta zaharli moddalar, og‘ir metallar va konserogen birikmalarning bo‘lishi atrof-muhitga juda katta salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston sanoat sektorida hosil bo‘luvchi chiqindilarning asosiy qismi tog‘-kon va qayta ishslash korxonalari hisobiga to‘g‘ri keladi. Undan 90–95% chiqindi qayta ishlanuvchi moddani tashkil etadi. Sanoat chiqindilariga 30 mln m³ maishiy chiqindilar qo‘silib, katta miqdordagi (55 mln m³) qayta ishlanuvchi va atrof-muhitga zarar keltiruvchi «chiqindi tog‘lari» vujudga kelgan. Har bir million tonna maishiy chiqindida o‘rta hisobda 360 ming tonna organik modda, 160 ming tonna qog‘oz, 55 ming tonna to‘qimachilik mahsulotlari, 45 ming tonna plastmassa va boshqa chiqindilar mavjud. Shuning uchun ham:

- inson salomatligini mustahkamlash va uni muhofaza qilish;
- chuchuk suv sifatini saqlash va u bilan aholini ta’minlash;

- suv resurslarini o'zlashtirish, suv xo'jaligini yuritish va undan foy-dalanishga kompleks yondashish;
- suvni iste'mol qilish tuzilmasini o'zgartirish;
- aholi punktlarini barqaror rivojlantirishga yordam ko'rsatish va hokazo.

Qattiq chiqindilar maishiy chiqindilar va uncha xavfli bo'limgan sanoat korxonalari, jamoa muassasalari, ko'cha va qurilish chiqindilaridan iborat. Ayrim mamlakatlarda qattiq chiqindilarni qayta ishlash va chetlatish fekalin, pechkalardan chiqadigan kul, oqova suvlarni to-zalashdan olingan il(loyqa)lar hisobidan ham bo'ladi. Nima bo'lganda ham atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash muayyan bir qattiq chiqindilarni qayta ishlash yoki ularni chetlatish bilan cheklanmasligi lozim. Mazkur ekologik faoliyat har bir ekotizimlarning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilmog'i darkor. Bu esa to'liq sikilli qattiq chiqindilarni qayta ishlash va ularni chetlatish konsepsiyasini qo'llashni taqozo etadi. Qattiq chiqindilarni chetlatishda muayyan ketma-ketlikka rioya qilinishi maqsad qilib qo'yiladi va quyidagi vazifalar ni bajarishga chaqiradi:

- chiqindilarni iloji boricha kamaytirish;
- chiqindilarni ekologik xavfsiz tarzda qayta ishlatish va retsirkulatsiya qilish;
- chiqindilarni ekologik xavfsiz holda chetlatish va tozalash;
- chiqindilar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar ko'laminu kengaytirish.

Mazkur to'rt dasturiy vazifalar bir-birlarini to'ldiradi. Ular ekotizimlarni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan chiqindilarni chetlatishning har tomonlama uzviy bog'langanligi uchun ham kompleks yondashuvni talab etadi. Ularning mazmun va mohiyati har bir joyning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy sharoiti, chiqindilarni to'planish darajasi va tarkibiy qismiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Aholining barcha qatlamlari mazkur dasturiy vazifalarni hal qilishda qatnashishi lozim.

Radioaktiv chiqindilarni chetlatish. Radioaktiv chiqindilar radioaktiv moddalarni xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llashdan hosil bo'ladi. Ularning radiatsiyaviy va ekspluatatsiyaviy xavflilik darajasi juda past ko'rsatkichdan (kam harakatchan va uzoq saqlanib turmaydigan holatda) o'ta xavfli ko'rsatkichgacha bo'lishi mumkin. Eng xavfisi, birinchi navbatda insonlarga va boshqa tirik organizmlarga o'z ta'sirini tez va uzoq muddatda ko'rsatib boradi. Radiatsiya darajasi maxsus asboblar yordamida o'lchanadi. Butun dunyoda har yi-

li yadroviy issiqlik energiyasini ishlab chiqarish natijasida 200000 m^3 faollashmagan va 10000 m^3 yuqori faollashgan radioaktiv chiqindilar chiqaziladi. Radioaktiv moddalarning yangi izotoplaringin topilishi atom energetikasi jadal rivojlanishiga olib kelmoqda va shu bilan birga biosferadagi ekologik holat buzilishidagi eng global muammolaridan biriga aylanmoqda.

Yer yuzida radioaktiv chiqindilarning to'planib borishi insonlar hayotiga katta xatar tug'dirmoqda. Shu munosabat bilan barqaror rivojlanish konsepsiyasining oldiga qo'yan vazifalaridan biri mazkur chiqindilarni iloji boricha ekologik xavfsiz ravishda chetlab, ularni saqlash va bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chirishda xavfsizlik talablariga rioya qilish hamda bu sohada xalqaro hamkorlikni kuchaytirishdir. Yer yuzida faolligi yuqori bo'lgan chiqindilarda 99 foizgacha radioaktiv moddalarning izotoplari mavjud. Mazkur moddalarning doimiy ravishdagi atrof-muhitga nisbatan radiatsion ta'siri organizmlar faoliyatiga astasekinlik bilan ta'sir o'tkazib, turli genetik irlari kasalliklarni keltirib chiqarmoqda.

Markazi Osiyoni radioaktiv chiqindilardan xoli bo'lgan hududga kiritib bo'lmaydi. Chunki O'zbekiston biljan chegaradosh bo'lgan Qиргизистон va Тоjikiston respublikalarida ishlatilmaydigan va ishlatiladigan konlar mavjud. Ulardan eng kattalari: Maylisuv va Shokapтар ishlatilgan uran konlari, Sumsar-qo'lom koni, Haydarkon simob va surma koni, Qadamjoy surma koni, Tegmaota radioaktiv chiqindilar to'plangan joy (Sirdaryo havzasida), Anzob tog'-kon sanoati va Tojikiston oltin qazib oladigan kombinat (Zarafshon daryo havzasida) oqovalari chiqaziladigan yerlar shular jumlasidandir. Shuning uchun ham Markazi Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda doimiy radiatsion xavfsizlik choralarini ko'rish va ularning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqishga zaruriyat sezilmoqda. Mamlakatimizning Ohangaron daryo vodiysida xavfli radiatsion holat saqlanib qolmoqda. Lekin, butun O'zbekiston bo'yicha radiatsion vaziyat me'yor chegarasidadir, ya'ni gamma nurlarining tabiiy ko'rsatkichi $10-30 \text{ mR/soat}$ miqdorda saqlanib qolmoqda.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mazkur sohada sezilarli darajada ishlar olib borilmoqda. Lekin, radioaktiv moddalarni saqlashda va tashishda doimiy sezgirlikni yo'qotmaslik zarur. Chernobil va Fukisimo AESlarining talafotli holati va uning oqibatida atrof-muhitga chiqarilgan radioaktiv chiqindilarning tarqalib, ko'plab kishilarning nurlanishini bunga misol qilsak bo'ladi. Natijada juda katta maydon

radiatsiya ta'siriga uchradi va minglab aholi o'z joylarini u yerlarda yashash salomatlik uchun xavfli bo'lgan uchun ham tashlab ketdilar. Shuning uchun ham radioaktiv chiqindilar bilan xavfsiz darajada munosabatda bo'lishni ta'minlash, ularni tashishda, saqlashda va chiqindilarni chetlashtirishda, inson salomatligi hamda atrof-muhit muhofazasini ta'minlashda amaliy tavsiyalar berishga kompleks yondashishi ni ta'minlash kerak.

Yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish. Yer osti boyliklari nisbiy tushuncha bo'lib, unga nafaqat tuproq ostidagi, balki yer yuzasi va suv obyektlari tubida, ya'ni yer qa'rida joylashgan mineral moddalar ham kiradi. Mineral — yer yuzida va qa'rida fizik va kimyoviy jarayonlar natijasida vujudga kelgan, kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari jihatidan deyarli bir xil bo'lgan jins (modda)¹. Shunday qilib, mineralning tuproq yoki tuproq hosil qiluvchi ona jinsdan farqi uning kimyoviy tarkibi (kimyoviy elementlar soni va uning o'zaro birikmasi) va fizik xususiyatlari (suv va temperatura rejimi, katta-kichikligi, sinishi, qattiqligi) bilan farq qiladi. Masalan, toshko'mir — 97% gacha ugleroddan va qolgani esa uchuvchi moddalardan tarkib topgan. Issiqlik berishi 7200—8750 kkal/kg. Ohaktosh — karbonli birikma, uning fizik xususiyatlari dan biri suvda eruvchanligi va uning natijasida katta miqdorda energiya ajratib chiqaradigan jinsligi.

Ayrim mutaxassislar² yer osti boyliklarini «yer osti qazilmalari» deb ham yuritadilar. Lekin bu fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Chunki, sayyoramizda uchraydigan 3 ming turdan oshiq minerallarning atigi 200—300 xil turi inson faoliyatida «qazilma» boylik sifatida ishlatalidi, xolos. Undan tashqari, minerallar nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va madaniy sog'lomlashtirish vazifalarini ham bajaradi.

Yer osti boyliklarining ekologik funksiyasi — ekotizimlarning tabiiy fundamenti, pedosferani hosil qiluvchi ona jinslarning tarkib topishidagi mineral asosi ekanligi. Mineralning kimyoviy, fizik va biologik yemirilishi natijasida ona jinslar hosil bo'ladi va tirik organizmlarning faoliyati natijasida ular tuproqqa aylanadi. Bunday tabiiy jarayon yer osti minerallarining ekologik tizimlarda ishtirok etishini ta'minlab beradi.

Yer osti boyliklarining iqtisodiy funksiyasi — insonlarning kundalik hayotidagi (energetika, qurilish, sanoat va h.k. jabhalarida) moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi mineral xomashyoligi.

¹ Энциклопедик луғат. 1-ж. — Т.: ЎСЭБР, 1987. 522-6.

² X.T. Turusunov. Экология асослари ва табиатни муҳофаза қилиш. — Т.: Саодат РИА, 1997. 5-б.

Yer osti boyliklarining madaniy-sog'lomlashtirish funksiyasi — yer qa'ri va minerallarning foydali xususiyatlarini insonlarning dam olishi va salomatligini tiklashda ishlatalishi.

Yer osti boyliklarining o'ziga xos tomonlardan biri ularni tugallana-digan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar toifasiga kirishidir. Agar-da o'simlik va hayvonot dunyosining qayta tiklanish davri bir necha daqiqadan bir necha o'n yillarni, tuproq — yuzlab yillarni, suv — 10 yil-dan 5000 yilgacha vaqtini o'z ichiga olsa, minerallarning tiklanish dav-ri yuz minglab yoki millionlab yillarni talab etadi. Insoniyat tarixida bu jarayon juda uzoq muddatli davr bo'lgani uchun ham, biz ularni tik-lanish imkoniyati yo'q yoki tiklanmaydigan tabiiy resurslar toifasiga ki-ritamiz.

Ayrim minerallar (qum, tosh, toshko'mir va h.k.) yer usti va suv ostida ham uchraydi. Lekin ularning aksariyati (90% dan ortig'i) yer qa'rida uchragani uchun ham, biz shartli ravishda ularni — «yer osti boyliklari» deb ataymiz. Ular nafaqat tabiiy resurs sifatida, balki tabiiy boylik (obyekt) sifatida ham qaralib, ularni muhofaza qilish esa ekologik tizimlarning harakatini saqlab qolish demakdir.

O'zbekistonda yer osti boyliklaridan 100 dan ortig'i mineral resurslar sifatida ishlatalib kelinmoqda. Ularning moliyaviy potensiali 3,3 trln yillik qazib olishning iqtisodiy ko'rsatkichi 5,5 mlrd AQSH dollariga tengdir. Shuning uchun ham mineral xomashyo bizning asosiy boyligimiz hisoblanadi. Ulardan oqilonqa foydalanish va ularni muhofaza qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Is-lom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asari-da O'zbekiston sobiq Ittifoqning mineral xomashyo bazasi bo'lgani va undan o'ta shafqatsizlarcha — «tagi yo'q bochka» kabi foydalan-ganliklarini alohida ta'kidlab o'tgan. Natijada ular ekologik tizim-larning buzilishiga, «oy landshafti»ga o'xshash chiqindi moddalar tepaliklarini paydo qilishga, radioaktiv xavfli tegralarni vujudga kel-tirishga sabab bo'lganini aytib o'tgan. Endilikda bunday qayta tiklan-maydigan zaxiralardan qat'iy mezon asosida foydalanish, ularni qazib olish va qayta ishslash chog'ida isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik kerak. Buning uchun eskirgan qayta ishslash va qazib olish uskunalarini yangi texnologiyalar bilan almashtirish, rekonstruksiya qilish zarur. Tog'-kon sanoatining chiqindilarini o'zlashtirishni yanada kengayti-rish hamda buzilgan yerlarni qayta yaroqli holga keltirish talablarini amaliy qo'llash lozim.

Mustaqil Respublikamiz bozor munosabatlariga o'tib borar ekan, tabiiy boyliklardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish o'zgarib, takomillashib boraveradi. Eng asosiysi, yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir huquqiy me'yirlarni amaliyotda qo'llash mexanizmini to'liq ishlab chiqishdir. Aks holda qonunlarimiz «tishsiz» bo'lib qolishi va jamiyatda huquqiy negilizm holati vujudga kelishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Amaliy ekologiya fanmi yoki ta'limmi?
2. Amaliy ekologiyaning tadqiqot predmeti va prinsiplari nimalardan iborat?
3. Amaliy ekologiyaning vazifalarini sanab o'ting.
4. Iqtisodiyot tarmoqlariga qarab ekologik fanlar qanday tasniflanadi?
5. Ekotizimlar sanoat tarmoqlari bo'yicha qanday guruhlashtiriladi?
6. Iqtisodiyot tarmoqlarida tuproqlarni muhofaza qilish istiqbolilarini aytib bering.

9-bob. EKOLOGIK FAN VA TA'LIM

9.1. Ekologiya fanining falsafiy asoslari va uni respublikamizda rivojlanishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1994-yil 7-iyul-da respublika Fanlar akademiyasi umumiy yig'ilishida «Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin» mavzusida so'zlagan nutqida, «... yangicha fikrlash – g'oyat murakkab va bu bir kunda hal bo'ladigan ish emas. Buning uchun ancha vaqt va katta mas'uliyat kerak. Shuning uchun ham jamiyatni isloh etishda yangicha, zamonaviy fikrlovchi kishilarga tayanishni men hal qiluvchi omil deb hisoblayman. Bu masalaning hayotimizning barcha tarmoqlariga, shu jumladan, ilmu fan sohasiga ham bevosita daxli bor», – deb bejiz ta'kidlamagan edilar. Zero yangi rivojlanib va shakllanib kelayotgan ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid fan va uning ilmiy-nazariy asoslari ham bundan istisno emas, albatta.

Barcha fanlarda bo'lgani kabi «Ekologiya»da ham hanuzgacha o'z yechimini topmagan ilmiy-nazariy asoslar mavjud. Chunki, aynan, fundamental nazariy asos muayyan fan yoki fanlar tizimining mazmun va mohiyatini ochib beradi, uni boshqa fanlardan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarini yoritadi, rivojlanish bosqichlarini, ya'ni ekologik qarashlar tarixini aniqlab beradi va h.k. *Nazariya esa dogma emas, u zamonga mos ravishda o'zgarib turadi, rivojlanadi va takomilashib boradi.*

Hammamizga ma'lumki, barcha fanlarning «ildizi» falsafa-ga borib taqaladi. *Falsafada nazariya – bilimning biror-bir sohasiga oid g'oyalar tizimi yoki voqelik qonuniyatları va undagi muhim aloqalar haqida bir butun tasavvur beradigan bilim shakli¹.* Nazariyaning asosiy vazifasi tajribalar bergan dalillarni izohlash, voqeal va hodisalarning mazmun va mohiyatiga chuqurroq kirib borish, yangi paydo bo'lganlarini avvaldan ko'ra bilish hamda yangi bilimlar hosil qilishdagi boshlang'ich asosni shakllantirish. Nazariya amaliyot bilan uzviy bog'langandagina u yashovchan bo'ladi, harakat va rivojlanish quroliga aylana oladi.

¹ Назария. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-жилд. – Т.: «ЎзМЭДИН», 2003. 242-6.

Nazariyaga nisbatan falsafiy qarash ekologiya nazariyasiga oid qarashlarni yoki qarashlar tizimini (konsepsiyanı) shakllantirishda quyidagi elementlarga, to'g'riroq'i, yo'naltiruvchi qoida va prinsiplarga e'tiborimizni qaratishga chaqiradi:

- ✓ tajribadan kelib chiqish;
- ✓ voqeа va hodisalarga chuqurroq kirib borish;
- ✓ yangi g'oyalarni avvaldan ko'ra bilish;
- ✓ amaliyot bilan uzviy bog'lanish;
- ✓ gipoteza yaratish;
- ✓ gipotezani hayotda isbotlash;
- ✓ ilmiy bashoratlash.

Ekologiya nazariyasida, uning ilmiy asoslarini ochib berishda ham biz aynan ushbu yuqorida sanab o'tilgan prinsipiqları qoidalarga amal qilishga harakat qilamiz. Masalan, *ko'p yillik tajriba* shuni ko'rsatmoqdaki, «Ekologiya» O'zbekistonda mustaqil fan tarmog'iga aylanmagan. Uni biologlar biologiyalashtirishga, geograflar geografiyalashtirishga, kimyogarlar esa kimyolashtirishga harakat qiladilar. Buni, birinchidan, 2012–2016-yillarda uchun O'zR VM huzuridagi DFTM tomonidan 2011-yilda e'lon qilingan prioritet (birlamchi) ilmiy tadqiqotlar loyihibarida ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalari ning kirmay qolganligidan bilish mumkin. Ikkinchidan, keyingi 20–25 yil ichida chop etilgan o'quv adabiyotlari va monografiyalarning mazmun va mohiyati ushbu adabiyotlarni qaysi bir soha mutaxassisini tomonidan chop etilganligiga qarab bir tomonlama og'ishib ketilgan. Chunki sobiq Ittifoq davrida «ekolog» ta'lrim yo'nalishi yo'q edi va tegishli mutaxassisilar tayyorlanmagan. Mustaqillik davrida yetishib chiqqan ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi mutaxassislar hanuzgacha chuqur ilmiy asarlar yaratish darajasida emasligidan deb bilamiz.

Agarda ekologiyaning *ilmiy-nazariy jihatlariga chuqurroq kirib bora-digan bo'lsak*, unda biologiya va geografiyadan farqli o'ziga xos tadqiqot ishlari olib borilishi talab etiladi (9.1.1-jadval).

Kelgusida, *yangi g'oyalarni avvaldan ko'ra bilish nuqtayi nazaridan*, barcha ekologik tadqiqotlar yangidan tasniflangan va ilmiy asoslangan ekotizimlarni atroficha tahlil qilish, ularni nanoorganizmlarning ham yashash muhiti sifatida tasniflash, barcha ekologik tadbirlar ni ma'muriy birliklar doirasida emas, balki ekotizimlar doirasida olib borishning ilmiy-amaliy jihatlarini ochib berish kabi tadqiqotlarga yo'naltiriladi.

Ekologik tadqiqotlar tizimini biologik va geografik tadqiqotlardan farqi

Ekologik tadqiqotlarda	Biologik tadqiqotlarda	Geografik tadqiqotlarda
Birinchi galda organizmlarning yashash makoni – ekotizim aniqlanadi	Avvalambor organizmlar tur va son jihatdan aniqlanadi	Tadqiqotda tabiiy va ijtimoiy muhit geotizimlari aniqlanadi
Ekotizimlar nomlanadi	Organizmlar nomlanadi	Geotizimlar nomlanadi
Ekotizimlar guruhlarga ajratiladi, ya'ni tasniflanadi	Organizmlar sinflarga ajratiladi, tasniflanadi va tizimlashtiriladi	Geotizimlar taksonomik birliklarga ajratiladi va tasniflanadi
Ekotizimlar va uning komponentlari son va sifat jihatidan baholanadi	Organizmlar turi, populatsiyasi, jamoasining tarqalish darajasi va yashash muhiti o'rganiladi	Geotizimlarning o'ziga xos hududiylig jihatlari o'rganiladi
Ekotizimlar doirasida organizmlar o'zaro va ularning atrof tabiiy muhiti bilan bo'ladigan aloqadorlik qonuniyatlari ochib beriladi	Organizmlarning turli biologik jihatlari tadqiq etiladi	Geotizimlarning majmualilik xususiyatlari ochib beriladi
Ekologik mummolar aniqlanadi	Organizmlar biotsenozi va biogeotsenozlari darajasida tadqiq qilinadi	Geotizimlar tizimlashtiriladi
Ekotizimlarni muhofaza qilish masalalari tadqiq qilinadi	Biologik resurslardan oqilonna foydalanish o'rganiladi	Geotizimlarning davriy o'zgaruvchanligi aniqlanadi
Ekotizim resurslaridan oqilonna foydalanish masalasi o'rganiladi	Organizmlarning biotekhnologik, biokimyoiy, biofizik xususiyatlari ochib beriladi	Geotizimlarni muhofaza qilish va ulardan oqilonna foydalanish ilmiy asoslanadi
Buzilgan ekotizimlarni tiklash masalalari ilmiy asoslanadi	Biologik xilma-xillikni ta'minlashning ilmiy asoslari yaratiladi	Geotizimlarni tabiiy va ijtimoiy kategoriya nuqtayi nazaridan optimallashtirish yo'llari ilmiy asoslanadi
Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari yaratiladi va h.k.	Organizmlarni muhofaza qilish tadqiq qilinadi va h.k.	Geotizimlar baholanadi, monitoringlashtiriladi, nazoratlanadi, prognozlashtiriladi, kartalashtiriladi, rasonlashtiriladi va h.k.

Ekologiyani amaliyot bilan uzviy bog'lash maqsadida 1989-yili O'zbekistonda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning viloyat bo'linmalarini tashkil etildi. 2008-yilda esa ekologik qonunchilikni ta-

komillashtirish, jamoat birlashmalari va fuqarolarning ekologiya-salomatlik borasidagi faoliyatlarini jadallashtirish uchun «O'zbekiston ekologik harakati» tashkil etildi va unga bir qator muhim boshqaruv funksiyalari yuklatildi. 2012-yili BMTning GEF fondi tomonidan Urganch davlat universiteti qoshidagi Barqaror rivojlanish uchun ta'lim kafedrasi va Xorazm agro-konsultativ markazi – «KRASS»ga «Amaliy ekologiya»dan maxsus o'quv standartlari va majmualarini yaratish loyihasini qo'llab-quvvatlandi.

Gipoteza yaratishga keladigan bo'lsak, u grekchada asos yoki taxmin qilish degan ma'nolarni anglatadi. Ekologiya fanida esa gipoteza aholining ommaviy tarzda ekologik ongi va madaniyatini ko'tarish uchun kishilik jamiyatining barcha faoliyatida, inson qanday kasb egasi yoki qay yoshda bo'lmasin baribir ekologik tarbiya va ta'limning majburiylik prinsipi kiritildi. Abdullo Avloniyning «Tarbiya biz uchun ham hayot, ham najot» degan so'zlarini ekologik tarbiyada qo'llash juda o'rinnlidir. Ushbu tarbiyaviy jarayon beshikdan to qabrgacha davom etsagina biz nafaqat insonlar, balki butun organizmlar uchun ekologik xavfsizlikni ta'minlab bera olamiz, degan gipotezani olg'a surishi mumkin.

Yuqoridagi *gipotezaning hayotiyligini* quyidagi misollarda ko'trish mumkin. 1990-yilgacha O'zbekistonda yovvoyi o'sadigan dorivor va iste'mol qilinadigan o'simliklar dunyosidan foydalanish me'yorlari o'rnatilmagan edi. 1991-yildan boshlab ushbu jarayon mustaqil respublikamizda me'yorlandi, 1995-yildan buyon O'zR FA «Botanika» IIChM tomonidan maxsus ilmiy tadqiqotlar rejasiga kiritildi va aholi o'rtasida tarbiyaviy ishlarni olib borish natijasida dorivor va ozuqabop yovvoyi o'simliklar dunyosidan foydalanish nazoratga olindi.

Ilmiy bashoratlash fanda prognozlashtirish deb yuritiladi¹. Orol dengizining jadal ravishda qurib ketishini XX asrning 60-yillarida sobiq SSSR suv muammolari instituti olimlari tomonidan prognoz qilingan edi. Shuning uchun ham sobiq Ittifoq davrida eng Oliy boshqaruv organi hisoblangan KPSSning XXV–XXVII-syezdlarida «Sibir daryolarini janubga O'rta Osiyoga oqizish» loyihasi kun tartibiga qo'yilgan va qarorlarida etgan edi. Lekin XX asrning ushbu ulkan irrigatsiya-melioratsiya sohamidagi loyiha ekologik ekspertizadan o'tmaganligi va xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmaganligi uchun ham amalga oshmay qoldi. Natijada olimlarning Orol taqdiriga oid prognozlari to'g'ri chiqdi. Ham mamilizga ma'lumki, keyingi 30–40 yil ichida 5 mln hektardan ortiq maydon suvsizlanishi natijasida Orol dengizi Yer kurrasidagi eng yirik ko'ldan eng tez qurib borayotgan mayda ko'lchalarga aylanib qoldi.

¹ Прогноз. Ўзбек тилининг изохли луфати. З-жилд. – Т.: «ЎзМЭДИН». 310 б.

O'zbekistonda ekologiya yo'nalishidagi tadqiqotlarni nafaqat geografiya, balki ekologiya sohasida ham olib borgan zabardast olim, professor R.U. Rahimbekov¹ O'rta Osiyolik ekolo-geografik ilmiy maktablarning yaratilishi bilan bog'laydi. Umumiy tarzda olim tabiat-shunoslikga oid tadqiqotlarni quyidagicha guruholashtirgan:

- fizoeколо-географик мактаб – N.L. Korjenevskiy, V.M. Chetirkin, L.N. Babushkin – N.A. Kogay, V.L. Shuls – O.P. Poslavskaya, R.U. Rahimbekov;
- pedoеколого-географик мактаб – N.A. Dimo, I.N. Stepanov;
- фитоеколого-географик мактаб – K.Z. Zokirov, Y.P. Korovin, M.G. Popov;
- зооеколого-географик мактаб – A.I. Izrail, A.S. Shatalina, A.L. Brodskiy, T.Z. Zoxidov, B.O. Toshmuhamedov, G.K. Komilov;
- агроеколого-географик мактаб – S.N. Rijov – D.S. Sattarov, A.A. Ergashev va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hisobotiga ko'ra² keyingi 19 yil ichida ekologik fan ko'proq amaliy-innovatsion yo'nalish kasb etib, ular asosan quyidagi masalalarni hal etishga qaratilgan edi:

- sog'liqni saqlash va atrof-muhit muammolarini samarali yechishda ustuvor metodlarni yaratish;
- qurilishning barcha turlari uchun yer tanlashda zarur bo'lgan huj-jatlar tarkibi bo'yicha ko'rsatmalarни ishlab chiqish;
- atmosfera havosiga zararli chiqindilarни tashlashni inventarizatsiya qilish;
- atrof-muhitni inson salomatligiga ta'sirini baholash;
- tabiiy resurslar sifati, holati ustidan monitoring olib borish va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks sxemalar va tadbirlar ishlab chiqish;
- Orol muammosi oqibatlarini yengillashtirish bo'yicha kompleks tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshrish;
- atrof-muhit ta'sirini baholash loyihalarni ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish va maishiy chiqindilar bo'yicha ishlarni olib borish va h.k.

¹ Рахимбеков Р.У. Отечественная экологическая школа: история её формирования и развития. – Т.:«Шарқ», 1995. 256 с.

² O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risida Milliy ma'reza – 2008. (1988–2007-yillar bo'yicha retrospektiv tahlil). – Т.: «Chinor ENK», 2008. 224–228-b.

Xulosa qilib aytganda, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda fundamental yo'nalishdagi ilmiy ishlanmalar ko'lmini O'zbekistonda kengaytirish o'ta döлzarb masala hisoblanadi. Chunki amaliy va innovatsion tadqiqotlarni ekologik masalalarga yo'naltirish aynan fundamental ishlanmalarni yetarli darajada yo'lga qo'yilganligi bilan baholanadi.

9.2. Ekologik ta'lim

1972-yil Atrof-muhit bo'yicha Stokholm konferensiyasida ekologik ta'limning xalqaro dasturini yaratish bo'yicha tavsiyanoma qabul qilindi. Unda «inson-jamiyat-tabiat» munosabatiga oid bilim ekologik ta'limdan boshlanishi haqida uqtirildi, chunki bugungi kunda Yer kurrasida ekologik ta'lim atrof-muhit muhofazasi sohasida kadrlar tayyorlashning zaminidir. BMTning «Rio+20» konferensiyasining qarorida insoniyatni yer yuzida saqlab qolish strategiyasi va barqaror rivojlanishi ni tatbiq qilishda ekologik ta'limning o'rni ulkanligi alohida ta'kidlab o'tilgan edi.

Chet mamlakatlarda ta'limni ekologiyazatsiyalash bizning mamlakatimizdan barvaqt boshlangan. Sharqiy Yevropa va AQSH mamlakatlarda tabiiy muhit ifloslanishining oldini olish maqsadida atrof-muhitni saqlash strategiyasidan uning holatini hamma bosqichda nazorat qilishga tomon bormoqda. Davlatlarning ichki va tashqi siyosatida atrof-muhit muhofazasi masalalari kiritilganligi nazoratga olinib, insoniyatning atrof-muhitdagi barcha faoliyati barqaror rivojlanish tamoyillariga to'liq mos kelishi xalqaro hamjamiyat e'tiboridadir. Yangicha yondashuvning diqqatga sazovor tomonlaridan biri jamoatchilikka turli xil ekologik yo'sindagi axborotlarni erkin olish va tarqatishlariga keng huquqlar berilganligidadir.

Ekologik ta'lim sohasida chet el olimlari bir necha o'n yilliklar mobayanida quyidagi muammolar ustidan izlanishlar olib bormoqdalar. Masalan:

– V.E. Girusov, V.I. Danilov-Danilyan, H.A. Karmayev, I.I. Kravchenko, G.A. Kuznetsov, H.H. Moiseyev, N.F. Reymers, A.D. Ursul, R.G. Barker, V.R. Catton, D.D. Chiras, R.E. Dunlap va boshqalar ekologik ta'lim asoslarining falsafiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa jihatlari;

– G.V. Akopov, A.A. Aldashev, A.A. Brudniy, V.E. Girusov, A.D. Ioseliani, D.N. Kavtaradze, N.M. Mamedov, V.I. Medvedev, E.I. Cherdimova, B.A. Yasvin, D.H. Meadovs, D.L. Meadovs, J. Ranners, A.W. Wiecker va boshqalar insonlarning tabiatga munosabatini

keskin o'zgartiruvchi ekologik ta'limga mazmuni va mohiyati, tuzilishi, ekologik ong va madaniyatni shakllantirish masalalari;

— S.N. Glazachev, V.P. Gorlachev, N.S. Dejnikova, O.N. Kozlova, I.I. Mazur, O.G. Tavstuxa va boshqalar ekologik ta'limning asosiy maqsadi sifatida ekologik madaniyatni shakllantirish;

— A.F. Baranov, N.B. Dementyev, Y.I. Mixalchenko, J.B. Moiseyeva, O.V. Popova, B.I. Strelets, L.F. Tararina va boshqalar uzlusiz ekologik ta'limga tizimini hamda uning mintaqaviy jihatlarini yaratish;

— A.N. Zaxlebniy, I.D. Zverev, V.M. Senkevich, G.P. Sikorskaya, I.T. Suravegina, Ch.M. Geesteranus, J.C. Smith, L.F. Schmore, A.J. Susan va boshqalar umumiy ekologik ta'limga tarbiyaning nazariy-metodik asoslarini aniqlash;

— V.I. Blinnikov, G.S. Kamerilova, S.S. Kashlev, A.B. Mironov, O.D. Duncan, S. Foresman va boshqalar umumta'limga muassasalarida pedagoglarni ekologik ta'limga tarbiyaga tayyorlash;

— E.I. Yefimova, I.N. Kondrashova, H.A. Liz, N.M. Mamedov, K.A. Romanova, U.Halbach va boshqalar turli darajadagi kasbiy ta'limga muassasalarida ekolog mutaxassislarini tayyorlashning turli yo'nalishlari tahlili va ilmiy-amaliy ishlamalarini yaratishga harakat qilmoqdalar.

Xalqaro standartlarga monand ravishda ekologik ta'limga atrof-muhit haqida, yordamida va uning uchun ta'limga mavjud. Bu uchta komponent ekologik ta'limning bo'laklangan masalalarini kompleks ravishda yechishni ta'minlaydi. Masalan, *G'arbiy Yevropada* bolalar maxsus xo'jaliklarda yovvoyi hamda uy hayvonlari bilan muloqotda bo'lishi, hattoki ularni parvarish qilish orqali ekologik ta'limga tarbiya sifatida uch yoshdan boshlanadi.

Avstriyada ekologik ta'limga zamini maktab dasturlariga kiritilgan. Masalan, maxsus maktab loyihalarini tashkillashtirish («Maktab bog'i», «Atrof-muhit tarixi», «Maktabda ekologiya», «Ekologik ustaxona», «Tabiat uchun ijodiyot»); tabiatni muhofaza qilish aksiyalarini o'tkazish («Ozon», «Alp faoliyati»); turli xil didaktik materiallar va maxsus o'quv qo'llanmalarini tayyorlash; pedagog-ekologlar uchun seminarlar hamda bolalarning ekologik ta'limga ishtirot etuvchi baracha mutaxassislarini qayta tayyorlash kurslari; ekologik ta'limga masallari bo'yicha jurnal va gazetalar nashri; «Atrof-muhit, maktab va jamoat» va shu yo'sindagi maxsus ekologik ta'limga dasturlarini tayyorlash; ekologik ta'limga masallari bo'yicha umum davlat ma'lumotlar bankini yaratish; koordinatsion funksiyalarini amalga oshirish; bolalarni

ekologik ta'lifi bilan bog'liq bo'lgan maktab va maktabdan tashqari ekologik ta'lim, turli loyihalarda ishtirok etish xohishini bildirgan o'qituvchilarni konsultatsiyalash. Avstriyaning oliy kasbiy ta'lim bosqichida ekologik ta'lim to'g'ridan to'g'ri maxsus va kasbiy fanlarni tanlov asosida o'qitishdan boshlanadi. Umumiy ekologik ta'lim va tarbiya esa umumiy ta'lim tizimiga kiritilgan.

Daniyadagi ekologik ta'lim va tarbiya muammolari barcha pedagogik kasbiy ta'lim tizimiga kiritilgan. Pedagoglarni tayyorlashda majburiy ekologik ta'lim, fanlararo mustaqil ta'lim, tegishli o'quv materiallarning ommabopligidagi namoyon etilgan. Daniya, Skandinaviya yarimoroli davlatlari bilan Shimoliy Simpozium o'tkazish va «Skandinaviyada atrof-muhit sohasida ta'lim», «Boltiq dengizi», «Shimoliy dengiz» xalqaro va «Toza daryolar», «Kislotali yomg'ir», «Yashil bayroq» milliy ta'lim loyihalarini amalga oshirish, dengiz sohillarining ekologik holatini kartalashtirish va o'rganish yo'lli bilan uzoq muddatli hamkorlik loyihalarining doimiy qatnashchisidir.

Germaniyada ekologik ta'lim yoshlarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini o'zgartirish va bilimlarini rivojlantirish, ularning tabiatni muhofaza qilishga tayyorligini oshirish, o'sib kelayotgan avlodda ekologik mas'uliyatli xulqni shakllantirishga yo'naltirilgan. Bunda asosiy urg'u inson, jamiyat va tabiiy muhit orasidagi munosabatlarni ochib berishga qaratiladi. Ekologik ta'limda inson omili asosiy bo'lib, u ekotizimlarni halokatli ifloslanishga olib kelmoqda.

Irlandiyaning ekologik ta'limi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan: insonni atrof-muhit bilan munosabati kompleksligini tushuntirishga yordamlashish; shahar va qishloq hududlarida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik munosabatlarga qiziqishlarini rag'batlantirish; har bir tinglovchiga mas'uliyatli ekologik yechimni qabul qilish uchun bilim, munosabat, qadriyat va malakani olishi hamda tabiiy muhitni himoya qilish va takomillashtirish uchun zarur amaliy bilim va ko'nikmalarni berish; individual, guruh va jamoa ongida atrof-muhitda faoliyat olib borish va o'zini tutish bo'yicha yangi ekologik modellarni yaratish va uni amalda tatbiq etish; alohida fuqaro, turli ijtimoiy guruh va jamoalarda tabiatga nisbatan yangicha munosabatda bo'lishni shakllantirishga yordam berish; aholining keng amaliy ekologik malaka olishlariga yordam berish; ekologik muammolarni aniqlash va tasniflashni shakllantirish; muammoli masala va vaziyatlarni hal qilish; ekologik muammolar yechimini qabul qilish jarayonida ishtirok etish.

Shvetsiyada ekologik ta'lim 1970-yilda Yevropa Atrof-muhit yiliga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish arafasida yaratildi. Shu yillarda atrof-muhit muhofazasi ta'limi yangi to'qqiz yillik majburiy ta'limga kiritildi. Shu bilan birga atrof-muhit masalalari bo'yicha Milliy dastur tayyorlandi va qabul qilindi. Uning talablariga binoan Shvetsiyada pedagog va o'quvchilar uchun yangi o'quv qo'llanmalar va yo'riqnomalar nashr qilindi. Ekologik ta'lim Skandinaviya yarimorolida joylashgan davlatlarning hamkorligidagi birlamchi masalaga aylandi. Shvetsiya atrof-muhitni muhofaza qilish jamiyati va ta'lim bo'yicha Milliy agentligi hamkorligida ekologik ta'limning muammolari bo'yicha umumdavlat axborot tizimi yaratildi.

Yaponiyaning milliy xo'jaligining yuksak ekologik madaniyati atrof-muhit sohasidagi ta'lim dasturlari orqali erishilgan bo'lib, unda milliy kasbiy tayyorgarlikning barcha bosqichlari qamrab olingan. Yaponlar dinga ko'p kirishmagan, shuning uchun ham ularda ikonalar o'rnida go'zallik mehrobi – gulli vaza turadi. Ikebana Yer planetasidagi barcha insonlarga ma'lumdir. Yaponlarning tabiatga munosabati – bu o'zgacha milliy psixologiya bo'lib, uning asosida zamonaviy ong yotadi. Shuning uchun ham ularda ekologik tarbiya qadimiy tarixga ega.

AQSHning umumta'lim maktablaridagi ekologik ta'lim turli shakl, yo'nalish va uslubiy yondashuv, barcha ta'lim yo'nalishlari mazmuniga ekologik etikani chuqur kirib borishi, aholining atrof-muhitga ehtiyyotkorlik va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishini shakllantirish jarayonida keng ommani, ayniqsa, nodavlat zamoat tashkilotlarini jalb qilish bilan birga olib boriladi.

Rossiya davlatining ekologiya mutaxassisligi bo'yicha oliy kasbiy ta'limning Davlat ta'lim standartlarida ekolog quyidagi faoliyatni yurgizishi mumkin: loyihalash, ishlab chiqarish va pedagogika. Unda ta'lim olishni davom ettirish 013100 – «Ekologiya» yo'nalishi bo'yicha oliy kasbiy ta'lim dasturini o'zlashtirgan ekolog magistratura mutaxassisligi bo'yicha «Ekologiya va tabiatdan foydalanish» hamda «Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish», «Ekologiya» va boshqa yaqin mutaxassisliklar yo'nalishlarida davom etirishi mumkin.

Ekologiya mutaxassisligi bo'yicha ekologlarni tayyorlashda majburiy ta'lim dasturlariga kiritilgan fanlar quyidagilardan iborat (9.2.1 va 9.2.2-jadvallar):

Ekologiya yo‘nalishidagi o‘quv reja

Indek	Fan nomi va uning asosiy bo‘limlari	Soat
ГС	Umumiy gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar	1 800
ГСЕ.Ф.00		1 608
ГСЕ.Ф.01	Xorijiy til	340
ГСЕ.Ф.02	Jismoni tarbiya	408
ГСЕ.Ф.03	Vatan tarixi	100
ГСЕ.Ф.10	Falsafa	150
ГСЕ.Ф.11	Iqtisodiyot	100
ГСЕ.Ф.07	Psixologiya va pedagogika	100
ГСЕ.Ф.06	Huquqshunoslik	100
ГСЕ.Ф.05	Siyosatshunoslik	100
ГСЕ.Ф.04	Madaniyatshunoslik	100
ГСЕ.Ф.08	Rus tili va nutq madaniyati	100
ГСЕ.Ф.09	Sotsiologiya	100
ГСЕ.Р.00	Milliy regional komponent (talabaning tanlovi asosida OTM tomonidan o‘rnataladi)	192
ЭИ	Umumiy matematik va tabiiy-ilmiy fanlar	1 800
ЭН.Ф.00	Federal komponent	1 600
ЭН.Ф.01	Matematika	350
ЭН.Ф.02	Informatika	200
ЭН.Ф.03	Fizika	200
ЭН.Ф.04	Kimyo	250
ЭН.Ф.05	Biologiya	250
ЭН.Ф.06	Geologiya	100
ЭН.Ф.07	Geografiya	150
ЭН.Ф.08	Tuproqshunoslik	100
ЭН.Р.00	Milliy regional komponent (talabaning tanlovi asosida OTM tomonidan o‘rnataladi)	200
ОПД	Yo‘nalishning umumkasbiy fanlari	3 300
ОПД.Ф.00	Federal komponent	2 450
ОПД.Ф.01	Umumiy ekologiya	200
ОПД.Ф.02	Atmosfera haqidagi ta’limot	150
ОПД.Ф.03	Gidrosfera haqidagi ta’limot	150
ОПД.Ф.04	Biosfera haqidagi ta’limot	200
ОПД.Ф.05	Landshaftshunoslik	100
ОПД.Ф.06	Amaliy ekologiya	100
ОПД.Ф.07	O’simliklar ekologiyasi	100
ОПД.Ф.08	Hayvonlar ekologiyasi	100


ОПД.Ф.09	Mikroorganizmlar ekologiyasi	100
ОПД.Ф.10	Biogeografiya	100
ОПД.Ф.11	Inson ekologiyasi	100
ОПД.Ф.12	Tabiatdan foydalanish asoslari	150
ОПД.Ф.13	Ekologik toksikologiya	100
ОПД.Ф.14	Tabiatdan foydalanish va atrof-muhitini muhofaza qilishning huquqiy asoslari	100
ОПД.Ф.15	Ekologik risk va texnogen tizimlar	150
ОПД.Ф.16	Ekologik monitoring	100
ОПД.Ф.17	Ekologik ekspertiza	100
ОПД.Ф.18	Radiatsiya ekologiyasi	100
ОПД.Ф.19	Ekologik epidemiologiya	100
ОПД.Ф.20	Geoaxborot tizimlari	150
<i>Milliy regional komponent (talabaning tanlovi asosida OTM tomonidan o'rnatiladi)</i>		850
СД.00	Maxsus fanlar	912
ФТД.00	Fakultativ fanlar	450
ФТД.01	Harbiy tayyorgarlik	450
ФТД.02	Psixologik-pedagogik fanlar sikli	450
<i>Nazariy ta'lim soatlari</i>		8 262
<i>Amaliyot</i>		1 620
<i>Jami</i>		9 882

9.2.2-jadval

Ta'lim dasturlarini o'zlashtirish muddatlari

Kunduzgi bo'limda ekologlarni tayyorlashning asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirish muddatlari	260 hafta
jumladan: Nazariy ta'lim (bunga talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari, amaliyot, shu jumladan laboratoriya ishlari hamda imtihon sessiyalari kiradi)	180 hafta
Amaliyot (o'quv, ishlab chiqarish, kvalifikatsiya oldi)	30, 12, 8, 10 hafta
Yakuniy davlat attestatsiyasi, (malakaviy bitiruv ishini tayyorlash va himoya qilish)	16 hafta
Ta'til	34 hafta

Ekoglarning kasbiy kompotensiyalarining shakllanish modeli – kasbiy ekologik ta’lim tarkibiy qismlari maqsadlari, vazifalari, obyektlari va shartlari tizimi. Bu ekolog mutuxassisligining kasbiy faoliyatining o’ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy talabi bilan bog’liqdir (9.2.1-rasm).



9.2.1-rasm. *Ekolog kasbiy faoliyatining o’ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy talablari.*

Bu birinchidan, ekologik ta’lim jamiyat rivojining asosiy omillari dan biri. Ekologik ta’lim insonlarni tabiatga bo’lgan munosabatini o’zgartirishga qaratilgan fikrlash, xulq va atvor stereotiplarini shakllantirish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, har bir davlat va inson tomonidan kasbiy etikaning yangi tamoyillarini qabul qilish, madaniyat va adolatga, ba’zi bir cheklolar va taqiqlarni shakllanishiga qaratilgandir. Ikkinchidan, ushbu model ekologning kasbiy kompotensiyasi uchun pedagogik sharoitni shakllantirishni aniqlashtiradi. Uchinchidan, ekologik ta’lim modelining tuzilishi texnologik algoritmni rivojlanterish, kelajakda ekologik ta’limni joriy etishni tashkil etadi. To’rtinchidan, ekoglarning tayyorlashda kasbiy ekologik ta’limning jahon standartlariga javob beradigan va ekolgarda shu jarayonni ishlab chiqarish,

tashkiliy-boshqaruv va axborot-analitik faoliyatlarini sinflashtiradi. Besinchidan, yangi axborot texnologiyalarni joriy etish ta'lim jarayonida tez moslashuvchan ta'lim tizimini rivojlanishini ko'rsatadi. Oltinchidan, ekologik madaniyatni ham rivojlantiradi. Bularning barchachi hayotiy tajribalardan kelib chiqadi va axloqiy tamoyillarga yondashadi.

Umuman shuni aytish kerakki, rivojlangan davlatlarda ta'limning barcha pog'onalarini ekologiyalashtirilgan tarzda olib borilmoqda.

9.3. Milliy uzlusiz ta'limda ekologiyani o'qitish muammolari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrda Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yana-da chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» nomli ma'rzasida «Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid qonunchilikni yanada rivojlantirish, insonni va mamlakat aholisini ekologiyaning xavfli va tajovuzkor o'zgarishlaridan himoya qilish» bugungi kunda respublikamiz uchun eng dolzarb masalalardan biri ekanligi, shuning uchun ham ekologik harakat vakillariga Qonunchilik palatasidan 15 ta joy ajratilganligi haqida ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 18-sentabr 212-sonli qarori bilan tasdiqlangan «2008–2012-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi»ning I bandida uzlusiz ekologik va barqaror rivojlanish uchun ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ekologik ilm-fanni rivojlantirish, ekologik bilimlarni keng targ'ib qilish vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi hamda Xalq ta'limi vazirliklari tomonidan BMTning «Barqaror rivojlanish uchun» ta'lim bo'yicha Dekadasi hamda BMT Yevropa iqtisodiyot komissiyasining Strategiyasini O'zbekistonda bajarilishiga ko'maklashish va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 2010-yil dekabrida qabul qilindi. Ushbu dastur va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 31-yanvarda tasdiqlangan Ish rejasiga 2011–2012-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarida ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ekologiya va tabiatdan foydalanish sohasiga oid o'quv, o'quv-uslubiy majmualarni takomillashtirish va ularni amalga joriy etish vazifalari kiritilgan.

Yuqorida qayd etilgan milliy davlat tizimini modernizatsiya qilish talablari hamma fan yo'nalishlari, jumladan ekologik ta'lim va tar-

biya tizimini qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etadi. Chunki milliy ekologik ta'lif va tarbiya tizimi shu kunning talablariga to'liq javob beradi, deya olmaymiz. Buning asosiy sabablaridan biri 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunining 4-moddasida ekologik ta'lifning majburiylik prinsipini 1997-yil qabul qilingan Ta'lif to'g'risidagi qonunda o'z aksini topmaganligidadir. Natijada milliy ta'lif tizimida ekologik ta'lif va tarbiya stixiyali ravishda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining «Ekoharakat» deputatlar guruhi hamda Fan, ta'lif, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirliklari, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi rahbarlarining respublikada uzlusiz ekologik ta'lif tizimini joriy etish haqidagi axborotlariga ko'ra parlament eshituvlari to'g'risida»gi 2010-yil 2-noyabrdagi qarorida, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qoshida faoliyat yuritayotgan «O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish ta'limi» idoralararo Muvofiqlashdiruvchi Kengashning 2011-yil yanvar oyida bergen hisobotiga ko'ra mammakatimizda ekologik ta'lif yo'nalishida 2005-yildan buyon uch bosqichda amalga oshirilgan bir qator ijobjiy ishlar qilingan bo'lsada, lekin ular yagona bir uzlusiz ta'lif tizimiga mos kelmaydi, deyilgan.

Ekologik ta'lifni zamon talablaridan chetda qolib ketmasligi, O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risidagi» qonuni hamda «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»da ko'rsatilgan uzlusizlik tamoyillariga moslashishi qanday bo'lmog'i kerak, degan savolga javob topishdadir.

Ekologik ta'lifga oid yagona, tizimlashgan va uzviylashgan kompleks ravishdagi ilmiy tadqiqot ishlari dunyo miqyosida hanuzgacha olib borilmagan. Jumladan O'zbekistonda¹ «Uzlusiz ta'lif tizimi uchun o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari», «Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari», «Malaka oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik ta'lif berishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari», «Tabiatshunoslik darslarida O'rta Osiyo allomalarining ekologiyaga oid qarashlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari», «Maktab tabiiy geografik kurslarida geoekologik bilimlar ti-

¹ Н.И. Тайлаков. Кори-Ниёзий номли ПФИТИ. – Т.: 2006. 362-б.
Н.Ш. Бозорова. Карши, 2006. 98-б; А.Р. Мелибоев. Кори-Ниёзий номли ПФИТИ. – Т.: 2007. 167-б. М.М. Алиқурова. Кори-Ниёзий номли ПФИТИ. – Т.: 2007. 187-б;
А.Т. Ҳайитов. Кори-Ниёзий номли ПФИТИ. – Т.: 1998. 196-б.

zimi va ta'limning metodik asoslari» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Lekin ular o'z tadqiqotlarida barcha ta'lim tizimini qamrab olmaganlar va ekologik ta'limni ierarxik pog'onada kompleks ravishda ko'rib chiqmaganlar.

Xuddi shunday holat sobiq Ittifoq bo'yicha ham qaytarilgan. Massalan, turli fanlarda ta'limning muayyan bosqichlarida ekologik ta'limning psixologik-pedagogik xususiyatlari, mazmuni, tuzilishi va shaklini M.G. Ashmanis, R.S. Karpinskaya, I.K. Liseyev, G.V. Platonov, A.G. Spirkin, A.S. Tonkix, E.A. Turdiqulov, K.P. Shurtakov, V.F. Chernovolenko va boshqalar tahlil qilishgan. Kasbiy ta'lim tizimida o'qituvchilarining uslubiy mahoratini oshirishda atrof-muhit muhofasasiga oid masalalarni N.D. Ivanov, Z.K. Ismoilova, N.I. Kravsov, M.V. Kuzmin, T.I. Olifirenko, V.S. Pikelnaya, P.V. Xudaminskiy, S.F. Rajabova, A.A. Shoyusupova, A.X. G'offorovlar olib borganlar.

Hanuzgacha respublikamizda «Ekolog» mutaxassislar tayyorlash, ekologiya sohasidagi bilimlarni keng targ'ib qilish, ekolog kadrlar mala-kasini oshirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish borasidagi ishlar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan muvofiqlash-tirilmagan. Oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan ekologiya bilan bog'liq malakaviy amaliyotlarni bevosita ishlab chiqarish korxonalarini va tashkilotlarida o'tkazilishini ta'minlash borasida qilinayotgan ishlar ham qoniqarli emas. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan ekologik bilimlarni targ'ib qilish borasida chop qilinayotgan nashrlar salmog'i 2009-yildan keyin keskin kamayib ketgan.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama komil va barkamol, davlat va jamiyat oldida o'z mas'uliyatini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi. Zero, uzlusiz ta'lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, Davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunida ham tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun barcha turdagи ta'lim muassasalarida ekologiya o'quvining majburiyligini ta'minlash vazifasi belgilab qo'yilgan.

Hammamiz garchand ta'lim so'zini kuniga juda bo'limganda bir marotaba tilga olsakda, lekin uning umume'tirof etilgan tushunchasiga o'z e'tiborimizni doimo ham qaratmaymiz. *Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tay-*

yorlashning asosiy vositasi¹, to‘g‘rirog‘i tizimi. Zero, ta’lim uzlucksizligi tizimlashgandir.

Uzlucksiz ta’lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari, davlat ta’lim standartlari, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitidir². O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning 9-moddasiga binoan milliy uzlucksiz ta’lim tizimi quyidagi turlardan iborat:

- 1) maktabgacha ta’lim;
- 2) umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim;
- 3) o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- 4) oliy ta’lim;
- 5) oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
- 6) kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun bilan bir qatorda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadida ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir, deyilgan.

Mustaqillik tufayligina milliy ta’lim turlari o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan xalos etildi. Unda o‘ziga xos va mahalliy sharoitga mos ravishda yangi milliy ta’lim tizimi shakllanmoqda. Rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimi tajribasi respublikamiz sharoitiga moslashtirilgan tarzda amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Mazkur jaryondan ekologik bilim va tarbiya ham chetda turmayapti. Zero, ekologiya, tarix, ona tili va adabiyot, milliy g‘oya fanlari kabi yoshlarimizni yuksak ma’naviyatli shaxs qilib tarbiyalash, tabiat bilan jamiyat qonunlarini uyg‘unlashtira oladigan kadrlar qilib yetishtirishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Uzlucksiz ekologik ta’lim — milliy ta’lim tizimining barcha bosqichlarini o‘zida qamrab oluvchi va uni ierarxik pog‘onada joylashtiruvchi, bilim berishni oddiyidan murakkab hamda ixtisoslikka tomon olib boruvchi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhi. Shuning uchun ham ekologik ta’lim va tarbiyani milliy uzlucksiz ta’limning barcha turlarida qo‘llashni quyidagicha olib borish tavsiya etiladi (9.3.1-jadval).

¹ Таълим ва узлucksiz таълим. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 8-жилд. — Т.: «ЎзМЭДИН», 2004. 307-6.

² Кадрлар тайёрлаши миллий дастури, 1997. 29-август.

Uzlusiz milliy ta'lrim tizimida ekologik ta'lrim va tarbiya

Ta'lrim bos-qichlari	Ekologik ong	Ekologik madaniyat	Asosiy ta'lrim	Qo'shimcha ta'lrim
Maktab-gacha ta'lrim	<i>«Ona tabiat» hqidagi umumiy tasavvurlar</i> (yer, suv, osmon, quyosh, o'simlik va hayvonot dunyosi...)	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Suvni asrash tajribalari ✓ Toza havo – tanga davo mashqlari ✓ Quyoshdan foydalanish yo'llari ✓ Velosiped afzalliklari ✓ Oyoq ostidagi xazina (Yer haqida) ... 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Ona tabiat ✓ Hayot va quyosh ✓ Birinchi qadam 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Tabiat va o'yinchoqlar ✓ Buni bilishni istayman ✓ Bu nima, bu kim? (topish-moqlar) ✓ Onalarga ona tabiat haqida ...
Umu-miy o'rta ta'limi (maktab) ta'limi	<p><i>Boshlang'ich ta'lim</i> 1–4-sinf. Men va atrof-muhit (tirik va notirik tabiat, inson qo'li bilan yaratilgan boyliklar, yil fasllari va undagi tabiat ajoyibotlari)</p> <p><i>Umumiy o'rta ta'lim</i> 5–9-sinf. Atrof tabiiy muhit haqida yetti saboq:1-saboq. Suv va uning ekologik vazifasi 2-saboq. Atmosfera havosi va uning ekologik vazifasi 3-saboq. Tuproq va uning ekologik vazifasi 4-saboq. O'simlik dunyosi va uning ekologik vazifasi 5-saboq. Hayvonot dunyosi va uning ekologik vazifasi 6-saboq. Tog' jinsi va uning ekologik vazifasi 7-saboq. Mikro- va nanoorganizmlarning ekologik vazifalari</p>	<p>Tabiat va jamiyat yaratgan narsalarni ajrata olish va ularga nisbatan mehr ko'zi bilan qarashni o'rgatish; fasllarni ajrata olish va ularni har biriga xos bo'lgan jozibadorligidan hayratga tushish</p> <p>Yer kurrasida va, ayniqsa, issiq va tog'li o'lkalarda suv, havo, yer va barcha tirik tabiat har birimizning hayot manbaimiz ekanligini his etish</p> <p>Amaliyot orqali tabiat va uning unsurlariga bo'lgan mehr-muhabbatni tabiat xilma-xilligi va inson-larning oziq-ovqatga bo'lgan tababini qondirish, insoniyatning yashash uchun kurash yo'lli ekanligini anglatish</p>	<p>Ekologiya alifbosi: 1-sinfda – «Men va atrof tabiat» (o'quv qo'llanma va ishchi daftari) 2-sinfda «Tabiat ohan-gida atrof-muhit»(o'quv qo'llanma va ishchi daftari) 3-sinfda «Yerda yashash sharofti» (o'quv qo'llanma va ishchi daftari) 4-sinfda «Inson tabiatni o'zgartirmoqda» (o'quv qo'llanma va ishchi daftari) <i>Ekologiya haqida yetti saboq:</i> 5-sinf. Tomchi suvda hayot jilvysi 6-sinf. Toza havo tanga davo 7-sinf. Jonli tuproq 8-sinf. Organizmlar hayoti-dan satrlar</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Tabiatga oid she'rlar to'plami ✓ Tabiatga oid rasmlar majmuasi ✓ Yosh ekologlarga maslahatlar ✓ Ekologik lug'at ✓ Ekologik ensiklopediya ✓ Din va tabiat ✓ Donorlar ekologik ong va tarbiya haqida ✓ Yosh naturalistlar lug'ati ✓ Sayohatchilar kundaligi ✓ Gerbariy namunasini ✓ Vatan tabiatini daftari ✓ Ekologik kartalar

	<i>Maktabdan tashqari ta'lrim</i> 1–4-sinf. Akvariumchilar, jajji naturalistlar, jonzotlar bizning do'stlarimiz to'garaklari 5–9-sinf. Yoshi o'lkashunoslar, yosh sayohatchilar, yosh tabiatshunoslar, naturalistlarning foto va kino klublari		9-sinf. Nanoorganizmlar tabiatda ✓ Akvarium haqida ilk sa-boqlar ✓ Naturalist kim va uning vazifalari nimalardan iborat? ✓ Turizm va ma'naviyat	
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi	<i>Akademik litsey ta'limi</i> <i>Kasb-hunar ta'limi</i> Kasbiy ekologiya (yo'nalishlar bo'yicha)	Kishilik jamiyatini atrof tabiy muhitga bo'lgan talabini qondirish uchun tabiatdan samarali foydalanishning lokal muammolarini hal eta olish ko'nikmasiga ega bo'lish ✓ yengil sanoatda ekologik talablar ✓ avtomobilsozlikda ekologik madaniyat qoidalari ✓ maishiy xizmat ko'rsatishning ekologik qoidalari ✓ ekoturizmning tabiy turizmdan farqi ✓ agroturizmda ekologik talablar ✓ ekologiyalashtirilgan iqtisodiyot ✓ ijtimoiy sohadagi ekologik talablar ✓ tabiat va jamiyat uyg'unligi zarurati	✓ Umumiy ekologiya Kasbiy mahorat talablaridan kelib chiqadigan ekologik talablar. Masa-lan: ✓ ishdan keyin sunvi muhofaza qilish uchun qo'llaniladigan ekologik talablar ✓ ish joyida sigerata chekish oqibatlari ✓ jamoa joylarida tozalikni saqlash qoidalarini bilish ✓ chiqindilardan bir-lamchi va ikkilamchi foydalanish qoidalari	✓ Atrof-muhitni muhofaza qilish lug'ati ✓ Ekologik atlas ✓ Ekologik madaniyat ni-ma? ✓ Ekologik boshqotirma-lar ✓ Ekologiyalashtirilgan tadbirlar iqtisodlashtirilgandir (mutaxassis xulosasi) ✓ Ekologik konkurslar ✓ Ekologik olimpiada

Oliy ta'lim	<i>Bakalavriat</i> Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishida: Noekologik yo'nalishlar bo'yicha:	Ushbu maxsus yo'nalishning 1–2-semestrlarida talablar ekologiya va atrof-muhit muhofazasining nazariy asoslari va uning rivojlanish tarixini o'zlashtirishlari orqali ularda ekologik madaniyatni shakllantirish talab etiladi. Har bir yo'nalishda mutaxassis o'z kasbi bo'yicha ekologik madaniyat namunasi ko'rsatishga oid takliflarni ishlab chiqish va ularni amalda qo'llashni namoyon etish. Shaxsiy harakat jurnalini tuzish va uning monitoringini olib borish	✓ Ekologiya nazariyasi va tarixi ✓ Atrof-muhitni muhofaza qilishning ilmiy asoslari ✓ Bioekologiya asoslari ✓ Geokeologiya va geografiya ✓ Ekologiya huquqi ✓ Ijtimoiy ekologiya ✓ Iqtisodiy ekologiya ✓ Muhandislik ekologiyasi ✓ Kosmos va ekologiya ✓ Pedoekologiya ✓ Nanoekologiya asoslari	✓ Internet sahifalaridan yan-giliklar ✓ O'zgaruvchan ekologik yangiliklar stendlari ✓ Yo'nalishlar bo'yicha lug'atlar va ensiklopediyalar ✓ Yo'nalishlar bo'yicha ekologik innovatsiyalar ✓ Ekologiyadan bitiruv malakaviy ishlar
	<i>Magistratura</i> Barcha mutaxassisliklarning ekologik jihatlari	O'z mutaxassisliklarda amalga oshirish imkoniyati bor ilmiy-amaliy innovatsion takliflar	✓ Xirurgiyaning ekologik talablar ✓ Nanoteknologiyalar va tabiatni muhofaza qilish ✓ Ekoturizmda atrof-muhit muhofazasi	✓ Ekologik treninglar ✓ Ekologik seminarlar ✓ Ekologik anjumanlar
Oliy o'quv yurti-dan keyingi ta'lim	<i>Katta ilmiy xodim-tadqiqotchilikda</i> Doktorlik dissertatsiyasini millyiy yoki global miyosoda aholining ekologik ongini ko'tarishga qo'shgan hissasini aks ettirish	Ta'lim, tarbiya, ishlab chiqarish xizmat ko'rsatish yoki boshqaruvda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ekologik madaniyat qoidalari	✓ Zamonaliv ekologik tadqiqot metodlari ✓ Ekologik ong va madaniyat qoidalariiga oid yangi g'oyalar ta'limi	Tadqiqotlar, tajribalar, sinovlar va aprobatsiyalar Majmuali tadqiqot, tajriba, sinov va aprobatsiyalar
Kadrlar malakasi-ni oshirish va qayta tay-yorlash	<i>Malaka oshirish</i> Zamonaliv ekologiya	Hozirgi zamон ekologik madaniyati	Barqaror rivojlanish ta'limi	Ekologiyaga oid yangiliklardan elektron tarqatma materiallar
	<i>Qayta tay-yorlash</i> Mutaxassisliklarga oid ekologiya nazariyasi va amaliyoti	Mutaxassisliklarda madaniyat qoidalari	Ekologik	Kasbiy ekologiyadan ada-biyotlar tahlili va bitiruv malakaviy ishlari

Maktabgacha ta’lim muassasalarida (bolalar bog‘chasi, oila va nodavlat muassasalari) bolalarning ekologik ongi, ularning ko‘ziga yaqqol tashlanayotgan atrof tabiiy muhit (yer, suv, osmon, quyosh, o‘simlik va (9.3.1-jadval) hayvonot dunyosi kabilalar) bilan «Ona tabiat» mavzusida ochiq havoda tanishtiruv soatlari yoki vaqtlarini o‘tkazish va rasmlar chizdirish, atrof olam haqidagi she’rlarni yodlatish, mashqlarni bajartirish va turli mavzudagi o‘yinlarni o‘ynatishdan boshlanadi. Mazkur muassasalarda an’anaviy «Bayram tadbirdi»ni 11-yanvar – Qo‘riqxonalar; 1-mart – Xalqaro qushlar; 21-mart – Navro‘z; 22-aprel – Xalqaro Yer (planetasi); 5-iyun – Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kabi 20 dan ziyod ekologik kunlarga (Internetdan topish mumkin) bag‘ishlab o‘tkaziladi. Ekologik ta’limga oid ilk tasavvurlar aynan bolaning ona tabiatni his etishidan boshlanadi. Qo‘srimcha ta’limda esa bola va uning ota-onalariga ekologiyaga yo‘naltirilgan viktorina, topishmoq va uy vazifalari beriladi.

Umumiyo‘rta ta’lim maktablarida ekologik ta’lim bolalarning yoshi-ga qarab asosan ikki, ya’ni boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim boch-qichlarida «Geografiya», «Biologiya», «Fizika» va hattotki «Tarix» kabi fanlarga integrallashgan yoki tatbiq etilgan o‘quv mavzulari asosida olib boriladi. Lekin ekologik ta’lim o‘zaro uzviy bog‘lanmagan va muvofiqlashmagan. Ushbu ta’lim bosqichidagi ekologik ong va madaniyatni shakllantirish ko‘rsatkichlari quydagi jadvalda aks etgan. Maktabdan tashqari ekologik ta’lim O‘zbekistonda «Bioekosan» muassasasi tomonidan to‘garak va turli shakldagi tanlovlardan orqali olib boriladi.

Maktab va maktabdan tashqari ta’limda ekologiya hozirgidek integrallashgan tarzda emas, balki matematika, fizika, ona tili, xorijiy tillar kabi maxsus o‘quv kurslarini, juda bo‘limganda yuqori 8–9-sinflarda, o‘qitilish qoidasidan kelib chiqqan tarzda amalga oshirilgani ma‘qul. Chunki ekologiya – organizmlar o‘zaro va ularni atrof-muhiti bilan bo‘ladigan qonuniylarlari tadqiq etuvchi fan sohasi, unga oid bilimlarni beruvchi ta’lim yo‘nalishi va ushbu munosabatlarni optimallashtirishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog‘idir. Differensiallik bolalarning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga oluvchi sinflar bilan farqlanish asosida tashkil etiladi. Albatta, bunda bilim olish oddiyidan murakkabga tomon ierarxik pog‘onalash, ya’ni tizimlash orqali tashkil etiladi va yuqori sinflarda «O‘zbekiston ekologiyasi» o‘quv kursi bilan yakunlanadi. Chunki yoshlarda milliy g‘oya va g‘ururni shakllantirish maqsadida «O‘zbekiston tarixi» o‘quv kursi bilan bir qatorda «O‘zbekiston ekologiyasi»ni o‘qitish maqsadga muvofiqir. Bu uning dav-

lat va jamiyat uchun naqadar zarurligini ko'rsatadi va umummajburiy xususiyatlarni namoyon etadi hamda yagona maqsad sari intiltiradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limali ekologiya tabaqalashgan tarzda amalga oshiriladi. Akademik litseylarning noekologik ta'lim muassasa-larida, oliy ta'lim talablaridan kelib chiqqan tarzda, «Umumiy ekologiya» o'quv kursi sifatida o'tilgani ma'qul. Unda umum ekologik ta'lim talablari bilan bir qatorda, atrof tabiatni muhofaza qilishning kundalik qoidalari va mahalliy miqyosda barqaror rivojlanishning ekologik xususiyatlari ochib beriladi.

Kasb-hunar kollejlarining yo'naliishlariga mos ravishda «Kasbiy ekologiya» o'tilishi mantiqan to'g'ridir. Masalan, pedagogika kollej-larida — «Ekologiyani o'qitish metodikasi», iqtisodiyotda — «Iqtisodiy ekologiya», turizm va servisda — «Ekoturizm asoslari» yoki «Ekoturistik xizmatlar»ni o'tish foydadan xoli emas. Bu bilan bitiruvchilarining amaliy ekologik bilim va ko'nikmalarini shakllantiriladi va ularning ishga joylashishlari osonlashadi. Ayniqsa majburiy ta'lim tizimidagi barcha yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishga xizmat qilamiz.

Oliy ta'limali noekologik bakalavr yo'naliishlarida, xuddi kasb-hunar kollejlardek, ekologik ta'lim talabalarini tanlagan kasblariga qarab o'qitilishini tashkillashtirish BMTning barqaror rivojlanish talablariga mos tushadi. Bunday holatda ekolog olimlarning hamma e'tibori jadvalda keltirilgan o'quv kurslari bo'yicha tuziladigan Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va ish rejalarini yuqori saviyada tayyor-lashni talab etadi.

Ekologik yo'naliishdagi bakalavriaturada ekologik ta'lim mifik yoki akademik litseydagagi ekologiya va tabiatdan foydalanishga oid o'quv kurslarining nomi va mazmunini zinhor qaytarishi kerak emas. Bu esa o'ta mas'uliyatli, ekologiyaning ijtimoiy nufuziga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etuvchi holatdir.

Barcha mutaxassisliklardagi ekologik ta'lim magistraturasida o'qish «Ekologik ilm texnologiyasi va ta'lim metodika»sidan boshlangani ma'qul. Chunki magistrantlar asosan ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradilar. Bu bilan ular ikki yillik o'quv jarayoni, davomida, bir paytning o'zida mehnat+ta'lim+ilmni muvofiqlashtirishlari hamda o'quv kurslariga oid namunaviy va ishchi DTSlari, o'quv rejalarini, dasturlari, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarini yaratishlari talab etiladi. Bu o'rinda O'zMU professori A.S. Soliyevning «Ilmiy tadqiqot asoslari», magistr va aspirantlar uchun qo'llanma (Toshkent, 2003), rossiyalik olimlar

V.S. Preobrajenskiy va L.I. Muxinalarning «Aspirantura va dissertatsiya» (Moskva, 1983) kabi qo'llanmalari ibratli misol bo'la oladi.

Magistraturaning I bosqichida ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy ta'lim bevosita tarzda emas, balki jadvalda ko'rsatilgan ixtisoslik fanlariga tatbiq qilinib, bilvosita tarzda o'tilishi maqsadga muvofiq. Unda mamlakatimiz tarixini ham, milliy g'oya va g'urur omillarini ham ekologik ta'limga tatbiq qilingan tarzda o'tilishi yuqori malakali magistrlarni tayyorlashda ta'lim-tarbiya birligini ko'rsatadi. Magistrlik dissertatsiyasi nomzodlik dissertatsiyasining juda bo'Imaganda 3/1 qismini tashkil etishi ekologik ta'lim uzluksizligi va uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham magistrlik dissertatsiya mavzulari chuqur o'yangan, mutaxassislar orasida keng muhokama etilgan va aprobatsiyadan o'tgan bo'lishi kerak.

Katta ilmiy xodim-izlanuvchida ekologik ta'lim doktorlik minummlari talablarida ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid savollardan boshlanadi. Doktorlik dissertatsiyalariga qo'yiladigan mezonlardan biri – ularda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo'shganligini ko'rsatish talablari bilan tugallanishi lozim. Buning uchun mutaxassis ekolog olimlar tomonidan «Nomzodlik dissertatsiyalarida ekologik va atrof-muhit muhofazasiga doir talablarni aks ettirish» mavzusida metodik tavsiyalarni tayyorlash, ularni <http://www.vak.uzsci.net>, <http://www.dad.idmnet.ru>, <http://www.commission-junction.com> kabi veb-saytlarda joylashtirish hamda O'zR OAK talablariga kiritish kerak.

Ekologlar malaka oshirayotganlarida ekologik ta'lilm→ilm→tarbiya→amaliyot uyg'unligining zamonaviy talablarini masofadan turib o'qitish, sinov natijalarini esa mintaqaviy miqyosda amalga oshirishni yo'lga qo'yishlari zarur.

XXI asrda **qayta tayyorlash** ekolog emas, lekin ekologiyani o'zlashtirmoqchi bo'lganlar uchun tashkil etiladi. Ular mutaxassislik-larga oid ekologiya nazariyasi va amaliyotini o'zlashtirishlari, ekologik madaniyat qoidalarini bilishlari, kasbiy ekologiyadan adabiyotlarni tahlil qilishlari va bitiruv malakaviy ishni yozishlari lozim.

2012-yil 17–18-may kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limenti rivojlantirish markazi va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti hamkorligida o'tkazilgan «Milliy kasbiy ta'limda uzluksiz ekologik ta'lim tizimining ilmiy-nazariy asoslari: muammolari va is-tiqbollarli» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman qarorida:

1. Oliy va kasb-hunar ta'limining noekologik bakalavr yo'nalishlarida ekologik ta'lim «O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi»dan kelib chiqqan tarzda oddiyidan murakkab hamda ixtisoslikka tomon, ya'ni o'quvchi yoshlar tanlagan kasblariga qarab differensial tarzda va majburiy o'qitilishi BMTning barqaror rivojlanish talablariga mos tushadi. Masalan, pedagogika kollejlari – «Ekologiyani o'qitish metodikasi», iqtisodiyotda – «Iqtisodiy ekologiya», turizm va servisda – «Ekoturizm asoslari» yoki «Ekoturistik xizmatlar»ni va h.k. Natijada bitiruvchilarining amaliy ekologik bilim va ko'nikmalari shakllantiriladi, ularni ishga joylashtirish osonlashadi. Buning uchun ekologiya va atrof-muhit sohasida faoliyat yuritayotgan Muvofiqlash-tiruvchi Kengash faoliyati, tarkibi va natijalarini atroflicha tahlil qilish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

2. Barcha ekologik ta'lim mutaxassisliklarda bilim berishni «Ekologik ilm texnologiyasi va ta'lim metodikasi»dan boshlash, ya'ni ikki yillik o'quv jarayonida mehnat + ta'lim + ilmni muvofiqlashtirishlari kerak.

3. Ekologlar malaka oshirayotganlarda ekologik ta'lim→ilm→starbiya→ amaliyot uyg'unligining zamонавиј тарабларини ма-софадан туріб о'qitish, синоннатијаларини esa mintaqaviy miqyosda amalga oshirishni yo'lga qo'yilishi zarur.

4. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi kadrlar tayyorlash klassifikatorida 600 000 – Xizmatlar sohasida turish mantiqan to'g'ri emas. Chunki, u boshqa xizmat sohasidagi «Mehmonxona ishini tashkil etish va boshqarish», «Turizm», «Ijtimoiy-madaniy faoliyat», «Sport faoliyati», «Yuklarni tashish va transport logistikasi», «Pochta ishini tashkil etish va texnologiyasi» kabi xizmatlar va servis tarmoqlaridan farqli, undan foydalanuvchilar uchun ixtiyoriy tarzda amalga oshirilmaydi. Ekologiya mustaqil fanlar tizimi, ta'lim yo'nalishi va amaliyot sohasi, uning aynan amaliy qismi atrof-muhitni muhofaza qilishdir. Zero, ekologiya organizmlarning o'zaro va ularning yashash makoni bo'lgan atrof-muhit, to'g'rirog'i, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilgandir. Shuning uchun ham klassifikatordagи tarmoqning nomini 630 000 – «Ekologiya» yoki, 630 000 – «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish», deb nomlash maqsadga muvofiqdir.

5. Kasbga tayyorlash klassifikatorida bakalavr ta'lim yo'nalishi 5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi «tarmoqlar bo'yicha» deb kiritilgan. Lekin qaysi tarmoqlar bo'yicha ekanligi unda aniq qilib ko'satilmagan. Chunki, xizmatlar tarmog'i yuqorida sanab o'tilgan mehmonxona, sport, ijtimoiy ta'minot kabilardan iboratdir. Ekologik

talablar ularda ham bor, lekin sanoat, ta'lim, fan, qishloq xo'jaligi kabi sohalardagidek o'ta xavfli harakat yoki harakatsizliklardan iborat emas. Shuning uchun ham ekologiya ham gumanitar, ham sanoat, ham fan, ham qishloq xo'jaligi sohalarining ichida bo'lishi kerak.

6. Magistratura klassifikatorda 4 ta mutaxassislik bo'yicha berilgan. Unda ham ekologik va atrof-muhit muhofazasiga oid kasbiy ta'lim faqatgina xizmat ko'rsatish tarmoqlari bo'yicha deyilgan, xolos. 5A630103 – Sanoat chiqindilarini tozalash (rekuperatsiya) mutaxassisligi amalda mavjud emas. Chunki «recuperatio» lotin tilida «qayta olish», ya'ni sanoat chiqindilarining foydali xususiyatlarini ushlab qolish va qayta ishlatalish, degan ma'noni anglatadi. Zero oqova suvlarni tozalash mumkin, lekin sanoat chiqindilarini hozircha amalda tozalashning iloji yo'q. Bu mutaxassislik xizmatlarda emas, balki 300 000 – sanoat-texnika sohasining bir tarmog'i sifatida kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

7. Xizmatlar sohasida turgan 5A630104 – Suv resurslarini muhofaza qilish va oqova suvlarni tozalash mutaxassislikni 400 000 – Qishloq va suv xo'jaligi sohasining mustaqil tarmog'i sifatida kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Zero suvlarni muhofaza qilishni tashkiliy boshqaruv, oqova suvlarni tozalash esa yuqori darajadagi texnologik jarayondir.

8. Ekologik ta'lim yo'nalishni 100 000 – Gumanitar (to'g'rirog'i, ijtimoiy-gumanitar) sohasida, 110 000 – Pedagogika tarmog'ining 5112200 – Ekologiya o'qitish metodikasiga, Ekologik ilmni esa 120 000 – Gumanitar ilm sohasining mustaqil ta'lim yo'nalishi sifatida olish mumkin.

9. Ekologiya – muayyan tabiat tizimida (ekotizimda) organizmlar o'zaro va ularning yashash muhiti o'rtasidagi munosabatlarning turli jihatlarini tadqiq qiluvchi fan tarmog'i, ularga oid bilimlarni beruvchi ta'lim yo'nalishi, ularni optimallashtiruvchi xalq xo'jaligi sohasidir. Shunday ekan, ekologiya organizmlar (jumladan, insonlar)ning yashash muhiti (uyi), ya'ni ekotizimlarda (gidrosfera, atmosfera, litosfera, pedosferada) hayot kechirishi haqidagi ta'limotdir. Bu o'rinda, ayniqsa «Ekologiya» (fan va ta'lim) sohasida, barcha quyi ta'lim bosqichlarida o'tiladigan organizmlarga oid fan – «Biologiya» (1-blok) va ekotizimlarga oid fan – «Geografiya» (2-blok) kiritilishi hamda mantiqan ham ilmiy nuqtayi nazaridan to'g'ridir. Texnika va texnologiya kabi yo'nalishlarda qabul ekologiyadan emas, balki «Atrof-muhit muhofazasi» (tarmoqlar bo'yicha) ta'limi nuqtayi nazaridan qaralib, unga «Biologiya bilan bir qatorda «Matematika» yoki «Kimyo» fanlarining qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

10. Texnika, texnologiya va soha muhandislarini tayyorlovchi kasbiy ekologik ta'limda «Ekologiya asoslari», «Atrof-muhit muhofazasi»,

«Muhandislik ekologiyasi», «Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti» kabi fanlarni o'quv rejaga kiritish yoki borlarini iqlim o'zgarishi, cho'llanish jarayoni, radiotiv ifloslanish, biologik xilma-xillikni kamayishi kabi muammolarni hal qilish nuqtayi nazaridan takomillashtirish zarur.

11. Milliy kasbiy ta'limning uzviyiligi va uzlusizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan, tajriba sifatida, O'zMU qoshida ta'limning barcha 6 bosqichini qamrab oluvchi ta'lif muassasalarini tashkil etish va uning yagona tizimdagisi boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin.

Yuqorida taklif etilayotgan ekologik uzlusiz ta'lim mazmuni va mohiyati real sharoidtan kelib chiqqan tarzda aks ettirilgan subyektiv qarashlar tizimidir. Lekin u ekologik ta'limning rivojlanishida ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qilsa ajab emas.

9.4. Ekologik ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'z oldiga milliy qadriyatlarga asoslangan huquqiy demokratik davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Unda har bir fuqaro uchun davlat tiliga hurmat, respublika tarixiga e'zoz va o'z vataniga mehr ila yashash imkoniyati yaratildi. Milliy g'oyaga tegishli bo'lgan ushbu uch talabning oxirgisi ekologiya fani bilan bevosita bog'liqdir. Chunki ekologiya, o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra, ekotizimlarda turgan barcha obyektlarning biosferada tabiat-jamiyat munosabatalarini uyg'unlashtirishga olib keladi. Aynan ekologiyaning predmeti davlatning tabiiy sharoiti, tabiiy boyliklari va resurslari, ekologik holati va uni muhofaza qilish yo'llari hamda unga oid ta'lim va tarbiya kabilar bo'lib hisoblanadi. O'zingiz o'ylab ko'ring, o'z vatani yoki yashayotgan yurti haqidagi ushbu ma'lumotlarga ega bo'limgan insonda, to'g'rirog'i fuqaroda, qanday qilib milliy ma'naviyat bo'lishi mumkin.

Har bir xalqning milliy g'oyasi uning maqsad va muddaolarini ifodalaydigan, o'tmishi va kelajagini uzviy bog'laydigan, asriy orzu-is-taklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan ma'naviy omildir. *Milliy g'oya har bir vatandoshimizni o'z oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy mezonadir* (Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, 2001).

Burch va mas'uliyatni anglash bevosa milliy g'urur orqali namoyon bo'ladi. *Milliy g'urur – har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati*. Bu tuyg'u ona zamin, avlodu ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy merosi, millatimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan, o'zga millat va elatlar ol-

didagi qadr-qimmati, obro‘-e’tiboridan faxrlanish hissiyoti. Zero, milliy g‘ururni shakllantirishning ahamiyati haqida gapirib Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi: — «*Milliy g‘ururni, milliy tafakkurni uyg‘otadigan, xalqni xalq, millatni millat qiladigan mustaqillikdir. Islohotlar esa ana shu oliy maqsadlarni amalga oshirish vositasidir!*»¹.

Milliy g‘ururni shakllantiruvchi omillarga, odatda: moddiy va ma’naviy merosni ardoqlash, urf-odatlar va an’analarga sodiq qolish, qadriyatlari va tarixini bilish, ona tiliga bo‘lgan e’zoz, o‘z xalqiga bo‘lgan mehr-muhabbat, vatanparvarlik hissi, o‘z yurti bilan faxrlanish, iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy va sotsial holati, ijjobiy tomonlarini ko‘ra bilish kabi insoniy tuyg‘u va xislatlar kiritiladi.

Xususan ekologik bilimlar bilan puxta qurollangan shaxs g‘oyaviy tahdidlarga yoki istiqlolimizning kelajagiga shubha tug‘diruvchi har qanday ikkilanishlarga yuqori darajada qarshi tura olish mumkin. Chunki, istiqlolimizning ahamiyatini yoshlar ongiga singdirishda, bu borada ishonchli dalillarga suyangan holda ularda Vatanimiz tabiatini haqida samimiy faxrlanish, g‘ururlanish, shu bilan birga qayg‘urish kabi tuyg‘ularni shakllantirish ekologik fanlarning bosh vazifasi sanalmog‘i lozim.

Shundan kelib chiqqan holda ekologiya fanlari zamonamizning dolzarb muammolarini tadqiq qiluvchi fan sohasi hamda yosh avlodda zamonaviy konsepsiyanı shakllantiruvchi ta’lim tarmog‘i kabi kasbiy mahorat bilan birga mamlakatimiz tinchligi, mustaqilligi va xalqimiz farovonligini ta’minlashdagi o‘rnini belgilab beruvchi qirralarini ham ko‘rsatib berish maqsadga muvofiq.

Ekologik fanlarga oid darslarda yuksak ma’naviyatlari shaxs tarbiyasi mazkur fanlarning ijtimoiy nufuzini oshirishda, ularda «ijtimoiy-siyosiy bo‘shliq»ni yuzaga keltirmaslikda so‘zsiz xizmat qiladi. Chunki milliy ma’naviyat o‘zbek xalqining maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, o‘tmishi va kelajagini uzviy bog‘laydigan, asriy orzu-istikclarini amalga oshirishga xizmat qiladigan insoniy fazilatidir. «Ma’naviyat, — deb ta’kidlagan edi Prezidentimiz Islom Karimov, — insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir...»².

¹ Prezident Islom Karimovning 1997-yil 25-avgust kuni respublika Vazirlar Mahkamasiida mamlakatimiz mustaqilligi bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish respublika tashkiliy qo‘mitasining majlisidagi so‘zlagan nutqidan.

² I. Karimov. Yuksak ma’naviyat — yengilmash kuch. — T.: «Ma’naviyat», 2008. 19-b.

Ma'naviyat o'z-o'zidan yuzaga keladigan yoki bir o'qish yoki o'qitish bilan shakllanib qoladigan kishilarning ruhiy holati emas. Ma'naviy barkamollik inson hayotining butun umri davomida yuzaga keladi, shakllanadi va rivojlanib boradi. U beshikdan to qabrgacha, uyqudan turgandan to uyquga ketgunga qadar davom etadigan juda murakkab, izchil tarbiya va ta'lif jarayonidir. Shuning uchun ham yusak ma'naviyatga erishmoq uchun shaxs – jamiyat – davlat faoliyatining barcha jabhalarida chuqur o'ylangan, ilmiy tasdiqlangan va amaliy tajribalardan o'tgan aqidalarni targ'ib qilishimiz lozim. Nafaqat targ'ib, balki o'zini madaniyatli va ma'rifatli degan har bir kishi shaxsiy namuna orqali ham namoyon qilishini talab etadi. Bu o'rinda ekologik ta'lifning ham o'rni bor, albatta.

«Ma'rifat» gazetasining 2008-yil 31-may 43-sonida Behzod Mamadiyevning «Hindiston yoshlari: kecha va bugun yoxud avlodlar o'rtasidagi ziddiyat» maqolasi chop etildi. Unda 1 mlrd 200 mln kishidan ortiq aholisi bo'lgan, biz o'zbek yoshlari XX asrning 60–70 yillari orzu qiladigan «ertaklar yurti»da turli yoshdagi kishilar o'rtasidagi ma'naviy «devor» yuzaga kelganligi haqida juda o'rinli misollar keltirilgan. Keyingi 10–15 yil davomida iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosati orqali jadal sur'atda kirib kelgan moddiy boylik o'zi bilan G'arb madaniyatini ham olib keldi. Besho'n yil avval Hindiston ko'chalarida sigareta chekayotgan ayolni umuman topib bo'limasa, hozirda ularning guruahlari har qadamda uchramoqda. Natijada, mamlakatda g'arbona yashashni xohlaydigan yoshlar (AQSH aholisidan ham ko'proq) va qadimiy an'analarga sodiq qolgan yoshi kattalar qatlami yuzaga keldi. Oliy o'quv yurtini bitiruvchi talabalar orasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma da ularning 80 foizidan ortig'i kelgusida chet elda ishlashni davom ettirish va G'arbda yashashni ma'qul deb bilishgan. Milliy an'analarga sodiqlik eskilik sarqiti ekanligini aytishgan. Bu esa go'zal va qadimiy Hindiston uchun katta xavfdir. Shuning uchun ham Hindistonning «Ta'lif to'g'risidagi siyosat» loyihasida milliy qadriyatlar oyoq ostida qolib ketayotgani haqida alohida ta'kidlanib o'tilgan.

Afsuski, bu borada Hindiston jahon tajribasidan foydalangani yo'q. Masalan, ikkinchi jahon urushidan mag'lubiyat bilan chiqqan Yaponiyaning 1947-yildagi «Ta'lif to'g'risida asosiy qonun»ida milliy o'zlikni va ma'naviy mezonlarni saqlagan holda o'quv jarayoniga G'arbning ilg'or tajribalarini tatbiq etish maqsadi qo'yilgan edi. Hozirda iqtisodiy salohiyat nuqtayi nazaridan AQSH va Xitoydan so'ng uchinchi o'rinda borayotgan mazkur mamlakatda ma'naviyat masalalari mutaxassislar tayyorlashda eng birlamchi omil sifatida qarab kelinayotir. Shuning uchun

ham Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobida Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir» de gan falsafiy fikrlarini eslab o'tganlar. Buyuk ma'rifatparvar muallim bobomizning bu so'zлari XX asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, hozirda ham ushbu umuminsoniy qadriyatlar o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Oliy va o'rta maxsus ta'lrim vazirligining topshirig'iga binoan 2009-yil Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarini oliy ta'lrim muassasalarini bakalavriatida o'qitish bo'yicha 20 soatlik (ma'ruza 8, muloqot 4, munozara 4, taqdimot 4) fakultativ o'quv dasturi, o'quv qo'llanma, elektron adabiyot, ta'lrim texnologiyasi, fotogalereya, test savollari, plakatlar ishlab chiqildi. 2010-yil 6-yanvarda O'zbekiston Milliy universitetida olimlar, davlat va jamiyat arboblari hamda respublikaning barcha oliy ta'lrim muassasalaridan kelgan tegishli fakultativ kurslarini olib boruvchi professor-o'qituvchilar ishtirokida seminar-taqdimoti bo'lib o'tdi. Mazkur dastur «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarini o'rganish yuzasidan o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi oliy va o'rta maxsus ta'lrim muassasalarining professor-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan edi. Lekin 20 soatlik dars mashg'ulotlari bilan yuk-sak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash mumkin, deb ayta olmaymiz. Chunki ma'naviyat uzlusiz va uzviylashgan, doimiy va kundalik tarbiyaviy jarayondir. Shunday ekan har bir pedagog, u qaysi bir ta'lrim yo'nali shida bo'lishidan qat'i nazar, ma'naviyatning asosiy qoidalarini har bir darsda bevosita bo'limasada, bilvosita tarzda tatbiq etib borishi talab etiladi¹. Ekologik ta'lrim ham bundan istisno emas.

Oliy ta'lrim muassasa talabalari uchun mo'ljallangan dasturning maqsadi: yoshlarda kamolotning asosiy mezoni hisoblangan yuksak ma'naviy fazilatlarni mustahkamlash, ma'naviyatning shaxs, jamiyat va davlat hayotidagi zaruriyatini ijtimoiy-axloqiy mezonlar asosida o'rganish, yoshlarga yuksak ma'naviy konsepsiyaning zaruriyati, ma'naviy yuksaklik mamlakat barqarorligini ta'minlovchi omil ekanligini tushuntirish, yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch hamda jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoni ekanligini ilmiy asoslashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan tarzda *ekologlar* oldida biz quyida-gi *maqsadni* qo'yishimiz mumkin — *barkamol mutaxassislarini tayyor-*

¹ A. Nigmatov. Ma'naviyat: uni aniq va tabiiy fanlar orqali qanday qilib singdirish mumkin. «Ma'naviyat», 2010-yil 13-mart, 20-son.

lash uchun ekologik fanlar darslarida bilvosita tarzda yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch ekanligini ilmiy asoslash.

Maqsadga erishmoq uchun ekologiya, jumladan tabiiy ekologiya professor-o'qituvchilariga quyidagi *vazifalar yuklatiladi*:

Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarini to'liq o'zlashtirib olish;

- o'tiladigan o'quv kursining nazariy asoslariga yana bir bor ma'naviyat nuqtayi nazaridan kirib borish;

- o'quv dasturlari va ish rejalarini ma'naviyat ko'rsatkichlari asosida takomillashtirish;

- nazorat savollariga tegishli o'zgartirishlar kiritish va o'quvchi – talaba – tinglovchilarni baholash mezonlarini ishlab chiqish;

- olingan tajriba va natijalarni ilmiy yoki publisistik maqola sifatida keng ommalashtirish;

- tegishli pedagogik faoliyat yo'nalishi bo'yicha ucharashuv, seminar, debat hamda tanlovlarni o'tkazish va h.k.

Shunday qilib, *birinchidan*, ekologik fan pedagoglari avvalambor Islom Karimovning «Manaviyat» nashriyoti tomonidan 2008-yilda chop etilgan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobi, 2009-yil Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMUDA tayyorlangan elektron o'quv-metodik majmua, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi va O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni tomonidan 2009-yilda yaratilgan «Ma'naviyat: asosiy tushunchalar va izohli lug'ati»¹ bilan tanishib chiqishlari tavsiya etiladi. Qo'shimcha adabiyot sifatida Prezident I. Karimovning 16 jiddlik kitobidan «Ma'naviy yuksalish yo'lida», «Yuksak ma'naviyatsiz kelajak yo'q», «Adolat va qudrat tim-soli», «Amir Temur – faxrimiz, g'ururimiz», «Iqtisodiyot va ma'naviyat ajralmasdir», «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin», «Yuksak ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotining asosi», «O'zbek xalqining Islom madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasining e'tirofi» kabi asarlari bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi. Undan tashqari Ismoil al-Buxoriyning «Sahibi Buxoriy. Al-jomi' as-sahih» Ishonarli to'plam 1- va 2-kitob (T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediya-si», 2008), M. Imomnazarovning «Milliy ma'naviyatimiz asoslari» (T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat, 2006), «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» (T.: O'zbekiston, 2000), S. Otamurodov va boshq. «O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish» (T.: Yangi asr avlod, 2003), A. Aliyevning «Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat» (T.: O'zbekiston,

¹ I. Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». – T.: «Ma'naviyat», 2008. 30-b.

2003) hamda Internetdagi www.gov.uz, www.press.uz, www.xs.uz, www.ziyonet.uz, www.turkistonsarkor.uz kabi veb-saytlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu o'rinda, albatta, ekologik ma'naviyatga oid milliy adabiyotlar, maqolalar, saytlar va ko'rsatuvlardan foydalanish har bir geograf-pedagogning kundalik faoliyatiga kiradi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ikkinchidan, adabiyot va informatsion ma'lumotlar bilan tanishish mexanik tarzda emas, balki muallimning o'tayotgan yoki o'tishi mo'ljallangan o'quv kurslari nuqtayi nazaridan o'zlashtiriladi. Shunda-gina mazkur asar va unga tegishli adabiyotlar ekologlar uchun qiziqarli va ta'sirchan kuchga ega bo'ladi. Ma'naviyatga oid adabiyotlarning tabiiy geograflar tomonidan o'zlashtirish jarayonida o'tiladigan ekologik fan dasturi va ish rejasi o'qituvchining yonida turadi.

Uchinchidan, «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida keltirilgan ma'naviyatga tegishli tushunchalarini bilib olish, uni yuzaga keltiruvchi va rivojlantiruvchi omillarni esa jadval ko'rinishida ishlab chiqish taqozo etiladi (9.4.1-jadval). Zero Prezidentimiz Islom Karimov «Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasi ni o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi»¹, deb bezijz aytmag'anlar.

To'rtinchidan, o'quv dasturlari, ma'ruza matnlari, amaliy yoki seminar mashg'ulotlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib boriladi. Masalan, «Ekologiya» fanining maqsadi va vazifalarida — talabalarda vatanimizda tarixan shakllanib kelgan va o'ziga xos qaytarilmas moddiy va madaniy merosga ega bo'lgan ona tabiatga nisbatan mehr-muhabbat hissini uyg'otish, ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishni tushuntirish va undan oqilonqa foydalanish orqali talabalarda kelajakka ishonch tuyg'usini uyg'otish.

Beshinchidan, o'tilgan darslarni mustahkamlash. Masalan: «Geo-ekologiya» fanidan beriladigan mustaqil ishda talabalarning geotizimlar barqarorligini ta'minlashda biz qanday ona tabiat obyektlarini moddiy va madaniy meros sifatida saqlab qolishimiz mumkinligini aniq misollar orqali ko'rsatib kelishni mustaqil ish vazifasi sifatida berish.

Oltinchidan, test yoki nazorat savollariga ma'naviyatga tegishli masalalarni kiritish va ularni baholash mezonlarini ishlab chiqish.

¹ I. Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: «Ma'naviyat», 2008. 30-b.

***Ma'naviyatni yuzaga keltiruvchi omillarni ekologik
fanlarda aks ettirish***

Ma'naviyat ko'rsatkichlari	O'quv kursi mav- zulari	Aytilishi yoki ko'rsatilishi lozim bo'lgan materiallar
Ma'naviy meros omillari		
Ma'naviy merosni ardoqlash		
Urf-odatlar va an'analarga sodiq qolish		
Diniy qadriyatlarni ardoqlash		
Madaniy va moddiy boylik omillari		
Davlat va ona tiliga bo'lgan e'zoz		
O'z xalqiga bo'lgan mehr-muhabbat		
Vatanparvarlik hissi bilan yashash va o'z yurti bilan faxlanish		
Ona yeriga va atrof-muhitga bo'lgan mu- habbat		
Yaratilgan moddiy, jumladan tarixiy boylik- larni saqlash		
Tarixiy omillar		
Vatan tarixini bilish		
Buyuk allomalardan o'rnak olish		
Tarixiy obidalar haqida tasavvurlarga ega bo'lish		
Qadimdan shakllangan milliy ta'lif-tarbi- yaning ijobiy xususiyatlarini saqlash		
Kelajakka ishonch omillari		
Yurtimizda bo'layotgan davriy o'zgarishlarga ijobiy baho bera olish		
Iftixor tuyg'usi orqali o'zga yurtlar bilan qi- yosiy tasavvurga ega bo'lish		
Iqtisodiy, ijtimoiy, sotsial salohiyatini ko'ra bilish		
Barkamol avlodni shakllantirish		

Yettinchidan, olingen tajriba va natijalarni ilmiy yoki publisistik maqola sifatida keng ommalashtirish. Xuddi shu maqola singari har bir ekolog o'z fanini ma'naviyat ko'rsatkichlariga mos ravishda qayta ko'rib chiqishi, ta'lif jarayonida erishilgan yutuqlar va kamchiliklar haqida konstruktiv, ya'ni muammolarning yechimini topish tak-

lifi bilan chiqadigan maqolalarni ommaviy axborot vositalari orqali keng pedagoglar jamoasiga yetkazish. Buning uchun respublika va viloyat miqyosidagi gazetalarda «Ma’naviyat va ekologik ta’lim», «Yuksak ma’naviyatlari o’quvchi—talaba—tinglovchi qanday bo’lmog’i kerak» kabi maxsus ruknlarini ochish va unga nisbatan «aks sado» debatlarini shakllantirish, teleko’rsatuv va radioeshittiruvlarda chiqishlar qilish lozim.

Sakkizinchidan, tegishli ekologik faoliyat yo’nalishi bo'yicha seminar mashg’ulotlari, konkurs hamda tanlovlarni o’tkazish. Respublika va mahalliy miqyosidagi anjumanlarning kun tartibiga yoki ish rejasiga «Ekoliya va ma’naviyat», «Ekologik ta’lim va ma’naviyat» kabi masalalarini kiritish kerakdir. Rejalashtirilayotgan ekologik fan va ta’lim konfrensiyalarining maxsus ruknlarini: «Yuksak ma’naviyatlari ekolog qanday bo’lmog’i kerak?», «Ekologik ta’limda ma’naviyat ko’rsatkichlari» kabi nomlar bilan atash maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytib o’tilgan ijtimoiy fan pedagoglari uchun O’zMUda o’tkazilgan seminarga o’xshash ekologik fanlar pedagoglari uchun ham Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarini ekologik ta’limda o’qitish masalasiga bag’ishlangan maxsus seminarni tashkil etish juda dolzarb masaladir.

Xulosa qilib aytganda, ekologik ta’limda davlatimizning millat va jamiyat rivojidagi ijobjiy ishlari, turli sohada erishayotgan yutuqlarini yoki siyosatini o’z vaqtida bevosita, juda bo’limganda bilvosita tarzda aks ettirish ekologiyaning ijtimoiy nufuzini so’zsiz oshiradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, fan, jumladan ekoliya – insoniyat madaniyatining eng qadimiy, eng muhim va murakkab tarkibiy qismlaridan biri. Bu yana, insonga o’zining o’sib boruvchi moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun tabiatni qayta o’zgartirish va unga moslashish imkonini beruvchi inson bilimlarining turfa xil ko’rinishli butun bir dunyosidir. Bundan tashqari yangi bilimlarni yaratishga yo’naltirilgan tadqiqot faoliyatining murakkab tizimi hamdir.

Jamiyat moddiy madaniyatining katta qismi bo’lgan fan, avvalambar, tabiiy fanlar yutuqlari negizida yaratilgan. Dunyoning ilmiy manzarasi hamisha inson konsepsiyanining eng muhim tarkibiy qismi bo’lgan. Tabiatni ilmiy tushunish, ayniqsa hozirgi davrda, insonning ichki ma’naviy dunyosining mazmunini: o’zini namoyon qilishi, tuyg’ulari, tashvishlari, uning ehtiyojlarini va qiziqishlarini mohiyatan belgilaydi deb hisoblaymiz. Shunday ekan, jamiyat uchun sog’lom g’oya, sog’lom mafkurani shakllantirishda ilm, fan va madaniyatning barcha sohalari yutuqlaridan oqilonqa foydalanishimiz zarur.

Ekologik fanlarning o‘z oldiga qo‘ygan predmeti bilan teng ravishda mafkuraviy g‘oyalar, fan va ta’limdagi yangicha yondashuvlar ham bevosita izlanish va o‘qitish predmeti bo‘la oladi.

Bugungi kunda fan-texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanib, inson va tabiat o‘rtasidagi tabiiy muvozanat buzilayotganligi oqibatida atrof-muhitga katta ziyon yetkazilmoqda. Ona tabiatga istiqbolni ko‘zlab munosabatda bo‘lish, kelajak avlodga uni go‘zal va tabiiyligicha qoldirish – bugungi kunning muhim vazifasi. Tabiatga nisbatan inson qanchalik salbiy munosabatda bo‘lsa, tabiat ham insonga nisbatan aynan shunday javob qaytaradi. Har bir inson ongida ekologik madaniyat qay darajada shakllansa, jamiyat ham shu darajada taraqqiy etadi.

Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo‘llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko‘rsatkichi, ongli va mas‘uliyatli yondashuv. Unda tabiat bilan inson o‘rtasidagi o‘zarlo oqilonqa mas‘uliyatlari munosabat tarkib topadi. Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlari sifatida «Axloqiy ekologik onglilik», «Ekologik madaniyatatlilik», «Ekologik tahdidlarga qarshi immunitetning mustahkamligi», «Ekologik mas‘uliyatlilik» ekanligini belgilab olish lozim.

Axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatatlilik sifati bo‘lib, uning atrof-muhitni hissiy bilish jarayoni atrof-muhitdagi obyektlar va hodisalarini sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, atrof-muhit obyekt va hodisalarini qiyoslay olishi, ziyoraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozimligini nazarda tutadi.

Ekologik mas‘uliyatlilik shaxsda «munosabat» va «mas‘ullik»ni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi. Bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o‘ylamay tabiatga ko‘rsatgan salbiy ta’siri oqibatlarini anglash va bunday ta’sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi. Ekologik mas‘uliyatlilik ona tabiatga mehr-muhabbat, shaxsiy mas‘uliyat, vijdonlilik, burchga sadoqat, ehtiyyotkorlik kabi fazilatlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Ekologik irodaviylik shaxsning o‘zi va o‘zgalarning atrof-muhitdagi xatti-harakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat’iyatlilik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog‘liq.

Shaxsda ekologik madaniyatni shakllantirishda *ekologik qadriyatlar* alohida ahamiyatga ega. Ekologik qadriyatlarga *tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik* va *atrof-muhitni asrab-avaylashdagi ongli faollikni kiritish* mumkin (9.4.2-jadval).

Ekologik qadriyatlarni belgilovchi mezonlar

Ekologik qadriyatlarni ko'rsatkichlari	Ekologik qadriyatlarni belgilovchi mezonlar
<i>Global, mintaqaviy va lokal ekologik muammo-larni bilish</i>	Barqaror rivojlanishga tahdid solayotgan ekologik muammolar, ya'ni yer, suv, energetik va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash, tupperoq degradatsiyasi, ayniqsa, cho'llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, sanoat va maishiy chiqindilar boshqaruvi kabi ekologik muammolardan, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlari, ayniqsa, genofondiga ta'siri yechimini topish va moslashuv yo'llaridan boxabar bo'lish.
<i>Tabiatdagi obyekt va hodisalarни qiyoslay olish</i>	Tabiatni solishtirish orqali ongli tushunchalar hosil qilish, fikrash, tabiatdagи faoliyatni, unga munosabatni ol-dindan to'g'ri rejalashtirish.
<i>Atrof-muhitdagи o'zgarishlarga nisbatan ziyraklik</i>	Tabiatga qiziquvchan bo'lish, tabiat go'zalligini hisetish, bu go'zallik tabiat va inson tomonidan yaratilganligini anglash, insonning tabiatdagи o'zgartiruvchilik o'rnnini to'g'ri mushohada qilish, tushunish.
<i>Tabiatni muhofaza qiliшda qariyatlilik</i>	Tabiatga nisbatan salbiy xatti-harakatlardan o'zini tiya olish, qiyinchiliklarni yengib, oldiga qo'ygan maaqсадnini amalga oshirish, boshlagan ishini oxiriga dadil yetkaza olish va o'zining nuqtayi nazariga ega bo'lish.
<i>Atrof-muhit muhofazasi-da tashabbuskorlik</i>	Tabiatni asrash uchun do'stlarni jaib etish, yangi guruhlarini tuzish, yangi g'oyalar, ekologik bilimlarni targ'ib etish va barqaror rivojlanish jarayoniga olib kirish.
<i>Mehnatsevarlik</i>	Ijtimoiy foydali mehnatga havas hissini shakllantirish hissini, mehnat malakalarini egallash, harakatlarning aniq va uyg'un bo'lishiga erishish, mehnat qilish jarayonida jismoniy yetuklikka intilish, o'z mehnat faoliyatidan qoniqish hosil qilish, o'zi va do'stlarining mehnatini xolisona baholay olish. Bu borada izchillikka rioya qilish.
<i>O'z-o'zini nazorat qilish</i>	Tabiat bilan munosabatga kirishish va undagi faoliyatda me'yор darajasini belgilash. O'z shaxsiy faoliyatiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish va xulosa chiqara olish.
<i>Vatanparvarlik, ona tabiatga mehr-muhabbat</i>	O'zi yashab turgan uy, mahalla, shahar tabiatini sevish, undan g'ururlanish, uni ardoqlash, uning istiqbolini ko'zlab munosabatda bo'lish.
<i>Tabiat boyliklaridan barqaror foydalanish</i>	Tabiat resurslaridan bugungi va kelajak avlodlar ehtiyojlarni qondirishni hisobga olgan holda barqaror foydalanish.
<i>Ozodalik, saranjom-sarishtalik va pokizalik</i>	Atrof-muhitni obod qilishga intilish, uni saranjom va sarishta, ozoda, pokiza va xushmanzara holda saqlash. Shaxsning tabiatdagи narsa-hodisalarning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik. Ularni asl holida saqlanishida tashabbuskorlik xislati.

<i>Shaxsiy mas'uliyat</i>	Tabiatni asrab-avaylashda, tabiat boyliklarini ko'paytirishda jonbozlikni namoyon eta olish, tabiat qonuniyatlari asosida o'z amaliy faoliyatini boshqara olish.
<i>Ekologik qadriyatlar-ni asrashga va ularni kundalik hayotga tatbiq etishga intiluvchanlik</i>	Yer, suv, o'simlik va hayvonot olami, tabiatni asrab-avaylashga bo'lgan ijobiy-emotsional munosabat. Ajodlardan yetib kelgan milliy qadriyatlardan barqaror rivojlanish maqsadlarida unumli foydalanish.
<i>Atrof-muhitni asrab-avaylashda faollik</i>	Atrof-muhit, obyekt va narsa-hodisalariga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish. Ularning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish, ekologik yangiliklardan unumli foydalanish.
<i>Vijdonlilik, burchga sadogat</i>	Tabiat hodisalariga bilib-bilmay ziyon yetkazganda vijdon azobida qiynalishi, o'z aynibni qayta takrorlamaslik, tabiatga oqilona munosabatda bo'lishda ado'latli bo'lish.
<i>Tabiatga munosabatda ehtiyyotkorlik</i>	Koinot obyektlarining mavjud barcha xilma-xilligini va ular o'rtasidagi barqaror munosabatlarni hayotga tatbiq etishga ilmiy, innovatsion yondashish orgali ehtiyyotkorlik, o'zining sezgirlik xislatlarini rivojlantirib borish.
<i>Ekologik qadriyatlar-ga oid bilimlarga ega bo'lish</i>	O'zining ekologik bilimlarini muntazam ravishda tabiatni asrab-avaylashga yo'naltirilgan milliy qadriyatlarimiz, diniy e'tiqodlarimiz ruhidagi ma'lumotlar va adabiyotlardan boxabar bo'lish.

Ekologik tarbiya. Ekologik tarbiyani belgilovchi fazilatlar yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bunda asosiy urg'u o'quvchi va talabalarning o'zi yashab turgan xonadoni, mahallasi, shahriga bo'lgan mehr-muhabbat tuyu'usini, ya'ni vatanparvarlik ruhini, tabiatga nisbatan axloqiy qadriyatlarini, tabiat uchun shaxsiy mas'uliyat hissini, unga qiziquvchanlik va uni asrab-avaylashni, teran bilimlilikni shakllantirishga qaratilgan. Bu fazilatlar o'zbek xalqining ekologik qadriyatlarining boy mazmunini o'rganish, tabiat va madaniy qadriyatlarni saqlash va e'zozlash, diniy qadriyatlarni hurmat qilish asosida kuchaytiriladi.

Ekologik tarbiya insонning ma'naviy va ruhiy dunyosini boyitishga va shakllantirishga imkon beruvchi yo'nalishlardan biridir. Tabiat, o'simliklar, hayvonlar va odamga bo'lgan mehr-muhabbat o'quvchi va yoshlardan qalbida shaxsga, insonga xos bo'lgan eзgulik va mehribonlik tuyg'ularini yanada rivojlanadiradi.

Yer, suv, havo, o'simlik va hayvonlarni, hayot manbalarini va yashash vositalarini ehtiyyotkorona saqlash, e'zozlash ma'naviyat mezonini hisoblanadi. Tabiat qonunlarini yaxshi bilish, amalda tatbiq etish, yoshlarni ekologik madaniyat ruhida tarbiyalash atrof-muhit tozaligini, sog'lik-salomatlikni mustahkamligini, turmush farovonligini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida ekologik tarbiyani shakllantirishda asosiy urg'u bola shaxsini o'ziga va atrofdagilarga — tengdoshlari, tarbiyachilar, ota-onasiga bo'lgan munosabatlarni shakllantirishga beriladi. Bunda bolada ozodalik, atrof-muhitdagi voqe-a-hodisalarni idrok etish, qiyoslash kabi dastlabki fazilatlar shakllanadi.

Boshlang'ich ta'lifda o'quvchi yoshlari jonli va jonsiz tabiat to'g'risida dastlabki bilimlarga ega bo'lish bilan bir qatorda ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga, shaxs va tabiat mustaqil qadriyat ekanligiga, insonning tabiatdagi ahamiyati va o'rnni ularning ongiga singdirishga, suv, tuproq va havoni toza saqlash, atrof-muhitning go'zalligini anglashga qaratilgan boshlang'ich fazilatlar shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'lif bosqichida bilim oluvchi o'quvchilarga o'simlik va hayvonlarning xilma-xilligi, ularning tabiatdagi o'rni, tabiatning bir bo'lagi ekanligi, ular o'zaro hamda atrof-muhit bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Shu bilan birga ularda ekologik madaniyatni shakllashtirishga keng imkoniyatlar yaratiladi. Insonning sog'-salomatligini saqlash maqsadida atrof-muhit tozaligini muhofaza qilish, sog'lomlashtirish tadbirlarini uyuştirish, o'zbek xalqining ekologik qadriyatlari bilan bog'liq bayramlar, sayllar va hasharlarda ishtirok etish orqali ekologik fazilatlar shakllantiriladi. Bu fazilatlar asosan, axloqiy- ekologik onglilik, ekologik qadriyatlarni ardoqlash va mehnat-sevarlik kabilardan iborat.

O'rta maxsus va kasb-hunar ta'lifida ekologik bilimlarni dialektik dunyoqarash asosida o'rganish bilan birga ularda ekologik madaniyatning asosiy fazilatlari shakllantiriladi. Bunda avvalo, huquqiy ekologik tarbiyaga alohida ahamiyat beriladi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining tegishli moddalaridagi atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi masalalar va davlatimizning yer, suv, havo, o'simliklar, hayvonlar va tabiat resurslarini muhofaza qilish bilan bog'liq qonunlarini o'rganish — ekologik tarbiyani to'laqonli amalga oshirishga imkon yaratadi. O'quvchilarning darsda va mustaqil ishlash jarayonida tabiat bilan bevosita muloqotda bo'lishi ularda go'zallik, mehr-muhabbat, tabiatga nisbatan mas'uliyatlilik tuyg'usining shakllanishiga yordam beradi.

Oliy ta'lif bosqichlarida talaba va yoshlarning ekologik tarbiyasida asosiy e'tibor atrof-muhit muhofazasi, tabiatdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan global malakalariga katta ahamiyat beriladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish, global va hududiy-ekologik

muammolarni bilish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga e'tibor qaratildi. Shu bilan birga ekologik madaniyatning asosiy manbalaridan biri hisoblangan o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari, tabiatni, atrof-muhitni va madaniy meroslarini asrab-avaylash bilan bog'liq qadriyatlarni himoya qilish, saqlash, ularni ko'paytirish va kelajak avlodlarga yetkazish bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy mas'uliyat, vijdonlilik, burchga sadoqat, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik kabi fazilatlar shakllanadi va ular rivojlantiriladi.

Oliy ta'limgan keyingi bosqichda uzlusiz ekologik ta'limni yangi metod va ishlanmalar bilan ta'minlashga, global, hududiy va mahalliy muammolar to'g'risida haqqoniy ma'lumotlar toplash, atrof-muhit muhofazasini tashkil qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq fazilatlarga e'tibor qaratiladi.

Barcha ta'lim va tarbiya bosqichlarida atrof-muhit muhofazasi va ekologiyaga bag'ishlangan kunlarni (9.4.3-jadval) oila, do'stlar, guruh-doshlar va mahalla davrasida nishonlash ham ekologik ma'naviyatlari shaxsni tarbiyalashda muhim qadam bo'lib hisoblanadi.

9.4.3-jadval

Ekologik tarbiyaga yo'naltirilgan sanalar

<i>Yil sanasi</i>	<i>Sana nomi</i>
<i>11-yanvar</i>	Qo'riqxona va milliy bog'lar kuni
<i>2-fevral</i>	Butunjahon suv-botqoqlik joylari kuni
<i>19-fevral</i>	Dengiz sutemizuvchilarini himoya qilish kuni
<i>14-mart</i>	To'g'onlarga qarshi Xalqaro harakatlar kuni
<i>21-mart</i>	Navro'z bayrami
<i>22 -mart</i>	Butunjahon suv (suv resurslarini muhofaza qilish) kuni
<i>1-aprel</i>	Xalqaro qushlar kuni
<i>7-aprel</i>	Butunjahon salomatlik kuni
<i>15-aprel</i>	Ekologik bilimlar kuni
<i>18–22-aprel</i>	Bog'lar marshi kunlari
<i>22-aprel</i>	Xalqaro Yer kuni
<i>24 aprel</i>	Butunjahon laboratoriyadagi hayvonlarni himoya qilish kuni
<i>1–10-may</i>	Qushlarni kuzatish bo'yicha bahoriy o'n kunlik
<i>3-may</i>	Quyosh kuni
<i>12-may</i>	Ekologik ta'lim kuni
<i>15-may</i>	Xalqaro iqlim kuni
<i>15-maydan 15-iyungacha</i>	Kichik daryolar va suv havzalarini himoya qilish bo'yicha harakat kunlari


22-may	Xalqaro biologik xilma-xillik kuni
5-iyun	Butunjahon atrof-muhit kuni
8-iyun	Butunjahon okeanlar kuni
17-iyun	Butunjahon cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kuni
11-iyul	Xalqaro aholi kuni
2-avgust	O'zbekiston ekologik harakati tashkil topgan kun
11-sentabr	Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armasi tashkil etilgan kun (WWF)
1- sentabr	Xalqaro ozon qatlamini muhofaza qilish kuni
22-sentabr	Butunjahon avtomobilsiz harakatlanish kuni
25-sentabr	Butunjahon dengiz kuni
27-sentabr	Xalqaro turizm kuni
4-oktabr	Butunjahon hayvonlarni himoya qilish kuni
6-oktabr	Xalqaro yashash muhitlarini muhofaza qilish kuni
Oyning ikkinchi chorshanbasi	Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni
29-noyabr	Butunjahon tabiatni muhofaza qilish jamiyati kuni
3-dekabr	Xalqaro pestitsidlarga qarshi kurash kuni
11-dekabr	Xalqaro tog'lar kuni

Taklif etilayotgan fazilatlarning asosiy maqsadi XXI asr sivilizatsiya-si darajasiga va tabiatga xavf tug'diruvchi kuchli antropogen ta'sirlarga mos keladigan yangicha odob va axloqqa asoslangan ekologik dunyo-qarashni tarbiyalashdan iboratdir.

9.5. Ekologik ta'limgandan barqaror rivojlanish ta'limi sari

Barqaror rivojlanish ta'limi – barqaror rivojlanish bilan bog'liq aholining ekologik va axloqiy xabardorligi, qadriyatlar va amaliy yondashuvlar, ko'nkmalar (BMT Sammiti. Rio-de-Janeyro, 1992). «Barqarorlik konsepsiysi nafaqat ekologiya, balki qashshoqlik, aholishunoslik, salomatlik, oziq-ovqat xavfsizligi, demokratiya va inson huquqlari masalalari bilan bog'liq. Barqarorlik madaniy turfa xillik va an'anaviy bilimlarni e'tirof etuvchi axloqiy tushuncha» (YUNESKO anjumani, Saloniki, 1997-yil). Barqaror rivojlanish ta'limi tushunchasi ekologik ta'limgandan farqlanadi. Agarda ekologik ta'lim – ekotizimlarni muhofaza qilish, ularning tabiiy resusrlaridan oqilonona foydalanish va buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash masalasiga qaratilgan bo'lsa, BRT ijtimoiy hayot, iqtisodiyot va atrof tabiiy muhit bilan uzviy bog'liqligiga o'z e'tiborini qaratadi (9.5.1-rasm). Barqaror rivojlanish ta'limining asosiy g'oyasi – ijtimoiy faoliyatga jalb etilgan va muammolarni yechishda

ishtirok etayotgan fuqarolarni tarbiyalash (BMT Sammiti, Yoxannesburg, 2002-yil).



9.5.1-rasm. *Barqaror rivojlanish va ta'lrim*.

Barqaror rivojlanish ta'limi bo'yicha YUNESKOning xalqaro anjuman (2009-yil 31-mart–2-aprel Bonn, Germaniya) bo'lib o'tdi. Bonn deklaratziyasida davlat siyosati va amaliyot doirasida quyidagi vazifalar belgilandi (9.5.2-rasm). Inson rivojlanishi va fuqarolik jamiyatni faolligi global muammolarni hal qiluvchi asosiy omildir (YUNESKO anjumanı, Gamburg, 1997-yil).

Barqaror rivojlanish ta'limi bo'yicha turli davlatlarda mahalliy sharoitga moslashtirilgan tarzda quyidagi ishlar qilindi. Masalan,

Chilida:

- o'quv dasturlari, pedagogika metodologiyasi, metodlari va o'quvchilar bilimini baholash tizimini BRT bilan bog'landi;
- fuqarolik jamiyatini barpo etishda BRT jarayonini takomillash-tirish;
- BRT maqsadida fanlararo va idoralararo yondashuvni qo'llash;
- biznesni boshqarish va mahsulot ishlab chiqarishda BRT g'oyalarini qo'llash;
- regional miqyosdagi rivojlantirish dasturlarini fuqarolik jamiyatni va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda amalga oshirish.

Indoneziyada:

- barcha jamiyat a'zolarini sifatli boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olish;
- mahalliy vakillarni sifatli mактабгача ta'lim dasturlari bilan ta'minlash;

BONN DEKLARATSIYASI

DAVLAT SIYOSATIDA

- «Ta'lim barcha uchun» dasturi va BRT o'rtaida uzviylikni rivojlantirish.
- Ommaviy axborot vositalarida BRT va BR g'oyalarini targ'ib qilish.
- Mingillik rivojlanish dasturi va BRT o'rtaida uyg'unlikni moliyaviy ta'minlash.
- BRTni amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlari va biznes vakilalarini jaib qilish.
- Xalqaro, regional, milliy va mahalliy tarmoqlar orqali BRTni rivojlantirish.

AMALIYOTDA

- BRTga oid masalalarni mahalliy sharoitdan kelib chiqqan tarzda o'quv jarayoniga jaib etish.
- Pedagoglarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishda interfaol usullar orqali kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish.
- BRT bo'yicha milliy ko'rsatkichlarni ishlab chiqish va bu borada tadqiqotlar olib borish.
- BRTga doir masalalarni davlat, biznes va fuqarolik jamiyati xodimlari malakasini oshirish dasturlariga kiritish

9.5.2-rasm. *Bonn deklaratsiyasida barqaror rivojlanish ta'limiga oid vazifalar.*

- ta'lim boshqaruvin tizimi va dasturlarini o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda rivojlantirish;
- ta'lim muassasalarida bilim berish sifatini xalqaro ta'lim standartlari doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka ko'rsatkichlariga tenglashtirish.

Keniyada:

- o'quv dasturlarni takomillashtirishda tabiiy resurslardan teng huquqli, oqilona va barqaror foydalanish g'oyalarini aks ettirish;
- barcha jamiyat a'zolari turmush tarzini ko'tarishda xilma-xil sifatlari o'quv dasturlari va targ'ibot tadbirlarini qo'llab-quvvatlash;
- samarali boshqaruvin va barqarorlik uchun qadriyatlar, axloq va sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi o'quv dasturlarini yaratish.

Gollandiyada:

- ustuvor muammolarni (suv ta'minoti, iqlim o'zgarishiga moslashish, barqaror energiya manbalarini qidirib topish, bioyoqilg'ilarni ishlab chiqish, bioxilma-xillikni saqlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash kabilalar) o'quv jarayoniga keng targ'ib qilish;
- barqaror boshqaruvda davlat bosh islohotchi ekanligini keng targ'ib qilish;

- barqaror rivojlanishda davlat boshqaruvi hokimiyati barcha jamiyat a'zolari o'rtaida muloqot o'rnatuvchi ekanligini uqtirish.

Omanda:

- inson resurslarini rivojlantirishda texnologik ko'nikmalarni targ'ib etuvchi mutaxassisliklarni qo'llab-quvvatlash;

- barqaror makroiqtisodiy sharoitda inson va tabiiy resurslardan foydalanishda tadbirkorlarni atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishlarini targ'ib etish;

- tadbirkorlar va davlat o'rtaida hamkorlik rishtalarini yaratish, amaliy va raqobatbardosh tadbirkorlik uyushmalarini barpo etishda ko'maklashish;

- geosiyoziy nuqtayi nazardan, tabiiy resusrlardan oqilona foydalanishi yo'lga qo'yish maqsadida turli iqtisodiy rivojlanish shakllarini joriy etish;

- barcha fuqarolar turmush tarzini ko'tarish.

Yuqorida BRT ko'rsatkichlaridan ko'rinib turibdiki, har bir davlat o'z mintaliteti, urf-odatlari va an'analari, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy darajasi hamda real ekologik vaziyatidan kelib chiqqan tarzda barqaror rivojlanish ta'limi yo'llarini izlamoqdalar.

O'zbekistonda barqaror rivojlanish talablari va ularni tatbiq qilinishi borasida O'zbekiston ham Barqaror taraqqiyot ta'limi konsepsiyasini ishlab chiqdi.

Barqaror taraqqiyot ta'limi tamoyillari:

- Qadriyatlar – adolat, kelajak avlodning manfaatlari.
- Fanlararo yondashuv – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik maqsadlarning bog'liqligi.

- Tarmoqlar asosidagi hamkorlik – jamiyatning barcha a'zolari demokratik qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishi (davlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, xususiy tashkilotlar).

- Hayot davomidagi ta'lim (jamiyatning barcha a'zolariga turli o'quv dasturlar imkoniyati).

Barqaror rivojlanish ta'limi g'oyalari:

- kelajakni ijobjiy va barqarorlik nuqtayi nazardan tasavvur qilish («O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat»);

- mas'uliyatli, tanqidiy va tizimli fikrlashni o'rganish va hamkorlik asosida qaror qabul qilish;

- shaxsiy qadriyatlarni anglash;

- amaliyotda qo'llashni o'rganish;

- an'anaviylik va zamonaviylik o'rtaida uyg'unlikni rivojlantirish.

Belgilab olingen tamoyil va g'oyalar hamda BMT Bosh Assambleyasining «2005–2014-yillarda Barqaror rivojlanish ta'limi bo'yicha BMT Dekadasi to'g'risida»gi rezolutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-sentabrdagi «2008–2012-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to'g'risida»gi 212-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» haqidagi ma'rzasasi (2010-yil 12-noyabr), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2010-yil 22-sentabrdagi BMTning «Mingyillik rivojlanish maqsadlari» Sammitining yalpi majlisidagi ma'rzasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «O'zbekiston Respublikasining Barqaror taraqqiyot ta'limi maqsadlari uchun ta'lim konsepsiysi to'g'risida»gi qo'shma qarori 2011-yil 19-iyul kuni tasdiqlandi va unda quyidagilar belgilab olindi:

1. O'zbekiston Respublikasining Barqaror taraqqiyoti maqsadlari uchun ta'lim Konsepsiysi (1-ilova), Barqaror taraqqiyot ta'limi bo'yicha Idoralararo muvofiqlashtiruvchi Kengash to'g'risidagi Nizom (2-ilova), Idoralararo muvofiqlashtiruvchi Kengash va uning Ishchi guruhi tarkibi (3-ilova) tasdiqlansin.

2. Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi ikki oy muddatda Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi doirasida Barqaror taraqqiyot ta'limning asosiy tamoyillarini aks ettiruvchi Harakat dasturini ishlab chiqsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi, Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi:

— Harakat dasturida ko'rsatilgan tadbirlarni bajarish bo'yicha Ishchi guruhlarini tuzsin;

— Harakat dasturida ko'rsatilgan tadbirlarni amalga oshirilishini doimiy monitoringini olib borish va uning natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni Idoralararo muvofiqlashtiruvchi Kengashga kiritsin;

— O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Milliy axborot agentligi, OAV vakillari bilan doimiy hamkorlik asosida Harakat dasturida belgilangan tadbirlarni amalga oshirilishini yoritib borsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi o'rribbosari,

Xalq ta’limi va Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirlarining birinchi o‘ribbosarlariga yuklatilsin.

O‘zbekiston Respublikasining barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta’lim konsepsiyasida mamlakatni barqaror taraqqiyotga o‘tishi uchun fuqarolarda ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol qatnashishida zarur bo‘ladigan bilimlar, qarashlar va ko‘nikmalarining shakllanishini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

BTTning asosiy g‘oyalari quyidagi strategik va dasturiy hujjatlarda o‘z aksini topgan:

- «Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish muammolari bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro hamjamiyatning Nukus deklaratasiyi» (5-sentabr 1995-yil);

- «Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori saviyali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2011-yil 20-may);

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning BMT Bosh Assambleyasining «Mingyillik rivojlanish maqsadlari» bo‘yicha Oliy darajadagi yalpi majlisidagi ma’ruzasi (2010-yil 20-sentabr);

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» (2010-yil 12-noyabr);

- YUNESKOning «Ta’lim barcha uchun» loyihasi doirasida 2003–2015 yillardan qabul qilingan Milliy harakat dasturi; atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha 2008–2012 yillarga mo‘ljallangan Milliy harakat dasturi.

- BTTning asosiy maqsadi — barqaror taraqqiyotning g‘oyalari va tamoyillarini ta’limning barcha shakllari va bosqichlari bilan integratsiyalash va mustaqil dunyoqarashga ega, tanqidiy fikrlay oladigan, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik yo‘naltirilgan va faol fuqarolik munosabatini bildira oladigan shaxslarni tayyorlash hisoblanadi. BTTning hal qiluvchi ahamiyatga ega g‘oyalari hozirgi zamон va kelajakdagi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni, shu jumladan Orol inqirozi muammolarini yechish va oldindan ko‘ra olishga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish hisoblanadi.

BTTning asosiy tamoyillari:

- jamiatning qadriyaviy yo‘nalishlari — adolat, kelajak avlodlar oldidagi javobgarlik etikasi (kelgusi avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda);

- fanlararo yondashuv – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik maqsadlar ning o‘zaro bog‘liqligi;
- tarmoqlararo yondashuv asosidagi hamkorlik – jamiyatning barcha a’zolari demokratik qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishi (davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati, o‘quv va ilmiy-tekshirish muassasalari, xususiy tadbirdorlar va boshqalar);
- hayot davomiyligidagi ta’lim – ta’lim tizimining barcha shakllari va darajalari.

BTTning strategik vazifalari:

- o‘quv muassasalari boshqaruvini nomarkazlashtirish;
- ta’lim jarayonida huquqiy (shu jumladan ekologik-huquqiy) madaniyatni rivojlantirish;
- ta’lim tizimida axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish;
- o‘quv muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida hamkorlikni shakllantirish va rivojlantirish;
- raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash maqsadida turli ta’lim shakllarini qo‘llab-quvvatlash.

Faoliyatning bosh yo‘nalishlari:

- BTTning strategik vazifalarini ta’lim, atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy-iqtisodiyot sohasidagi qonunchilikka joriy qilish;
- davlat dasturlarida BTTning strategik vazifalarini hisobga olish;
- ta’limning barcha bosqichlari sifatini yaxshilash, buning uchun:
 - 1) ta’lim olishning shakllarini va ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish;
 - 2) ilmiy-pedagogik kadrlarning kasbiy bilimlarini va o‘quv muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik savyasini yuksaltirish;
 - 3) ta’lim berishning interfaol usullariga, shu jumladan axborot kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
 - 4) yangi, shu jumladan nanotexnologiyalarni rivojlantirish sohasida ilmiy faoliyat va BTTni rag‘batlantirish.

Konsepsiyanlari amalga oshirish:

BTT bo‘yicha konsepsiya ta’limning formal (Davlat ta’lim standartlariga asoslangan) va noformal (maktabdan tashqari, fakultativ va qo‘srimcha ta’lim shakllari) tizimida, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi doirasida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va Xalq ta’limi vazirligining BTT bo‘yicha harakat dasturlari asosida mustaqil o‘quv fanlariga integratsiyalashtirilgan holda tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligining 2011-yil 19-iyuldaggi 20/2/305-sonli qo‘shma qarori 2-ilovasi «Barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta’lim bo‘yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash to‘g‘risida Nizomida umumiy qoidalar, BTT IMKnинг vazifalari va funksiyalari; huquq va majburiyatlar; ishlarini tashkil etishi; raisi, a’zolari, mas’ul kotibi vakolatlari berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Barqaror rivojlanish ta’limi Konsepsiysini ta’lim tizimining barcha bosqichlariga tatbiq qilinib, u amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Barqaror rivojlanish ta’limi Konsepsiyasiga Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining «2008–2012-yillarda Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ekologiya va barqaror rivojlanishni ta’minalash sohasidagi ma’rifiy tizimni rivojlantirish va takomillashtirish dasturi» va chora-tadbirlar rejasiga qo‘srimcha sifatida kiritildi.

Oliy ta’lim tizimida Barqaror rivojlanish ta’limi Konsepsiyasini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari va mazmuni:

1. Ekologiya va barqaror rivojlanish ma’rifati (ta’limi + tarbiyasi = madaniyati) mazmunining omillari va prinsiplarini belgilash:

- jamiyatda shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tajribaning o‘ziga xos xususiyatlariga mos holda talabalarning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatini maqbullashtirish borasidagi ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqadigan omillar va prinsiplarni ilmiy asoslash;

- Oliy ta’lim muassasalarining kadrlar tayyorlash tizimidan kelib chiqadigan o‘ziga xos omillar va prinsiplarni ilmiy asoslash;

- Oliy ta’lim muassasalarining «Professor-o‘qituvchi – talaba» pedagogik tizimidan kelib chiqadigan omillar va prinsiplarni ilmiy asoslash;

- Oliy ta’lim muassasalaridagi ekologiya va barqaror rivojlanish ma’rifati mazmunining modelini ishlab chiqish.

2. Ekologiya va barqaror rivojlanish ma’rifati (ta’limi + tarbiyasi = madaniyati) mazmunidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tajriba tarkibi ni aniqlash va tanlash:

- Oliy ta’lim muassasalari talabalarda shakllantiriladigan ekologiya va barqaror rivojlanishga oid ilmiy bilimlar (tushunchalar) va ko‘nikmalar (amallar) tizimini qayta ko‘rib chiqish (o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarining ekologik mazmunini takomillashtirish);

- bakalavrlar va magistrlarning ekologiya va barqaror rivojlanishni ta’minalash borasidagi bo‘lg‘usi amaliy faoliyati (shaxsiy, kasbiy va nokasbiy faoliyati) tuzilishini mazmunan qayta ishlab chiqish;

• Oliy ta'lif muassasalari talabalarida ekologiya va barqaror rivojlanish bo'yicha kasbiy-ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish;

• Oliy ta'lif muassasalari talabalarida ekologiya va barqaror rivojlanish bo'yicha hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasini rivojlantirish.

3. O'quv-uslubiy majmualarda ekologiya va barqaror rivojlanish ma'rifati (ta'limi + tarbiyasi = madaniyati) mazmunini aks ettirish:

• Oliy ta'lif muassasalarining barcha ta'lif yo'nalishlari va mu-taxassisliklari DTS va o'quv rejalarida ekologiya va barqaror rivojlanish ma'rifati mazmunini fanlararo integratsiya asosida maqbul aks ettirish;

• Oliy ta'lif muassasalarining barcha ta'lif yo'nalishlari va mu-taxassisliklari o'quv dasturlari va adabiyotlari mazmunida ekologiya va barqaror rivojlanish ma'rifati masalalarini fanlararo integratsiya asosida maqbul aks ettirish;

• Oliy ta'lif muassasalarining barcha ta'lif yo'nalishlari va mu-taxassisliklari uchun kasbiy yo'naltirilgan «Ekologiya va barqaror rivojlanish» maxsus kursi dasturini ishlab chiqish va joriy etish.

4. Pedagogik jarayonda ekologiya va barqaror rivojlanish ma'rifati (ta'limi + tarbiyasi = madaniyati) mazmunini amalga oshirish:

• o'quv-tarbiya jarayonida ekologiya va barqaror rivojlanish ta'limi, tarbiyasi va madaniyatini shakllantirishning samarali tashkiliy shakllarini amaliyotga joriy etish (ma'ruza, seminar, amaliy-laboratoriya ishlari, atrof-muhit va ishlab chiqarishga ekskursiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy muhitda o'tkaziladigan o'quv-dala va malakaviy (texnologik) amaliyotlar, yakka tartibdagi, guruhli va ommaviy tadbirlar, mustaqil ishlar, anjumanlar va h.k.);

• o'quv-tarbiya jarayonida ekologiya va barqaror rivojlanish ma'rifatining samarali metodlari va vositalarini amaliyotga joriy etish.

5. Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish ma'rifati ilmini rivojlantirish:

• ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish muammlarining umumfalsafiy jihatlarini tadqiq qilish (inson, tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi va birligi; atrof-muhit va barqaror rivojlanishning shaxs va jamiyat rivojlanishiga, shaxs va jamiyatning atrof-muhit va barqaror rivojlanishga ta'siri; ekologiya, tabiatdan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish metodologiyasi va h.k.);

• ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish muammlarining tabiatdan foydalanish jihatlarini tadqiq qilish (barqaror

rivojlanish va tabiatdan iqtisodiy foydalanish, barqaror rivojlanish va tabiatdan sog'liqni saqlash maqsadida foydalanish, barqaror rivojlanish va tabiatdan pedagogik maqsadlarda foydalanish va h.k.);

- shaxs (jamiyat), atrof-muhit (tabiat) va barqaror rivojlanishning ijtimoiy omillarini (siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, pedagogik va h.k.) tadqiq qilish;

- atrof-muhitga antropogen ta'sirlar (tahididlar), ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishning asosiy prinsiplari va uning ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy, pedagogik, texnologik, madaniy jihatlarini tadqiq qilish.

Konsepsiyanı amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar:

- barqaror rivojlanish prinsiplari va omillarini hisobga olgan holda oliy ta'lif muassasalarida ekologiya va barqaror rivojlanish ma'rifati yuqori darajada takomillashtiriladi;

- oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklarining DTS, o'quv rejali va dasturlariga ekologiya va barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi;

- ekologiya va barqaror rivojlanish bo'yicha yangi darsliklar va boshqa o'quv-uslubiy qo'llanmalar turkumi nashr etiladi;

- oliy ta'lif muassasalarida samarali ma'rifiy texnologiyalar joriy etiladi;

- ekologiya va barqaror rivojlanish bo'yicha talabalarning kasbiy tayyorgarlik va madaniyat darajasini oshirish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatini yaxshilash ta'minlanadi;

- oliy ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilari hamda korxona, tashkilot va muassasalar xodimlari ekologiya va barqaror rivojlanish bo'yicha yangi yutuqlar va texnologiyalar bilan tanishtiriladi, ularning tayyorgarlik darajasi va malakalari oshiriladi.

Bu Konsepsiya xalq ta'lifi tizimida ham jadal sur'atlarda amalgalashmoqda. Maktabgacha ta'lif yo'nalishida «Maktabgacha yoshdagagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari» doirasida maktabgacha yoshdagagi bolalarni atrof-muhit, tabiat bilan tanishtirish maqsadida belgilangan tayanch bog'chalarda tajriba-sinov ishlarini tashkil etilib, natijalari asosida vazirlilikning 2011-yil 5-avgustdag'i 5 SX-sonli buyrug'i bilan «Bolajon» tayanch dasturi tasdiqlanib, 2011–2012-o'quv yilidan amaliyotga joriy etildi. Umumiy o'rta ta'lif maktablari yo'nalishida umumta'lif fanlari bo'yicha Davlat ta'lif standartlari sharhlari va o'quv dasturlaridagi uzviylik, uzlusizlik, o'quvchilarning yosh psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tahlil qilinib optimal-

lashtirildi. Natijada 1—9-sinflarning o‘quv fanlari tarkibiga Barqaror rivojlanish ta’limiga oid 28 ta yangi mavzu hamda 185 soatlik mavzular kiritildi (9.5.1-jadval).

9.5.1-jadval

Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan fanlar tarkibidagi ekologik ta’limga oid so‘f mavzular soni

t/r	Fanlar	Sinf	Umumiy soatiar	Ajratilgan soatlar	% hisobida
1.	Atrofimizdagi olam	1	33	4	12,1
2.	Atrofimizdagi olam	2	34	4	11,8
3.	Tabiatshunoslik	3	34	6	17,6
4.	Tabiatshunoslik	4	34	8	23,5
5.	Geografiya (Materiklar va okeanlar geografiyasi)	6	68	1	1,5
6.	Geografiya (O‘rtta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi)	7	68	2	2,9
7.	Geografiya (O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi)	8	68	1	1,5
8.	Geografiya (Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi)	9	68	2	2,9
JAMI			407	28	6,8

Maktabdan tashqari ta’lim yo‘nalishida Respublika bo‘yicha tashkil etilgan 211 ta «Barkamol avlod» bolalar markazlari qoshida to‘garaklar uchun 30 dan ortiq nomdagil o‘quv dasturlari mazmuniga Barqaror rivojlanish ta’limiga oid bilimlarni singdirish borasida qayta ko‘rib chiqilib, Ilmiy metodik kengashlar muhokamasidan o‘tkazildi. Bular «Tabiatda inklyuziv mashg‘ulotlarni o‘tkazish» bo‘yicha uslubiy qo‘llanma va «Iqlim haqida» o‘quv-uslubiy materiallar to‘plami shular jumlasidadir. Mazkur qo‘llanmalar vazirlilikning rasmiy saytiga joylandi hamda elektron variantda ko‘paytirilib joylarga yetkazildi. Pedagoglarni qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishida A. Avloniy nomidagi XTX-QTMOMI o‘quv mavzu rejasiga har bir guruh tinglovchilari uchun «Ekoliya va barqaror rivojlanish» mavzusini bo‘yicha 2 soatlik ma’ruza mashg‘uloti kiritilgan va mashg‘ulotlar olib borilmoqda. Bugungi kun-gacha 13349 nafar ta’lim muassasalari direktorlari uchun tabiatni muhofaza qilish va Barqaror rivojlanish ta’limiga oid dastur hamda tavsiyalar

yetkazildi. Maktabdan tashqari ta'lif kafedrasi tomonidan 2009–2011-yillar davomida «Yosh tabiatshunoslar va ekolog markaz direktorlari» va «Yosh sayohatchilar va o'lkashunoslari» kurslaridan jami 113 nafar tinglovchilar «Ekologiya va barqaror rivojlanish» mavzusi bo'yicha tahsil oldilar. Vazirlik tasarrufidagi davlat pedagogika institutlari va pedagogik tadqiqot ishlari yo'nalishida Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tomonidan «Ekologik inqiroz zonasidagi umumiy o'rta ta'lif maktablarining o'quv-tarbiya jarayoniga ekologiyadan fakultativ kurs joriy etish va elektron darslik ishlab chiqish» nomli loyiha doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi umumta'lif maktablarining 9-sinflari o'quvchilari uchun «Orol bo'yi ekologiyasi» fakultativ kursidan o'quv qo'llanma va elektron darslik tayyorlandi. Ekologik inqiroz zonasidagi umumta'lif maktablarida 2008–2009-o'quv yilidan boshlab ekologiyadan fakultativ darslar joriy etildi.

«Ekologik holatlarga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq joylarini ijtimoiy-demografik rivojlantirishning hududiy muammolari» nomli loyiha doirasida aholi yashash sharoitini barqarorlashtirish va demografik omillarning asosiy ta'sirini belgilash uchun qishloq joylarida infratuzilmalarni buniyod etish va rivojlantirish masalalari o'rganildi. Shuningdek, ilmiy-informatsion xarakterdagi 40 dan ortiq ilmiy maqola e'lon qilindi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ekologik fanlarga qanday falsafiy talablar qo'yiladi?
2. Ekologik tadqiqotlar tizimini biologik va geografik tadqiqotlardan farqini sanab o'ting.
3. Ekologik ta'lifdan barqaror rivojlanish ta'limingning nima farqi bor?
4. Nima uchun biz «Ekologik ta'lifdan barqaror rivojlanish ta'limi sari» deb aytamiz?
5. Chet ellarda ekologik ta'lif qanday olib boriladi?
6. Rossiya Federatsiyasi oliy ekologik ta'limidagi o'quv rejasini ta'riflang.
7. Siz milliy uzuluksiz ta'lilda ekologiyani o'qitish muammolarini sanab o'ting!
8. Ekologik ong va madaniyatning farqini ochib bering.
9. BTT maqsadlari uchun ta'lif konsepsiyasining ekologik jihatlari nimalardan iborat.

EKOLOGIK ATAMALAR LUG'ATI

Adaptatsiya (moslashish) – tirik organizmlarning muhitning konkret sharoitlarida barqaror yashab ketishini ta'minlaydigan morfofiziologik, populatsiyaviy va boshqa xususiyatlarining yig'indisi.

Amaliy ekologiya – ekotizimlarning real holatidan kelib chiqqan tarzda tabiiy ekotizimlarni muhofaza qilish va buzilganlarini qayta tikelash, ularning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga oid kishilik jamiyatining amaliy faoliyati.

Atrof-muhit haqida teran fikrlash – atrof-muhitga inson omili ta'sirining ijobjiy va salbiy tomonlarini ajrata olish.

Atrof-muhitga oid bilimdonlik – insonlarning atrof-muhit, jonli va jonsiz tabiat, inson va tabiat rivojlanishi haqidagi bilim, savodxonlik, intellektual salohiyat va ularni amalda qo'llay olish faoliyati.

Atrof-muhitni xalqaro muhofaza qilish – insonlarning ekologik xavfsiz muhitini va davlatlarning barqaror me'yorda rivojlanishini ta'minlovchi xalqaro huquq prinsiplari, normalari va munosabatlari yig'indisi.

Autekologiya – ayrim organizm turlarining tashqi muhit sharoitiga moslashishini o'rghanadigan fan.

Avtotrof – organizmlarning fotosintez yoki xemosintez yo'llari bilan havo va tuproqdagi anorganik moddalardan foydalanib oziqlanishi.

Azot (II) chala oksidi (N_2O) – ba'zi don mahsulotlarini yetishtirish, ayniqsa tijorat va organik o'g'itlar qo'llash, qazilma yonilg'i turilarini yoqish, azot kislotasi ishlab chiqarish va biomassani yoqish natijasida atmosferaga chiqariladigan faol bug'xona gazi.

Barqaror rivojlanish – kelajak avlodni «risqiga xuruj qilmagan» tarzda hozirgi zamон kishisining ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta'minlangan, ijtimoiy muhofazalangan va barqaror birlashgan munosib hayot tarzini ta'minlovchi jarayon.

Barqaror rivojlanish ta'limi – barqaror rivojlanish bilan bog'liq aholining ekologik va axloqiy xabardorligi, qadriyatlar va amaliy yondashuvlar, ko'nikmalar

Bioekologik muammo – muayyan ekotizimlarda organizmlar (o'simlik va hayvonot dunyosi, mikro-, nanoorganizmlar) o'rtasida yuzaga kelayotgan va yechimini kutayotgan masala.

Biogaz – sellulozalik anaerob organizmlar bilan metanli bijg'ish bakteriyalari ishtirotidagi organik chiqindilarning (go'ng, somon, maishiy chiqindilar) parchalanishi jarayonida hosil bo'ladigan gazlar aralashmasi.

Biogen moddalar — organizmlar uchun zarur bo‘lgan va ularning hayotiy faoliyati natijasida sintezlanadigan moddalar.

Biologik ifloslanish — ekotizimga unga yot bo‘lgan organizm turlarining kiritilishi va ularning ko‘payishi.

Biomassa — organizmlarning ma’lum maydon birligiga to‘g‘ri keluvchi og‘irlik yoki energiya birliklarida ifodalangan umumiy vazn.

Biotik aloqalar — biotsenozdagi organizmlarning turli shakllardagi o‘zaro munosabatlari.

Biotop — nisbatan bir xil abiotik muhit bilan tavsiflanuvchi biotse-noz egallagan maydon.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) — 1945-yilning 25-oktabridan buyon faoliyat yurgizib kelayotgan eng nufuzli xalqaro, davlatlararo tashkilot bo‘lib, u o‘z oldiga davlatlar o‘rtasida tinchlik va xavfsizlikni saqlash, mustahkamlash va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadi ni qo‘yadi.

BMTning Tabiiy ofatlarni bartaraf etishga yordam ko‘rsatish bo‘yicha byurosi (YUNDRO) — turli davlatlar va tashkilotlarga tabiiy ofat natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz holatida yordam ko‘rsatishni tashkillashtiradi va olib boradi.

Bug‘xona yoki issiqxona samarasi — atmosferada yer yuzasidan uzun to‘lqinli issiqqlik nurlanishiga xalaqit beruvchi uglevodorod (karbonat angidrid, is gazi) va ftor-xlor-uglevodorod birikmalarining as-ta-sekin ko‘payishi natijasida yerdagi haroratning ko‘tarilishi va iqlimi-ning umumiy issiqlanishi.

Buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash — tabiiy va texnogen xarakter-dagi jarayon va hodisalar natijasida buzilgan ekotizimlarda modda va energiya almashinuvining tabiiy holatiga olib kelishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.

BTT asosiy maqsadi — barqaror taraqqiyotning g‘oyalari va tamoyil-larini ta’limning barcha shakllari va bosqichlari bilan integratsiyalash va mustaqil dunyoqarashga ega, tanqidiy fikrlay oladigan, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik yo‘naltirilgan va faol fuqarolik munosabatini bildira oladigan shaxslarni tayyorlash hisoblanadi.

Chiqindilar — muayyan joylarda ma’lum qoidalarga asosan joylash-tiriladigan va keyinchalik ishlataladigan, qayta ishlov beriladigan yoki yo‘q qilinadigan, ko‘miladigan xomashyo, materiallar qoldiqlari, talabga javob bermaydigan asosiy va qo‘srimcha mahsulotlar, ishlatilgan va o‘zining oldingi sifatini yo‘qotgan tayyor mahsulotlar.

Davlatning ekologik boshqaruvi — o‘z vakolat doirasida davlat boshlig‘i, hokimiyati, ijro etuvchi davlat organlari va ularning ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi faoliyati.

Davlatning maxsus funksional boshqaruvi — ayrim davlat organlarning ish faoliyati yoki xizmat doirasidan kelib chiqadigan va ma’lum bir tabiiy obyektlarga doir muayyan ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi funksiyasi.

Davlatning maxsus kompleks ekologik boshqaruvi — davlatning ixtisoslashtirilgan organlarini ekologik munosabatlarni tarmoqlararo majmuali tartibga solish funksiyasi.

Davlatning maxsus tarmoq ekologik boshqaruvi — davlat tarmoq organlarining tegishli xalq xo‘jaligi sohalarida yoki obyektlarida ekologik munosabatlarni tartibga solish funksiyasi.

Davlatning umumiy ekologik boshqaruvi — davlat boshlig‘i va hokimiyatining o‘z vakolatlari doirasida ekologik munosabatlarni tartibga solish funksiyasi.

Ekolitosfera — litosferaning yuqori organizmlar yashaydigan qobig‘i.

Ekologiya — tirik organizmlar o‘zaro va ularni yashash muhit o‘rtasidagi munosabati haqidagi fan.

Ekologik audit — ekologik munosabat subyektlarining buxgalteriya kitoblari, hisobotlari va hujjatlarini taftish.

Ekologik bilim — kishilarning atrof tabiiy muhitini muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklash haqida hosil qilgan ma’lumotlari, ya’ni ushbu voqelikning inson tafakkurida aks etganlik darajasi.

Ekologik boshqaruv — atrof-muhitni muhofaza qiluvchi va ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi organlar vakolatlari, funksiyalari va uni amalga oshirish yo’llari yig‘indisi.

Ekologik ekspertiza — rejalshtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza obyektini ro‘yobga chiqarish mumkinligini aniqlash.

Ekologik fanlar metodologiyasi — real ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy, ekologik vaziyatda ekotizimlarda kechayotgan tabiiy, ijtimoiy-tabiiy va tabiiy-ijtimoiy reallik, jarayon va hodisalarni ilmiy bilishga qaratilgan metodlarni tanlash va tizimlashtirish.

Ekologik imperativ — tabiat qonunlariga bo‘ysunish talabi.

Ekologik kadastr — uning obyektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maydoni, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan (o‘zgaruvchan) ma’lumotlar va hujjatlar tizimi.

Ekologik madaniyat — bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo‘llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko‘rsatkichi, ongli va mas’uliyatli yondashuv.

Ekologik monitoring — ekologik nazoratning birinchi bosqichi bo‘lib, u atrof tabiiy muhit va tabiiy resurslarning davriy o‘zgarishini (kadastr ma’lumotlariga asoslangan tarzda) kuzatib borish, hisobga olish, baho berish va istiqbolini belgilash tizimi.

Ekologik muammo — ekotizimlarda organizmlar o‘zaro va ularni atrof-muhiti o‘rtasidagi munosabatlarda yuzaga kelgan va yechimini kutayotgan masala.

Ekologik nazorat — ekologik munosabat subyektlarining faoliyatlarini vakolatlangan davlat organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari tomonidan tekshirib borish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish tizimi.

Ekologik xavfsizlik — organizmlar va ularning yashash muhitini tabiiy va antropogen omillar ta’siri tufayli turli miqyosda va tezlikda yuzaga keluvchi salbiy holatlardan saqlanganlik darajasi.

Ekologianing maqsadi — hozirgi va kelajak avlodlar uchun barcha organizmlarning yashash muhiti xavfsizligini ta’milash.

Ekosfera — Yer planetasi organizmlarining umumiyligi yashash makoni.

Ekotizim — muayyan tabiiy muhitda energiya oqimi orqali aniq bir biotik tuzilish, organik va noorganik dunyosi orasida moddalarning aylanishi.

Ekotizim o‘lchami — ekologik komponent va uning elementlarining o‘zini boshqarish va qayta tiklash imkoniyatini yaratuvchi yer maydoni, suv akvatoriysi, havo va yer osti kengligi.

Ekotizimlar barqarorligi — ekotizimlarning ichki komponentlari o‘rtasidagi muvozanat doimiyligi va uning tashqi omillarga qarshi turish qobiliyati.

Ekotizimlar klimaksasi — suksessiya jarayonining tugashi va ekotizimlarning bir maromda o‘z xossa va xususiyatlarini ushlab turishi, ya’ni ekotizimlar dinamik o‘zgarishining sekinlashuvi yoki odatiy ko‘rinishga ega bo‘lishi.

Ekotizimlardan oqilona foydalanish — ekotizimlarning foydali xususiyatidan inson faoliyatida ilmiy asoslangan darajada foydalanishiga oid chora-tadbirlar tizimi.

Ekotizimlarni muhofaza qilish — turli ierarxik pog'ona'dagi ekotizimlarni saqlash va ularda ekologik xavfsizlik darajasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui, to'g'riroq'i tizimi.

Fotosintez — yorug'lik energiyasi yordamida organik moddalar sintezini amalga oshiruvchi oksidlanish-qaytarilish jarayoni.

Genofond — ma'lum guruhdagi individlarning (populatsiyalar, populatsiyalar guruhi yoki turning) barcha genlar yig'indisi.

Genotip — organizmning barcha genlari yig'indisi.

Genotip — organizmning irsiy, nasliy konstitutsiyasi (organizmning nasliy xususiyatlari yig'indisi), turli darajada bir-biriga ta'sir qiluvchi irsiy elementlarning bir butun tizimlari.

Geterotrof — tayyor organik moddalar hisobiga hayot kechiruvchi organizmlar, ularga barcha hayvonlar, parazit o'simlik turlari, zamburug'lar hamda mikroorganizmlar kiradi.

Gidrosfera — yerning suv qatlami bo'lib o'ziga xos xossa va xususiyat-larga ega bo'lib, u organizmlarning tuzilishi va tiriklik faoliyatida ta'sir qiluvchi boshqa suyuqliklardan keskin farq qiladi.

Hududiy ekologik audit — aniq bir yer uchastkalari yoki hududlarni tabiiy resurs imkoniyatlarini salbiy tabiiy hodisalar hamda atrof tabiiy muhitga texnogen jarayonlarning ta'sirini va ularning turlarini aniqlashni baholashda qo'llaniladi.

Ijtimoiy ekologik yoki antroekologik muammo — muayyan ekotizimlarda kishilik jamiyatida yechimini topmagan ekologik masha.

Inson — Yer kurrasining jonli qobig'i biosferada yashovchi organizmlar turkumiga kiruvchi, lekin murakkab hayotiy faoliyat yurituvchi individdir.

Iqlim o'zgarishi — yer iqlimi o'rtacha holatining statistik jihatdan sezilarli o'zgarishi yoki iqlimning uzoq vaqt davomida o'zgarishi.

Jamiyat — insonni boshqa insonlar bilan ma'lum bir hududda tarixan qaror topgan guruhi yoki uyushmasi.

Jamiyatning tabiatga nisbatan ekologik munosabat shakli — atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik tizimlarni qayta tiklash hamda sog'lomlashtirishga qaratilgan kishilarning hayot tarzi.

Jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy munosabat shakli — iqtisodiy madaniylashgan kishilarning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchungina, atrof tabiatni iste'molchilik psixologiyasi pozitsiyasidan turib foydalanishi natijasida, atrof tabiiy muhitning ifoslani-

shi, tabiiy resurslarning kamayishi va tabiiy tizimlarining o‘zgarishiga olib kelgan hayot tarzi.

Jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy-ekologik munosabat shakli — mavjud ekologik tizimlarni saqlab qolish darajasidagi kishilarning hayot tarzi.

Jamiyatning tabiatga nisbatan oddiy-iqtisodiy munosabat shakli — ekologik tizimlarning kam va kichik hududlarda buzilishiga olib keldigan kishilarning hayot tarzi.

Kanserogenlar — xavfli o‘smalar kelib chiqishiga sababchi bo‘ladigan moddalar yoki fizik omillar.

Kioto bayonnomasi — Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Doiraviy Konvensiyasi (IO‘DK) bo‘yicha Kioto protokoli Kioto shahrida (Yaponiya) 1997-yilda BMT IO‘DK Taraflari Konvensiyasining uchinchi sessiyasida qabul qilindi.

Kishilik jamiyatning tabiatga nisbatan munosabat shakli — muayyan davrdagi kishilarning atrof tabiiy muhitga uzviy bog‘langan hayot tarzi.

Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan oddiy munosabat shakli — ekologik tizimni buzmaydigan kishilarning soddalashtirilgan hayot tarzi.

Koevolutsiya — tabiat va jamiyatning bir-biriga mos, o‘zaro mutanosib rivojlanishi.

Konsumentlar — fotosintez yoki xemosintez yo‘li bilan to‘plangan tayyor organik moddalarni iste’mol qiluvchi organizmlar.

Landshaft — o‘zaro ta’sir etuvchi tabiat yoki tabiiy va antropogen komponentlardan, hamda pastroq taksonomik tabaqali majmualardan tashkil topgan tabiiy hududiy majmua.

Muqobil energiya turi — qazib olinadigan yonilg‘i turi bo‘lmagan manbalardan olingan energiya.

Mutagen — mutatsiyani keltirib chiqaruvchi har qanday omil.

Nodavlat-notijorat tashkilot — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) kelishi ni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkiloti.

O‘zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy maqsadi — fuqarolarning hayotiy zarur ehtiyoji bo‘lgan ekologik xavfsiz muhitni ta’minlash uchun ekotizimlarni muhofaza qilish, ularning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash.

O‘zbekistonning ekologik siyosati — davlatning ekotizimlarni muhofaza qilish, ularning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash borasida olib borayotgan ichki va tashqi faoliyat majmui.

O‘zbekistonda ekologik boshqaruv — vakolatlangan davlat organlari va nodavlat jamoat birlashmalarining ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi vakolatlari, funksiyalari va metodlari yig‘indisi.

Ozon «darchalari» — atmosferaning ozon qatlamida ozon miqdorining 50 foizgacha kamayishi.

Ozonni yemiruvchi moddalar (OEM) — ultrabinafsha nurlarning katta qismi yerga yetishiga to‘sqinlik qiluvchi stratosfera ozon qatlami buzilishiga olib keladigan kimyo moddalari (gazlar), masalan, XFU (xlorftoruglerodlar) va tarkibidagi galogenli moddalar.

Ozuqa zanjiri — biri ikkinchisiga ozuqa bo‘ladigan organizmlar tizimi.

Pedosfera — yer qatlamining yagona hosildor tuproq qatlami.

Populatsiya — bir turga mansub bo‘lgan individlar yig‘indisi.

Produtsentlar — anorganik moddalardan organik moddalar yaratuvchi avtotrot organizmlar.

Redutsentlar — organik qoldiqlarni anorganik moddalarga parchalovchi organizmlar.

Ruxsat etiladigan miqdor (REM) — inson salomatligi va hayotiga zarar yetkazmaydigan zaharli moddalar miqdori.

Sinekologiya — ekologiyaning hamjamoalar tuzilishi, energetikasi, dinamikasi, shakllanishi, tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasi kabilarni o‘rganadigan fan.

Tabiat — obyektiv borliq, ya’ni bizni o‘rab turuvchi olam va uning xilma-xil shakllari.

Tabiatshunoslik — tabiatni ilmiy bilishga qaratilgan fanlar tizimi.

Tiklanadigan manbalar — yerdagi hayotning tabiiy sikllari bilan solishtirilganida qisqa muddatli davr davomida barqaror tusga ega bo‘lgan va uglerodsiz manbalarni qamrab olgan energiya manbalari, masalan, quyosh energiyasi, gidroelektr energiyasi, shamol energiyasi, shuningdek uglerodni chiqarish nuqtayi nazaridan neytral bo‘lgan manbalar, masalan, biomassa.

Trofik aloqa — bir turning ikkinchi tur bilan oziqlanishdagi munosabati.

Tuproq eroziyasi — tuproqning tabiiy, tabiiy-antropogen, antropogen omillar ta’sirida vaqtinchalik oqar suv oqimi natijasida yuvilishi va yemirilishi.

Universal xalqaro ekologik boshqaruv tashkilotlari — faoliyat doirasiga ko'ra turli toifadagi, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish yo'nalishidagi hamda dunyoning barcha mintaqalaridagi davlatlarning ekologik munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan xalqaro muassasalar.

Uzluksiz ekologik ta'lism — milliy ta'lism tizimining barcha bosqichlarini o'zida qamrab oluvchi va uni ierarxik pog'onada joylashtiruvchi, bilim berishni oddiydan murakkab hamda ixtisoslikka tomon olib boruvchi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhiti.

Xalqaro ekologik boshqaruv obyektlari — o'zining xususiyati, joylashuvi va insoniyat uchun ahamiyati nuqtayi nazaridan biron-bir davlat yoki shaxs yurisdiksiyasiga kirmaydigan yoxud nazoratida bo'la olmaydigan ekologik boshqaruv obyektlari.

Xalqaro ekologik jamg'arma — xalqaro miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish loyihamalarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan fondlar.

Xalqaro ekologik prinsiplar — xalqaro hamkorlik ishtirokchilarining global va regional ekologik boshqaruvga yo'naltiruvchi qoidalar.

Xalqaro miqyosda ekologik xavfsizlikni ta'minlash — atrof-muhit sifatini barcha organizmlar uchun yetarli darajada ushlab turuvchi xalqaro munosabatlar.

Xalqaro munosabatlarda ekologik boshqaruv obyekti — o'zining xususiyati, joylanishi va ahamiyati nuqtayi nazaridan biron-bir davlat yurisdiksiyasiga kirmaydigan yoxud nazoratida bo'lmaydigan va shuning uchun ham ikki va undan ortiq mamlakatlar yoki xalqaro huquq subyektlari mulki bo'lgan ekotizimlar va ularning resusrlari.

Xalqaro regional ekologik boshqaruv tashkiloti — faoliyat doirasiga ko'ra kompleks, jumladan ekologik masalalarni mintaqaviy miqyosda hal etuvchi xalqaro muassasa.

Yer osti boyliklarining ekologik funksiyasi — ekotizimlarning tabiiy fundamenti, pedosferani hosil qiluvchi ona jinslarning tarkib topishidagi mineral asosi ekanligi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И. Танланган асарлар. – Т.: «Ўзбекистон», 1996–2012-й.
2. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: «Ўзбекистон», 1997.
3. Табиат. Жамият. Маънавият (Президент Ислом Каримов асарларида экология масалаларининг ёритилиши). Тўлдирилган иккинчи нашри / Экологик таълим ва тарбия учун қўлланма // Сўз боши ва тузувчи А. Нигматов. – Т.: «Ўзбекистон», 2009.
4. 2013–2017 йилларда Ўзбекистон Республикасининг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ишлари дастури / www. Лех. uz.
5. Environmental Education in the Asia-Pacific Region. – Лето 2000 Vol.1, No.1.
6. Эргашев А., Эргашев Т. Экология, биосфера ва табиатни муҳофаза қилиш. – Т.: 2005.
7. Нигматов А. Экология хукуқи. – Т.: «Ношир», 2012.
8. Нигматов А.Н. Экология нима. – Т.: «Турон-Иқбол», 2005.
9. Р.С. Султонов. Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш асослари. – Т.: «Мусиқа», 2007.
10. Бекназов Р.У., Новиков Ю.В. Охрана природы. – Т.: «Ўқитувчи», 1995.
11. Бигон М., Харпер Д., Таусенд К. Особи, популяция и сообщество: В 2-х т. – Т. 1.: Пер. с англ. – М.: Мир, 1989.
12. Большаков В.В. и др. Экология. – М.: Логос, 2005.
13. Будыко М.И. Глобальная экология. – М.: «Мысль», 1977.
14. Буровский А.М. Эволюция экологического образования: взгляд философа // Экология и жизнь. – 2006. № 2.
15. Валова В.Д. Основы экологии. Учебное пособие. – 2-е изд. – М.: «Дашков и К». 2001.
16. Валуконис Г.Ю., Мурадов Ш.О. Основы экологии. Том I. Общая экология книга I. – Т.: «Мехнат», 2001.
17. Голубев Г.Н. Геоэкология. Учебник для студентов ВУЗов. – М.: ГЕОС, 1999.
18. Голубчик М.М. и др. Теория и методология географической науки: Учеб.пос. – М.: ВЛАДОС, 2005.
19. Дажо Р. Основы экологии. Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1975.

20. Иоганzen Б.Г. Основы экологии. — Томск: Изд-ства Томского университета, 1959.
21. Исмаилов А., Аҳадов Р. Экологик таълим-тарбия. — Т.: 1997.
22. Калыгин В.Г. Промышленная экология. Курс лекций. — М.: МНЭПУ, 2000.
23. Касимов Н.С. От экологического образования к образованию для устойчивого развития. Экология и жизнь. — 2006, с. 30—34.
24. Котляков В.М. и др. Моделирование экологических ситуаций // Известия РАН. Сер. геогр. 1995.
25. Лаптаев И.Д. Экологические проблемы: социально-политический и идеологический аспекты. — М.: Мысль, 1982.
26. Медведев В.И., Алдашева А.А. Экологическое сознание. Учебное пособие. Изд. второе, доп. — М.: Логос, 2001.
27. Муродов Ш.О. ва бош. Умумий экология. Дарслик. — Т.: ТДИИ, 2005.
28. Моисеев Н. Н. Экология и образование. — М.: ЮНИСАМ, 1996.
29. Национальная стратегия экологического образования Российской Федерации. — М.: Зеленый мир, 2000.
30. Никитин Д.П., Новиков Ю.В. Окружающая среда и человек: Учеб. пособ. — М.: Высш. шк., 1986.
31. Николайкин Н.И., Николайкина Н.Е., Мелихова О.П. Экология. Учебник. — М.: Дрофа, 2004.
32. Новиков Ю.В., Бекназов Р.У. Охрана окружающей среды. — Т.: Медицина, 1983.
33. Одум Ю. Основы экологии. Пер. с англ. — М.: Мир, 1975.
34. Одум Ю. Экология. В 2-х т. Пер. с англ. — М.: Мир, 1986.
35. Проблемы экологии человека. — М.: Наука, 1986.
36. Рахимбеков Р.У. Отечественная эколого-географическая школа: История её формирования и развития. — Т.: Шарқ, 1995.
37. Рафиков А. Геоэкология асослари. — Т.: ЎзМУ, 2000.
38. Рафиков А. Геоэкологик муаммолар: Умумтаълим мактаблари ўқитувчилари учун қўлл. — Т.: Ўқитувчи, 1997.
39. Реймерс Н.Ф. Надежды на выживание человечества: Концептуальная экология. — М.: Россия молодая. «Экология», 1992.
40. Реймерс Н.Ф. Природопользование / Словарь-справочник. — М.: Мысль, 1990.
41. Реймерс Н.Ф. Экология (теория, законы, правила, принципы, гипотезы). — М.: Молодая Россия, 1994.

42. Ситаров В.А., Пустовойтов В.В. Социальная экология: Учеб. пособие. – М.: Издательский центр «Академия», 2000.
43. Собитова Н.И. Основы экологии. Учеб. пос. – Т.: НУУз, 2007.
44. Турсунов Х.Т. Экология ва барқарор ривожланиш. Усл. кўл. – Т.: «Мехридарё», 2009.
45. Турсунов Х.Т., Раҳимова Т.У. Экология. Ўкув кўл. – Т.: Чинор ЭНК, 2006.
46. Тўхтаев А., Ҳамидов А. «Экология асослари ва табиатни муҳофаза қилиш» // Ўкув қўлланма. – Т: «Ўқитувчи», 1994.
47. А.С. Тўхтаев. Ўзбекистонда экология фани ривожланишининг тарихи. Илмий тўплам. – Т. 1993.
48. Ўзбекистон Республикасида атроф табиий муҳит муҳофазаси ва табиий ресурслардан фойдаланишнинг холати тўғрисида миллий маъruzалар (2002–2008 йй.). – Т.: Чинор ЭНК, 2002–2009.
49. Ўзбекистон Республикаси кадрлар тайёрлаш миллий дастури. – Т.: «Шарқ». 1997 й.
50. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби / Красная книга Республики Узбекистан, 2 жилдли. – Т.: «Чинор ЭНК», 2009.
51. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиёти пойдевори. – Т.: «Шарқ». 1997-й.
52. Ўзбекча-русча-инглизча экологик изоҳли лугат. – Т.: «Чинор ЭНК», 2004.
53. Ўсимлик дунёси обьектларидан фойдаланишдаги экологик талаблар / Методик тавсиялар// Тузувчилар И.И. Зайцева ва бош. – Т.: «МФГИК ПРИНТ АСИА», 2011.
54. Ш.Х. Файзиев. Экологическая политика государства: Концепция правового обеспечения // Ж. Хукук. Право. Law. 2003. № 3.
55. Фалсафа. Комусий лугат. – Т.: «Шарқ», 2004.
56. И.И. Фаттоев, Х.Н. Мавлянов. Саноат экологияси. Услубий қўлланма. Бухоро, Зиё-Ризограф, 2006.
57. Федоров В.Д., Гильмнов Т.Г. Экология. – М.: МГУ, 1980.
58. Х. Хайдарова, З. Боҳодирова, Ш. Ёқубжонова. Экология ўқитиши методикаси. Тошкент, 2009.
59. И. Холлиев, А. Икромов. Экология. – Т.: «Меҳнат», 2001.
60. Ж.Т. Холмўминов. Тадбиркорларнинг табиий ресурслардан фойдаланиш ҳукуқи // Рисола. – Т.: ТДИИ нашриёти, 2011. 60 б.

61. Человек, общество и окружающая среда. — Мысль, 1973.
62. Чернова Н.М., Былова А.М. Общая экология. — Дрофа, 2004.
63. Й.Ш. Шодиметов. Ижтимоий экологияга кириш. — Т.: Ўқитувчи, 1994.
64. Штофф В.А. Проблемы методологии научного познания / В.А. Штофф. — Высшая школа, 1978.
65. Экологик таълимдан барқарор ривожланиш таълими сари // А. Нигматовнинг масъул муҳаррилигига. — Т.: Талқин, 2007, 140 б.
66. Экологические очерки о природе и человеке. Под ред. Б. Гржимека. — Прогресс, 1988.
67. А. Эргашев. Умумий экология. — Т.: «Ўзбекистон», 2003.
68. А.Э. Эргашев, Т.А. Эргашев. Дунё ва унда хаёт пайдо бўлишининг экологик асослари. — Тошкент «Принт Лазос». 2008.
69. А.Э. Эргашев, А.Ш. Шералиев, Х.А. Сувонов, Т.А. Эргашев. Экология ва табиатни муҳофаза қилиш. — Тошкент, «Фан». 2009.
70. Яблоков А.В., Юсуфов А.Г. Эволюционное учение (дарвинизм). — М.: Высшая школа, 1997.
71. Нигматов А. Ўзбекистон Республикасининг экология хукуқи. Дарслик. — Т: ТДЮИ нашриёти, 2004.

Internet manbaalari

1. www.uznature.uz — O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi sayti.
2. www.yeso.uz — O‘zbekiston ekologik harakati sayti.
3. www.un.org/esa/sustdev/ — Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning barqaror rivojlanish komissiyasi sayti.
4. www.unesco.org — BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti sayti.
5. www.unep.org — BMTning atrof-muhit bo‘yicha dasturi sayti.
6. www.undp.org — BMTning rivojlanish dasturi sayti.
7. www.sgp.org — GEF kichik loyihalar dasturi sayti.
8. www.unese.org/env/esd/ — BMTning iqtisodiyot komissiyasi sayti.
9. www.worldresources.org — Jahon tabiiy resurslar sayti.
10. www.unfra.org — BMTning aholishunoslik dasturi sayti.
11. www.who.org — Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining sayti.
12. www.biodiv.org — Biologik xilma-xillik bo‘yicha sayt.
13. www.carec.kz — Markaziy Osiyo mintaqaviy markaz sayti.



NIGMATOV
Asqar Nigmatullayevich
geografiya fanlari doktori, professor

O‘zbekiston Respublikasi Xalq (2002-y.) hamda O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (2007-y.) a’lochisi.

Muallif 1954-yil 26-sentabrda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tavallud topdi. 1971-yil 144-maktabni, so‘ngra 1976-yil Toshkent Davlat universitetining (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti) Geografiya fakulteti tabiiy geografiya yo‘nalishini bitirib, O‘zR Fanlar Akademiyasi Tuproqshunoslik va agrokimyo institutiga ishga yuborildi.

1976–1977-yillar u ToshDUNing Biologiya-tuproqshunoslik fakulteta maxsus fanlardan ta’lim oldi. 1977–1988-yillarda Moskva, Boku, Kursk, Dnepropetrovsk shaharlарining ilmiy markazlarida malakasini oshirdi.

1976–1995-yillar mobaynida muallif Tuproqshunoslik va agrokimyo instituti Tuproq eroziyasi laboratoriyasi katta laborantligidan shu institutning o‘zi tashkil etgan Tuproq eroziyasi va texnogen buzilishi bo‘limi mudirigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi.

A. Nigmatov aspiranturani (1980–1984-yy.) M.V. Lomonosov nomidagi MDU professori M.N. Zaslavskiy va O‘zR FA TAI laboratoriya mudiri H.M. Mahsudov rahbarlilgida olib bordi hamda 1985-yili «Toshkent viloyatining jarlangan yerlari va ularni melioratsiya qilish» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Doktoranturani (1990–1993-yy.) esa u M.V. Lomonosov nomidagi MDU Geografiya fakulteti professori G.A. Larionov rahbarligida o‘tab, 1993-yili «O‘zbekiston yerlарining jarlanishi va texnogen buzilishi, ularni melioratsiya va rekultivatsiya qilishning geografik jihatlari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Uning pedagogik faoliyati O‘zR IIV Akademiyasi «Fuqarolik huquqiy bilimlar» kafedrasi professori (1995–1999-yy.), O‘zR Adliya vazirligi TDYI «Ekologiya va q/x huquqi» kafedrasi professori (1999–2005-yy.), Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Geografiya fakulteti Tabiiy geografiya kafedrasi mudiri (2004–2006-yy.), O‘zMU AL va KHK bilan ish-

lash bo'yicha prorektor (2005–2011-yy.), O'zMS Ekologiya kafedrasи mudiri (2011–2012-yy.) olib borildi. O'rindoshlik asosida A. Nigmatov O'zR VM Islom universiteti «Islom huquqi» kafedrasи professori (2001–2005-yy.), O'zR Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi «Bioekosan» ta'lim muassasi ilmiy konsultanti (2001–2005-yy.), O'zR Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi TDAU «Huquqshunoslik» kafedrasи mudiri (2002–2004-yy.), O'zR Adliya vazirligi Sudyalarni malakasini oshirish markazi professori (2000–2004-yy.), O'zMU Tabiiy geografiya va geografiya ta'limi metodikasi kafedrasи professori (2004–2009-yy.), TDPU Geografiya ta'limi metodikasi (2005–2007-yy.), O'zMU Oliy pedagogika instituti (2006–2011-yy.), O'zR O'MKHTRXMOQT instituti «Psixologiya va ma'nnaviyat» kafedrasи professori (2013-yildan) lovozimlarida o'z pedagogik faoliyatini davom ettirdi.

340 dan ziyod ilmiy ishlар, jumladan, 6 ta monografiya, 17 ta darslik, 24 ta o'quv qo'llanma, 14 ta o'quv-metodik, metodik qo'llanma, 21 ta kitob va risola, 1 tadan ixtirochilik patenti va lug'at, 168 ta maqola, 5 ta mavzuli kartalar, 30 tadan ziyod davlat standartlari, namunaviy o'quv dastur va o'quv rejalarini o'zi va hamkasblari bilan chop etgan. Ekologiyaga va atrof-muhit muhofazasiga oid ilmiy ishlari 67 foizni tashkil etadi. Uning o'zi va rahbarligida yaratilgan 5 ta darslik va o'quv qo'llanma turli yillarda O'zR Prezidenti «Iste'dod» jamg'armasining «Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi» respublika tanlovi g'oliblari qatoridan o'rin olgan.

A. Nigmatov ilk bor respublikada jarlarning turli geografik sharoitlarda paydo bo'lishi va rivojlanish qonuniyatlar, yerlarning texnogen bузилишining regional xususiyatlarini ochib berdi. Jarlangan va texnogen bузилган yerlarni melioratsiya va rekultivatsiya qilishning ilmiy asoslarini ishlab chiqdi. Respublikada birinchilar qatori «Ekologiya huquqi», «Yer huquqi» kabi fanlarga oid o'quv qo'llanma va darsliklar yaratdi. Shogirdlari bilan respublikaga «Ekoturizm», «Agroturizm», «Ekoterrorizm», «Ekologik javogarliklarga differensial geografik yondashuv» kabi ilmiy yo'naliishlarni olib kirdi. O'rta Osiyoda ilk bor «Ekologiya nazariyasi»ni rivojlantirish zarurligi va u asosida milliy ekologik ta'limni isloh qilish g'oyasini ilgari surdi. «Fanlarning taalluqlilik tizimi»ni yaratdi va uni global miqyosda ommalashtirish talabini qo'ydi.

A. Nigmatov O'zbekiston ekologik harakati Markaziy ijroiya hamda Ilmiy kengashlarining a'zosi.

MUNDARIJA

MUQADDIMA	3
I bob. TABIAT-JAMIYAT MUNOSABATLARI VA ULARNI UYG'UNLASHTIRISH ZARURATI	4
1.1. Tabiat, inson, jamiyat, davlat va hamjamiyat munosabatlari	4
1.2. Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan munosabat tarixi, hozirgi holati va kelajagi	8
1.3. Ekologiya fanining yuzaga kelish sabablari va rivojlanishi	13
1.4. Ekologiya fanining boshqa fanlar o'rtasida tutgan o'rni	18
1.5. Ekologik xavfsizlik va uni ta'minlash zarurati	21
1.6. Tabiat va kishilik jamiyati qonunlarini uyg'unlashtirishning ekologik jihatlari	24
1.7. O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati	29
II bob. EKOTIZIM TUSHUNCHASI, TASNIFLANISHI VA BARQARORLIGI	34
2.1. Ekotizim – ekologiya fanining obyekti	34
2.2. Ekotizimlarning tasniflanishi	42
2.3. Ekosfera tushunchasi, tuzilishi va chegaralari	47
2.4. Ekosferaning ekologik funksiyalari	50
III bob. EKOTIZIMLARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	56
3.1. Ekologik omillar	56
3.2. Ekotizimlarga ta'sir etuvchi omillar tasnifi	59
4.1. Ekologik muammolar	64
4.2. Ekologik muammolarning tasniflanishi	65
V bob. EKOLOGIYA METODOLOGIYASI VA METODLARI	71
5.1. Ekologiya metodologiyasi va uning milliy xususiyatlari	71
5.2. Ekologik tadqiqot metodlari	77

VI bob. EKOLOGIK BOSHQARUV	81
6.1. Ekologik boshqaruv va uni xalqaro miqyosda amalga oshirilishi	81
6.2. O'zbekistonda ekologik boshqaruv	99
6.3. Ekologik boshqaruvda ekologik kadastr, nazorat va ekspertizaning ahamiyati	125
VII bob. ATROF-MUHIT, EKOLOGIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH	136
7.1. Barqaror rivojlanish konsepsiysi — jamiyat va tabiatning uyg'unlikda rivojlanish g'oyasi	136
7.2. Barqaror rivojlanishmi yoki taraqqiyotmi	147
7.3. Barqaror rivojlanishning ekologik jihatlari	150
7.4. Barqaror rivojlanishning geoekologik jihatlari	164
VIII bob. AMALIY EKOLOGIYANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	172
8.1. Amaliy ekologiyaning ilmiy asoslari	172
8.2. Ekotizimlarni muhofaza qilish va qayta tiklash hamda ulardan oqilona foydalanish	177
IX bob. EKOLOGIK FAN VA TA'LIM	203
9.1. Ekologiya fanining falsafiy asoslari va uni respublikamizda rivojlanishi	203
9.2. Ekologik ta'lif	208
9.3. Milliy uzluksiz ta'lifda ekologiyani o'qitish muammolari	215
9.4. Ekologik ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash	227
9.5. Ekologik ta'lifdan barqaror rivojlanish ta'limi sari	240
EKOLOGIK ATAMALAR LUG'ATI	
TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR	260

S

ASQAR NIGMATULLAYEVICH NIGMATOV

EKOLOGIYANING NAZARIY ASOSLARI

o'quv qo'llanma

Muharrir *M. Tursunova*

Musahhih *M. Turdiyeva*

Dizayner sahifalovchi *D. Ermatova*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: 236-55-79; Faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.

Bosishga ruxsat etildi 10.10.2013. «Uz-Times» garniturasi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi $60 \times 84^1/_{16}$. Bosma tabog'i 16,75. Nashr hisob tabog'i 17,0. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 37.

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.

O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI
MILLIY JAMIYATI

ISBN 978-9943-391-73-4



9 789943 391734

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-391-73-4.